

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**XIDIRALIYEV K.E.**

**AHOLI GEOGRAFIYASI VA DEMOGRAFIYA ASOSLARI**

**Guliston-2021**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

**XIDIRALIYEV K.E.**

**AHOLI GEOGRAFIYASI VA DEMOGRAFIYA ASOSLARI**  
**5110500-“Geografiya o'qitish metodikasi” va 5110500-“Geografiya va iqtisodiy  
bilim asoslari” ta'lif yo'nalishlari talabalari uchun o'quv qo'llanma**

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2013 yil 20-  
dekabrdagi №484-sonli buyrug'iga asosan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya  
etilgan**

**IKKINCHI TO'LDIRILGAN NASHR**

**Guliston-2021**

**KBK:60.7**

**X-42**

**Xidiraliyev K.E. Aholi geografiyasi va demografiya asosl.- Guliston.: -2021,  
-147 bet.**

### **Annotatsiya**

Ushbu o'quv qo'llanmada iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy tushunchalaridan biri bo'lgan aholi va u bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar qamrab olingan. Bunda, aholi geografiyasi va demografiya asoslari fani predmeti, vazifalari, aholining demografik ijtimoiy harakatlari, aholining etnik va ijtimoiy tarkibi, mehnat resurslari va ulardan foydalanish, aholining joylashuvi va uning geografik shakllari, aholi rivojlanishining qonuniyatlari atroflicha o'rganilgan va tahlil qilingan.

### **Аннотация**

На этом учебном пособии всесторонне изучен предмет, основательно исследованы и проанализированы географии населения, основы демографии, демографическое социальное движение населения, этническая и социальная структура населения, трудовые ресурсы и их использование, размещения населения и его географические формы, а также закономерности развития населения.

### **Abstract**

This manual included principal economical and social notions, geography population and connected with this process. And its deeply investigated and analyzed subject. Geographical tasks of people and basic demography, demographical social movement of population, ethnic and social structure of population manpower and their usage population distribution its geographical form development of natural laws of population.

**Taqrizchilar:** M.R.Usmonov g.f.n., dotsent.

Q.S. Yarashev g.f.n., dotsent.

L. K. Karshibayeva g.f.n., dotsent.

## KIRISH

**Aholi geografiyasi**—aholining tarkibi, dinamikasi va joylashuvidanagi hududiy farqlarni, bu farqlarni vujudga keltiradigan qonuniyatlarini, aholining er shari bo'yicha, ayrim mamlakatlar va tumanlar miqyosidagi harakatini, aholi manzilgohlarining hududiy tizimlarini va ularning rivojlanishi qonuniyatlarini o'rganadi. Aholi geografiyasi, shuningdek, aholining soni, aholidagi o'zgarishlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy ma'lumotlarning aloqalarini o'ziga xos yo'llar bilan o'rganadi.

**Demografiya**—grekcha—demos—“*xalq*” va grafiya—“*tasvirlash*” so'zlaridan iborat bo'lib, aholi haqidagi fandir. U aholining soni, hududiy joylashuvi va tarkibini, ularning o'zgarishi va bu o'zgarishning sabablarini, aholidagi o'zgarishlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy ma'lumotlarning aloqalarini o'ziga xos yo'llar bilan o'rganadi. Shuningdek, demografiya aholi takror barpo qilinishining qonuniyatlarini ochib beradi. Ko'rniib turibdiki, aholi geografiyasi bilan demografiya fanlari o'rganadigan masalalar bir biriga juda yaqin.

Shuning uchun aholi geografiyasi demografiya o'rganadigan va aholiga ta'luqli bo'lgan demografik statistika tomonidan to'planadigan ma'lumotlardan keng foydalanadi. Demografiya ham o'z navbatida o'rganilayotgan demografik **jarayon va ko'rsatkichlardagi** geografik farqlar va bu farqlarning sabablariga qiziqadi. Shunday qilib, aholi geografiyasi bilan demografiya o'rtasida bирgalikda hal qilinishi kerak bo'lgan bir qator muammolar vujudga keladiki (aholi rivojlanishining qonuniyatlarini, konsepsiyalari, ularni bashoratlash, aholi siyosatlari), bularni faqatgina **aholi geografiyasi va demografiya asoslari fani** hal qiladi.

Aholini ob'ektiv ijtimoiy qonun va qonuniyatlar asosida rivojlanib borishida, har bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalar davrida aholi rivojlanishini boshqaradigan o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy qonun va qonuniyatlarning harakat qilishi kuzatiladi. Jamiyatning rivojlanish bosqichlarida, ularning har biriga xos ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlari amal qiladi. O'z navbatida ularning turli davrlarda va mamlakatlarda aholining tabiiy va migratsion harakatini nazarat qilish, tartibga solishni ko'zda tutadigan «demografik siyosat» yurgizishni taqozo etadi.

Turli davrlarda maydonga kelgan demografik konsepsiylar, aholini alohida ijtimoiy siyosiy manfaatlari yo'lida yaratilganligi bilan xarakterlanadi. Merkantilizm, maltuschilik, hozirgi zamon maltuschilar (neomaltuschilik) kabi demografik konsepsiya va nazariyalar shular jumlasidandir. Hozirgi davr jahon demografik muhiti va muammolari ham uzlusiz ravishda demografik siyosatda aks etishi lozim.

Hozirgi zamon jahon demografik siyosati va konsepsiya-nazariyalarini ishlab chiqayotgan dunyoviy demografik institutlar (BMT, uning aholishunoslikka oid bo'linmalari, jahon demografik kongressi va boshqalar) dolzarb ilmiy tadqiqotlar olib borishmoqda. Demografik ilmiy bashoratlashning (prognozlash) dunyoviy va hududiy harakati amal qilmoqda. Aholi o'sishiga xos ilmiy bashoratlashning demografik asoslari, usullari, ularning aniqlik darajasi va amaliy ahamiyati ortib bormoqda. Aholi o'sishi va rivojlanishi bilan bog'liq bo'lgan tabiatni muhofaza etish va ekologiya muammolar, ularning sabab va oqibatlari atroflicha o'rganilmoqda.

O'zbekistonda aholining o'sishi, farovonligini ta'minlash va salomatligini muhofaza etish yo'lida olib borilayotgan chora-tadbirlarning: «Oila yili», «Ayollar yili», «Onalar va bolalar», «Mustahkam oila», «Farovon turmush yili», «Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili», «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili» o'tkazilishi va «**Jamiyat– islohotlar tashabbuskori**» degan yangi g'oya asosida «Har bir oila-tadbirkor», «Obod qishloq», “Obod mahalla» dasturlarining tashkil etilishi va boshqa tadbirlar bugungi kunda respublikamizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning asosini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining-“**Ijtimoiy sohani rivojlantirish**” deb nomlangan to'rtinchı yo'nalishi bevosita va bilvosita aholi va uning o'ziga xos muammolariga qaratilgan. Bunda-aholi bandligini oshirish, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ularning salomatligini saqlash, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va modernizatsiyalash, aholini elektr energiya, gaz bilan ta'minlashni yaxshilash, aholining muhtoj qatlamlariga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam sifatini oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi maqomini oshirish, sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish, maktabgacha ta'lim muassasalarining qulayligini ta'minlash, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim sifatini yaxshilash hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni nazarda tutadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2019 yil yakunlari va 2020 yildagi ustuvor vazifalar bo'yicha Oliy Majlisga murojaatnomasida ta'kidlanganidek, “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida 479 ta qishloq va ovulda, shaharlardagi 116 ta mahallada keng ko'lamlı qurilish va obodonlashtirish ishlari bajarildi. Bunga 6,1 trillion so'm yoki 2018 yilga nisbatan 1,5 trillion so'm ko'p mablag' sarflandi.

Qishloq joylarda – 17 ming 100 ta, shaharlarda – 17 ming 600 ta, jami 34 ming 700 ta yoki 2016 yilga nisbatan salkam 3 barobar ko'p arzon va shinam uylar qurildi. Kam ta'minlangan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj 5 mingta oilaga, jumladan, nogironligi bo'lgan ayollarga ipoteka krediti asosida arzon uy-joy sotib olish uchun 116 milliard so'mdan ziyod boshlang'ich badal to'lab berildi.

“Amalga oshirayotgan islohotlarimiz jahon hamjamiyati tomonidan munosib baholanmoqda. Xususan, dunyodagi nufuzli nashrlardan biri – “Ekonomist” jurnali O'zbekistonni 2019 yilda islohotlarni eng jadal amalga oshirgan davlat-“**Yil mamlakati**” deb e'tirof etdi. Bunday baho barchamizga cheksiz g'urur, iftixor va kuch bag'ishlaydi, yangi marralarga ruhlantiradi, desam, o'ylaymanki, sizlar ham bu fikrni qo'llab-quvvatlaysizlar deydi”- preziden **Sh.M.Mirziyoyev**.

Buning asosida doimiy ko'payib borayotgan Respublikamiz aholisi soni va ularning manfaatlari yotadi. 2020 yil 1 oktyabr holatiga ko'ra, O'zbekistonning doimiy aholisi yil boshidan buyon 477,5 mingga, ya'ni 1,4 foizga ko'payib, 34,38 million kishiga etdi.

Jumladan, tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, jamiyat taraqqiyotining asosiy qonunlari ana shunday muhim nazariy masalalardan hisoblanadi.

Ma'lumki, demografik jarayonlar tarixi insoniyat tarixi kabi qadimiy bo'lib, XIX-XX asrlar davomida ancha faol tus oldi. "XIX asrda 50 mln. evropalik boshqa qit'alarga ko'chishdi. Ko'chishlarining asosiy sababi, yashayotgan joylarida erlarning etishmovchiligi va ko'chib borgan joylarida esa erlarning arzon baholarga sotilishidir. Ko'chib borgan muhohirlarning ko'pchiligi qishloq joylarida o'rnashdilar. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida esa migratsiya oqimi yirik sanoatlashgan shaharlarga qaratildi"<sup>1</sup>.

Migratsiya jarayonlarini o'rganish esa uzoq o'ttiz yillik tanaffusdan so'ng, 1950 yillarda boshlangan bo'lib, bu davrda Evropadagi Polsha, Germaniya, Chexiya, Slovakiya mamlakatlari va Rossiyaning asosan sharqiy qismi aholisi migratsiyasi chuqurroq tadqiq etilgan.

Bugungi globallashuv jarayoni faol kechayotgan sharoitda demografik jarayonlar xususiyatlari o'tgan asrga nisbatan tubdan farq qiladi. Ya'ni ishlab chiqarish tezligi va aholi daromadlari yuqori, kommunikatsiyalar rivojlangan, qulay shart-sharoitlarga ega bo'lgan hududlarga mehnat resurslarining intilishi bilan xarakterlanadi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida rejalashtirilgan iqtisodiyotdan farqli o'laroq, demografik jarayonlarga yangicha yondashishni taqozo etmoqda.

Mazkur o'quv qo'llanmada demografik jarayonlarning yuqorida bayon etilganidek, geografik omillar bilan bog'liq xususiyatlariga e'tibor qaratilganligi muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasi ham barcha Sobiq "Ittifoq" dagi respublikalar singari migratsiya tarixiga ega. Respublikada demografik jarayonlarning nazariy va amaliy masalalariga doir qator tadqiqotlar olib borilgan. Ayniqsa, davlat mustaqilligi yillarda ushbu muammolarni tadqiq etishga olimlardan O.B.Otamirzayev, M. Bo'riyeva, A.S.Soliyev, A.A.Qayumov, Z.X.Rayimjonov va boshqalar munosib hissa qo'shdilar.

Rus olimlaridan M.G.Trudova, V.I.Yushkovlar qishloq aholisi migratsiyasiga oid ilmiy ishlarni amalga oshirdilar. Shaharlar aholisi migratsiyasini V.I.Staroverov (Rossiya), A.Maryanskiy (Polsha), T.A.Ashimbayev (Qozog'iston) kabi olimlar o'rganishgan. Mintqa va alohida hududlar migratsiyasini J.A.Zayonchkovskaya, V.I.Perevedensev, L.L.Ribakovskiy kabi olimlar chuqur o'rganishgan.

Mazkur o'quv qo'llanmada ba'zi juziy kamchiliklar, munozarali qarashlar va atamalar uchrashi mumkin. Shunga ko'ra qo'llanma haqidagi fikr-mulohazalarini bildirgan hamkasblarga muallif oldindan o'z minnatdorchiligi va uzirini bildiradi.

**Manzilimiz: 707012. Guliston shahri, 4 mavze, Universitet,  
«Ekologiya va geografiya» kafedrasи.**

---

<sup>1</sup> Rayimjonov Z.X. Xalqaro migrasiya kecha va bugun // "Janubiy O'zbekistonda geografiya maktabining shakllanishi" Respublika ilmiy-amaliy konf. materiallari. Termiz, 2006, 95-96 b.

# **1 BOB. AHOLI GEOGRAFIYASI VA DEMOGRAFIYA ASOSLARINING PREDMETI VA VAZIFALARI**

## **1.1. Aholi geografiyasi iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning muhim tarmog'i ekanligi**

**Aholi deganda** ma'lum hududda (butun er shari, uning ayrim qismlari-qit'alar, mamlakatlar, shaharlar, rayonlar va hokazolarda) yashayotgan kishilar guruhi tushuniladi. Aholi va uning xo'jalik faoliyati hamma davrlarda geografiya fanining qiziqtirib kelgan. Geografiya fanlari tizimida iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning qaror topishi bilan bu masalaga qiziqish ayniqsa kuchaydi. Bu bejiz emas edi. Chunki iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning vazifasi **ishlab chiqaruvchi kuchlarning** hududiy joylashish qonuniyatlarini o'rganishdir.

Aholi esa, har qanday jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchidir. Jamiyat hayoti uchun zarur bo'lgan barcha boyliklar insonning mehnati natijasida yaratiladi. Ishlab chiqarish jarayonida qatnashayotgan mehnat qurollari, xom ashyo, yoqilg'i va boshqa qo'shimcha materiallar faqat inson qo'li, mehnati tufayligina harakatga keltiriladi va ular ishlab chiqaruvchi kuchlar sifatida namoyon bo'ladi. Inson mehnati ishlab chiqarish jarayonining eng ilg'or qismidir, qolgan barcha ishlab chiqaruvchi kuchlar ishlab chiqarish jarayonining passiv qatnashchilaridir. Shunday qilib, aholi, birinchi navbatda, ishlab chiqarishning asosiy sub'ektidir. U barcha moddiy boyliklarni yaratuvchi asosiy kuchdir. Ayni paytda aholi ishlab chiqarilgan barcha moddiy boyliklarning asosiy iste'molchisi hamdir.

**Iste'mol** butun ijtimoiy ishlab chiqarishni tugallaydigan, unga yakun yasaydigan qismidir. Bundan tashqari **1-chizmadagi** "Tovarlar, xizmatlar va resurslarning takror ishlab chiqarish fazalaridagi harakati" ga e'tibor bering.


Taraqqiyot jarayonida aholining shaxsiy iste'moli bilan birga (keng ma'noda-moddiy ne'matlarni iste'mol qilishdan tashqari, kishilarning madaniy talablarini qondirish, ularni uy-joy bilan ta'minlash, xizmat doirasi sohalari va boshqalar ham iste'molga kiradi), aholi o'zini takror barpo qiladi-kishilarning avlodlari tarbiyalanadi va voyaga etkaziladi.

Shuning uchun ham aholini geografik jihatdan o'rganishida quyidagilarga e'tibor berish **zarur**: 1. Aholi – ishlab chiqarish sub'ekti, barcha moddiy ne'matlarni ishlab chiqaruvchi. 2. Ishlab chiqarilgan jami ijtimoiy mahsulotlardan ma'lum qismining is'temolchisi. 3. Aholi butun ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'zi ham takror barpo qilinishi zarur.

Aholiga xos bo'lgan ana shunday xususiyatlarni o'rganmay turib, har qanday iqtisodiy-geografik muammoni chuqur tahlil qilish va hal qilish qiyin. Xuddi shunga ko'ra olimlar aholi geografiyasi va demografiyasini iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning bir tarmog'i deb hisoblaydilar. Aholining hududiy joylashuvi xalq xo'jaligining (iqtisodiyotning) joylashuvi hamda tuzilishi (strukturasi) bilan bog'liq va aksincha, aholining joylashuvi, o'z navbatida xo'jalikni rivojlantirish hamda joylashtirishga bevosita ta'sir etadi. Turli mamlakatlar va rayonlar xo'jaligining ixtisoslashuvi va rivojlanish darajasiga qarab shu hududlarda aholining faoliyati, professional (kasbiy) tarkibi turlicha bo'lishi mumkin.

Aholi geografiyasi va demografiyasi iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning bir tarmog'i bo'lishi bilan birga boshqa tarmoqlar (sanoat geografiyasi, qishloq xo'jalik geografiyasi, transport geografiyasi) orasida alohida o'rin tutadi. Chunki aholi asosiy ishlab chiqaruvchi kuch va ishlab chiqarilgan mahsulotlarning iste'molchisi sifatida barcha ishlab chiqarish sohalarida faol qatnashadi, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya o'rganadigan barcha hodisa va jarayonlarda o'zi bevosita ishtirok etadi.

Binobarin, iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning barcha boshqa tarmoqlarida aholi geografiyasi va demografiyasi ko'rsatkichlariga (mehnat resurslari, mehnat malakalari, aholi manzilgohlari, migratsiya jarayoni, aholi joylashuvi, takror barpo qilinish, oila muammolari va boshqalar) muhim o'rinn beriladi. Aks holda, tegishli xo'jalik tarmog'i geografiyasining barcha xususiyatlari to'la ochilmay qolishi mumkin. Chunki hozirgi zamon konstruktiv (amaliy) geografiya fanining muhim vazifalaridan biri – tabiiy sharoit, xo'jalik, aholining o'zaro aloqalari va bir-biriga ta'sirini hududiy analiz qilishdan hamda turli mamlakatlar va rayonlarda ana shu aloqalar jarayonida vujudga keladigan hududiy dinamik tizimlarni (sistemalarni) o'rganishdan iborat. Aholi er sharining turli qismlarida vujudga keladigan ana shunday hududiy dinamik tizimlarining eng ilg'or tarkibiy qismidir.



### **1-chizma. Tovarlar, xizmatlar va resursslarning takror ishlab chiqarish fazalaridagi harakati**

- ▶ **Ishlab chiqarish** – insoniyat jamiyatining hayot kechirishi va rivojlanishi uchun zarur moddiy ne'matlarni yaratish jarayoni.
- ▶ **Taqsimot** – ishlab chiqarilgan mahsulotdagi har bir xo'jalik yurituvchi sub'ektning ishtiroki, ulushi (miqdori, proportsiyasi) ni aniqlash jarayoni.
- ▶ **Ayirboshlash** – moddiy ne'mat va xizmatlarning bir sub'ektdan boshqasiga tomon harakati jarayoni. **Tovarni sotish** – uning pulga ayirboshlanishi, **xarid qilish** esa – pullarni tovarga ayirboshlanishi. **Ayirboshlashning** zarur sharti – ixtisoslashish, mehnat taqsimoti, bu esa jamiyat a'zolari o'rtasida mehnat mahsulini ayirboshlashga olib keladi.
- ▶ **Iste'mol** – insonning ehtiyojlarini qondirish uchun ne'matlardan foydalanishi.

**Aholi geografiyasi** – aholining tarkibi, dinamikasi va joylashuvidanagi hududiy farqlarni, bu farqlarni vujudga keltiradigan qonuniyatlarini, aholi manzilgohlarining hududiy tizimlarini va ularning rivojlanishi qonuniyatlarini o’rganadi. Aholi geografiyasi, shuningdek, aholining er shari bo’yicha va ayrim mamlakatlar va rayonlar miqyosidagi harakatini ham o’rganadi.

**Demografiya** – grekcha – *demos* – “*xalq*” va grafiya – “*tasvirlash*” so’zlaridan iborat bo’lib, aholi haqidagi fandir. U aholining soni, hududiy joylashuvi va tarkibini, ularning o’zgarishi va bu o’zgarishning sabablarini, aholidagi o’zgarishlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy ma’lumotlarning aloqalarini o’ziga xos usullar bilan o’rganadi. Shuningdek, demografiya aholi takror barpo qilinishining qonuniyatlarini ochib beradi. Ko’rinib turibdiki, aholi geografiyasi bilan demografiya o’rganadigan masalalar bir biriga juda yaqin. Jamiyat taraqqiyoti haqidagi dialektik qonuniyat aholi geografiyasi va demografiyasining umumiylazariy negizini tashkil etadi. Tabiat bilan jamiyat o’rtasidagi o’zaro munosabatlar, jamiyat taraqqiyotining asosiy qonunlari, turli ijtimoiy voqeliklarning o’zaro bog’liqligi kabilar ana shunday muhim nazariy masalalardir.

Jamiyatning iqtisodiy qonunlarigina turli mamlakatlar xalq xo’jaligining har xil tarixiy davrlarda rivojlanish va hududiy joylashish xususiyatlarini to’g’ri va to’la tushuntirib bera oladi. Iqtisodiy qonun – iqtisodiy hayotning turli tomonlari, iqtisodiy hodisa va jarayonlar o’rtasidagi doimiy, takrorlanib turadigan, barqaror sabab-oqibat aloqalarini, ularning o’zaro bog’liqligini ifodalaydi. Bu esa, o’z navbatida, aholining yuqorida sanab o’tilgan asosiy xususiyatlarini tushunib olishga imkon beradi. Aholi geografiyasi va demografiyasining ana shunday asosiy qonuniyatları va tushunchalarining ayrimlariga to’xtalib o’tamiz.

**Aholining hududiy joylashish shakllari** aholi geografiyasining muhim tushunchalaridan biridir. Aholining hududiy joylanish shakllari deganda aholining turli aholi manzilgohlarida joylanishigina emas, balki uning butun hudud bo’yicha tarqalishi, hududni o’zlashtirish jarayoni ham tushiniladi. Mana shu muhim jarayon ijtimoiy takror ishlab chiqarishning hududiy shakllari bilan belgilanadi. Bu esa aholi geografiyasining muhim qonuniyatidir. Bunda aholining hududiy joylanish shakllarigina emas, balki aholining tuzilishi ham (sinfiy, kasbiy tarkibi, xalq xo’jaligi tarmoqlarida taqsimlanishi, ba’zi hollarda aholining yosh tarkibi va boshqalar) ko’p jihatdan ishlab chiqarish xarakteriga (jumladan, ishlab chiqarish munosabatlariga) bog’liqdir.

Mana shu muhim holatdan aholi geografiyasi o’rganayotgan voqealarga **tarixiy jihatdan yondashish** zarurligi kelib chiqadi. Masalan, aholi manzilgohlarining moddiy shakllari, planirovkasi ya’ni joylanish ko’rinishi va boshqa ayrim xususiyatlari ishlab chiqarish munosabatlariga hamda ishlab chiqaruvchi kuchlarning taraqqiyot darajasiga ma’lum davrlarda mos kelmay qolishi mumkin. Chunki, ishlab chiqarish munosabatlarining o’zgarishi bilan aholi manzilgohlarining ko’p xususiyatlari (masalan, moddiy shakllari) birdaniga o’zgarib ketmaydi, ular ma’lum darajada konservativ xarakterga ega bo’lib, ancha muddat davomida eskicha saqlanib turishi mumkin. Shuning uchun ham juda ko’p hollarda aholining mavjud geografiyasini o’rganayotganda, aholi manzilgohlarining ko’pgina xususiyatlarini

analiz qilayotganda o'tgan davrlarga xos bo'lgan ishlab chiqarish geografiyasiga murojat qilishga to'g'ri keladi.

Masalan, Toshkent eski shahar qismining planirovkasi, qurilishining moddiy shakllari eski davrlardagi ishlab chiqarish xususiyatlariiga, shaharlarning qadimgi vazifalarigagina mos bo'lib, bugungi kishisining yuksak madaniy va turmush talablariga anchadan beri javob bermay qolganligi ma'lum. Lekin shunga qaramay, eski shahar tegishli qayta qurilishlar kiritish (suv tarmog'i, kanalizatsiya, ko'chalarni kengaytirish) yo'li bilan hozirgacha saqlanib kelmoqda. Keyingi yillarda, ayniqsa mustaqillik yillarida butunlay qayta qurila boshladi.

Aholining hududiy taqsimplanishi va joylashuviga **tabiiy sharoit** ham ta'sir ko'rsatadi. Ammo tabiiy sharoit bilvosita ya'ni ishlab chiqarish orqali ta'sir etadi. Chunki bir xil tabiiy sharoitdan xo'jalik maqsadlarida foydalanishi, binobarin tabiiy sharoitning aholi hududiy joylanishiga ta'siri turli xil ijtimoiy tuzim sharoitida, texnika taraqqiyotining turli darajasida turlichcha bo'ladi.

Aholi geografiyasining yana bir tushunchachi—**aholini funksional (bajaradigan vazifalariga ko'ra)** guruhlarga bo'lish ham ishlab chiqarish negizida amalga oshiriladi. Moddiy ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlari sanoat, qishloq xo'jaligi va transportda ishlovchi aholi bиринчи funksional guruhi tashkil qiladi. Aholining ikkinchi funksional guruhi xizmat doirasida ishlovchilardir. Xizmat doirasiga savdo, maorif va sog'liqni saqlash kabilar kiradi.

Ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etmaydiganlar – bolalar, nafaqaxo'rilar, uy bekalari uchinchi guruhi tashkil etadi.

Aholi geografiyasining yana bir qonuniyati shundan iboratki, **hududning ishlab chiqarish majmuasi** qanchilik to'la va tugallangan bo'lsa mehnat resurslaridan shunchalik to'la foydalaniladi, aksincha, ishlab chiqarish bir tomonlama rivojlangan bo'lsa, mehnat resurslaridan foydalanishda katta kamchiliklar sodir bo'lishi mumkin.

Aholining **migratsion aloqalari** sohasida ham bir qancha qonuniyatlar aniqlangan. Chunonchi aholi ko'chib ketgan tuman bilan ko'chib borib joylashgan tumanning ishlab chiqarish ixtisosi va tabiiy sharoti o'xshash yoki yaqin bo'lsa, migratsiya muvofaqiyatli chiqadi, agarda bir-biridan keskin farq qilsa, migratsiya yaxshi natija bermaydi. Shuningdek, hamma joyda qishloqlardan shaharlarga bo'lgan migratsion harakat yaxshi natija beradi. Biz aholi geografiyasining faqat ayrim asosiy qonuniyatları va tushunchalarigagina qisqacha to'xtalib o'tdik.

### **Aholi geografiysi bir qancha yo'nalishlarga bo'linadi:**

- Aholining tarkibi va uning takror barpo qilinishidagi geografik farqlar va bu faqlarning sababini o'rganish;
- Mehnat resurslarini va ulardan foydalanishdagi geografik farqlarni o'rganish;
- Aholining hududiy taqsimplanishi va uning harakatini o'rganish;
- Aholi manzilgohlari va ularning hududiy tizimlarini o'rganish. Aholi geografiyasining bu yo'nalishda shaharlarni va qishloq aholi manzilgohlarini alohida o'rganuvchi shaharlar geografiyasi va qishloq aholi manzilgohlari geografiyasi vujudga kelgan;
- Aholining madaniyati va turmush tarzidagi geografik farqlarni va ularning sabablarini o'rganish;

-Tarixiy aholi geografiyasi. Bu yo'nalish o'tgan tarixiy davrlar aholi geografiyasini o'rganadi va tarixiy geografiyaning bir qismi hisoblanadi;

-Aholining xaritaga tushirish.

Ijtimoiy iqtisodiy tuzum jamiyat hayotining barcha sohalariga, shu jumladan aholining ijtimoiy tarkibiga va hayot sharoitiga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Maktablarda o'lkashunoslik ishlarini yanada yaxshi yo'lga qo'yishda aholi geografiyasi, ayniqsa, yaxshi xizmat qila oladi. O'quvchilar yashayotgan qishloq yoki tumanni, qo'shni qishloqlarni yoki tumanlarni ularning vujudga kelishi va rivojlanishi, aholining tashkil topishi, uning milliy tarkibi va mehnat malakalari hamda boshqa tomonlarini o'quvchilar geografiya o'qituvchisi rahbarligida o'rganishlari mumkin.

**"Aholi geografiyasi"** oldida bir qancha muhim **vazifalar** turadi:

Birinchidan, mamlakatimiz aholisi va xorijiy mamlakatlar aholisi haqida, ularning soni va o'sishi, hududiy joylashuvi, xalqlar geografiyasi, xalqlar migratsiyasi, turli mamlakatlarda sharoitga qarab shaharlarning rivojlanish muammolari va boshqa ma'lumotlar bilan keng kitobxonlar ommasini va shuningdek bevosita amaliy maqsadlar uchun qiziquvchi tashkilotlarni ta'minlaydi. Xalqimizning madaniy talablarini va tegishli rejalashtiruvchi organlar ehtiyojini mamlakatimiz yoki xorijiy davlatlar aholisi geografiyasi bo'yicha maxsus kitoblar yozish, darslik va o'quv qo'llanmalari, ilmiy ommabop kitoblar va risolalar yozish, ayrim mamlakatlar va tumanlarga bag'ishlangan geografik asarlarning aholiga bag'ishlangan maxsus boblarini yozish yo'li bilan qondirish mumkin.

Ikkinchi muhim vazifa aholi geografiyasining nazariy masalalari ustida ishslashni davom ettirish. Uchinchi vazifa – aholi geografisi bevosita amaliy vazifalarni hal qilishga qaratilgan tadqiqot ishlarini kuchaytirish. Mamlakatimiz butun hududi bo'yicha ayniqsa qishloq aholi manzilgohlarida muktab, savdo korxonalari, madaniyat muassasalarini oqilona joylashtirish, shaharlar va ularning hududiy guruhlarini rejali rivojlantirish, mehnat resurslaridan mumkin qadar to'la va oqilona foydalanish masalalarini hal qilish ishiga va bu bilan shahar bilan qishloq o'rtaсидagi tafovutlarni sekin-asta tugatib borish kabi muammolarni hal qilishda aholi geografiyasi o'z munosib hissasini qo'shib kelmoqda.

## **1.2. Aholi geografiyasining boshqa fanlar bilan aloqasi**

Aholi geografiyasining boshqa fanlar bilan aloqasi juda keng va har tomonlamadir. Chunki aholiga ta'luqli bo'lgan masalalarga katta e'tibor beradigan fanlar va fan tarmoqlari juda ko'pdir. Aholi geografiyasining o'z tadqiqotlari jarayonida aloqa qiladigan yoki hamkorlikda ishlaydigan fanlarni shartli ravishda uch guruhga bo'lish mumkin:

1) Geografiya fanining boshqa tarmoqlar bilan aloqasi. Xo'jalik geografiyasi orqali u tabiiy geografiya bilan aloqada bo'ladi. Har qanday ishlab chiqarish – muayyan tabiiy sharoitda va har xil tabiiy resurslardan foydalangan holda vujudga keladi va rivojlanadi. Xo'jalikning (ayniqsa qishloq xo'jaligining) ixtisosi va boshqa ayrim xususiyatlari ko'p jihatdan tabiiy sharoit bilan belgilanadi. Aholi geografiyasining **tibbiyat** geografiyasi bilan aloqalari ham tez rivojlanmoqda. Tibbiyat geografiyasi ikki fan tibbiyat va geografiya fanlari chegarasida vujudga

kelib, u tabiiy muhitning hamda turli rayonlarda yashash va mehnat qilish sharoitining aholi sog'ligiga ta'sirini, shuningdek, ayrim kasalliklarning geografik tarqalishini o'rganadi. Turli rayonlarga aholining gigienik yashash sharoiti nuqtai nazaridan baho berish, ovqatlanish, kiyinish xususiyatlari bo'yicha tavsifnomalar berish ham tibbiyat geografiyasining muhim vazifalari qatoriga kiradi.

Aholi geografiyasi bilan **xizmat doirasi geografiyasining** aloqadorligi va o'zaro hamkorligi ayniqsa mustahkamdir. Xizmat doirasi geografiyasi aholining barcha ehtiyojlariga xizmat ko'rsatuvchi xizmat doirasi tarmoqlarining rivojlanishi darjasи va hududiy joylashishini geografik taqsimlash usulida o'rganadi. Xizmat doirasi geografiyasi o'rganishi kerak bo'lган barcha masalalarning hammasи faqat aholi va aholi manzilgohlari haqidagi batafsil ma'lumotlar asosidagina analiz qilinishi va hal qilinishi mumkin. Shuning uchun ham u dastavval aholi geografiyasi tarkibida vujudga kelgan bo'lib, ular o'rtasidagi aloqalar har tamonlamadir.

Aholi geografiyasi geografiya fanining yangi vujudga kelayotgan **turizm geografiyasi, iste'mol geografiyasi** kabi yo'nalishlari bilan ham mustahkam aloqador. Bu har ikkala yo'nalishda ham aholining soni, yoshi, jinsi tarkibi va boshqa ko'rsatgichlar muhim ahamiyatga ega. Aholi geografiyasi bilan **tarixiy geografiya** o'rtasidagi aloqa shundan iboratki, o'tgan tarixiy davrlar aholi geografiyasi ichidagi maxsus yo'nalish – tarixiy aholi geografiyasi shug'ullanadi va u yo'nalish shu bilan birga tarixiy geografiyaning ajralmas bir qismidir. Geografiya fanining barcha tarmoqlari va yo'nalishlari singari aholi geografiya ham kartografiya bilan chanbarchars bog'liqdir. Aholi geografiyasida aholi va aholi manzilgohlarining maxsus xaritalari tuziladi, ulardan keng foydalaniladi. Chunki, aholi va aholi manzilgohlariga xos bo'lган xilma-xil ko'rsatkichlar, ularning hududiy joylashuvi hamda regional farqlarini xaritaga tushirish yo'li bilan yaqqol ko'rsatish mumkin.

2) Aholi geografiyasi bilan chanbarchas va har tomonlama aloqador bo'lган fanlarning ikkinchi guruhi demografiya va etnografiya fanlaridir. Demografiya va etnografiya fanlarini alohida guruhga ajratamiz, buning boisi shundaki, ular ham aholi geografiyasi singari aholini o'rganadi. Ularning har qaysisi aholini o'z nuqtai nazaridan tadqiq qiladi. Ammo shunday masalalar borki, ularni bu fanlarning har uchalasi o'rganadi, biri ikkinchisining materiallaridan foydalanadi.

**Demografiya** – grekcha – demos – “*xalq*” va grafiya – “*tasvirlash*” so'zlaridan iborat bo'lib, aholi haqidagi fandir. U aholining soni, hududiy joylashuvi va tarkibini, ularning o'zgarishi va bu o'zgarishning sabablarini, aholidagi o'zgarishlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy omillarning aloqalarini o'ziga xos isullar bilan o'rganadi. Shuningdek, demografiya aholi takror barpo qilinishining qonuniyatlarini ochib beradi. Ko'rinish turibdiki, aholi geografiyasi bilan demografiya o'rganadigan masalalar bir biriga juda yaqin.

Shuning uchun aholi geografiyasi demografiya o'rganadigan va aholiga ta'luqli bo'lган demografik statistika tomonidan to'planadigan ma'lumotlardan keng foydalanadi. Demografiya ham o'z navbatida o'rganilayotgan demografik jarayon va ko'rsatkichlardagi geografik farqlar va u farqlarning sabablariga qiziqadilar. Shunday qilib, aholi geografiyasi bilan demografiya o'rtasida birgalikda hal qilinishi kerak bo'lган bir qator muammolar vujudga keladiki, bularni faqatgina ana shu ikki fan chegarasida vujudga kelgan yo'nalish – **demogeografiya** hal qiladi.

Aholi geografiyasi etnografiya bilan ham chanbarchs bog'liq. Etnografiya – xalqlarning turmushi va madaniyati, vujudga kelishi va madaniy – tarixiy aloqalarini o'rghanadi. Etnografiya xalqlarning etnik birligi urug', qabila, elat, millat, xalqlarning geografik tarqalishi bilan ham qiziqadi. Xalqlarning geografik tarqalishi (xalqlar geografiyasi) masalalarini **etnogeografiya** o'rghanadi. Etnogeografiyani ayni vaqtida etnografiyaga ham, aholi geografiyasiga ham kiritish mumkin, to'g'rirog'i, ular chegarasida vujudga kelgan yo'nalihsidir.

Shunday qilib, aholi geografiyasining demografiya va etnografiya fanlari bilan aloqasi va hamkorligi juda yaqin va kengdir. Shu narsani qayd qilish kerakki, aholi geografiyasi aholini demografiya va etnografiyaga nisbatan chuqurroq va har tomonlama o'rghanadi. Chunki, aholi geografiyasi aholini o'rghanayotganda uning xo'jalik va tabiat bilan aloqalarini chuqur tahlil qiladi, bu o'zaro aloqa va munosabatlarning o'rghanilayotgan har bir rayonda vujudga kelish xususiyatlarini aniqlaydi, aholi geografiyasi muammolarini shular bilan bog'lab tushuntiradi.

**3)** Aholi geografiyasi aloqa qiladigan fanlarning uchinchi guruhiga antropologiya, sotsiologiya, mehnat iqtisodiyoti, rayon planirovkasi kabi fanlar kiradi. **Antropologiya** – odamlarning paydo bo'lishi, kishi organizmining evolyutsiyasi va undagi jismoniy o'zgarishlarning qonuniyatları, shuningdek irqlarning vujudga kelishi va geografik tarqalishini o'rghanadigan fan.

Aholi geografiyasining asosiy o'rghanish ob'ekti bo'lgan kishilarning mehnat faoliyati, turmush sharoiti va madaniyati, aholi manzilgohlarining hududiy shakllaridagi farqlar kishilar tashqi ko'rinishidagi antropologik farqlar bilan bog'liq emas.

Sotsiologiya jamiyatimizdagи kishilar o'rtasidagi ko'p qirrali o'zaro munosabatlarni o'rghanadi. Turli maqsadlarda o'tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar (migratsiya sabablarini, aholining talab va ehtiyojlarini bilish, bo'sh vaqtdan foydalanishni o'rghanish va hokazolar) aholini geografik jihatdan ta'riflash uchun zarur bo'lган muhim ma'lumotlar beradi. Turli mamlakatlar va rayonlarda aholining mehnat sharoiti va hayoti xususiyatlarini o'rghanuvchi aholi geografiyasining ko'pgina materiallari o'z navbatida, sotsioglarni qiziqtiradi.

Aholi geografiyasining mehnat resurslari va ulardan foydalanishini o'rghanadigan yo'naliishi iqtisodiyot fanining mehnat iqtisodiyoti va uni tashkil qilish yo'naliishi bilan yaqindan aloqadordir. Jumladan, geograflar mehnat resurslarni o'rghanishda iqtisodchilarning mehnat balansi tuzish kabi ayrim usullaridan keng foydalanadi. Ammo iqtisodchilar va geograflar mehnat resurslarini o'rghanishda bir-birlarining tadqiqotlarini takrorlamaydilar.

Ma'lumki, iqtisodchilar mehnat resurslaridan foydalanishning ko'proq mehnat unumdarligi, kadrlar qo'nimsizligi kabi masalalarni ayrim korxonalar yoki ayrim xo'jalik tarmoqlari miqyosida o'rghanadilar. Geograflarning asosiy vazifalari esa, mehnat resurslarining hududiy tashkil topishi va ulardan foydalanishning hududiy masalalarini tahlil qilishdan iborat.

Nihoyat, aholi geografiyasi bir qator ilmiy-amaliy fanlar bilan yaqindan hamkorlik qiladi. Chunonchi, rayon planirovkasi aholi geografiyasi bilan ayniqsa mustahkam aloqadadir. Shuningdek, aholi geografiyasi har bir rayonning tabiiy-iqtisodiy sharoitlarini e'tiborga olgan holda, ularning rivojlanish istiqbollari haqida

asosli takliflar berishi mumkin.

Aholi geografiyasi o’z navbatida, ilmiy-amaliy fanlarning ayrim me’todlaridan (texnikaviy-iqtisodiy hisoblar, har xil variantlarni taqqoslash) foydalanadi. Rayon planirovkasi rayondagi barcha korxonalar, yo’llar, aholi manzilgohlari, dam olish joylarini oqilona joylashtirish bilan shug’ullanadi. Shuning uchun bunday hamkorlik aholi geografiyasi uchun ham, rayon planirovkasi uchun ham muhimdir.

### **1.3. Aholi geografiyasining tarkib topishi va rivojlanishi**

Geografiya fani aholi va unga ta’luqli bo’lgan ma’lumotlarni qadimdan o’rganib kelgan. Masalan: 1650-yilda Vareniy (Varenius) ning Niderlandiyada bosilib chiqgan “**Umumiyyat** geografiya” nomli asaridayoq aholiga tegishli ko’pgina masalalar geografiya o’rganadigan muhim muammolar qatoriga kiritilgan edi. Varenius geografiyani ikkita katta bo’limga bo’lgan:

1. *Asosiy (umumiyyat) geografiya.*
2. *Ayrim mamlakatlarni o’rganadigan xususiy geografiya (mamlakatshunoslik).*

Ana shu xususiy geografiyaning iqtisodiy geografiya bo’limi o’rganadigan masalalar orasida aholining tarkibi, turmushi, iste’mol qiladigan ovqatlari, daromadi, bilim darajasi, hunarmandchilik, savdo aloqalari, tug’ilgandan o’lguncha bo’lgan urf-odatlari, siyosiy tuzumi, shaharlari kabi ko’rsatkichlar bo’lgan. Ammo u paytlarda va undan keyin ham uzoq davrlar davomida aholi geografiyasi geografiya fanining alohida yo’nalish sifatida tashkil topmagan edi.

Faqat XIX asrga kelib, dastavval Germaniyada va keyinchalik G’arbdagi boshqa davlatlarda antropogeografiya paydo bo’la boshladi. Antropogeografiyaning asoschisi nemis geografi Fridrix Rattsel (1844-1904) bo’lib, bu yo’nalish geografik determinizmning vulgar-materialistik konsepsiyasiga asoslanardi va aholi geografiyasidagi barcha hodisa hamda voqealarni tabiiy sharoitning ta’siridan deb tushuntirishga urinar edi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida G’arbiy Evropada (asosan Fransiyada) Odam geografiyasi deb nomlangan yo’nalish ham vujudga keladi. Fransuz geograflari P.Vidal de Lya Blash (1845-1919) va J.Bryun (1869-1930) bu yo’nalishning asoschilari edilar. Bu yo’nalish ham aholi geografiyasi masalalarini tushuntirishda jamiyat taraqqiyotining haqiqiy qonunlariga asoslangan emas edi.

Bu yo’nalish nomoyondalari tabiat bilan jamiyat o’rtasidagi, tabiat bilan aholi o’rtasidagi munosabatlari va aloqalarni ilmiy asosda o’rganmasdan, balki alohida bir odamning tabiat bilan o’zaro munosabatlari va bir-biriga ta’sirini o’rganish bilan shug’ullanganlar. Shuning uchun ham ular o’z fanlarining nomini aholi geografiyasi emas, **odam** geografiyasi deb atashgan. Rossiya inqilobgacha aholi geografiyasiga ta’luqli yirik ilmiy asarlar juda kam edi. Chunki, aholi geografiyasi geografiyaning maxsus tarmog’i sifatida ham tashkil topmagan edi. Ana shu davrda ota-bola P. P. Semyonov-Tyanshanskiy (1827-1914) va V.P. Semyonov-Tyanshanskiy (1870-1942) hamda A.I. Voeykovning (1842-1916) ishlari alohida o’rin egallaydi.

P.P. Semyonov-Tyanshanskiy XIX asr oxirida Rossiya aholisi va aholi manzilgohlarini geografik analiz qilgan, bir necha ishlar bajargan. U o’zining 1871 yilda chiqgan “**Imperiya aholisining taqsimlanish sabablarga ko’ra, Rossiya**

**Evropa qismida aholining zichligi**” nomli asarida aholi zichligi xaritasini bat afsil va mazmundor analiz qilgan. 1863-1885 yillarda P.P.Semyonov Tyanshanskiy “**Geografik statistik lug’at**” tuzdi.

Lug’atda Rossiyaning barcha shaharlari va yirik qishloqlariga ta’rif berdi. U Rossiya qishloqlariga birinchi bo’lib, bat afsil ijtimoiy-iqtisodiy ta’rif berdi, ularni 27 tipga ajratdi. Ayniqsa uning “**Muraevenskaya volost**” (1880) asari alohida diqqatga sazovordir. Bu asarda aholini va qishloq aholi manzilgohlarining kompleks geografik ekspeditsiyalar yordamida o’rganish bo’yicha birinchi tajriba bo’lib, o’sha davrda Rossiya va xorijiy mamlakatlarda aholiga bag’ishlangan ishlar orasida o’z ilmiy saviyasiga ko’ra bir muncha yuqori turar edi. Bu asarda ijtimoiy jarayonlar hududiy farqlarining analiz qilinishi va 1861 yil reformasidan (qayta qurishdan) keyin Rossiya qishlog’idagi sinfiy tabaqalanish masalalari yoritilgan edi.

P. P. Semyonov-Tyanshanskiy o’g’li Veniamin Petrovich Semyonov-Tyanshanskiy ham o’z ishlarida aholini o’rganishga katta e’tibor bergan. Ayniqsa, uning “**Evropa Rossiyasida shahar va qishloq**” (1910) nomli asari muhim faktalogik ma’lumotlarga boyligi va ilmiy analizdagi ba’zi yangicha yondashishlari bilan diqqatga sazovordir. Keyinchalik (1922-1925) V.P.Semyonov-Tyanshanskiy rahbarligida Rossiya Evropa qismining **46 varaqdan** iborat aholi zichligi xaritasi tuzildi (dazimetrik xarita). O’sha davrda bunday xarita boshqa birorta ham mamlakatda tuzilmagan edi.

Aholi geografiyasi bo’yicha inqilobdan avval nashr etilgan asarlar orasida mahshur geograf Aleksandr Ivanovich Voeykov asarlari alohida o’rin egallaydi. Eng muhimi shuki, A.I.Voeykov o’z ishlarida antropogeografiya ta’siriga berilmadi. U “Er shari aholisini tabiiy sharoiti va kishilar faoliyatiga qarab taqsimlanishi” (1906), “Evropa Rossiyasi va G’arbiy Sibir qishloqlarining gavjumligi” (1909) kabi asarlarida tabiat va aholiga jonli, qiziqarli geografik ta’rif berish namunasini ko’rsatdi.

A.I.Voeykov aholining hududiy taqsimlanishida tabiiy sharoit emas, balki odamlarning o’zi hal qiluvchi rol o’ynadi degan xulosaga keldi. Bu esa, o’sha davrda hukmron bo’lgan antropogeografik ta’limotga butunlay qo’shilmaslik edi. U aholining shaharlar bilan qishloqlar o’rtasida taqsimlanishi, bu jarayonning rivojlanishini analiz qilib shaharlarni o’rganishda ularning ma’muriy-yuridik tomonlariga emas, balki iqtisodiy ko’rsatkichlariga ahamiyat berish muhimligini qayd qildi. Bu esa o’sha davr uchun muhim progressiv qarash edi. Chunki, shaharlarni o’rganishda, birinchi navbatda ularning iqtisodiy rolini (xalq xo’jalik funktsiyasini) tahlil qilish zarurligi hozirgi zamон aholi geografiyasida ham asosiy prinsipial masalalardan biridir.

A.I.Voeykov bu ishida «**millioner shaharlar**» atamasini birinchi bor ishlatdi va fanga kiritdi. A.I.Voeykov aholi geografiyasi masalalarini, aholi bilan tabiat o’rtasidagi munosabatlarni analiz qilishda ijtimoiy-iqtisodiy omillarga katta ahamiyat berib, o’z davri olimlaridan ancha yuksak pog’onaga ko’tarila oldi. Shunga qaramay u hali ko’p masalalarni to’g’ri va chuqur tushunib etmagan.

Shunday qilib, XX asrga kelib (oktyabr inqilobigacha) Rossiyada aholini geografik nuqtai-nazardan o’rganishda ayrim yutuqlar qo’lga kiritilganiga va rus geograflarining ishlari ilmiy saviyasi bo’yicha g’arbdagi antropogeografiya va odam

geografiyasi nomoyondalarining ishlariga nisbatan ancha yuqori turganligiga qaramay, aholi geografiyasi fan sifatida, iqtisodiy geografiyaning muhim tarmog'i sifatida tashkil topmagan edi. Shuningdek, bu davrda Markaziy Osiyoda, jumladan O'zbekistonda ham aholi geografiyasi fan sifatida, iqtisodiy geografiyaning muhim tarmog'i sifatida tashkil topmagan edi. Aholi geografiyasi iqtisodiy geografiyaning alohida muhim uzviy qismi sifatida sobiq ittifoq davrida shakllandı.

Ma'lumki, sobiq ittifoqning dastlabki yillarida rejali ijtimoiy xo'jalik sharoitida iqtisodiy geografiya fani tashkil topa boshladi. Iqtisodiy geografiya fanining shakllanishi va rivojlanishida, uning asosiy nazariy-metodologik masalalarini ishlab chiqishda N.N.Baranskiyning roli ayniqsa katta bo'ldi. Davr taqozosi bilan iqtisodiy-geograflar asosan **sanoatni** hududiy joylashtirish va iqtisodiy rayonlashtirish masalalari bilan ko'proq shug'ullanishdi. **1940** yillargacha aholi geografiyasining faqat shaharlar geografiyasi yo'naliwigina ancha rivoj topdi.

Chunki, shaharlar muammosi «ishlab chiqarish markazlari», «sanoat tugunlari» va «iqtisodiy rayonlarning asosiy yadrolari» sifatida iqtisodiy geografiyaning boshqa sohalarida ham o'rganiladi. Shaharlar geografiyasining rivojlanishida ham N.N.Baranskiyning xizmati katta. Deyarli barcha geograflar shaharlarni geografik jihatdan o'rganish haqida N.N.Baranskiy yozgan-nazariy maqolalarga hozir ham suyanishadi. Ikkinchи jahon urushidan keyingi yillarda esa, aholi geografiyasining turli yo'naliwlari bo'yicha ilmiy ishlar, ekspeditsion tadqiqotlar kuchayib ketdi.

Aholi geografiyasining metodologik va metodik masalalari ishlab chiqildi. Shaharlar geografiyasi bilan bir qatorda, qishloq aholi manzilgohlarini o'rganish, aholi geografiyasining umumiylarini, aholining migratsion harakatlari, mehnat resurslaridan unumli foydalanishning geografik jihatlarini tadqiq qilish, aholini xaritaga tushirish kabi yo'naliwlari bo'yicha ko'plab qimmatli ishlar bajarildi.

Aholi geografiyasining rivojlanishi, tashkil topishi va turli tarmoqlarining shakllanishida N.N.Baranskiy bilan birga R.M.Kabo, O.L.Konstantinov, Yu.G.Saushkin, V.V.Pokshishevskiy, N.I.Lyalikov, S.A.Kovolyov va boshqa olimlarning xizmatlari katta. Aholi geografiyasi ayniqsa keyingi yillarda yangi bosqichga ko'tarilmoqda, turli yo'naliwlari bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlaridagi sifat o'zgarishlari va yangi yutuqlar bilan birgalikda, chuqur umumlashtirishlar hamda kompleks yondoshishni talab qiluvchi sintetik tadqiqotlar vujudga kelmoqda.

“Mamlakatni aholi va aholi manzilgohlarining hududiy xususiyatlariga qarab rayonlashtirish» (O.A.Konstantinov), «Aholi manzilgohlarining yagona sistemasi» (B.S.Xorev) va aholi hamda aholi manzilgohlarini o'rganishda sistema nazariyasi nuqtai nazardan yondashish kabilar ana shular jumlasidandir.

Aholi geografiyasi eng yangi ilmiy-tadqiqot metodlarni qo'llash bo'yicha ham ancha ilgari siljidi. Jumladan matematik metodni qo'llash bo'yicha aholi geografiyasi iqtisodiy geografiya fanining barcha tarmoqlari orasida alohida o'rinni tutadi va bu sohada ham salmoqli yutuqlar qo'lga kiritildi (N.I.Brajko, Yu.V.Medvedkov va boshqalarning ishlari). Aholi geografiyasining juda ko'p muhim, printsiplial masalalari bo'yicha fikr almashish, ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirishda geografiya jamiyatni tomonidan aholi geografiyasi bo'yicha 1962, 1967 va 1973 yillarda o'tkazilgan sobiq butunittifoq ilmiy kengashlari katta rol o'ynadi, chunonchi 1962

yilda Moskvada bo'lib o'tgan birinchi ilmiy kengash "aholi geografiyasini" geografiya fakultetlarida asosiy predmet sifatida o'qitish zarur ekanligini o'z rezolyutsiyasida qayd qilib o'tgan edi.

Shunday qilib aholi geografiyasi sobiq ittifoq davridagina iqtisodiy geografiyaning mustaqil bir tarmog'i sifatida shakllanadi va rivojlanadi. U o'z predmeti va metodologik asoslariiga ega, ishlab chiqaruvchi kuchlarni oqilona joylashtirish vazifasini hal qilishga, ishlab chiqaruvchi kuchlarning eng aktiv elementi bo'lган ishchi kuchini-aholini o'rganish bilan o'zining munosib hissasini qo'shib kelmoqda.

Respublikamiz hududida aholini o'rganishga qadimdan asos solingan. Chunki, Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug'bek, Bobur, Maxmud Qoshqariy, Alisher Navoiy kabi allomalarimiz asarlarida aholi masalalariga e'tibor berilgan. 1926 yilda respublikada aholi ro'yxati o'tkazilishi aholini chuqurroq o'rganishga dastlabki ilmiy qadam bo'ldi. Respublikamizda XX asrning ikkinchi yarmida aholi geografiyasi fan sifatida rivojlandi. Respublikamizda «Geografiya jamiyat» faoliyatida, demograf olimlar tadqiqotlarida aholi geografiyasi fanining rivojlanishini ko'rishimiz mumkin. Hozirgi kunda «Aholi geografiyasi», «Demografiya asoslari» fanlari mustaqil fan sifatida rivojlanmoqda. Ularni o'zaro tadqiqotlari asosida "Aholi geografiyasi va demografiyasi" fani shakllandi. O'zbekistonda demografik bashoratlarni ishlab chiqish, aholishunos olim M.K.Qoraxonov rahbarligida 1962-80 yillarda ishlab chiqilgan. Keyinchalik respublikada Mullajonov, Ubaydullaeva, Ali Qorayev, Bo'riyeva, Maksakova, Soliyev va boshqalar fan rivojiga hissa qo'shib kelmoqdalar.

#### **1.4. Demografiya fanining paydo bo'lishi**

**Demografiyaning paydo bo'lishi** boshqa fanlardan farqli ravishda aniq sanaga ega. 1662 yilning yanvarida ingliz savdogari, kapitani Jon Graunt (1620-1674) ning «**O'lim byulleteni asosidagi tabiiy va siyosiy kuzatishlar (shaharlardagi e'tiqod, savdo, aholining o'sishi, kasalliklar va boshqa o'zgarishlarni boshqarish) muqaddimasi**» nomli kitobi Londonda chop etilgan. Bu kitob bir davrning o'zida statistika, sotsiologiya va demografiya kabi fanlarning rivojlanishiga hissa qo'shdi. «Demografiya» - grekcha «demos» - xalq, aholi va «grafo» - yozaman so'zlaridan olingan.

Aholi hayoti davomida ro'y berayotgan jarayonlar qanday qonuniyatlarga bo'ysunishi va qay tarzda ro'y berayotganligini aniqlash uchun demografik analizlar talab qilinadi. Dunyoda bir vaqtning o'zida tug'ilish, o'lim, nikohga kirish, ajralish, migratsiya kabi hodisalar ro'y beradi. Bunday jarayonlarning hisob-kitobini olib borish nihoyatda murakkab ish. Bunday jarayonlar ma'lum bir hududga nisbatan aniq uslublar bilan nisbiy ravishda analiz qilinadi. Demografik analizlar o'zining tarixiga ko'ra qadimiy davrlardan beri olib boriladi. Lekin ularning aniq bir usuli ishlab chiqilmagan va stixiyali ravishda olib borilgan edi.

XVII asrda Evropada tarqalgan epidemiyalar va aholining keskin ravishda kamayib borishi ba'zi bir kishilarni bu muammo ustida ish olib borishiga majbur qildi. Aholining demografik tahlil qilishning birinchi usuli o'lim jadvallari bo'lib, o'limni hisob-kitob qilish va jadvallar tuzish usuli ingliz statisti **Jon Graunt**

tomonidan ishlab chiqilgan. 1665 yilda **Uilyam Petti** bilan hamkorlikda “**O’limning tabiiy va siyosiy ahamiyati**” degan risola chiqarib, aholi o’rtasida ro’y berayotgan o’limlar har tomonlama tahlil qilinishi va hisobga olinishini tushuntirib berdi. Keyingi davrlarda matematiklar Laplas, Eyler tomonidan kashf qilingan matematik usullar aholi o’rtasidagi o’limdan tashqari boshqa hodisalarini ham hisoblash imkonini yaratdi va shu tarzda demografik analiz usullari bunyodga keldi. Bu analizlar demografik koeffisientlar deb yuritildi.

“**Demografiya**” so’zini birinchi bo’lib fransuz olimi Jan Klod Ashil Giyar 1855 yilda Parijda chop etilgan “**Inson statistikasi elementlari yoki qiyosiy demografiya**” kitobida ishlatdi.

**Jan Klod Ashil Giyar** 1799 yilda tug’ilgan. Statist, pedagog, tabiiyotshunos bo’lgan bu odam, Parij Statistika va Botanika jamiyatlari asoschisi hamda aholi statistikasi bo’yicha bir qancha ishlarning muallifidir. Xususan A. Giyar birinchi bo’lib (1853 yilda Bryusselda bo’lib o’tgan Xalqaro statistika kongressining birinchi sessiyasida) barcha mamlakatlar uchun kasalliklar va o’lim sabablarining yagona nomenklaturasini ishlab chiqishni taklif qildi. Bugungi kunda bu g’oya dunyoning barcha mamlakatlarida amalda qo’llanmoqda.

Giyar tomonidan qo’llanilgan “demografiya” so’zi asta-sekinlik bilan avvalo Frantsiyada tarqaldi. 1874 yilda Guyarning kuyovi bo’lgan **Lui Adolf Bertiloning** “**Fransyaning ko’rgazmali demografiyasi**” asari nashr etildi. 1882 yilda bu so’z Xalqaro gigiena va demografiya kongressida atama sifatida rasmiy tan olindi. XX asr boshiga kelib esa Evropada aholi statistikasi sinonimi sifatida keng tarqaldi. 1872 yilda Peterburgda bo’lgan Xalqaro Statistika kongressi munosabati bilan rus tiliga kirib keldi. Hozirgi kunda bu atama barcha mamlakatlarda keng qo’llanilmoqda. Xususan O’zbekistonda demografiya fani **XX-asrning 60-yillaridan boshlab oliy o’quv yurtlarida o’qitila boshlandi**.

Biroq demografiya fani faqat sharhlash bilan chegaralanib qolmay, balki uning o’rganish doirasi bir muncha keng va chuqurdir.

Demografiyada asosiy kuzatuv birligi-**inson** hisoblanadi. Inson hayoti davomida uning fiziologik va psixologik xususiyatlari, ma’lumotlilik darajasi, oilaviy holati, kasbi-kori, malakasi ijtimoiy guruhi, yashash joyi, til bilish kabi imkoniyatlari o’zgarib boradi. Ana shu alohida inson hayotida ro’y bergen o’zgarishlar yig’indisi umuman aholi hayotidagi ijtimoiy - iqtisodiy va demografik o’zgarishlarga olib keladi.

Nikohga kirish natijasida, oilalar soni oshib boradi, yolg’izlar, bo’ydoqlar soni esa kamayadi. Nikohning bekor etilishi, ya’ni, ajralish jarayoni esa aholi tarkibida tugalemas oilalarning va bevalar salmog’ining ko’payishiga sabab bo’ladi. Inson dunyoga kelar ekan ma’lum davr yashaydi. Ana shu davr mobaynida u ulg’ayib boradi.

Go’daklik davridan bolalikka, o’smirlik, yoshlik o’rta yoshlik, etuklik davrlariga o’tadi. Har bir o’quv yili tugashi bilan aholi tarkibida ma’lumotlilar soni oshib boradi. Ana shu tarzda shaxs hayotidagi o’zgarishlar aholi guruhidagi o’zgarishlarga olib keladi. Insonlarning bir xududdan ikkinchi bir xududga ko’chib o’tishi migratsiya, ushbu hududlar aholi soniga va tarkibiga ta’sir etadi.

Aholi soni tug’ilish va o’lim hisobiga doimo o’zgarib boradi. Tug’ilish

jarayoni aholi sonini ko'payishiga olib kelsa, o'lim uning kamayib ketishiga sabab bo'ladi. Tug'ilish va o'lim jarayonlari asosida aholi tabiiy o'sishi sodir bo'ladi. Agar tug'ilganlar soni o'lganlar sonidan yuqori bo'lsa, aholi ko'payib boradi, aksincha, o'lganlar soni tug'ilganlar sonidan ko'p bo'lsa, aholi kamayib boradi.

Ma'lumki, jamiyatda har doim qandaydir sabablarga ko'ra aholining bir qismi hayotdan ko'z yumadi, ya'ni vafot etadi. Yana bir qism aholi esa, dunyoga keladi. Jamiyatdagi o'lgan aholi o'rni, yangi tug'ilganlar hisobiga to'lib boradi, avlodlar almashadi. Ana shu jarayon **aholi takror barpo** bo'lishining asosini tashkil etadi.

Biror bir hududda, ma'lum davrdagi aholi tarkibi, o'tgan davrdagi aholi takror barpo bo'lishining natijasi, keyingi davrdagi aholi takror barpo bo'lishining esa zamini hisoblanadi. Demak, aholi takror barpo bo'lishi jamiyat taraqqiyoti davomidagi doimiy, murakkab jarayondir.

Aholining takror barpo bo'lishi natijasida aholi soni va uning yosh-jinsiy tarkibi muntazam o'zgarib turadi. Yangi tug'ilgan bolalar jinsi aholi jinsiy tarkibida ma'lum o'zgarishlarga olib keladi. O'lganlar soni esa aholi yosh tarkibiga ta'sir etadi. Aholi yosh va jinsiy tarkibidagi o'zgarishlar jamiyatda ma'lum ijtimoiy muammolarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Aholining takror barpo bo'lish jarayoni esa, o'z navbatida qator ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Shu bois aholining takror barpo bo'lish jarayoni jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida o'ziga xos xususiyatlarga, qonuniyatlariga egadir. Demografiyaning asosiy predmeti **aholining takror barpo bo'lish qonuniyatlarining tahlili hisoblanadi**.

Aholini o'rganar ekan, demografiya alohida fan sifatida, uning miqdoriy va sifatiy xususiyatlarining mukammal tahlil etadi. Aholining miqdoriy xususiyatlari ma'lum millat, hudud aholisi sonining o'zgarib (o'sishi yoki kamayishi) borishida ifodalanadi. Aholining sifatiy xususiyatlari esa, asosan ma'lum millat yoki hudud aholisining salomatlik va ma'lumotlilik darajasida, o'rtacha umr ko'rish maqsadida ifodalanadi.

Har ikkala jarayon, ya'ni, aholining miqdoriy va sifatiy rivojlanishi bir-biriga chambarchas bog'liq holda sodir bo'ladi. Masalan, aholi salomatligini yuqori darajada bo'lishi, aholi o'rtasida o'limning kamayishi, o'rtacha umr ko'rish muddatining esa uzayishiga olib keladi. Natijada aholi soni o'sib boradi. Shuningdek tug'ilishning juda yuqori darajada bo'lishi, ko'p hollarda ona va bola organizmining zaiflashib borishiga va o'lim hollarining ko'payishiga olib keladi.

Jamiyat taraqqiyotining eng dastlabki bosqichidan to hozirgi davrga qadar har bir hudud aholisi ham miqdor, ham sifat jihatidan muntazam o'zgarib kelgandir. Demografiya aholining miqdoriy va sifatiy o'zgarishlarini aholining takror barpo bo'lishining asosiy omillari sifatida o'rganadi.

Aholining takror barpo bo'lishi, keng ma'noda tabiiy o'sish, o'lim, migratsiya aholining hududlar bo'ylab harakati, bir ijtimoiy guruhdan ikkinchi bir ijtimoiy guruhga o'tishi, ma'lumot olishi, mehnat faoliyatining boshlanishi va h.k. natijasida aholi tarkibini yangilanib turishini bildiradi.

Demografiya asosiy e'tiborni tabiiy avlodlar almashuv – ya'ni, tug'ilish va o'lim asosida aholining takror barpo bo'lish jarayoniga qaratadi. Ushbu jarayonni jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlaridagi qonuniyatlarini, turli millat, hudud va davlatlardagi xususiyatlari, omillarini o'rganadi, muammolarini aniqlaydi va

istiqbolini belgilab beradi. Bu vazifalarni bajarish uchun demografiya jamiyat taraqqiyoti bosqichlari, tarixiy shart-sharoitlarini atroflicha o'rganishi lozim.

Demak, **demografiya, aholining takror barpo bo'lishi qonuniyatlari haqidagi fan bo'lib, bu jarayonni ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlarga bog'liq holda o'rganadi, omillarini, muammolarini aniqlab, istiqbolini belgilab beradi.**

Har bir fanning asosiy vazifasi tabiat va jamiyatning ma'lum qismidagi rivojlanish qonunlarini o'rganishdir. Lekin shu bilan bir qatorda har bir fanning o'ziga xos amaliy ahamiyatga ega bo'lgan vazifalari ham mavjud. Demografiya ham alohida fan sifatida o'z vazifalariga egadir. Ushbu vazifalarni uch guruhga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir:

1. Demografik jarayonlar va ularning omillarini o'rganish.
2. Demografik bashoratlarni ishlab chiqish.
3. Demografik siyosat chora tadbirlarini ishlab chiqish.

**Demografik jarayonlar** – tug'ilish, o'lim, nikohga kirish, ajralish kabilar analiz qilinar ekan, ularni quruq statistik ma'lumotlar orqali aniqlab bo'lmaydi. Shuning uchun har bir jarayonning o'z koeffitsienti hisoblab chiqiladi. Bu koeffitsientlar har bir demografik jarayonning ming kishiga nisbatan miqdori hisoblanadi. Shuning uchun koeffitsientlar promilleda o'lchanadi.

### **Demografik jarayonlarga tug'ilish, o'lim, nikoh, ajralish va oila kiradi.**

Demografik jarayonlar tarkibida tug'ilish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, o'rganilayotgan mavjud aholi avvalo tug'ilish jarayoni natijasida dunyoga kelgan. Demografiya tug'ilishni alohida, aholi takror barpo bo'lishining demografik zamini sifatida o'rganadi, unga ta'sir etuvchi barcha ijtimoiy - iqtisodiy va tabiiy omillarni tahlil etadi. Shuningdek, o'lim jarayoni ham aholi takror barpo bo'lishining asosiy elementi sifatida demografiya fanining e'tiborida turadi. Aholining takror barpo bo'lishida birinchi navbatda oila tashkil topishi ya'ni shakllanishi ahamiyatlidir. Chunki dunyoda tug'ilayotgan insonlarning aksariyati oilada, oila muhitida dunyoga keladi, shaxs sifatida shakllanib o'zining demografik faoliyatini (oila qurish, farzandlar ko'rish) boshlaydi.

Oila shakllanishi esa, o'z o'rniда nikoh va ajralish jarayonlari bilan chambarchas bog'liqdir. Demografiya nikoh evolyutsiyasi va uning aholining takror barpo bo'lishidagi o'rmini alohida o'rganadi.

Ajralish ya'ni nikohning bekor etilishi ham aholi takror bo'lishiga ta'sir etuvchi demografik jarayon hisoblanadi. Demografiya ushbu jarayonni o'rganar ekan, uning mavjudlik darajasiga ta'sir etuvchi qator sabab va oqibatlarini atroflicha tahlil etadi.

Demografiya aholining bir joydan ikkinchi joyga ko'chishi - **migratsiyasini** ham o'rganadi. Lekin bu jarayonni o'rganishda, aholi geografiyasidan farqli ravishda, asosiy **e'tiborni** migratsiya jarayonining hududiy xususiyatlariga emas, balki ushbu jarayon natijasida ro'y beradigan - hududning demografik holatidagi o'zgarishlariga qaratadi.

Demografiyada **oila** asosiy ijtimoiy-demografik guruh sifatida o'rganiladi. Oilani jamiyat taraqqiyoti davomidagi o'rni, evolyutsiyasi, aholining takror barpo bo'lishidagi asosiy faoliyati va uning o'zgarib borish omillari, oqibatlari o'rganilib, kelajak rivojlanishining asosiy yo'nalishlari aniqlanadi.

Ma'lumki, aholi, tug'ilish va o'lim jarayoni natijasida mavjud bo'lgan avlodlar almashinuvi yig'indisidir. Inson mavjudligini ta'minlovchi barcha demografik jarayonlar-tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralish uning hayotidagi ma'lum davrida, ya'ni ma'lum yoshida ro'y beradi.

Shuning uchun, yosh demografik jarayonlarni o'rganishda asosiy mezon hisoblanadi. Insonning demografik va ijtimoiy holatida, o'z hayoti davomida yosh va jins asosiy ko'rsatgichdir. Aholining jinsiy tarkibi ham demografik holatga ta'sir etuvchi asosiy, demografik tahlili lozim bo'lgan mezonlardandir.

Demografik bashoratlар ishlab chiqishda demografiya fani, birinchi navbatda o'rganilayotgan hudud yoki ijtimoiy guruh aholisining demografik maylini (demografik jarayonlariga bo'lgan munosabati) atroflicha tahlil etadi va ayni shu asosda demografik jarayonlarda kelajakda kutilayotgan o'zgarishlarni ko'rsatib beradi.

Demografik siyosat mazmuni va tadbirlarini ishlab chiqish juda ma'suliyatli va murakkab jarayondir. Ushbu yumushni bajarishda demografiya o'rganilayotgan davlat yoki alohida hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini, etnik xususiyatlari, urf-odatlari va qadriyatlarini, demografik holatini mukammal o'rganishi lozim.

Demografiya mustaqil fan sifatida o'z **tadqiqot** usullariga egadir. Ular jumlasiga tarixiy, taqqoslash, statistika, matematika, kartografik, mantiqiy fikrlash va sotsiologik uslublar kiradi. Demografiyaning tahlil uslubi statistikadan farq qiladi. Unda mavhum fikrlash uslubidan keng foydalanish asosida aholi tarkibida kelgusida ro'y beradigan miqdor va sifat o'zgarishlari ham o'rganiladi. Aholi muayyan ijtimoiy hayot tarziga bo'y sunishi tufayli, demografik jarayonlar ham muayyan ishlab chiqarish usuli va munosabatiga bog'liq bo'ladi. Aholi murakkab ijtimoiy va tabiiy rivojlanish maxsulidir, shu sababli aholi turli omillar zaminida ko'payadi. Bu jixatdan demografiya tahlil mavzui iqtisodiyot nazariyasi, sotsiologiya, psixologiya, matematika, statistika, ijtimoiy gigiena, geografiya, tibbiyot, tarix, etnografiya va boshqa fanlar tahlil mavzuiga yaqin bo'lib, shu fanlarning yutuqlaridan foydalanadi. Ayni vaqtda ularga qimmatli ma'lumotlar beradi.

Demografiya har bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzum aholisining ko'payish va rivojlanish qonunlarini alohida-alohida o'rganadi. Chunki har bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyaga xos aholi o'sish qonuni, demografik vaziyatga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Aholining takror barpo bo'lishi qonuniyatlarni o'rganar ekan, demografiya bir qator ilmiy yo'naliishlarga bo'linadi va bu yo'naliishlar demografiya fanlari tizimini tashkil etadi. Ularga nazariy demografiya, demografik statistika, tarixiy demografiya, etnik demografiya, iqtisodiy demografiya, hududiyl demografiya, tahliliy demografiya va amaliy demografik tadqiqotlar kiradi.

Demografiya aholini o'rganishda turli usullardan foydalanadi. Masalan: tarixiy, taqqoslash, statistik, eksperimental, sotsiologik so'roq va aholi ro'yxatlarini tuzish.

Demografiya fanining asosiy vazifalari:

-Demografik jarayonlar va ularning omillarini o'rganish.

-Demografik bashoratlarni ishlab chiqish.

-Demografik siyosat chora tadbirlarini ishlab chiqish.

Demografiyaning ilmiy yo'naliishlari:

1. Nazariy demografiya.
2. Statistik demografiya.
3. Tarixiy demografiya.
4. Etnik demografiya.
5. Iqtisodiy demografiya.
6. Hududiy demografiya.
7. Tahliliy demografiya.
8. Amaliy demografik tadqiqotlar.

Demografik tarkiblar aholining, yosh, jins, professional (kasbiy) va boshqa har xil ijtimoiy qatlamlarining o'ziga xos xususiyatlarini qamrab olib, demografik statistika uchun asosiy manbalar hisoblanadi. Demografik tarkiblarning hisob-kitobi vaqtga bog'liq bo'lib, doimiy ravishda o'zgarib turishi tabiiydir. Shuning uchun har bir davr yoki hududlar aholisi tahlil qilinar ekan. Ularning o'ziga xosligini doimo yodda tutish lozim. Bunday o'ziga xosliklar esa tabiiy sharoit, siyosiy ijtimoiy voqealar, aholining oila va nikohga bo'lgan munosabati va davlatlarning demografik siyosati kabilardir. Demografik tarkiblar ichida avlodlar tushunchasi alohida ajratiladi. **Avlodlar** tushunchasi juda ham nisbiy ma'noda bo'lib, bu tushunchani yoshga nisbatan, turli guruuhlar va bu guruhlarning tutgan o'rniqa qarab qo'llaniladi. Bir so'z bilan aytganda avlod tushunchasi ma'lum bir davr mobaynida turli hodisa va ijtimoiy voqelikka o'z ta'sirini ko'rsatuvchi guruhdir.

XX asrga kelib, demografiya fan sifatida ikkita asosiy yo'nalishda rivojlandi. Ulardan biri, demografiyaning tadqiqot maydonini aniqlashtirish bo'lsa, ikkinchisi demografik jarayonlarga ta'sir ko'rsatuvchi omillar doirasining kengayishi bo'ldi.

1960 yillar o'rtalarida ko'pchilik mutaxassislar demografiyaning predmetini aholining tabiiy harakati masalalari bilan shug'ullanuvchi fan sifatida chegaralab qo'ydi.

**Aholining tabiiy harakati–bu tug'ilish, o'lim, nikohga kirish va nikohdan ajralish natijasida aholi soni va tarkibining uzluksiz o'zgarib turishidir.** Shuningdek, aholining tabiiy harakatiga aholining jins va yosh tarkibidagi o'zgarishlar kabi o'zaro bog'liq barcha demografik jarayonlar kiradi. Masalan, 90-yillar boshida Evrosiyoda ko'plab mustaqil davlatlarning paydo bo'lishi oqibatida migratsiya jarayonlar sezilarli ravishda faollashdi. Bu, o'z navbatida, mintaqadagi barcha hududlar aholisining tabiiy harakatida o'zgarishlar sodir etdi.

Yuqorida aytganimizdek, demografiya-aholining takror barpo bo'lish qonuniyatlarini o'rganuvchi fan hisoblanadi. Demografiya fan sifatida XVII asrning yarmidan so'ng shakllana boshladi.

Aholining takror barpo bo'lishi-aholining miqdori va tarkibini doimo tabiiy tarzda yangi avlodlar tomonidan keksa avlodlar o'rni to'ldirilishi orqali yangilanishidir.


Har qanday fan ob'ekt doirasidagi voqelikning qonun va qonuniyatlarini ochib berish, uning tadqiqot maqsadi hisoblanadi. Shunga ko'ra, demografiyaning predmeti aholi tabiiy takror barpo bo'lishining qonun va qonuniyatlarini o'rganishdan iborat. O'z navbatida, demografiya quyidagi fan tarmoqlariga bo'linadi (**2-chizma**):

Demografik statistika – demografiyaning tarixiy tarmog'i bo'lib, aholi takror barpo bo'lishining tarixiy qonuniyatlarini o'rganadi. Statistik demografiyaning

vazifalari aholining takror barpo bo'lishiga oid materiallarni to'plash va dastlabki qayta ishslash, demografik jarayonlarni statistik tahlil etish va kuzatish metodlarini ishlab chiqishdan iborat.

Matematik demografiya – demografik jarayonlarni modellashtirish va bashoratlash hamda ular o'rtaсидagi aloqadorlikni o'rganishning matematik usullarini ishlab chiqish va tatbiq etish bilan shug'ullanadi. Demografik modellarga tug'ilish, o'lim, nikoh, ajralish jadvallarining aniqligi, statsionar va barqaror aholi modeli kabilar kiradi.

Tarixiy demografiya – mamlakatlar va xalqlar tarixidagi demografik jarayonlar holati va dinamikasini o'rganadi.



## **2-chizma. Demografiya fani tarmoqlari:**

Etnik demografiya – aholi takror barpo bo'lishining etnik xususiyatlarini tadqiq etadi. Xalqlar turmush tarzining etnik xususiyatlari, urf-odatlari, an'analari, oilaviy munosabatlar va tarkibi kabilar, aholining tug'ilish darajasi, o'rtacha umr ko'rishi va salomatligi holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Iqtisodiy demografiya – aholi takror barpo bo'lishining iqtisodiy omillarini tadqiq etadi. Iqtisodiy omillar deganda, jamiyat hayotining barcha iqtisodiy shart-sharoitlari hamda ularning tug'ilish, o'lim, nikohlanish darajasiga, aholining o'sish darajasiga ta'siri tushuniladi.

Ijtimoiy demografiya – demografik jarayonlarga aholining sub'ektiv harakati, ijtimoiy, ijtimoiy-psixologik ta'sirini o'rganadi.

«Aholi geografiyasi va demografiya asoslari» nomli kursning maqsadi aholining tabiiy o'sishi va uning taqsimlanishi bilan bog'liq geografik jarayonlarni o'rganish. Kursning asosiy vazifalari quyidagilar:

- Aholi rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish;
- Aholi dinamikasidagi o'zgarishlarning nazariy asoslari va bu o'zgarishlarning iqtisodiy ijtimoiy turmush tarziga ta'sirini tadqiq etish;
- O'zbekistondagi demografik o'zgarishlarni dunyo mamlakatlaridagi demografik jarayonlar bilan qiyoslash;
- Aholining tabiiy o'sishi, migratsiyasi bilan bog'liq ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish asosida aholining tabiiy harakati va migratsiyani tartiblash jarayonlarini o'rganish va hokazo.

Ma'lumki, mamlakatimiz o'z mustaqilligi yo'lidan barqaror rivojlanishida davom etayotgan bugungi kunda etishtirilayotgan va ishlab chiqarilayotgan moddiy ne'matlar birinchi navbatda inson manfaati uchun, ya'ni uni himoya qilish, muhofaza etish, ijtimoiy-iqtisodiy turmush darajasini yuksaltirishga yo'naltirilgan. Jumladan, demografik jarayonlar ham mamlakatimiz aholisining hayotiga bevosita o'zining ta'sirini ko'rsatadi. Shuningdek, mamlakatimizdagi demografik jarayonlar tarixi ham uzoq davrlar davomida Markaziy Osiyodagi qolaversa, butun Evrosiyodagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy jarayonlar bilan bog'liq bo'ldi. Umuman, demografik jarayonlar tadqiqoti bilan XIX asrdan Oktyabr to'ntarishiga qadar rus olimlari V.S.Poroshin (1840), Yu.E.Yanson (1880), P.Okeppen (1890), B.P.Kodomsev, A.Kotelnikov, G.S. Pollyak, birinchi va ikkinchi jahon urushlari oralig'ida (1917-1945) D.Bozin, A.Ya.Boyarskiy, V.K.Vobley, N.Ya.Vorobyev, A.I.Gozulov, E.O.Slutskiy, Dj.Uippl kabi olimlar shug'ullanishgan.

Demografik jarayonlar tarixi ham insoniyat tarixi bilan chambarchas bog'liqdir. XX asr boshlariga qadar bo'lgan dunyoning turli mintaqalaridagi kichik urushlar davrida ham aholi qisman aralashgan. Bu jarayonlarni turli tadqiqot namoyondalari turlicha, ya'ni tilshunoslar til oilalarining shakllanishi, tarixchilar davlatlarning paydo bo'lishi, madaniyat rivojlanish bosqichlarini tadqiq etuvchilar turli davr madaniyatining rivojlanish davri bilan bog'lab o'rghanadilar.

Demografik jarayonlar taraqqiyoti bevosita hududlarning kashf etilishi, ya'ni Buyuk geografik kashfiyotlar bilan bog'liq bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Albatta, hamma tarixiy davrlarda bir qit'aga mansub aholining ikkinchisiga ko'chishiga ma'lum sabablar o'z ta'sirini ko'rsatgan. Masalan, 18 asr oxiriga qadar Avstraliya ma'lum bo'lмаган davrda evropaliklar dastlab Amerikaga, keyinchalik rudali konlarga yoki qimmatbaho metallarga boy mintaqalarga, Afrikaga borishga boylik orttirishga intilishgan. Umuman XVIII asr oxiriga qadar butun dunyo xalqlarining yangi erlarni o'zlashtirishga intilishi yuqori bo'ldi.

Shuningdek, XVII-XVIII asrlarda ruslar ham Shimoli-sharqiy Osiyo bo'y lab yurishda davom etdi. Bu davrda ispanlar va portugallar asosan, Markaziy va Janubiy Afrikani egallashga harakat qilishdi. Albatta, bu davrdagi koloniyalarni tashkil etish bilan bog'liq yurishlarga tabiiy va iqlimi omillar ham o'z ta'sirini ko'rsatgan, ya'ni iqlimi yashash uchun qulay bo'lgan serunum, hosildor erlarga ega bo'lishga intilishgan. Asta-sekin bu jarayonlar bevosita davlatchilikning aralashuvi, ba'zi diplomatik munosabatlarning shakllanishiga sabab ham bo'lgan. Masalan, A.Gumboldt (1799-1804) ekvatorial davlatlar bo'y lab sayohatga chiqish uchun Ispaniya hukumatidan maxsus ruxsat olgan. Keyinchalik, Germaniyada emigrantlarni ro'yxatga olish an'anaviy tus olgan (1832 yilda Berlinda, 1846 yilda Gamburgda v.b.).

Demografik vaziyatlarni ob'ektiv baholash uchun 1970-1980 yillardagi demografik inqilob jarayoniga e'tibor qaratish lozim. Demografik inqilob nazariyasini dastlab (1934 yil) A.Landri ilgari surdi va keyinchalik bu boroda tadqiqotlarining rivojlanishiga asos soldi. So'ngra uning taraqqiyotiga uzoq xorij olimlaridan F.V.Notsteyn (1953); Z.Pavlik (1964, 1979); V.S.Tompson (1942), rus olimlaridan A.G.Vishnevskiy 1973, 1976, 1982, A.Ya.Kvasha (1974), V.Ts.Urlanis (1974), demografik taraqqiyotning zamonaviy konseptsiyasining shakllanishiga

o'zlarining ilmiy ulushini qo'shdilar. Bu konseptsiyaga muvofiq, aholining qayta barpo bo'lisi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy sotsiopsixologik rivojlanishi kabi murakkab omillar majmuasi bilan bog'liq bo'lismi va tizimli bosqichlar asosida rivojlanishini asosladilar.

Bugungi kunda bu olimlarga yana ikkita asosiy geosiyosiy va ijtimoiy ekologik omillar dolzarbliji ahamiyat kasb etmoqda. BMT ekspertlarining qarashlariga ko'ra, demografik o'tish davrini 4 ta fazaga ajratishi mumkin. Avvalo o'lim koeffitsienti tug'ilish koeffitsientiga nisbatan tez tushib ketadi. Natijada, tabiiy o'sish koeffitsienti toki maksimal darajaga etguncha o'sadi. Keyin tug'ilish koeffitsienti o'lim koeffitsientiga nisbatan tezroq pasayadi. Bu jarayon o'lim koeffitsienti minimal darajaga etguncha davom etadi. Keyin tug'ilish koeffitsienti sekin tempda pasaya boradi. Bunda o'lim koeffitsienti aksincha ko'tariladi va nihoyat tug'ilish qayta barpo bo'lisch darajasigacha pasayadi.

Bunda tug'ilish koeffitsienti oxirgi turg'un darajaga yaqinlashib qoladi. Shunda o'lim koeffitsienti bir necha martaga oshishi bilan xarakterlanadi. Bu konseptsiya AQSh va Evropa davlatlari ilg'or demografik munosabatlari umumiy qonuniyatlarini asosida paydo bo'ldi. Ayniqsa, 2-jahon urushidan keyingi demografik jarayonlardagi o'zgarishlar mazkur konseptsiyani tasdiqladi. Uning tasdiqlanishi rivojlanayotgan davlatlardagi demografik jarayonlarni boshqarishda qo'l keldi.

M.S.Betniy (1972) ning ta'kidlashicha, bunda aholining o'rtacha umr ko'rishi muhim o'rinni tutgani holda, tug'ilish shu darajada kamayadiki, natijada aholining umumiy o'lim koeffitsienti aholi tug'ilish koeffitsientining o'sishiga sabab bo'ladi. Umumiy holatda aholi soni kamayadi. Agar ko'rsatilgan demografik vaziyatda o'zgarish yuzaga kelsa, aholining ko'payishiga boshqa omillar o'z ta'sirini ko'rsatadi. Jumladan, 1990 yillarda keyingi Rossiya aholisining qayta barpo bo'lismida shunday o'zgarish sodir bo'ldi.

Shunday qilib, A.Landri (1934) tomonidan kiritilgan «**demografik inqilob**» tushunchasi hozirgi paytda aholi qayta barpo bo'lismining samarali harakati sifatida izohlanadi. Bu yondashuv A.G.Vishnevskiyning 1976 hamda 1982 yillardagi monografiyalarida keng yoritilgan bo'lib, unda aholi qayta barpo bo'lisi 3 ta asosiy tarixiy tipga ajratiladi: **arxeotip, an'anaviy va zamonaviy tiplar**. Unga ko'ra, bir tipdan ikkinchisiga o'tish inqilobiy bosqich sifatida izohlanadi.

Aholining qayta barpo bo'lisi haqidagi prognozlar o'tgan asrning 80-yillarida ko'p variantli tus oldi. Shulardan bevosita hozirgi Markaziy Osiyo mamlakatlari haqidagi tadqiqotlar D.Veresov ishlaridan o'rinni egallagan. Uning prognozlari to'rtta vaziyatni e'tiborga olgan holda amalga oshirilgan:

**-birinchidan**, o'sha davrda Sobiq Ittifoq tarkibidagi musulmon respublikalaridagi tug'ilish koeffitsienti boshqa mintaqalardan farq qilishga e'tibor qaratilgan. Biroq, bu prognozlar biologik xarakter kasb etgani holda respublikalararo migratsiyani hisobiga olmagan. Unda barcha ittifoqdagi boshqa respublikalarga xos tug'ilish koeffisientlarining pasayishi musulmon respublikalarida kuzatilmaganligini aholining qayta barpo bo'lismining oddiy rejimi XX asr oxiriga qadar davom etishi bashorat qilinadi.

Bunda muallif (D.Veresov) kelgusida bu mamlakatlarning birmuncha islomlashuvni va reproduktiv targ'ibotlar o'zini oqlamasligini e'tirof etgan. Natijada

bu kabi ob'ektiv demografik omillar demografik bosqichlarining birdan ikkinchisiga o'tishiga to'sqinlik qilishini e'tirof etgan. Boshqa tadqiqotchilar (E.Andreev, S.Perechkov 1975; P.Vensan, 1945) aholining qayta barpo bo'lishiga iqtisodiy omillar o'z ta'sirini ko'rsatishini ya'ni aholining birlamchi dehqonchilik ishlaridan sanoat ishlab chiqarishga o'tishi jamoat ishlariga ko'plab ayollarning jalg etilishi tug'ilishning kamayishiga sabab bo'lishini e'tirof etishgan;

**-ikkinchidan**, D.Veresov aholining qayta barpo bo'lishida tashqi migratsiyani e'tiborga olmaganligini tadqiqotlarining eng muhim kamchiligi sifatida e'tirof etadi. Shuningdek, T.Ivanov va I.Kalinyuk (1979) larning tadqiqot ishlarida ham migratsiyaning aholi qayta barpo bo'lishiga ta'siri ifoda etilmagan. D.Veresov sriq sovet hukumatining migratsiyani boshqarishdagi siyosatining mantiqsizligini o'z davrida qayd etdi (1987). U iqtisodiy qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun emigratsion siyosatni tashqi kuchlar bosimida idora etishni qoralagan;

**-uchinchidan**, D.Veresov bashorati aholining o'rtacha umr ko'rishi qisqartirilgan variantning qo'llanganligini oldingi tadqiqotchilar bashoratlaridan farqli jihatni sifatida ajratib ko'rsatadi. U bu ko'rsatkichning davriy tebranishi bashorat ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir etmasligini ta'kidlagan;

**-to'rtinchidan**, oldingi tadqiqotlarda ham, D.Veresov bashoratlarida ham aholining qayta barpo bo'lishiga fojeali omillar ta'siri e'tiborga olinmagan. Biroq, katta masshtabda Chernobil fojeasi singari fojea yuz bermagan bo'lsada, Sobiq Ittifoqning emirilishi katta hududni ishg'ol etgan. Imperiyadagi siyosiy o'zgarishlar aholi qayta barpo bo'lishida katta o'zgarishlarni sodir etdi va mamlakatlar oldiga talay yangi muammolarini qo'ydi. Albatta, o'z davrida umumiy ko'rinishga ega bo'lgan aholining qayta barpo bo'lishidagi bu kabi tadqiqotlar o'z natijalariga ko'ra ham Markaziy Osiyodagi demografik jarayonlar o'zgarishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Markaziy Osiyodagi demografik jarayonlarning spetsifik jihatlari to'g'risida O.B.Ota-Mirzayev ta'kidlaganidek, «Ijtimoiy demografik stereotip kelajakka qadar, hech bo'limganda joriy yuz yillik oxiriga qadar saqlanib qoladi». Markaziy Osiyo respublikalaridagi tub aholining asosiy qismida tug'ilishning yuqoriligi saqlanib qolishi ko'pchilik mahalliy olimlar tomonidan e'tirof etilgan.

Shundan farqli holatda M.Amanekov Turkmanistonda tug'ilishning pasayishi holati faollahuvi haqidagi ma'lumotlar keltiradi. A.G.Vishnevskiy Markaziy Osiyo va boshqa mintaqalarda tug'ilishning yuqoriligi sababli aholining qayta barpo etilishini bashoratlashga va aniq natijalarga erishishga har qanday nazariy tahlil, butun dunyo tajribasidan kelib chiqib yondashishi yoki alohida olib borilgan aniq tadqiqot ham yordam berolmasligini ta'kidlaydi.

Tug'ilishning yuqoriligi milliy xususiyat emas, dunyoda hech bir xalq yo'qki, uning tarixida tug'ilishning yuqoriligi an'anasi kuzatilmasa, qachonki tarixiy taraqqiyot bu an'anadan ob'ektiv asosda mahrum etar ekan, u bir muddat inertsiya kuchi singari saqlanib qoladi. Bu inertsiyaning qancha muddat davom etishi joy va vaqtning ko'plab xususiyatlari bilan bog'liq.

Shuningdek, bu bog'liqlik o'tmishdagi inertsiyaning hozirgi talablaridan kuchli emasligi bilan izohlanadi. Dunyo miqyosida tug'ilishning yuqori koeffitsienti taxminan 3,3 % ni va aholi takror barpo bo'lishining netto koeffitsienti 1,6 %, shuningdek, dunyoda aholining o'rtacha umr ko'rishidagi davomiylik taxminan 65

yoshni, tug'ilish va o'lim darajasi taxminan yiliga 15,5 % ni tashkil qiladi.

#### **Aholi takror barpo bo'lishining ikki tipi mavjud:**

1-tip. «Demografik qish»— iqtisodiy jihatdan yuqori rivojlanishdagi va ba'zi sobiq ittifoq davlatlari uchun xos. Bu tipdagi davlatlarda tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari past bo'lib, tabiiy o'sish «0»ga yaqin, ba'zi mamlakatlarda aholining tabiiy kamayishi bilan xarakterlanadi.

2-tip. «Demografik bahor»-tug'ilish ko'rsatkichlarining yuqoriligi va o'limning tug'ilishga nisbatan pastligi bu tipdagi davlatlar uchun xos. Ularga Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasidagi qator davlatlarni kiritish mumkin. Tug'ilishga nisbatan o'limning pastligi hozirgi kunda amalda dunyoning barcha mamlakatlari uchun xos, bu birinchi navbatda tibbiyotning rivojlanganligi epidemiya va bolalar o'limiga qarshi kurashdagi yutuqlar bilan bog'langan.

Rivojlanayotgan davlatlarda tug'ilishning yuqoriligi ko'pchilik mamlakatlarda milliy va diniy an'analar bilan bog'liq. Ularda oilani rejalashtirish tamoyili birinchi darajaga chiqmagan. «Demografik qish» hukm surayotgan mamlakatlarda aholining takror barpo bo'lishidagi o'rtacha formula  $13-10=3$  tabiiy o'sishning yuqori chegarasi yiliga 12 % dan oshmaydi. «Demografik bahor» hukm surayotgan mamlakatlarda esa, aholining takror barpo bo'lishining o'rtacha formulasi  $28-9=19$  tabiiy o'sishning quyi chegarasi yiliga 12 % dan ortadi. 2-chi tipdagi ko'pgina mamlakatlarda tabiiy o'sishning nihoyatda yuqoriligi «Demografik portlash» nomini olgan. Afrikadagi Tanzaniya, Mali, Uganda, Burkino-Faso, Niger kabi davlatlarda tug'ilish yiliga 50 % dan yuqori.

### **1.5. Demografiya statistikasi**

Aholi bilan bog'liq ma'lumotlarni to'plash, ilk davlatchilikning shakllanish davrlariga borib taqaladi. Hatto uzoq o'tmishda, ya'ni Rim imperiyasi davrida mamlakat harbiy qudratini oshirish maqsadida aholi, yoshi, jinsi haqida dastlabki ma'lumotlar to'planganligi tarixdan hammaga ma'lum.

Demografiyadagi asosiy axborot manbalari quyidagilar:

- Har 10 yilda bir marta o'tkazilib turiladigan aholi ro'yxati;
- Demografik hodisalarining joriy statistik ro'yxati (tug'ilish, o'lim, nikoh, ajralish) ning hisobi va uzluksizligi;
- Aholi joriy kartotekasining uzluksizligi;
- Alohida va maxsus kuzatuvlari;

Aholi ro'yxati bu mamlakat yoki uning biror hududida ma'lum vaqtida yashovchi aholi bilan bog'liq ma'lumotlar to'plami bo'lib, unda demografik va aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga oid ma'lumotlar tahlili va bahosi aks ettiriladi. Aholi ro'yxatida quyidagi masalalar o'rganiladi:

- mamlakat hududidagi aholi soni va joylashuvi, shahar va qishloq aholisi, aholi migratsiyasi;
- aholining milliy tarkibi, ona tili va muloqat tili, fuqaroligi;
- aholining ma'lumoti, qishloq xo'jaligi va sanoat yoki xizmat ko'rsatish tizimlarida bandligi, daromadlari;
- oilalarning kompleks va ijtimoiy tavsifiga ko'ra turi va soni;
- tug'ilish;

-aholining yashash sharoitlari va b.q.

Aholi tabiiy harakati hodisalarining joriy hisobi – asosan tug'ilish, o'lim, nikoh, ajralish hodisalarining qayd etilishidir. Aholi tabiiy harakatining joriy hisobi ikki nusxada qay etilib, ulardan biri arxivga, ikkinchisi esa fuqarolik holatlarini umumlashtirish, ma'lumotlar toplash va qayta ishlash uchun statistika muassasalariga topshiriladi. Biroq, bu ma'lumotlar jamlangan holda ham demografik jarayonlar intensivligini ifodalamaydi.

Demografik hodisalar hajmi aholi soni bilan bog'liq. Masalan, aholi zinch hududlarda ish o'rinarining kamligi va ortiqcha ishchi kuchlarining to'planib qolishi yoki aksincha, aholi siyrak hududlarda ish o'rinaliing ko'pligi va mehnat resurslarining etishmasligi holatlarini keltirib chiqarishi mumkin.

Aholining joriy kartotekasini turli ma'muriy davlat organlari yuritadi. Bu kartotekalar aniq maqsadlarni amalga oshirish maqsadida tuziladi va odatda aholining barcha qismini qamrab olmaydi, ya'ni ma'lum qismini (mikrorayon aholisi, ba'zi ijtimoiy guruhlarni) hisobga oladi.

Alovida va maxsus kuzatuvlar. Aholining alovida guruhlari haqida ma'lumot olish va uni barcha aholi guruhlari uchun joriy etishda aholi ro'yxatiga nisbatan kam kuch talab etadi va ko'proq muammolarni o'rganish imkonini beradi.

Aholiga oid ko'rsatkichlarni ikkiga ajratish mumkin, ular nisbiy va mutloq ko'rsatkichlardir. Mutloq ko'rsatkichlar ma'lum vaqtdagi demografik hodisalar yig'indisidir (bu vaqt oralig'i ko'pincha bir yilni tashkil etadi).

Masalan, unga ma'lum vaqtdagi aholi, tug'ilganlar, o'lganlar sonini kiritish mumkin. Shuningdek, mutloq ko'rsatkichlar orqali aholi haqida ko'p ma'lumotga ega bo'lish qiyin. Ko'proq ma'lumotga va tahlillarga ega bo'lish uchun ilgarigi ma'lumotlardan foydalaniladi. Bu, o'z navbatida, tahliliy ma'lumotlarga erishish va nisbiy ko'rsatkichlarni hisoblash imkonini beradi.

Qiyosiy tahlillar uchun faqatgina nisbiy ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Mazkur ko'rsatkichlarning nisbiy deb atalishining sababi shundaki, ular doimo qaysidir aholi soniga nisbatan taqqoslash natijasida hosil bo'ladi.

Aholi soni-aniq vaqtdagi aholi ko'rsatkichi bo'lib, bu ko'rsatkichlar orqali aholining mutloq o'sishi, o'sish tezligi va aholining o'rtacha sonini aniqlash mumkin bo'ladi. Aholi o'rtacha sonini, ya'ni ma'lum yildagi aholi o'rtacha sonini aniqlash uchun, quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$PS = \frac{S_0 + S_1}{2} = \quad \text{bu erda } P - \text{o'rganilayotgan davr (yil)}, \text{ aholi o'rtacha soni (S),}$$

yil boshidagi aholi mutloq soni ( $S_0$ ) va yil oxiridagi aholi mutloq soni ( $S_1$ ).

Aholining tabiiy harakati-tug'ilish va o'lim jarayonlari bilan bog'liq aholi sonining o'zgarishidir.

Tabiiy o'sish:  $\Delta_{tab} = T - O'$

Unda,  $T$  – tug'ilganlar soni,  $O'$  – o'lganlar soni.

Aholining tabiiy harakati ba'zan aholining umumiyo koeffisienti ham deb atalishining sababi tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari hisoblanganda aholining umumiyo soniga mos keladi. Biroq, aholining tabiiy harakati deb atashning ma'qulligi shundaki, tug'ilish va o'lim doimo turli tabiiy omillar ta'sirida bo'ladi va ma'lum

qonuniyatlarga muvofiq yuz berdi.  
Tug'ilishning umumiy koeffisienti:

$$U_{tk} = \frac{T}{PS} \times 1000 =$$

T – tug'ilganlar soni, P- o'rganilayotgan davr, S-o'rganilayotgan davrda aholini o'rtacha soni.

Bugungi kunda tug'ilish ko'rsatkichlari mamlakat kelgusi turmush tarzini belgilovchi eng muhim omildir. Chunki, kelgusidagi mamlakatning iste'mol ko'rsatkichlari ham aynan shu omil bilan bog'liq.

O'limning umumiy koeffisienti:

$$U_{ok} = \frac{O'}{PS} \times 1000 =$$

O' – o'lganlar soni, P- o'rganilayotgan davr, S-o'rganilayotgan davrda aholini o'rtacha soni.

Tabiiy o'sishning umumiy koeffitsienti:

$$U_{tab} = U_{tk} - U_{ok} =$$

$U_{tk}$  – tug'ilishning umumiy koeffisienti.

$U_{ok}$  – o'limning umumiy koeffisienti.

Migratsiya – aholining mamlakat hududidagi yoki davlatlararo mexanik harakatidir.

$\Delta_{mex} = \Delta_{kel} - \Delta_{ket}$

$\Delta_{kel}$  – ko'chib keluvchilar,  $\Delta_{ket}$  – ko'chib ketuvchilar.

Aholi sonining umumiy o'sishi:

$\Delta_{um} = \Delta_{tab} - \Delta_{mex}$

Unda  $\Delta_{tab}$  – tabiiy o'sish;  $\Delta_{mex}$  – migrantsion (mexanik) o'sish.

Mexanik o'sish koeffitsienti:

$$K_{mex} = \frac{\Delta_{mex}}{PS} \times 1000$$

Bunda  $S$  - aholi sonining yillik o'rtacha ko'rsatkichi. P- o'rganilayotgan davr.

Umumiy o'sish koeffitsienti:

$K_{um} = K_{tab} - K_{mex}$

Umumiy koeffitsientning afzalliklari quyidagilardan iborat:

-Aholi sonidagi farqlarni (noaniqliklarni) bartaraf etadi (u doimo ming kishiga nisbatan hisoblanadi) va hududdagi aholi sonini turli demografik jarayonlar darajasi bilan qiyoslash imkonini beradi;

-Murakkab demografik hodisa va holatlarni bitta raqam yordamida ifodalaydi va voqelikni umumlashtiruvchi xususiyatga ega;

-Rasmiy statistik nashrlarda umumiy koeffitsientlarni hisoblash uchun ilgarigi ma'lumotlardan ham foydalaniadi;

-Ommaviy axborot vositalarining foydalanishi va ommaning tushunishi uchun qulay.

### ***O'zbekiston aholisi tabiiy harakatining umumiy koeffisientlarini hisoblash.***

Masalan, 2020 yil 1-yanvar ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston aholisi yil boshida  $S_0=33255,5$  ming kishi va yil oxirida  $S_I=33905,8$  ming kishini, tug'ilganlar soni  $T=815,9$  ming kishi, o'lganlar soni  $O'=155,0$  ming kishini tashkil etgan. Shu ma'lumotlarga ko'ra, avvalo, aholining yillik o'rtacha sonini, so'ngra ba'zi koeffisientlarni hisoblab topamiz:

$$S = \frac{33255,5 + 33905,8}{2} = 33580,7 \text{ ming kishi}$$

Tug'ilishning umumiy koeffisienti:

$$Utk = \frac{T}{S} \times 1000 = \frac{815,9}{33580,7} \times 1000 = 24,3\%$$

O'limning umumiy koeffisienti:

$$Uo'k = \frac{O'}{S} \times 1000 = \frac{155,0}{33580,7} \times 1000 = 4,6\%$$

Tabiiy o'sishning umumiy koeffisienti:

$$Utab\Delta k = \frac{T - O'}{S} \times 1000 = \frac{660,9}{33580,7} \times 1000 = 19,7\%$$

2020 yildagi umumiy o'sish:

$$\Delta um = S_I - S_0 = 33905,8 - 33255,5 = 650,3 \text{ ming kishini},$$

Tabiiy o'sish:

$$\Delta tab = T - O' = 815,9 - 155,0 = 660,9 \text{ ming kishini},$$

Migratsion o'sish:

$\Delta mex = \Delta um - \Delta tab = 650,3 - 660,9 = -10,6$  ming kishini tashkil etgan. Shunga muvofiq ravishda aholining umumiy o'sish koeffisienti quyidagicha bo'lган.

$$\Delta umk = \frac{650,3}{33580,7} \times 1000 = 19,4\%$$

$$\Delta mexk = \frac{-10,6}{33580,7} \times 1000 = -0,3\%$$

Natija: 2020 yilda O'zbekiston aholisining tabiiy o'sishi 660,9 ming kishini, migratsion (mexanik) o'sishi -10,6 ming kishini, umumiy o'sish 650,3 ming kishini va tug'ilishning umumiy koeffitsienti 24,3 % ni, o'limning umumiy koeffitsienti 4,6 % ni, tabiiy o'sishning umumiy koeffitsienti 19,7 % ni va shunga muvofiq ravishda umumiy o'sish koeffitsienti 19,4 % ni, migratsion (mexanik) o'sish koeffitsienti -0,3 % ni tashkil etgan.

2020-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, O'zbekistonda doimiy aholi soni 33 million 905,8 mingdan ziyod kishini tashkil qildi. 17,1 milliondan ortiq kishi-shahar (umumiy aholi sonining 50,5 foizi) va 16,8 millionga yaqin kishi-qishloq joylarida (49,5 foizi) istiqomat qiladi. 2020-yilda O'zbekistondagi tug'ilishlar soni-815,9

mingni, o'lganlar soni-155,0 mingni, bir yoshga to'lмаган болалар о'лми сони esa 7,4 mingni tashkil qildi.

2020-yilning yanvarida FHDYo organlarida 310,9 mingta nikoh va 31,4 mingta ajralish ro'yxatga olindi. Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilning yanvar oyida respublika bo'yicha ko'chib kelganlar soni 158,8 ming kishini, shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni esa 169,5 ming kishini tashkil qildi.

## 1.6. Aholi qonunlari va nazariyaları

Aholi geografiyasi har bir ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyaga xos bo'lgan mamlakat aholisi o'rganilayotganiga qarab, o'sha jamiyatning aholi qonuniga asoslanadi. Har bir jamiyat aholisini o'sha jamiyatning asosiy iqtisodiy qonuniga, aholi qonuniga asoslanib o'rganish lozim. Chunki, aholining juda ko'p ko'rsatkichlarini (hududiy joylanishi, xalq xo'jaligi tarmoqlari bo'yicha va shahar bilan qishloq o'rtaida taqsimlanishi, tarkibi, migratsiyasi va boshqalarni) tushuntirishda jamiyatning aholi qonuni negiz hisoblanadi. Bugungi jamiyatning asosiy iqtisodiy qonuning mohiyati, butun ishlab chiqarishning asosiy maqsadi xalqning doimo oshib boradigan moddiy va nomoddiy ehtiyojlarini qondirishdan iboratdir. Bir vaqtlar kapitalizm (...ishchi aholisi kapital jamg'arib borib shu bilan o'zi shunday vositani ko'p ishlab chiqaradiki, bu vositalar shu ishchi aholisining o'zini nisbiy ortiqcha aholi qilib qo'yadi) va ijtimoiyizm (u ishsizlik va aholi nisbiy ortiqchaligini butunlay tugatish, mehnatkashlarni ijtimoiy ishlab chiqarishda to'la band qilish negizida, ularning moddiy va madaniy turmush darajasini tinmay oshirib borish, shaxsni har tomonlama taraqqiy ettirish va aholining o'zini progressiv hamda ijtimoiy jihatdan sog'lom tarzda takror barpo qilishni ta'minlab beradi) qonunlari amal qilingan va tahlil qilingan.

Masalan, bugungi kunda O'zbekistonda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat asoslari Prezidentimiz Islom Karimov tomonidan asoslab berganidek, mamlakatni yangilash va modernizatsiyalash tadrijiylik va izchillikka erishish kafolati bo'lib xizmat qilishi mumkin. Taraqqiyotning **o'zbek modeli** rivojlanish tamoyillarini to'g'ri tanlab olishda asos bo'lib xizmat qildi. O'zbekistonda demokratik taraqqiyot yo'llini tanlashda respublikaning o'ziga xos xususiyatlari, xalq an'analari va milliy urf-odatlari, turmush tarzining hisobga olinganligi aynan o'z yo'limizni topa olishimizga asos bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov tomonidan adolatli, demokratik huquqiy davlat qurishning besh asosiy tamoyilining ilgari surilishi ham shundan.

Bu esa respublikada yangi ijtimoiy tuzumga o'tishning puxta o'ylangan strategiyasini ishlab chiqish imkonini berdi. Albatda, bunda davlatimiz rahbari tomonidan demokratik davlat qurishda o'zini oqlagan jahon tajribasi chuqur o'rganildi. Sharqona bosiqlik asosida olib borilgan sa'y-harakatlar tufayli O'zbekistonda demokratik davlat qurish strategiyasining milliy davlatchilik, iqtisodiyot va ma'naviyatni yuksaltirishga qaratilishiga erishildi. Mamlakatimizning mavjud tabiiy-iqtisodiy, mineral xomashyo va insoniy salohiyatini xolisona baholagan holda jahon xo'jalik aloqalari tizimidan munosib joy egallashga muvaffaq bo'linmoqda.

Demokratik davlat qurish tamoyillari, ya’ni iqtisodning siyosatdan ustuvorligi, davlatning bosh islohotchilik faoliyati, qonun ustuvorligiga erishish, kuchli ijtimoiy himoyani amalga oshirish, bozor iqtisodiyotiga evolyutsion yo’l bilan, bosqichma-bosqich o’tish O’zbekistonning strategik rivojlanishi uchun asos bo’ldi. Shu tariqa jamiyat hayotining siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy sohalarida taraqqiyotning o’zbek modeli namoyon bo’lmoqda, demokratik davlat qurish jarayonlarida inson erkinligi, huquqlari va manfaatlari ta’milanganmoqda.

**Prezident Sh.M.Mirziyoyev** alohida ta’kidlaganlaridek: “Urbanizatsiya jarayonlarini jadallashtirgan holda, hududlarni kompleks rivojlantirish, aholi uchun munosib turmush sharoitini yaratish kerak. Ana shu ishlar doirasida 7 ta yirik shahar – Andijon, Buxoro, Samarcand, Qarshi, Farg’ona, Namangan, Nukusga tutash bo’lgan 12 ta yo’ldosh shaharcha tanlab olinib, ularni rivojlantirish yuzasidan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Ana shu vazifa bilan bog’liq yana bir masala shuki, asosiy ishchi kuchi yashaydigan va ish o’rinlari yaratilayotgan hududlarimiz o’rtasida tafovut mavjud. Buning echimi – ichki migratsiyani erkinlashtirishdan iborat.

Jumladan, uy-joy qurilishiga xususiy sektorni faol jalb qilmasdan turib, aholining uy-joyga bo’lgan talabini to’liq ta’minalash mumkin emas. Shu sababli yangi ipoteka tizimi joriy etilmoqda. Bu borada viloyatlardagi shaharlar va Toshkent shahrida 18 mingga yaqin hamda qishloqlarda 4 mingta uy-joy xususiy sektor tomonidan quriladi. Davlat, banklar o’rtasida sog’lom raqobatni ta’minalash maqsadida ularga qariyb 4 trillion so’m mablag’larni auktzionlar orqali ajratadi. Kam ta’milangan aholini qo’llab-quvvatlash maqsadida shaharlarda 16 ming oilaga uy-joy olish uchun boshlang’ich badal va kredit foizini qoplashga byudjetdan 1 trillion so’m subsidiya ajratiladi. **Mening eng katta niyatim shuki, Vatanimiz ichra har bir inson o’zining “kichik vatani”ga – uy-joyiga ega bo’lsa, bizdan xalqimiz ham, Yaratgan ham rozi bo’ladi.** Oxirgi uch yilda “**Inson manfaatlari hamma narsadan ustun**” degan tamoyil asosida, xalqimiz hayotini tubdan yaxshilash bo’yicha olib borayotgan keng ko’lamli ijtimoiy islohotlarni davom ettiramiz. Buning uchun **birinchi navbatda** aholi farovonligini oshirish va uning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish – biz uchun bosh vazifalardan biri bo’lib qoladi”<sup>2</sup>.

Natijada mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga xos **aholi qonuni** amal qila boshladi. Ushbu qonunning tub mohiyati shundan iboratki, u ishsizlikni tugatish, aholini ijtimoiy ishlab chiqarishda to’la band qilish negizida, ularning moddiy va madaniy turmush darajasini tinmay oshirib borish, shaxsni har tomonlama taraqqiy ettirish va aholining o’zini progressiv hamda ijtimoiy jihatdan sog’lom tarzda takror barpo qilishni ta’milab beradi.

Ushbu doirada ijtimoiy-iqtisodiy islohatlar negizida, qisqa qilib aytganda ishlab chiqarish doirasida quyidagi jarayonlar amalga oshirilib borilmoqda:

**-Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash**-ishlab chiqarishni zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, tarkibiy jihatdan texnik va texnologik qayta tuzish, ishlab chiqarishni ma’naviy jihatdan yangilash;

<sup>2</sup> O’zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaatnomasi. “O’zbekiston ovozi”-gazetasи. №08. 2020-yil, 25-yanvar

**-Tarkibiy o'zgarishlar**-iqtisodiyotning muhim tarmoqlarini rivojlantirish, yangi o'zak tarmoqlarni barpo etish, samarali va mustaqil iqtisodiyotni shakllantirish;

**-Diversifikatsiya**-korxona va tarmoqlar faoliyat sohalarini kengaytirish, mahsulot va xizmat turlarini yangilash, mahsulot va xizmat turlarini ko'paytirish.

**-Mahalliylashtirish**-ishlab chiqarish jarayonida mahalliy xomashyo va resurslardan kengroq foydalanish, milliy korxonalar uchun butlovchi qismlarni mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan etkazib berish, importni qisqartirish evaziga valyuta resurslarini tejash.

Ushbu bozor iqtisodiyoti aholi qonunining tub mohiyati tarixan yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar zaminida yotadi, bozor iqtisodiyotining tabiatini bilan belgilanadi. Bu aholi qonunining amal qilishi natijasida mehnatga layoqatli butun aholini to'la band qilish zarurati va imkoniyati vujudga keladi. Iqtisodiyotni bozor iqtisodiyoti qonunlari asosida rejali va proportsional (oqilona, samarali) rivojlantirish qonuni, ishchi kuchidan samarali foydalanishni taqozo etadi. Bu qonun, dastavval, mamlakat ichida, iqtisodiy rayonlar, viloyatlar, tumanlar, shahar va qishloqlarda mehnat resurslarini oqilona joylashtirishni ko'zda tutadi.

Ishlab chiqarishni hududiy asosda tashkil etishda mehnat resurslari muhim omil sifatida maydonga chiqadi. Bundan tashqari faqat ishlab chiqaruvchi kuchlarni oqilona, hududiy tashkil etilishi kishilarning hayoti va faoliyati uchun eng qulay sharoitlarni yaratib berish maqsadida shaharlar, qishloq aholi manzilgohlarini rivojlantirish va joylashtirishni rejalashtirishga muqarrar suratda asoslanadi. **Umuman** har bir formatsiyaga xos bo'lган aholi qonunlarining tub mohiyati ishlab chiqarish vositalariga mulkchilik shakliga qarab belgilanadi.

#### **Aholi haqida ayrim nazariyalarga e'tibor bersak:**

-ingliz popi, T.R.Maltus (1766-1834) nazariyasi. 1798 yilda "Aholi qonuni haqida tajriba" nomli kitobi nashr etildi. Bu kitobda aytilishicha, aholi geometrik progressiyada (1, 2, 4, 8, 16 va hokazo) ko'payadi, har 25 yilda uning soni ikki hissa orta boradi, tirikchilik vositalari esa, arifmetik progressiyada (1, 2, 3, 4, 5 va hokazo) ko'payadi, shuning uchun ham tez o'sayotgan aholini oziq-ovqat bilan ta'minlab bo'lmaydi.

Nazariyani asosiy mohiyati shundan iboratki, er shari aholisini tirikchilik vositalari bilan ta'minlab bo'lmaydi, shuning uchun qirg'in urushlar olib borish, kasalliklar tarqatish, tug'ilishni keskin kamaytirish yo'li bilan aholining bir qismini yo'q qilish va bundan keyingi o'sishga chek qo'yish kerak deydi.

Masalan, yaponiya siyosati (endi hududimiz bizni oziq-ovqat bilan ta'minlay olmaydi, shuning uchun boshqa hududlarni bosib olishga otlanish zarur). Shuningdek, Mussolina Italiyaning Habashistonni olishini quyidagi so'zlar bilan oqlamoqchi bo'lган: "O'z hududida mumkin bo'lган hamma erlardan foydalangan va ochdan o'lishni xohlamayotgan, tez ko'payayotgan zotli xalq uchun bosib olish (ekspansiya) siyosati maqbuldır". Nemis fashistlari ham yapon va italyanlar singari "hayot makoni uchun kurash" nomli nazariyani ilgari surdlar.

Neomaltuschilar (yangi zamon maltuschilari)-Tabiiy resurslarning cheklanganligini dalil qilib, dunyo aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlab bo'lmaydi, shuning uchun shoshilinch choralar ko'rib, aholini kamaytirish kerak deganlar. Yangi zamon maltuschilari o'rtasida ham bir-biridan farq qiluvchi turli **oqimlar** mavjudligi

e'tirof etilgan.

*Ayrim neomaltuschilar* ochiqdan-ochiq urushni targ'ib qiladilar. Bunda ular urushlar “mutlaq ortiqcha aholini” yo’q qilish yo’ligina emas, balki “oliy” angl-saks irqining boshqa “past” irqlar ustidan hukmronligini ta’minlaydigan oliy irqli aholiga ega bo’lgan “buyuk” davlatlarning hududlarini kengaytirish vositasi deb qaraydilar. Ana shunday g’oyaga boy bo’lgan “asar” neomaltuschi U.Fogtning (AQSh) “Najot yo’li” kitobidir. Fogt aholi o’rtasida o’lim koeffitsientining yuksak bo’lishi, zamon madaniyatini saqlab qolishning eng asosiy yo’lidir, deb yozadi.

Uning fikricha, vrachlar odamlarni o’limdan saqlab qolib, “eng katta jinoyat” qilmoqdalar. Fogt har qanday yo’l bilan aholi sonini kamaytirishni taklif etadi va butun qobiliyatini ishga solib, urushlarni ko’kka ko’tarib maqtaydi. Shunisi ajablanarliki, Fogtning bu ishi AQSh ning taniqli atomchi olimi Barux tomonidan yozilgan so’z boshi bilan nashr qilingan. Barux so’z boshida AQSh davlat arboblariga bu “qimmatli asar” bilan tanishib chiqishni tavsiya etadi. Bu o’sha davrda imperializmnинг yangi urush siyosatini oqlashga qaratilgan edi.

*Liberal maltuschilar*-asosiy g’oyasi shundan iboratki, “demografik inqilob” davrida insoniyat oldida ikkita katta xavf paydo bo’lgan. Bu xavfning biri atom bombasi bo’lsa, ikkinchisi aholi ortiqchaligidir. Ba’zi bir liberal maltuschillarning fikricha “demografik portlash” (ya’ni aholining tez o’sishi) hatto atom bombasining portlashidan xavfli emish. Liberal maltuschilar ana shunday fikrga asoslanib, yangi urushning oldini olishning birdan-bir yo’li aholi o’sishini kamaytirish deb tushunganlar (liberal maltuschillarning vakillari G. Klark, A. Styuart, M. Mannes, F. Lorimer va boshqalardir.).

Umuman yangi zamon maltuschilari, tub mohiyati deyarli bir xil bo’lgan, ammo har xil nom bilan ataluvchi “yangi nazariyalar” ni ilgari surganlar. Ana shunday nazariyalardan biri aholining optimal soni haqidagi nazariya (**optimum nazariyasi**) dir. Bu nazariya har bir mamlakat aholisi sonini u erda ishlab chiqarishning erishgan darajasiga tenglashtirishni tavsiya etadi. Aholisi ko’p (tez o’sayotgan), ammo iqtisodiyoti qoloq mamlakatlar aholisining ortiqcha qismini qirib tashlash tavsiya etiladi. Shuningdek, biometriya, qashshoqlikning mudhish doirasi, antroposotsiologiya, V. Zombartning aholi haqidagi sotsiologik nazariyasi, umumiy farovonlik davlati, yagona industrial jamiyat kabi nazariyalarning demografik variantlari va boshqalar. Bu nazariyalar bilan maxsus kitobchada batafsil tanishishingiz mumkin (G.Asanov, Aholi o’sishi va hayot resurslari, Toshkent, “Fan” nashriyoti, 1970.).

## 1.7. Aholi geografiyasi va demografiya asoslarining tadqiqot usullari

**Aholini o’rganishda** tadqiqot usullarini tanlash va ularidan samarali foydalanish, ta’lim oluvchi ishining samaradorligini oshiradi. Geografik va iqtisodiy tadqiqotlarda tadqiqot usullari dialektik usullarning tarkibiy qismi hisoblanib, ta’lim-tarbiya o’qitish jarayonlaridagi metodik usullardan birmuncha farq qiladi. Biroq, mavjud tajribalarni o’rganish va umumlashtirish, kuzatish, ekspedisiya, anketa so’rovlari asosida suhbat, eksperiment va tajriba usullaridan geografik va iqtisodiy tadqiqotlarda ham foydalilanadi. Masalan, tadqiqot qilinayotgan ob’ekt haqidagi

axborot va xizmatlarni o'rganib chiqish usuliga har qanday tadqiqotda zaruriyat tug'iladi yoki eksperiment va tajriba usuli bugungi kunda iqtisodiy va geografik tadqiqotlarda keng qo'llaniladi. Chunki, iqtisodiyotda biror yangilik yoki modelni to'g'ridan-to'g'ri amaliyotga tadbiq etish mumkin emas, ya'ni, agar u tajribada sinalmagan bo'lsa, sohada shunday qaltsiliklarni keltirib chiqaradiki, natijada bu qaltsiliklar iqtisodiyotning biror tarmog'ini yoki butun iqtisodiyotning izdan chiqishiga olib keladi.

Shuningdek, «Aholi geografiyasi va demografiyasi» nomli kursning ham xususiy metodologiyasi mavjud bo'lib, bu ishlab chiqarishning rivojlanishi, yuksalishida muhim vazifa bajaruvchi inson omilidan unumli foydalanishga asoslanadi. «Aholi geografiyasi va demografiyasi» nomli kursning tadqiqot usullari quyidagilar:

- Geografik taqqoslash usuli;
- Tarixiy qiyoslash usuli;
- Iqtisodiy-matematik usul;
- Statistik va ko'p o'lchamli statistik usul;
- Qiyosiy va iqtisodiy qiyosiy tahlil usuli;
- Me'yoriy-balans hisobi usuli;
- Kartografik tadqiqot usuli;
- Sotsiologik so'rovlар o'tkazish usuli;
- Omillarni tahlil qilish usuli;
- Iqtisodiy prognoz usuli.

*Geografik taqqoslash usuliga* ko'ra o'rganilayotgan sohani tahlil etishda hududga asosan e'tibor qaratiladi. Bunda asosan hududning tabiiy shart-sharoiti muhim o'rinni tutadi. Masalan, aholi migratsiyasiga boshqa omillar bilan bir qatorda, tabiiy shart-sharoit o'zgarishi ham ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, qurg'oqchilik, hududning cho'llanishi, sho'rланish kabi jarayonlar qishloq xo'jaligi yoki ishlab chiqarishning biror tarmog'ida ish samaradorligini susayishini keltirib chiqaradi. Natijada, aholining bir joydan ikkinchi joyga ko'chib borib ishslash zaruriyati kelib chiqadi. Bu kabi vaziyatlarning yuzaga kelishi albatta, joyning geografik shart-sharoitlari bilan bog'liq.

*Tarixiy qiyoslash usuli* deyarli barcha fanning tadqiqot usuli hisoblanadi. Chunki, o'rganilayotgan biror sohaning ertasi albatta, uning tarixi bilan bog'liq. Jumladan, «Aholi geografiyasi va demografiyasi» nomli kursni o'rganishda ham tarixiy qiyoslash usuli muhim o'rinni tutadi. Masalan, 2020 yilda dunyo aholisi soni 7,8 milliarddan oshgan bo'lsa, agar eramiz boshida aholi soni 175 million kishi bo'lganini e'tiborga olganda, taxminan XX asr davomida aholi 44,5 martaga o'sgan.

*Iqtisodiy-matematik usul.* Tadqiqot natijalarini tahlil etish uchun matematik usulni qo'llash katta imkoniyat yaratadi. Biroq, shuni ta'kidlash lozimki, iqtisodiy matematik usul ikki yoki undan ortiq holatlar o'rtasidagi ishonchli farqlarni qayd qilishi mumkin. Iqtisodiy-matematik usul yordamida har doim ishonchli natijalarga erishib bo'lmaydi. Chunki, o'rganilayotgan sohasining rivojlanishi yoki ko'rsatkichlarning pasayishiga turli ob'ektiv va sub'ektiv omillar ta'sir ko'rsatib turadi.

*Statistik va ko'p o'lchamli statistik usul.* Geografik va iqtisodiy tadqiqotlarda

statistik va ko'p o'lchamli statistik usul yordamida turli–tuman omillar ta'sirida shakllanuvchi holatlarni o'rganish imkonini beradi. Bu usul bugungi kunda iqtisodiy, sotsiologik, demografik, psixologik va hatto pedagogik tadqiqotlarda keng qo'llanilmoqda. Jumladan, iqtisodiyotda yillar yoki biror iqtisodiy rivojlanish bosqichdagi ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini taqqoslash, yillar davomidagi o'rtacha ko'rsatkichlarni hisoblab topishda foydalanilsa, sotsiologik tadqiqotlarda aholining maishiy shart-sharoitlari holatini tahlil qilish yoki umumiyl natijalarga erishishda, demokratik tadqiqotlarda aholining tabiiy o'sishi, mehnat resurslari dinamikasi yoki ularning ma'lum yillardan keyingi holatini prognozlashda, psixologik tadqiqotlarda aholi yoki uning ma'lum qatlaming ruhiy holatini tadbiq etish va uning ijtimoiy omillarini aniqlash kabi korreliyatson natijalarga erishishda foydalanish mumkin.

*Qiyosiy va iqtisodiy qiyosiy tahlil usuli.* Iqtisodiy va geografik tadqiqotlarda iqtisodiy qiyosiy tahlil usulini chetlab o'tib tadqiqotni amalga oshirish mumkin emas. Chunki, har qanday iqtisodiy va iqtisodiy geografik tadqiqotda o'rganilayotgan hudud boshqa hudud bilan yoki sohaning turli hududlardagi holati tahlil etiladi. Ko'pgina holatda qiyosiy tahlil etish yordamida juda muhim muammolarni va bu muammolarning paydo bo'lish omillarini tadqiq etish imkonini beradi. Umuman, qiyosiy va iqtisodiy qiyosiy tahlil usuli yordamida tabiat, ishlab chiqarish va aholi bilan bog'liq juda dolzarb muammolarni va ularning paydo bo'lish omillarini aniqlash mumkin.

*Me'yoriy-balans hisobi usuli.* Me'yor va nisbat tushunchasi tabiatning eng muhim qonuniyatlaridan biridir. Geografik va iqtisodiy tadqiqotlarda me'yor-balans hisobi usuli keng foydalaniladi. Jumladan, aholining tug'ilishi, tabiiy o'sishi, migratsiyasi bilan bog'liq shunday qonuniyatlar borki, bu qonuniyatlarning mohiyatini ochib berishda yoki tadqiq etilayotgan masalaga aniqlik kiritishda me'yoriy-balans hisobi usulidan keng foydalaniladi.

*Kartografik tadqiqot usuli.* Geografik va iqtisodiy tadqiqotlarda kartografik tadqiqot usulidan foydalanish tadqiqot ishining vazifasida ko'zda tutilgan xususiyatlarining uyg'unligini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Chunki kartalarda geografik va ijtimoiy iqtisodiy elementlar uyg'unligi bir-birini to'ldirish bilan birga, mamlakat yoki hududning tabiatini va uning boyliklarini, iqtisodiyotini, madaniy-ma'rifiy va tarixiy xususiyatlarini o'zida jamlagan bo'ladi. Tadqiqot ishi davomida tadqiqotchi uchun kartalardagi ma'lumotlardan foydalanishda qulaylik yaratadi yoki tadqiqot ishi natijasida tuzilishi lozim bo'lgan kartaning mukammalligini ta'minlash uchun tadqiqotchiga namuna vazifasini o'taydi. Ba'zan tadqiqot vazifasida ko'zda tutilmagan qirralarini yoki xususiyatlarini ham yoritish imkonini beradi va tadqiqot ishining mukammalligini oshiradi.

*Sotsiologik so'rovlар o'tkazish usuli.* Sotsiologik so'rovlар usuli ayniqsa, aholining ijtimoiy demografik holatini o'rganishda ko'p qo'llaniladi. Anketa so'rovlari ma'lum maqsaddan kelib chiqib, keng qamrovli tuzilganligi tadqiqotni samarali o'tkazishda muhim ahamiyatga ega. Dastlabki umumiyl savollar (yashash joyi, tug'ilgan yili, millati, jinsi, ma'lumoti, mutaxassisligi, mutaxassislik bo'yicha ishlayotgan yoki ishlamayotganligi, sababi, ijtimoiy kelib chiqishi, oilaviy ahvoli, farzandlar soni, bir hovlida necha kishi yashashi, oilaning o'rtacha yillik daromadi kabi savollar) har bir anketa so'rovlari berilishi kerak. Keyingi beriladigan

savollar tadqiqot mavzusiga bevosita tegishli bo'lishi lozim. Masalan, aholining ichki va tashqi migrantsiyasini o'rganish uchun quyidagi savollarning bo'lishi maqsadga muvofiq:

1. Siz yashash joyingizni o'zgartirishni xoxlaysizmi?
2. Nima sababdan yashash joyingizni o'zgartirmoqchisiz?
3. Agar boshqa joyga ko'chishni xoxlasangiz, qaerga ko'chgan bo'lardingiz?
4. Agar boshqa davlatga ko'chishni xoxlasangiz sababini ko'rsating.
5. O'zbekistonning boshqa joyiga ko'chishni xohlasangiz sababini ko'rsating.
6. Hozirgi kunda oila a'zolaringiz orasida O'zbekistonning boshqa shaharlarida o'qiyotgan, ishlayotgan, yashayotganlar bormi?
7. Hozirgi kunda oila a'zolaringiz orasida chet mamlakatlarda o'qiyotgan, ishlayotgan, yashayotganlar bormi?

*Omillarni tahlil qilish usuli.* Geografik tadqiqotlarda muammoning kelib chiqishi yoki uni tartiblash omillarini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ular tadqiqot maqsadi va doirasiga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin:

1. Tabiiy omillar;
2. Iqtisodiy omillar;
3. Demografik omillar;
4. Etnik omillar;
5. Ijtimoiy-psixologik omillar va boshqalar.

Omillarni o'z navbatida ikkiga bo'lish mumkin: 1) sub'ektiv omillar, ya'ni inson faoliyati bilan bog'liq bo'lgan yoki inson faoliyati natijasida yuzaga kelgan omillar. Yuqorida demografik, ijtimoiy-psixologik, etnik omillar shular jumlasidandir. 2) ob'ektiv omillar, ya'ni inson faoliyati bilan bog'liq bo'lмаган omillar. Masalan, qurg'oqchilik, sho'rланish, toshqinlar, ko'chkilar, ob-havodagi keskin o'zgarishlar kabilar tabiiy omillar hisoblanib, ishlab-chiqarishning biror mavsumda izdan chiqishiga yoki butunlay inqiroziga olib kelishi mumkin.

*Iqtisodiy prognoz usuli.* Geografik va iqtisodiy tadqiqotlarda iqtisodiy prognoz qo'llanishi ishlab chiqarish hajmining ortishi yoki tabiat resurslaridan samarali foydalanish yo'nalishlarini belgilab beradi. Ko'pchilik holatlarda prognoz ya'ni kutilgan natija yuz bermasligi mumkin. Biroq, kutilgan natija yuz bermagan holatlarda shu soha yoki tarmoq tadqiqotchilari uning omillarini izlab topishga intiladi. Prognoz – tadqiqot ishining sterjeni bo'lib, u tadqiqot jarayonini boshqaradi va uni ichki mantiqiga bo'ysundiradi. Ko'pgina mashhur tadqiqotchilar prognozning bo'lмаганидан ko'ra, uning xato bo'lsada, mavjudligini afzal ko'rishadi.

Biror iqtisodiy jarayonni prognoz qilishda, ma'lum vaqt oralig'idagi ko'rsatkichlar yoki voqealar rivoji tahlil etiladi va shu asosda jarayonning kelgusidagi holati prognoz qilinadi. Prognoz qilishda ilmiy asoslangan biror qonuniyat yoki mexanizm mavjud emas. Ba'zan iqtisodchilar statistik prognoz usullariga asoslanib, biror tarmoqning istiqboli to'g'risidagi 5-10 yil keyingi prognozlarni keltiradi. Ko'pchilik holatda bu prognozlar o'zini oqlamadi. Chunki, u yoki bu omillar ta'sirida kutilgan natija kuzatilmaydi. Shu bois, tadqiqot prognozlarini inkor qilib bo'lmaydi. Ya'ni agar amalga oshmasa, tadqiqotchi oldiga «Nima uchun?» degan savolni qayta-qayta qo'yaveradi.

## **2 BOB. AHOLINING DEMOIJTIMOIY HARAKATLARI**

### **2.1. Aholining jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati**

Ilmiy manbalarda, sayyoramizda inson ajdodlarining paydo bo'lishi davri haqida turlicha qarashlar mavjud. Ko'pchilik antropolog olimlar fikricha, sayyoramizda bundan 5-7 million yil avval insonning dastlabki ajdodlari (avstralopetiklar) Afrika va Osiyoning tropik va ekvatorial zonalarida yashaganlar. Keyinchalik, 2-3 million yil ilgari avstralopetiklardan eng qadimgi insonlar-arkantroplar shakllanganlar va ular sharqiy Afrikada istiqomat qilganligini qayd etganlar.

Bundan 600-700 ming yil muqaddam insonning eng qadimgi ajdodi bo'lgan arxantroplar paleontoplarga, pitekantoplarga va neandertallarga aylanganlar va Janubiy-Sharqiy hamda Janubi-G'arbiy Osiyoga tarqalganlar. Nihoyat, bundan taxminan 40-50 ming yil ilgari insonning ongli (*Homo Sapines*) ajdodi shakllangan. Ongli insonning paydo bo'lishi mezolit davriga to'g'ri keladi. Aholi soni haqidagi dastlabki ma'lumotlar eramizdan oldingi davrga ta'lluqli bo'lib, bu davrda er kurrasida bor-yo'g'i bir necha yuz ming kishi yashagan xolos. Aniqroq ma'lumotlar bo'yicha esa eramizdan 7 ming yil oldin er kurrasida 10 millionga yaqin aholi yashagan. Ular har 1000 yilda taxminan 10-20%dan ko'payib borgan xolos. Aholining bunday sekin ko'payishi aholi o'rtasida o'lim hollarining yuqoriligi bilan izohlanadi. Ushbu davrda aholi o'rtasida o'limning umumiyo koeffitsienti 50 promille va undan yuqori bo'lgan. Ayniqsa, bolalar o'limi yuqori bo'lgan. Aholi ko'proq ochlikdan, kasallikkordan va qabilalararo bo'lib turgan to'qnashuvlardan ko'proq halok bo'lganlar, aholining o'rtacha umr ko'rishi 20 yildan oshmagan.

Shuni alohida qayd etish lozimki, har bir davr aholisining ko'payishi va rivojlanishi shu davrning ishlab chiqarish usuli va munosabatlariga, turmush darajasiga, yashash sharoitlariga bevosita bog'liq bo'lgan. Jamiyat rivojlanishining birinchi bosqichida er yuzi bo'yicha aholining ko'payishi juda sekin kechgan. Aholi sonining ko'payib borishida va joylashuvida qabilalar joylashgan maskanlarning tabiiy sharoitlari, suv resurslari, iqlim asosiy omil hisoblangan. Turli tabiiy ofatlardan ba'zi qabilalar qirilib ketgan. Ayniqsa, sovuq iqlimli, qishi uzoq davom etuvchi hududlarda aholi sovuqdan, ocharchilikdan ko'plab halok bo'lgan. Ana shu bois, Evrosiyoning shimoliy qismida aholi juda siyrak joylashgan. Amerika va Avstraliyada ham paleolit davrining oxirlarida juda kam aholi istiqomat etgan. Tabiiy sharoiti inson yashashi uchun qulay, suv resurslari mavjud hududlarda, ya'ni, O'rta Er dengizi atroflarida Shimoliy Afrika, Evrosiyo materigining janublarida esa aholi zichroq joylashgan.

Ibtidoiy jamoa davrida, aholining yashash sharoiti juda og'ir edi. Insonlar g'orlarda istiqomat etishgan. Tog' toshlardagi tabiiy g'orlar odamlar uchun yakkayu-yagona boshipana vazifasini o'tagan. Eng muhim qorin to'yg'azish, biron bir joyda tunash bo'lgan. Ular ovchilik va turli xil yovvoyi holdagi mevalar bilan kun ko'rishgan, tabiiy ofatlarga qarshi kurasha olmaganlar. Muhitning tabiiy ta'siriga ongli choralar qo'llay bilmaslik sababli, aholi o'rtasida o'lim ham yuqori bo'lgan. Manbalarda yozilishicha, ibtidoiy jamoa davrida aholining o'rtacha umr ko'rishi 20-25 yoshni tashkil etgan, xolos. Ibtidoiy davr odamlari hozirgi davr odamlariga

nisbatan 3-3,5 marta kam yashaganlar. Shunday bo'lsa-da, aholi soni sekinlik bilan ko'payib borgan.

Aholining ko'payishining asosiy sababi tug'ilishning yuqori darajada (fiziologik imkoniyat darajasida) bo'lganligidir. Demak, bir tomondan insonning tabiiy ofatlar oldida ojizligi, o'zaro nizolari, uning kamayishiga olib kelsa, tug'ilishning yuqori darajada bo'lganligi aholini sonining ma'lum darajada ko'payib borishiga sabab bo'lgan. Ibtidoiy jamoa davrida Janubiy Osiyo, Evropaning janubiy qismlarida, Afrika qit'asida aholi nisbatan zich yashagan. Evrosiyo materigining shimoliy rayonlarida, Avstraliya va Amerika qit'alarida aholi juda siyrak joylashganlar.

Ushbu davrda dunyo aholisi soni juda sekin o'sgan. Taxminan, bundan 15 ming yil ilgari mezolit davrining boshida er kurrasida bir necha million aholi yashagan xolos. Neolit davrining boshida esa dunyo aholisining soni 10 millionga etgan. Aholining asosiy qismi Janubiy va Sharqiy Osiyoda, Afrika va Janubiy Evropada joylashgan. Evrosiyoning shimoliy qismida aholi deyarli yashamagan. Avstraliya va Amerika hududlarida ham juda kam aholi yashagan. Shimoliy va Janubiy Amerikada 100-200 ming kishi yashaganligi haqida ma'lumotlar bor.

Ibtidoiy jamoa davrida tug'ilish juda yuqori (1000 odamga nisbatan 45-50 ta) darajada bo'lган tug'ilishni yuqori bo'lishi erta nikohlar va tartibsiz oila - nikoh munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan. Lekin, ko'pchilik ayollar o'zlarining reproduktiv davrini to'la yashay olmaganlar. Ularning og'ir turmush sharoiti, tibbiy xizmatlarning deyarli yo'qligi hayotdan juda erta ko'z yumishiga sabab bo'lgan. Ko'pchilik ayollar farzand ko'rish davrida halok bo'lganlar. Ushbu davrda nafaqat ayollar balki, bolalar, erkaklar o'limi ham yuqori bo'lgan. Aholi ochlikdan, antisanitariya holatidan, qabilalararo to'qnashuvlardan, yovvoyi hayvonlar hujumlaridan, tabiiy ofatlardan va turli epidemiyalardan halok bo'lganlar. Ibtidoiy davr odamlarining o'rtacha yashash muddati 20-25 yilni tashkil etgan, hozirgi davr odamlarining umr ko'rish muddatidan 3-3,5 marta kamroq bo'lgan. Aholi guruh-guruh qabila bo'lib yashaganlar. Ba'zi qulay tabiiy sharoitda yashagan qabilalarda aholi soni nisbatan tezroq ko'paygan, tabiiy sharoiti noqulay joyda yashagan qabilalarda esa ochlik, kambag'allik tufayli aholi o'limi yuqori bo'lib, aholi soni juda sekin o'sgan.

Insoniyat tarixida sug'orma dehqonchilikning rivojlanishi oziq-ovqatning ko'payishiga, aholi moddiy turmush sharoitining bir muncha yaxshilanishiga olib keldi. Xususiy mulkining paydo bo'lishi, sinfiy jamiyatga asos soldi. Ibtidoiy jamiyat bag'rida feodalistik ishlab chiqarish munosabatlari shakllana boshladи. Dunyoda madaniyat markazlari paydo bo'ldi, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish yo'lga qo'yildi. Sodir bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar aholi o'rtasida o'lim hollarining kamayishiga, o'rtacha umr ko'rish muddatining bir muncha uzayishiga sabab bo'ldi. Natijada dunyo aholisining soni ko'paya boshladи. Qadimgi Misrda fir'avnlar davrida 7 million, Vavilonda esa 4-5 million aholi yashaganligi ma'lum. Eramizning boshida dunyo aholisi 200-250 millionni tashkil qilgan va ularning 50 millioni Rim imperiyasida istiqomat qilgan. Aholining yana 40-50 millioni esa Xitoy va Hindiston hududlarida yashagan. Shimoliy-G'arbiy Evropada esa aholi juda kam - 1 million atrofida bo'lganligi qayd etiladi.

O'rta asrlarda ham dunyo aholisining soni ko'payib bordi. Lekin, aholining

ko'payish sur'ati nisbatan sekin bo'lgan. Birinchi ming yillikning oxirida dunyo aholisining soni 250-300 millionni tashkil etgan bo'lsa, ikkinchi ming yillikning o'rtalarida bu ko'rsatkich 400-500 millionga etgan. Jumladan, Osiyoda – 250 million, Evropada – 65-80 million, Amerikada - 30-50 million, sobiq Ittifoq hududida esa - 15-20 million aholi istiqomat qilgan. Ushbu davrda ba'zi davlatlarda bosqinlar, urushlar, xo'jaliklarning barbod bo'lishi natijasida aholi sonining kamayib ketganligi ham kuzatiladi.

Aholi sonining ko'payib borishida jamiyat ishlab chiqarishining mukammalashib borishi, jamiyatda sodir bo'lgan mehnat taqsimotlari–ya'ni chorvachilik va dehqonchilikning rivojlanishi alohida omil hisoblanadi. Eramizdan 7-8 ming yil oldin Yaqin Sharq hududlarida juda ko'p qabilalar ovchilikdan chorvachilikka, dehqonchilik qilishga o'ta boshladilar. Xo'jalik yuritishdagi yangi sharoit qabilalardagi aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashni yaxshiladi, oziq-ovqat zahiralari yaratildi. Natijada, aholining o'lim hollari nisbatan kamaydi. Lekin, aholining turli epidemiyalardan, qabilalar orasida bo'lib turuvchi urushlardan o'lim hollari yuqori edi.

Xo'jalik yuritishning yangi shakli sababli, qabilalarning bir joydan ikkinchi joyga muntazam ko'chib yurishi birmuncha barham topdi. Qabilalar dehqonchilik, chorvachilik bilan shug'ullanishi natijasida o'troq hayotga o'ta boshladilar. Bu hol esa ayollar ahvolining bir oz yaxshilanib, tug'ilishning ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Tug'ilishning ko'tarilishi esa dunyo aholisi soniniig ko'payib borishiga olib keldi. Ushbu davrda erta nikohlar va ko'pbolalilik deyarli barcha aholiga xos bo'lган. Lekin sinfiy jamiyatning paydo bo'lishida tug'ilishga salbiy ta'sir etuvchi ba'zi omillar ham shakllana boshladi.

Masalan, quldarlik davrida qullar, askarlar aholining takror barpo bo'lishi jarayonida ishtirok etmasdilar. Shuningdek, ba'zi diniy qarashlar, masalan, buddizm ruhoniylarining nikohsizlik va farzandsizlik holatlarini inson ruhini qutqarishi maqsadida qo'llab quvvatlanardi. Ishlab chiqarish kuchlarining yanada takomillashuvi aholi o'rtasida sinflar va davlat paydo bo'lishiga olib keldi. Jamiyat asta-sekin ibrido tuzumdan quldarlik davriga (sinfiy jamiyatga) o'tdi. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti rivojiana boshladi. Jamiyat taraqqiyotidagi bu o'zgarishlar aholining ibrido tuzum davriga nisbatan ancha tez edi. Buning asosiy sababi nikohga kirishi, tug'ilishning cheklanmaganligi edi. Quldarlik tuzumi davrida ham aholi o'rtasida o'lim ancha yuqori bo'lgan, sababi–ko'pgina qishloq va shaharlarda aholining juda zinch joylashuvi va gigiena-sanitariya sharoitlarning yo'qligi tufayli yuqumli kasalliklarning keng tarqalganligidir.

Aholi o'rtasida madaniyatning rivojlanishi, qadimiy markazlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Ushbu madaniyat markazlari er kurrasining sug'oriladigan hududlarida (Misr, Mesopotamiya, Hindiston, Xitoy va boshqa hududlar) shakllandilar. Dunyo hududlarida umumiy aholi soni eramizdan avvalgi 5 ming yillikda 30 million atrofida bo'lgan. Ana shu davrda er yuzida aholi joylashuvining hozirgi areallari paydo bo'lgan.

Insonning yashash uchun kurashi borib-borib, jamiyat taraqqiyotida ijobiy (progressiv) o'zgarishlarga olib keldi. Ishlab chiqarish kuchlari rivojiana borib, kishilar dastlab chorvachilik, keyinroq esa dehqonchilik bilan shug'ullanishga

o'tdilar, ochlikka, kasalliklarga qarshi kurash boshladilar. Endi ular mehnat qilib, moddiy mahsulotlar yaratadilar. Hunarmandchilik, savdo rivojlandi va shaharlar paydo bo'la boshladi. Inson hayotidagi bu ijobiy o'zgarishlar ularning hayot sharoitini yaxshiladi.

Sinfiy jamiyatning shakllanishi, dunyo hududlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishidagi farqlar, aholi takror barpo bo'lish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Ba'zi hududlarda antisanitariya sharoiti, yoppasiga tarqalgan epidemiyalar va urushlar oqibatida aholi o'rtasida o'lim nihoyatda yuqori bo'lgan. Ba'zi hollarda qishloqlar aholisiz qolganlar. Ushbu davr uchun aholi takror barpo bo'lishida ibtidoiy jamiyatdagidek, umumiy bir xususiyat-tug'ilishning yuqoriligi saqlanib qolgan edi. Ko'pbolalilik nafaqat urf-odatlар, balki davlat siyosati, din, ayniqsa islom va induizm tomonidan ham qo'llab quvvatlanar edi.

Insoniyat taraqqiyoti tarixidagi dastlabki "Madaniy-texnik inqilob" ishlab chiqarish kuchlarining yanada rivojlanishiga sabab bo'ldi. Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish rivojlandi. Bu hol esa o'z navbatida dunyo aholisi sonining ko'payishiga olib keldi.

### **1-jadval. Er shari aholisining o'sishi**

Yilnomá	Davr	Davrning davom etishi	Davr boshida aholi soni (mln kishi)	Aholi soni o'rtacha yillik o'sishi foizda
Eramizdan 7000 yil avval	Neolit	5000	10	-
(yangi era)	Antik davr	7000	50	0,03
1000 yil	Yangi eraning boshlanishi o'rta asrlarni dastlabki yillari	2000	230	0,1
1500 yil	O'rta asrlar	1000	305	0,02
1650 yil	O'rta asrning yakuniy davri	500	440	0,1
1800 yil	Yangi zamonning boshlanishi	150	550	0,3
1900 yil	Yangi zamon yakuniy davri	150	952	0,5
1950 yil	Yangi zamon yakuniy davri	100	1656	0,8
1980 yil	Eng yangi zamon	50	2527	1,0
2020 yil	Yaqin o'tgan davr	30	4430	1,9
	Hozirgi davr	40	7821	1,9

Eramizning boshida er shari aholisining soni 200-250 mln. kishi atrofida edi. Aholining asosiy qismi Rim imperiyasida, Xitoy va Hindistonda joylashgan. 11-15 asrlarda dunyo aholisining ma'lum qismi mo'g'ul-tatar, turk urushlari tufayli qirilib ketdilar. Ayniqsa, bu urushlardan Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Evropa mamlakatlari

aholisi katta talofat ko'rdilar. Urushlar nafaqat aholining bevosita qirilib ketishiga, balki xo'jaliklarni, ishlab-chiqarishning izdan chiqishi hisobiga sodir bo'lgan ocharchilik sababli hayotdan bevaqt ko'z yumishlariga olib kelganlar.

Agar dastlabki 500 yilda (1000-1500 yillar) er yuzi aholisi 135 millionga ko'paygan bo'lsa, 1500-1750 yillarda yoki 250 yilda esa bu ko'rsatkich 288 millionni tashkil qildi, ya'ni aholining o'sishi 2 marta tezlashdi. XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab aholining o'sishi yanada tezlashdi. XX asrdan er shari aholisi taxminan har yili 0,8 foizdan ko'paya boshladi.

Aholi soni va tarkibi, uning bajaradigan vazifalari bilan bog'liq holda baholanadi. Aholi avvalambor o'zidan ko'payadigan, o'zini takror barpo qiladigan-biosotsial organizmdir.

Aholi shu bilan birga jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi va iste'molchisidir. Ana shu nuqtai nazardan aholi soni, tarkibi, o'sish sur'atlari, joylashishiga xos xususiyatlarni tahlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi.

Insoniyat tarixining katta davri davomida ya'ni neolit davridan boshlab aholi soni va tarkibi an'anaviy deb ataluvchi tip ta'sirida takror barpo etilgan. Unda har 1000 kishiga nisbatan tug'ilganlar soni 40-45 ni tashkil etgan. Er shari aholisining dinamikasi to'g'risida ma'lumotlar quyidagi **1-2-jadvallarda** keltirilgan.

## **2-jadval. Jahon aholisining soni, dinamikasi va uning ayrim hududlar bo'yicha taqsimlanishi. (mln. kishi)**

Hududlar	1950	2000	2018	2050
Jami	2527	6137	7621	9852
Osiyo	1400	3720	4536	5253
Evropa	548	727	746	730
Afrika	226	818	1254	2536
Amerika	340	841	1014	1220
Avstraliya va okeaniya	13	31	42	64

Aholining takror barpo qilinishining ushbu tipi iqtisodiyot va unga xos ijtimoiy munosabatlar bilan bevosita aloqador edi. Bunda ko'p bolali oilani tashkil qilishga intilish, ayniqsa xo'jalik ishlarida otaga ko'mak beruvchi o'g'il bolalarning mavjudligiga va sonining ko'p bo'lishiga katta e'tibor qaratiladi. Ota-onada oilada 3-4 farzandga ega bo'lmoqchi bo'lishsa, unda ayol mazkur miqdordagidan 2-3 marta ko'p bola tug'ish lozim edi, chunki o'lim, ayniqsa, go'daklar va bolalar o'limining nihoyatda yuqoriligi tug'ilgan bolalarning yarmidan ko'pini yo'qotishga sabab bo'lar edi. Bir necha ming yillar mobaynida, o'lim darajasining juda yuqoriligi va aholi o'sishining past bo'lishligi o'zining ob'ektiv sabablariga egadir.

Dastavval, bu moddiy va sanitar gigienik shart-sharoitlarning qoniqarsiz ahvolda ekanligi, qolaversa, vaqtı-vaqtı bilan takrorlanib turuvchi ocharchilik, o'lat, vabo va chechak epidemiyalari natijasida yuz minglab odamlarning qirilib ketishi kabi omillar o'z ta'sirini ko'rsatgan. Er sharida bunday ofatlar 200-400, 1600-1650 yillar ichida qayd etilgan bo'lib, o'sha davrlarda aholi soni umuman o'smadi, 1300-1400 yillar davomida qora o'lat epidemiyasining ta'sirida sayyora o'z aholisining 1/4 qismidan ajradi, uning soni keskin kamaydi. Aholi ko'rsatkichlariga oxiri ko'rinxayotgan

urushlar ham katta salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Urushlar XVIII asrda 5,2 mln kishining yostig'ini quritdi.

XIX asrgacha bo'lgan davrda demografik jarayonlarda sezilarli sifat o'zgarishlari bo'lmanan. Undan keyingi davrda aholining tabiiy harakati ko'rsatkichlarida demografik o'tish jarayoni boshlandi. U oila bajaradigan vazifalarning keskin o'zgarishi, turmushning nisbatan yaxshilanishi, aholining yosh tarkibidagi siljishlar va boshqa omillar bilan bog'langandir.

Demograf olimlar demografik o'sish jarayonini 4 ta ketma-ket keluvchi fazani o'z ichiga olishini ilmiy asoslab bergenlar:

**Birinchi faza**- uchun tug'ilishining yuqori darajada saqlanishi va o'limning keskin qisqarishi oqibatida vujudga keluvchi juda yuqori darajadagi tabiiy o'sishga xosdir;

**Ikkinci faza**- ko'p bolali oiladan kam bolali oilaga o'tish, o'limning qisqarishi, tug'ilishning esa kamayishi natijasida tabiiy o'sishning pasayishi bilan ifodalanadi;

**Uchinchi faza**- avvalambor aholi ichida qariyalar soni va ularning o'sishi hamda tug'ilishning asta-sekin pasayishi natijasida o'lim birmuncha ko'tariladi. Mazkur bosqichda aholi soni juda kam miqdor suratlarda o'sadi yoki qisqaradi;

**To'rtinchi faza**- tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari tenglashadi, aholining o'sishi barham topadi.

Demografik o'tish davri dastavval Evropada XVIII asrda boshlanadi. Shunda tabiiy o'sish 20-30% ga teng bo'ldi, buni xaqiqatdan ham demografik inqilob deb atash mumkin. Chunki 10-20 yil oldin atiga 5-10% ga teng bo'lgan tabiiy o'sish qisqa vaqt ichida 2-3 martaga oshdi.

Ushbu jarayon Evropada 100-150 yil davom etdi. Undan keyingi davrda Evropa mamlakatlari demografik o'tishning ikkinchi fazasiga o'tdi. Hozir ushbu mamlakatlarning ko'pchiligi demografik o'tishning uchinchi fazasidadirlar. Binobarin, Germaniya, Avstriya, Belgiya, Italiya, Daniya, Vengriya, Niderlandiya aholini oddiy takror barpo etilishi ham ayrim yillarda ta'minlanmaganligi kuzatilmoxda, ya'ni o'lganlarning soni tug'ilgan bolalar sonidan ko'p bo'lmoqda. Rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchilligi demografik o'tish jarayonining 1-fazasini o'tamoqda.

AQSh, Yaponiya, Kanada, Avstraliya mamlakatlari 2-fazani boshidan kechirmoqdalar. Xitoy va boshqa bir qator mamlakatlar 2-fazaga o'tish arafasida turibdi.

O'zbekiston va boshqa Markaziy Osiyo mamlakatlarida 1-fazadan 2-fazaga o'tish uchun zamin tayyorlandi, bu jarayon yaqin 10-15 yil mobaynida boshlansa, ajab emas. Dunyo aholisi ana shu davr ichida 2,4 marta o'sdi. Bundan ham yuqori ko'rsatkich Osiyo (2,6) va Afrikaga (3,6) xos bo'ldi. Mazkur ko'rsatkich Evropada, 1,4 martaga teng bo'ldi. Aholi sonining yuqori sur'atlar bilan o'sishi Afrikada, Markaziy va Janubiy Osiyoda, Markaziy Amerikada kuzatilmoxda. Shu vaqtning o'zida Evropaning ayrim mintaqalarida aholi soni juda past sur'atlar bilan o'smoqda yoki deyarli o'zgarmayapti.

**Xulosa qilib aytganda hozirda dunyo aholisi soni (2020 yil oktyabr)  
7 821 510 417 kishini tashkil qilgan. Tug'ilganlar 115 684 516 kishi, o'lganlar  
48 567 150 kishi. Aholining o'sishi 67 117 366 kishiga to'g'ri keladi. Dunyoda**

## **ocharchilikda yashayotgan kishilar soni 846 999 016 kishi.**

BMT ma'lumotiga ko'ra, 1990 yilda 5,3 milliard, 2015 yilda esa 7,3 milliard bo'lgan dunyo aholisi soni ayni paytga kelib 7,8 milliardga etgan. Bu raqam 2050 yilda 9,7 milliardga, 2100 yilda esa 11,2 milliardga etishi kutilmoqda. Hozirda dunyo aholisining eng katta qismi – 60 foizi (4,7 milliardi) Osiyo qit'asida istiqomat qilmoqda. Afrikada 17 foiz (1,3 milliard), Evropada 10 foiz (750 million), Lotin Amerikasi va Karib havzasida 8 foiz (650 million), Shimoliy Amerika va Okeaniyada 5 foiz (tegishli ravishda 370 va 43 million) aholi istiqomat qiladi.

Dunyo aholisi yiliga 82 mln kishiga ko'paymoqda va har soniyada o'rtacha 2,6 bola dunyoga keladi. Aholi soni bo'yicha Osiyo qit'asining birinchi o'rinda ekani, shubhasiz, Xitoy va Hindiston bilan bog'liq: Xitoyda 1,4 milliard, Hindistonda esa 1,3 milliard aholi yashaydi. Hindiston 2027 yilda aholi soni bo'yicha Xitoyni quvib o'tishi va dunyoning aholisi eng ko'p mamlakatiga aylanishi kutilmoqda.

Taxminlarga ko'ra, yaqin o'n yilliklarda Evropa aholisi tobora kamayadi, Afrika aholisi esa aksincha ortadi. Ta'kidlanishicha, dunyodagi har beshinchi homiladorlikdan ikkitasi istalmagan hisoblanadi.

Germaniyaning Stiftung Weltbevölkerung (DSW) - "Er aholisi" jamg'armasi 11 iyulda nishonlanuvchi Jahan aholishunoslik kuni arafasida dunyo aholisi soni 7,8 mlrd kishiga etganini ma'lum qildi. Jamg'arma ma'lumotida ta'kidlanishicha, dunyo aholisi yiliga 82 mln kishiga ko'paymoqda. Bu esa deyarli Germaniya aholisiga tengdir. Jamg'arma shunday ma'lumotlar keltirgan: agar bugungi kunda dunyo 100 kishidan iborat qishloq deb olinsa, undagi 59 kishi Osiyo, 17 kishi Afrika, 10 kishi Evropa, 8 kishi Lotin Amerikasi, 5 kishi Shimoliy Amerika va bir kishi Okeaniya vakili bo'lardi.

DSW mutaxassislarining ta'kidlashicha, aholi o'sishining jadal davom etayotgani sabablaridan biri istalmagan homiladorliklar ko'pligi hisoblanadi. Chunki ko'plab hududlarda, ayniqsa uchinchi davlatlarda ayollar va qizlar erki o'zida emas. Ta'kidlanishicha, dunyodagi har beshinchi homiladorlikdan ikkitasi istalmagan hisoblanadi.

DSW ma'lumotlariga ko'ra, bu borada og'ir vaziyat Afrikaning Sahroi Kabirdan janubidagi hududda yuzaga kelgan. Bu erda oxirgi yillarda tug'ruq darajasi kamayganiga qaramay, hamon bir ayolga o'rtacha **4,4** bola to'g'ri keladi, vaholanki, dunyo bo'yicha bu ko'rsatkich **2,4** bolani tashkil qiladi. BMT ma'lumotlariga ko'ra, buning natijasida ushbu mintaqaga aholisi soni 2050 yilga kelib hozirgi 1,3 mlrd kishidan 2,5 mlrd kishiga etadi. O'zbekiston Respublikasining doimiy aholisi soni 2020 yil 1 aprel holatiga ko'ra **34,03** mln kishini tashkil etgani ma'lum.

**Dunyo aholisining soni oshib borgan sayin turli demografik muammolar ham yuzaga kelib bormoqda. Aholi o'sish miqdori, asosan, rivojlanayotgan mamlakatlar hissasiga to'g'ri kelishi esa, ma'lum bir ma'noda ularning taraqqiyotiga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi.**

Olimlarning fikriga ko'ra, dunyo populyatsiya portlashi davrini boshdan kechirmoqda. Zamonaviy populyatsiya portlashi 1950-1960 yillardan boshlangan. Dunyo aholisi 1959 yilda – 3 milliard, 1974 yilda – 4 milliard, 1987 yilda – 5 milliard, 1999 yilda – 6 milliard va bugungi kunga kelib 7 milliard 800 ming kishini tashkil qilmoqda (2020). Aholi soni xuddi shu bosqichda o'sishni davom ettiraversa,

2050 – yilga kelib 10,5-12 milliard kishini tashkil qilishi ehtimoli juda katta. Bu esa insoniyat biologik populyatsiyasining tur sifatida cheklanishidir. Ya’ni er resurslari bundan ortiq aholiga yashash sharoitlarini yaratib bera olmaydi. Bu esa ma’lum ma’noda insoniyat oldidagi fofja degani.

Nimaga bu muddat orasida ko’payish bunchalik ortganiga qiziquvchilar uchun, avval insoniyat hayvonlar bilan til topishishda duch kelgan muammolari, urushlar va epidemiyalarga davo topolmaganligi sababli ko’paysada uzoq yashay olmagan. Bugungi kunga kelib esa, insoniyat ancha rivojlangan, fanda bir muncha taraqqiyotga erishgan va o’zaro urushlarga barham bergen. Bu insoniyat turmush darajasining yaxshilanishiga olib keldi. Ayni holat ko’payish va uzoq umr ko’rish uchun ham yaxshi muhitni yaratib berdi.

Bundan tashqari, dunyoda o’lim darajasi ham keskin pasayib, o’rtacha umr ko’rish yoshi **73** ni tashkil qilmoqda. Bu ko’rsatkich erkaklarda-**69** yoshni, ayollarda-**74** yoshni tashkil etmoqda. Bu degani dunyo aholisining **25** foizdan ortig’i nafaqaxo’rlar bo’lganligi bois mehnat resurslarida nomutanosiblikka olib keladi. Ya’ni 2025 yilga kelib, har **ikki** nafaqaxo’r nafaqasi uchun **bitta** ishga yaroqli xodim mehnat qilishi kerak bo’lib qoladi.

Shaharlarda aholi zichligining o’sishi tufayli esa har bir shaharda toza ichimlik suvi va kanalizatsiya tarmoqlari etishmovchiligi kelib chiqmoqda. Keyingi 38 yil davomida dunyo aholisi sonining 1 milliarddan ortiq hisobda o’sgani ham aholi ko’payish darajasi juda kattaligini ko’rsatmoqda. Bu esa qashshoqlik darajasi va qashshoq davlatlarning soni o’sishiga olib keladi. Ko’payishning asosiy ko’rsatkichlari Afrika mamlakatlari chekiga to’g’ri kelayotgani buning yorqin dalilidir.

Bundan tashqari, populyatsiyaning keskin o’sishi qator boshqa muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Atrof-muhitga bosimning oshishi, etnik muammolar, qochqinlar muammosi, urbanizatsiya muammolari shular jumlasidandir. Yana bir muammo borki, bundan ko’z yumishning imkon yo’q. Bu ham bo’lsa aholi soni anchaginani tashkil qiluvchi rivojlanayotgan va rivojlanishi sust mamlakatlardagi savodsizlik muammosi. Ya’ni etarli imkoniyatlari bo’lmagan ta’lim tizimi mamlakatdagi barcha maktab yoshidagi bolalarni to’liq qamrab ololmasligi.

Xo’sh, shuncha muammolar bor ekan echim qaerda, degan savol tug’iladi. Hech kim mana bu echim deb birdan-bir kalitni o’rtaga tashlay olmaydi. Chunki, uning o’zi mavjud emas. Ammo, har bir oilaga borib farzand ko’rma, bu cheklangan deyish ham qiyin masala. Bu haqda ma’lum bir qonunlar mavjud bo’lsada, hamma ham unga amal qiladi deya olmaymiz.

Biz har bir yo’nalishda ongli ravishda harakat qilishimiz, ya’ni insonlar fikrlash tizimiga ijobiy ta’sir o’tkazishimiz lozim. Jumladan, tug’ilishning umumiy sonini kamaytirishimiz, insoniyat o’rtasida buning uchun tushuntirish ishlarini olib borishimiz, erta turmush va o’spirin homiladorlikka qarshi chora-tadbirlar ko’rishimiz kerak.

BMT ko’payishning oldini olish maqsadida ko’proq kontratseptiv vositalardan foydalanishni ham taklif etgan. Bundan tashqari, ayollar o’rtasida savodsizlikni tugatish, hech bo’lmaganda, ularga o’rta ta’limni olishi uchun imkoniyat yaratib berish kerak. Olimlarning aniqlashicha, savodsiz dehqon oilalarida farzandli bo’lish

ko'rsatkichi **4,4** ni tashkil etsa, o'rta ma'lumotlarda **2,2-2,7** ni, oliy ma'lumotlarda esa **1,2-1,7** ni tashkil etadi.

Oddiygina atrofimizdan misol olib qaraydigan bo'lsak ham o'qimagan ayollar asosan oila, turmush, farzand bilan bo'lib, ko'payishda nisbatan faol bo'ladi. Ma'lumoti bor ayollar esa ijtimoiy hayotda faol bo'lib, o'z ishi va mashg'ulotiga ega bo'lib bu masalada nisbatan nofaolligi ko'rinish turadi. Bu masalalar yuzasidan ham aholi o'rtasida tashviqot ishlari olib borilishi lozim.

Eslatib o'tamiz, 2020 yil 1 iyul holatiga ko'ra, O'zbekiston doimiy aholisi soni yil boshidan 285 ming 900 kishiga ko'paygani ma'lum. 2020 yil 1 yanvarda bu ko'rsatkich 33 million 905 ming 800 ming kishini, 1 aprelda esa 34 million 36 ming 756 kishini tashkil etgan.

Qayd etilishicha, 2020 yil 1 oktyabr holatiga ko'ra, Navoiy viloyatining doimiy aholisi soni 1 million 900 ming 300 kishini tashkil etib, respublikadagi aholisi soni milliondan ko'p bo'lgan viloyatlar qatoriga kirdi. Sirdaryo viloyatining doimiy aholisi soni esa 856 ming 900 kishini tashkil etib, respublikadagi aholisi soni milliondan kam yagona viloyat bo'lib qolmoqda.

Respublikada doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi 2020 yil 1 oktyabr holatiga ko'ra quyidagicha:

- Samarqand viloyati — 3 million 928 ming 700 kishi;
- Farg'ona viloyati — 3 million 802 ming 700 kishi;
- Qashqadaryo viloyati — 3 million 318 ming kishi;
- Andijon viloyati — 3 million 172 ming 100 kishi;
- Toshkent viloyati — 2 million 977 ming 800 kishi;
- Namangan viloyati — 2 million 852 ming 300 kishi;
- Surxondaryo viloyati — 2 million 667 ming 300 kishi;
- Toshkent shahri — 2 million 654 ming 600 kishi;
- Buxoro viloyati — 1 million 939 ming 600 kishi;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi — 1 million 916 ming 100 kishi;
- Xorazm viloyati — 1 million 884 ming 100 kishi;
- Jizzax viloyati — 1 million 403 ming 200 kishi;
- Navoiy viloyati — 1 million 9 ming 300 kishi;
- Sirdaryo viloyati — 856 ming 900 kishi.

## **2.2. Aholini hisobga olish, aholi ro'yxatlari**

Malum hududda (ayrim bir rayon, mamlakat, butun er sharida) yashovchi aholi haqida fikr yuritish, uni birorta fan nuqtai nazardan analiz qilish uchun uning soni, tarkibi, hududiy taqsimlanishi to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lish kerak. Bunday ma'lumotlar aholini ro'yxatga olish yoki har yili uning tabiiy va mexanik o'sishini aniq hisobga olib borish yo'li bilan to'planadi. Ba'zi mamlakatlar, masalan, Xitoyda, Misrda, Eronda, shuningdek Rim imperiyasida eramizdan bir necha asr oldin aholi hisobga olingan.

Ammo u paytdagi aholi hisobini hozirgi zamon aholi ro'yxati bilan taqqoslab bo'lmaydi. U davrdagi hisoblar ma'lum bir maqsad, masalan, soliq to'lash lozim bo'lgan kishilar yoki askarlikka layoqatli bo'lgan kishilar sonini aniqlash uchungina

zarur bo'lgan. Shunda ham erkaklar hisobga olingan. Bunday ro'yxatlardan to'liq demografik ma'lumotlar olib bo'lmaydi, albatta.

XV-XVII-asrlarda Rossiyada, uning uezdlari va shaharlari haqida "Pisseevie knigi" deb nomlangan iqtisodiy statistik daftarlari to'ldirilgan bo'lib, unga aholiga ta'luguqli ma'lumotlar bo'lar edi. Ammo bu daftarlarda soliq to'lashi kerak bo'lgan erkaklargina hisobga olib borilar edi. Soliq to'lashdan ozod qilingan zodagonlar, ruhoniylar kabi ayrim tabaqqa vakillari bu daftarlarga kiritilmasdi.

Keyinroq, XVIII-XIX-asrlarda Rossiyada o'tkazilgan davlat reviziyalari (taftishlari) paytida ham aholi haqida ma'lumotlar yig'ilgan. Rossiyada hammasi bo'lib 10 marta ana shunday reviziya o'tkazilgan edi. Ammo bu tadbirlarni ham haqiqiy aholi ro'yxatlari deb bo'lmas edi.

1790 yilda AQShda o'tkazilgan aholi ro'yxatini aholi haqida to'liq demografik ma'lumot to'plash maqsadida o'tkazila boshlagan birinchi zamонавиј aholi ro'yxati desa bo'ladi. XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida Evropaning ko'pgina mamlakatlarida (masalan, 1801 yilda Angliya, Fransiya, Daniyada, 1815 yilda Norvegiyada, 1818 yilda Avstriyada, 1824 yilda esa, Gollandiyada va boshqa davlatlarda) aholi ro'yxati o'tkazilgan. Endilikda Evropaning barcha mamlakatlarida aholi ro'yxati muntazam ravishda o'tkazilib turiladi.

Shimoliy va Markaziy Amerikaning barcha mamlakatlarida ham, Janubiy Amerikaning ko'plab mamlakatlarida ham aholi ro'yxati o'tkazilib turiladi. Osiyoda Yaponiya, Turkiya, Tailand, Hindiston, Shri-Lanka, Indoneziyada muntazam ravishda aholi ro'yxati o'tkazilib turiladi. Xitoyni dastlabki butun hududini qamrab olgan to'la aholi ro'yxati 1953 yilda o'tkazilgan. Sobiq ittifoq hududida birinchi rasmiy va to'laroq aholi ro'yxati 19-asrning oxirida (1897 yil) o'tkazilgan. Keyinchalik, 1920, 1926, 1939, 1959, 1970.....oxirgisi 1989 yil o'tkazilgan. 1897 yilda Rossiya hududida aholi ro'yxati o'tkazilgan paytda hozirgi O'zbekiston hududining faqat bir qismi qamrab olingan edi. Bunda Buxoro va Xiva xonliklari aholisi hisobga olinmagan edi. 1920 yilda o'tkazilgan aholi ro'yxati ham O'zbekiston aholisi haqida to'la ma'lumotlar bera olmaydi.

Aholi ro'yxatlari paytida mamlakat, uning ayrim qismlari har bir aholi manzilgohi aholisi to'g'risida eng aniq va mufassal ma'lumotlar to'planadi. Ayrim ma'lumotlar (masalan, aholining milliy tarkibi, ona tili va hokazo) faqat aholi ro'yxatlari paytidagina to'planadi.

### **2.3. Aholini takror barpo qilinish masalalari**

Kishilik jamiyatining butun tarixi - aholi bir avlodining ikkinchi avlod bilan almashinuvi, uning tinimsiz yangilanib turishidan iboratdir. Bu jarayon har yili sodir bo'ladigan tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlarida va ular o'rtaсидаги farqda yaqqol namoyon bo'ladi. Har yili qandaydir sabablarga ko'ra vafot etgan aholi o'rnining yangidan, dunyoga kelgan avlod hisobiga to'ldirilib borishi aholining **takror** barpo qilinishi deyiladi. Tug'ilgan soni o'lganlar sonidan ortiq bo'lgandagina aholi soni oshib, ko'payib boradi. Bu esa jamiyat taraqqiyoti uchun muhimdir. Chunki, tug'ilish o'limga nisbatan kamayib ketsa, aholining tabiiy o'sishi to'xtab qoladi, uning soni qisqarib, oqibat natijada inson avlodi yo'qolib ketishi mumkin (depopulyatsiya ro'y

beradi).

Biz yuqorida aholi barcha ishlab chiqarish jarayoning subekti degan edik. Ishlab chiqarishning me'yorda davom etishi, uning kengayib borishi uchun aholi sonining o'sib borishi muhim ahamiyatga ega. Aholi barcha ijtimoiy boyliklarning bunyodkoridir. Shuning uchun ham aholining ayniqsa uning mehnatga yaroqli bo'lgan qismining (mehnat resurslarining) soni, ularning bilim va malakasi har bir mamlakat yoki rayonda ijtimoiy ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Qadimgi dunyo va o'rta asrlarda yashagan olimlar ham aholining soni, uning o'sib borishi davlatlarning iqtisodiy, siyosiy va harbiy holatiga ta'sir etishini qayd qilganlar.

Malumki, jamiyat taraqqiyotini belgilab beruvchi asosiy kuch-bu moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish usulidir. Jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi esa, odamlar, aholidir. Shuning uchun ham aholi, uning tinmay o'sib boradigan talablari har qanday mamlakatning diqqat markazida turadi.

Aholining takror barpo qilinish jarayoning negizini tug'ilish va o'lim hamda ular o'rtasidagi farq (aholining tabiiy o'sishi) tashkil qiladi. Ammo ayrim hududlar (davlatlar, ularning qismlari, butun qit'alar) aholisining o'sishida tabiiy o'sishdan tashqari, mexanik o'sish, ya'ni aholining hududiy qayta taqsimlanishi (migratsiyasi) ham rol o'ynaydi.

**Odamning** tug'ilishi umuman biologik jarayondir, ammo ijtimoiy omillarning ta'siri juda katta bo'ladi. Qadim zamonlarda kishilar o'rtasidagi tug'ilish jarayonini ko'proq biologik xarakterga ega edi, desa bo'ladi. Tabiiy biologik omillar ham tug'ilishga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Ammo tug'ilish ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi asosiy omillar ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy madaniy omillardir. Shuningdek, tabiiy-biologik omillar ham tug'ilishga ma'lum darajada ta'sir qiladi.

Mamlakat aholisining yosh va jinsiy tarkibida katta nomuvofiqliklarning bo'lishi u erda aholi o'rtasida nikohlanish ko'rsatkichining kamroq bo'lishiga olib keladi.

Demografik omillar, ya'ni aholining yosh va jinsiy tarkibi uning tabiiy o'sishiga ta'sir etadi, albatta. Biroq tug'ilishdagi mavjud bo'lgan keskin hududiy farqlar demografik omillar bilan belgilanmaydi. Bunday farqlar turli davlatlar aholisining moddiy va madaniy turmush darajasi, xotin qizlarning ijtimoiy ishlab chiqarishda qatnashishi, har bir mamlakatda urbanizatsiya jarayonining darajasi, turli xalqlarda asrlar davomida shakllangan milliy urf-odatlar, dinning ta'siri kabi ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy omillar bilan bog'liqdir. Shuningdek, har bir davlatda aholi sohasida olib boriladigan siyosat ham ma'lum tug'ilish ko'rsatkichlariga ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, tug'ilishga ta'sir etuvchi muhim omil-aholining shahar bilan qishloq o'rtasida taqsimlanishi, davlatda urbanizatsiya jarayoning rivojlanish darajasidir. Tug'ilishdagi hududiy farqlarga ta'sir etuvchi sabablardan yana bittasi aholining etnik tarkibidir. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, rivojlangan mamlakatlardagiga nisbatan iqtisodiy jihatdan qoloq mamlakatlarda, hatto bir mamlakatning ichida moddiy jihatdan yaxshi ta'minlanmagan aholi guruhlaridagiga nisbatan kambag'al aholi orasida tug'ilish doimo ancha yuqori bo'lib kelgan.

Dunyoning deyarli har bir mamlakatida aholi sohasida ma'lum siyosat

yurgiziladi (bu siyosat uch xil usulda olib boriladi-iqtisodiy, ma'muriy-huquqiy, ma'naviy-psixologik), lekin bunday siyosat doimo bir xil bo'lmasdan, turli sabablarga ko'ra o'zgarib turishi mumkin. Keyingi paytlarda aholining tez o'sishi munosabati bilan aholi o'sishi yuzasidan ma'lum siyosat olib borish xalqaro konferensiyalarda ham muhokama qilinmoqda. Bu borada 1974 yil 19-30 avgustda Buxarestda BMT tomonidan uyushtirilgan va aholi muammolariga bag'ishlangan konferensiya diqqatga sazovordir.

Bu konferensiyada 135 mamlakat vakillari qatnashdi. Konferensiyada aholi o'sishi va uni mo''tadillashtirish yuzasidan 21 rezolyutsiya qabul qilindi. BMT ekspertlar tomonidan tayyorlangan reja loyihasida shu narsa qayd qilindiki, hozir dunyo aholisi yiliga 80-85 mln kishiga ko'paymoqda, har 35 yilda er shari aholisi 2 marta oshib bormoqda. Bizning Respublikada onalik sharaflanib, davlat tomonidan moddiy hamda ma'naviy jihatdan rag'batlantiriladi.

Ayrim mamlakatlarda tug'ish ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi yana bir muhim omil-oilada er-xotin tomonidan bolalar sonini boshqarib borishning keng tarqalishidir. Tug'ilishning oldini olish choralarini keng qo'llash, oilada bolalar sonini boshqarib borish dunyoning turli mamlakatlarida turlichadir.

Tug'ilish diagrammasiga ta'sir etuvchi omil va sabablarining qisqacha tahlilidan shunday xulosaga kelish mumkinki, tug'ilishga ta'sir etuvchi omil va sabablar juda ko'p bo'lib, dunyo aholisi yoki ayrim mamlakatlar aholisining tug'ilish darajasi va uning sabablarini tushuntirish ana shu omillarning hammasini analiz qilish zarur. Chunki, ko'p hollarda tug'ilish darajasi ana shu omillar majmuasiga bog'liq bo'ladi.

Tug'ilish aholining tabiiy o'sishining asosiy manbaidir. Tug'ilish har yili hisobga olib boriladi. Bunday ma'lumotlar, fuqarolik holatini yozish bo'limlarida qayd qilinadi. Ammo bu holat tug'ilish darajasini ko'rsatmaydi. Tug'ilish darajasini aniqlash uchun yangi tug'ilganlar absolyut sonining boshqa absolyut raqmlarga nisbatini aniqlash zarur. Ayrim hududlarda aholining tug'ilish darajasini ko'rsatish uchun odatda tug'ilish koeffitsientidan foydalilanadi. Har yili yangi tug'ilganlar sonining aholi o'rtacha sonidagi har 1000 kishiga nisbatiga **tug'ilish koeffisenti** deyiladi.

**Aholining** o'limi haqidagi ma'lumotlar uning takror barpo qilinishi, tabiiy o'sish darajasini anqlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan ko'rsatkichdir. Masalan, tug'ilishga oid ma'lumotlar aholining tabiiy o'sishi haqida hali to'liq tasavvur bera olmaydi. Uni faqat o'limga oid ma'lumotlar bilan solishtirgandagina, ularning farqi aniqlangandagina mamlakat aholisining tabiiy o'sishi haqidagi aniq absolyut raqamlarni bilib olamiz.

Eng qadimgi davrlarda (ibtidoiy jamoa tuzimi, quidorlik davrida) aholi o'rtasidagi o'lim ko'rsatkichining qanday bo'lganligi haqida hozirgi zamon fani aniq ma'lumotlarga ega emas. Bu haqida olimlar arxeologik ma'lumotlar va bizga etib kelgan ayrim yozgorliklar asosida faqat fikr yuritadilar.

XVIII-asrning ikkinchi yarmiga qadar dunyoning deyarli barcha qismlarida o'lim juda ko'p bo'lgan. O'limning sezilarli darajada kamayishi XIX-asrning ikkinchi yarmidan boshlanadi. Bu davrda o'limning kamayishi tibbiyot fanining yutuqlari, turli xil og'ir kasalliklar epidemiyasiga qarshi samarali kurash

choralarining topilishi natijasi edi.

O'limning kamayishi dunyoning hamma joyida bir vaqtida va bir xilda boshlanmagan albatta. O'limning sezilarli kamayishi avvalo Evropada boshlandi. XIX-asrning oxirlariga kelib, bu qit'ada o'lat, chechak, vabo kabi kasalliklar epidemiyasi deyarli tugatildi. O'limning kamayishi keyinchalik dunyoning boshqa qismlariga ham tarqala boshladi.

Olimlar aholi o'rtasidagi o'lim sabablarini birinchi navbatda **ikkita** guruhg'a ajratadilar: **endogen sabablar** va **ekzogen sabablar**. Har bir odamning biologiyasidan kelib chiqadigan va irsiyat bilan bog'liq bo'ladigan tug'ma kasalliklar natijasida o'lish endogen sabablardir. Umuman olganda, endogen sabablarga ko'ra o'lish juda kam bo'ladi. Aholi o'rtasida sodir bo'ladigan o'limning absolyut ko'pchiligi ekzogen sabablarga ko'ra bo'ladi. Bular kishi organizmiga tashqi ta'sir natijasida ro'y beradi. Tashqi ta'sir deganda, odamlar yashab turgan barcha muhitlar (tabiiy, sun'iy, ijtimoiy).

Ba'zan ayrim geografik omillar ham o'limning yuqori bo'lishiga sababchi bo'lishi mumkin. Masalan, har kuni iste'mol qilinadigan suvda yod etarli bo'lmasa, endokrin sistemasining og'ir kasalligiga sababchi bo'ladi. Hozir bu kasallikni oldi olingan, ammo qadimda ko'plab odamlarni yostig'ini quritgan. Shuningdek, geografik muhitning o'lim ko'rsatkichiga ta'siri hayvonot orqali ham bo'lishi mumkin.

Sun'iy muhit (hozirgi zamon sanoati, urbanizatsiya, texnika taraqqiyoti, jumladan, avtomobillashish, ximiyalashtirish) o'ziga xos ravishda kishi organizmiga ta'sir qiladi. Masalan, atmosfera ifloslanishi va uni ifloslantiruvchi manbalar. Aholining o'z mehnati tufayli yaratilgan sun'iy muhit o'limni ko'payishidagi ekzogen sabablarning eng asosiy turiga aylanib qoldi.

Jumladan, aholi o'rtasida o'lim ko'rsatkichiga turli xalqlarning erishgan madaniyati, ularning turmush sharoiti, urf-odatlari ham ta'sir qiladi. Har bir xalq orasida tarqalgan va an'anaga aylangan ovqat pishirish usuli, iste'mol qilinadigan ovqat tarkibi kishilar sog'ligi uchun muhim ahamiyatga ega. Ichish, chekish, nashavandlik kabi odatlar ham aholi o'rtasida o'limni ko'payishiga sabab bo'ladi. O'limning yuqoridagi **ijtimoiy sabablari** ko'p jihatdan ijtimoiy-iqtisodiy tuzumga, turli mamlakatlardagi ijtimoiy muhitga bog'liq.

Aholi o'rtasida o'lim va o'rtacha umr ko'rish muddati bir-biri bilan bog'liq. Demografiyada aholining **o'rtacha umr** ko'rish muddati deganda muayyan yilda tug'ilgan avlodning o'rtacha yashash imkoniyati tushiniladi. Bunday imkoniyat o'lim ko'rsatkichlari berilgan jadvallar asosida hisoblanadi. O'rtacha umr ko'rish muddati hisoblanganda, ana shu avlodning butun yashash davrida aholi o'rtasida o'lim barcha yosh guruhlarida hisobot yilidagi darajada saqlanib qoladi deb shartli ravishda taxmin qilinadi.

Yuqorida aytilganidek, **dunyoda (2020 yil)** o'rtacha umr ko'rish yoshi **73** ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich erkaklarda-**69** yoshni, ayollarda-**74** yoshni tashkil etmoqda. Bu degani dunyo aholisining 25 foizdan ortig'i nafaqaxo'rlar bo'lganligi bois mehnat resurslarida nomutanosiblikka olib keladi. Ya'ni 2025 yilga kelib, har ikki nafaqaxo'r nafaqasi uchun bitta ishga yaroqli xodim mehnat qilishi kerak bo'lib qoladi.

**3-jadval. 2020 yil 1-yanvarida O'zbekistonda aholining tabiiy harakati koeffisientlari quyidagicha ifodalanadi:**

	har 1000 kishiga	
	2019 yil	2020 yil
Tug'ilganlar	23,3	24,3
O'lganlar	4,7	4,6
Tabiiy o'sish	18,6	19,7
Nikohlar	9,4	9,3
Ajralishlar	1,0	0,9

**Tug'ilish darajasi.** 2020 yilning yanvarida tug'ilish koeffisienti 24,3 promilleni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 1,0 promillega ko'paydi (2018 yil yanvarida 23,3 promille). 2020 yil 1-yanvarda tug'ilish 815,9 kishini tashkil etgan bo'lsa, 2019 yil 1-yanvarda 768,5 ming kishiga to'g'ri kelgan-(**3-4-jadval ma'lumotlariga qarang**).

**Manbalarga e'tibor bersak,** 2016 yilda O'zbekistonda o'rtacha umr ko'rish yoshi 73,8 yoshni, erkaklarda-71,4 yoshni, ayollarda-76,2 yoshni tashkil qilgan. Keyingi vaqtarda (2020 йил) berilgan ma'lumotlarga qaraganda, O'zbekiston aholisining o'rtacha umr ko'rishi 67 yoshdan **75** yoshgacha, shu jumldan erkaklarda-66 yoshdan 73 yoshgacha, ayollarda 70 yoshdan 75 yoshgacha o'zgargan<sup>3</sup>.

Masalan, biz 2018-2020 yillarda O'zbekistonda tug'ilgan bolalarning o'rtacha umr ko'rish muddati 75 yil deyish bilan, ana shu yangi tug'ilgan bolalar 75 yoshga to'lguncha mamlakatimizda o'lim ko'rsatkichi 2018-2020 yillardagidek saqlanib turadi deb shartli taxmin qilamiz va shu asosda hisob yuritamiz, 75 yil davomida o'lim, shubhasiz, yanada kamayadi, bu esa, o'z navbatida mamlakatimizda 2018-2020 yillarda tug'ilgan bolalarning o'rtacha umr ko'rish muddatini oshiradi.

Shunday qilib, aholining o'rtacha umr ko'rish muddati o'lim ko'rsatkichi bilan bevosita bog'liqdir. Aholining o'rtacha umr ko'rish muddati turli davlatlarda bir-biridan farq qiladi. Akademik S.G. Strumilin fikricha, umuman kishilar normal, optimal sharoitda 150 yil yashashlari mumkin. Ko'pchilik boshqa olimlar o'rtacha umrni 115-125 yosh bo'lishi mumkin deb hisoblaydilar va hokazo.

**O'lim darajasi.** 2020 yil yanvarida o'lim koeffisienti 4,6 promilleni tashkil qildi va o'tgan yilning shu davriga (4,7 promille) nisbatan 0,1 promillega pasaydi. O'lganlar umumiylaridan 60,3 foizi qon aylanish sistemasi kasalliklaridan, 4,2 foizi nafas olish organlari kasalliklaridan, 10,0 foizi o'sma kasalliklaridan, 5,5 foizi ovqat hazm qilish organlari kasalliklaridan, 6,3 foizi baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlardan vafot etgan.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020 yilning yanvarida bir yoshga to'limgan bolalar o'limi soni 7,4 mingtani tashkil qildi. Jami bir yoshga to'lmasdan o'lgan bolalardan 58,5 foizi perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 18,7 foizi nafas olish organlari kasalliklaridan, 11,8 foizi tug'ma anomaliyalardan va 2,7 foizi infektsiya va parazitlar bilan kasallanganligi sababli, 1,9 foizi baxtsiz hodisa,

<sup>3</sup> Salixov E.T. Xalq manfaatlariga xizmat qilish ustuvor vazifa. Xalq so'zi. gazetasi. 2020 yil. 30-iyun.

zaharlanish va jarohatlanishdan, 0,8 foiz ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 5,6 foiz boshqa kasalliklardan vafot etgan.

**4-jadval. O'zbekistonda 2020 yil yanvarida aholining tabiiy harakati koeffisienti  
1000 aholi soniga)**

	Tug'ilganlar		O'lganlar		Aholining tabiiy o'sishi	
	2019y.	2020y.	2019y.	2020y.	2019y.	2020y.
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>23,3</b>	<b>24,3</b>	<b>4,7</b>	<b>4,6</b>	<b>18,6</b>	<b>19,7</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	21,6	21,9	4,6	4,4	17,0	17,5
viloyatlar:						
Andijon	23,8	25,7	5,1	4,8	18,7	20,9
Buxoro	21,3	21,6	4,2	4,3	17,1	17,3
Jizzax	25,2	26,7	4,2	4,0	21,0	22,7
Qashqadaryo	25,8	26,7	4,1	3,9	21,7	22,8
Navoiy	22,3	22,8	4,3	4,1	18,0	18,7
Namangan	24,4	25,9	4,5	4,3	19,9	21,6
Samarqand	26,2	26,4	4,3	4,2	21,9	22,2
Surxondaryo	26,8	28,1	4,2	4,1	22,6	24,0
Sirdaryo	22,3	24,8	4,6	4,4	17,7	20,4
Toshkent	20,6	21,8	5,7	5,5	14,9	16,3
Farg'ona	22,2	25,6	4,6	4,6	17,6	21,0
Xorazm	22,0	22,2	4,5	4,3	17,5	17,9
Toshkent sh.	18,6	19,8	6,3	6,1	12,3	13,7

**Nikoh va ajralishlar.** 2020 yilning yanvarida FHQQ organlarida 310,9 ming nikoh ro'yxatga olindi, ajralishlar soni esa 31,4 mingtani tashkil qildi. Ming aholiga nisbatan hisoblaganda 9,3 ta (2019 yil – 9,4 ta) nikoh va 0,9 ta (2019 yil – 1,0 ta) ajralishlar to'g'ri kelmoqda.

**Migratsiya.** Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020 yilning yanvarida respublika bo'yicha ko'chib kelganlar soni 158,8 ming kishini tashkil qildi. Shu davr mobaynida ko'chib ketganlar soni 169,5 ming kishini tashkil qildi. Migratsiya qoldig'i minus 10,7 ming kishini (2019 yilning shu davrida minus 16,2 ming kishi) tashkil qildi.

**5-6-jadvallar** manbalarida olingan ma'lumotlar ko'rsatishicha 2050 yilda dunyo mamlakatlaridagi eng ko'p aholili mamlakat Xitoy o'rnnini Hindiston egallashi (1529 mln) ko'zda tutilgan. Lekin hozirgi kunda hududi va aholisi bo'yicha o'ziga xos gigan va mitti davlatlar jadvallarda batafsil berilgan. Aynan hudud sig'imi va aholi soni har qanday davlatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga kuchli ta'sir qiladi. Urushlar juda katta demografik oqibatlarga sabab bo'ladi. Urushlarning demografik oqibatlari jumlasiga jangchilar va fuqaro aholining bevosita urushda halok bo'lishidan tashqari, uning bilvosita oqibatlarini ham kiritish zarur.

**5-jadval. Dunyodagi gigant va mitti davlatlar (hududi va aholisi bo'yicha) 2019 yil**

No	Gigan davlatlar	Maydoni kvadrat kilometr	Aholisi kishi	No	Mitti davlatlar	Maydoni kvadrat kilometr	Aholisi kishi
1	Rossiya	17 100 000	146 877 088	1	Maldiv orollari	300	512037
2	Kanada	9 984 670	37 200 000	2	Kuk orollari	230	20 000
3	Xitoy	9 597 000	1 394 470 000	3	Sent-Kits va Nevis	261	52500
4	AQSh	9 519 431	328 655 000	4	Marshal	181.3	58461
5	Braziliya	8 515 770	210 215 000	5	Lixtenshteyn	160	33 000
6	Avstraliya	7 692 024	24 500 000	6	San-Marino	61	32 000
7	Hindiston	3 287 263	1 343 160 000	7	Tuvalu	26	11000
8	Argentina	2 780 400	44 500 000	8	Nauru	21.3	10500
9	Qozog'iston	2 724 902	16 593 000	9	Monako	1.9	37550
10	Jazoir	2 381 741	42 700 000	10	Vatikan	0.44	805

**6-jadval. Dunyodagi aholisi eng tez o'suvchi davlatlar**

No	Mamlakatlar	Aholisi kishi, 21.01. 2020 yil	Dunyo aholisiga nisbatan % da	Aholi (mln.kishi, 2050 yil, bashorat) Mln kishi
1	Xitoy	1 400 970 200	18,10%	1478
2	Hindiston	1 357 580 350	17,50%	1529
3	AQSh	329 210 630	4,24%	349
4	Indoneziya	265 015 300	3,42%	312
5	Pokiston	212 742 631	2,74%	345
6	Braziliya	211 014 564	2,72%	244
7	Nigeriya	188 500 000	2,43%	244
8	Bangladesh	167 961 222	2.16%	212
9	Rossiya	146 877 088	1,89%	-
10	Meksika	126 577 691	1,63%	141
	<b>Jahon</b>	<b>7 759 546 000</b>	<b>100%</b>	<b>-</b>

Chunonchi, urush yillarida tug'ilishning keskin kamayib ketishi, aholi sog'ligining yomonlashuvi natijasida urush tugagandan keyin ham bir necha yillar davomida o'limning yuqori bo'lishi, aholi yoshi-jinsiy tarkibining buzilishi kuzatildi.

Yuqorida aholining takror barpo qilinishi jarayonini asosi bilan tanishib chiqdik. Hozirgi paytda Er shari aholisiga har yili 93-95 mln kishi qo'shilmoqda yoki yiliga 1,22 % o'smoqda. Dunyo aholisining bunday tez o'sishi hech qachon kuzatilmagan.

Hozirgi paytda dunyo aholisi yillik tabiiy o'sishining taxminan 80 % rivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ri keladi.

## 2.4. Ekologik omilning demografik jarayonlarga ta'siri

Agar, XX asrda demografik jarayonlarning faollashuviga jahon urushlari va asr oxiridagi geosiyosiy jarayonlar o'z ta'sirini ko'rsatgan bo'lsa, XXI asrga kelib, dunyoning turli mintaqalarida turli ko'rinishdagi tabiiy ofatlarning ortib borishi bilan bog'liq bo'lishi dunyo olimlari tomonidan bashorat qilinmoqda.

Rus oimlari V.L. Kotelnikov va Yu.G. Saushkinlar ta'kidlashicha, «Aholi tabiat qonunlaridan foydalangan holda yashaydi, mehnat qiladi, dam oladi va davolanadi. Fan bu qonuniyatlarni o'zlashtirish uchun juda ko'p ishlarni amalga oshirdi. Biroq, geografik muhitdagi o'zgartirilgan va o'zgartiriladigan tabiat qonunlarining barcha jihatlari to'liq o'rganilmagan». Olimlarning fikricha, geografik muhitning jamiyat tomonidan o'zgartirilishi doimo quyidagi maqsadlardan kelib chiqadi:

- a) ehtiyoj mahsulotlarini ishlab chiqarishning kengayishi;
- b) inson hayotida bevosita ahamiyatga ega bo'lgan aholi manzilgohlarining kengayishi;
- v) inson mehnati va yashash sharoitlarini yaxshilash;
- g) kasalliklarga qarshi kurash, kishilar salomatligini yaxshilash;
- d) insoniyatning dam olishi va davolanishi kabi maqsadlar.

Geografiya tarixida, ya'ni XVII asrning boshlariga qadar Shimoliy Amerika tabiatini mutlaqo o'zgartirilmagan, Missisipi daryosi qirg'oqlari bo'ylab butun AQSh ning shaxsiy va Kanadaning janubi-sharqiy kengliklari qalin o'rmonlar bilan qoplangan bo'lgan. Aksariyat qismi Evropadan borgan kishilar (yirik er egalari) tomonidan o'rmonlarning kesilishi bugunga qadar, ya'ni 200-250 yil davom etdi. Natijada, ajoyib tabiat me'yori hukm surgan bu hududda mutlaqo o'zgacha manzara kasb etgan sanoat mintaqasi paydo bo'ldi.

1908 yilda tabiiy resurslarni muhofaza qilishga bag'ishlab o'tkazilgan konferensiyada T.Ruzvelt shunday degan:-«Biz tabiiy resurslardan keng foydalanishimiz natijasida boyidik va o'zimizni yutuqlarimizdan minnatdor va mag'rur tutamiz. Biroq, o'rmonlarning yo'qolib ketishi, ko'mir, neft, va temir rudalari zahiralari tugaganidan keyin, qanday holatga tushishimiz to'g'risida o'ylashga hozir vaqt etdi!». Albatta, T.Ruzvelt o'z e'tirofida bugungi kundagi iqlim o'zgarishlari oqibatida AQSh da bo'layotgan tabiiy ofatlarni nazarda tutmagan. Demak, demografik jarayonlarning tabiatga sezilarli ta'sir etishi to'g'risidagi tushunchalar XX asr bosqlaridayoq jamoatchilik diqqatida bo'lgan.

Shu bois, bugungi kundagi iqlim o'zgarishi oqibatida yuzaga kelayotgan tabiiy ofatlarning paydo bo'lishini «bumerang» ga o'xshatish mumkin, ya'ni, tabiat o'z aks ta'sirini ko'rsatmoqda. Buni «Orol muammosi» misolida ham ko'rish mumkin. Oxirgi 40 yil davomida Orol dengizi sathi 20-21 metrgacha tushib ketdi va dengizning qurib qolgan maydoni esa, 3 mln. hektardan ko'proqni tashkil etadi va uning deyarli yarmi O'zbekiston hududiga to'g'ri keladi. Orol tubidan ochilib qolgan va har yili 100 mln. tonnadan ortiq tuz qishloq xo'jaligi erlariga yoyilib, hududdagi har hektar erga kelib tushadigan tuzlar miqdori 520-600 kg.ni tashkil etmoqda.

Ikkinchı jahon urushidan keyingi davrda Surxon-Sherobod vohasi, Qarshi dashtlari, Mirzacho'lni o'zlashtirish uchun minglab, oilalar o'zlashtirilishi lozim bo'lган hududlarga ko'chirilgan. Masalan, 1949 yil 20 iyunda 6615 xo'jalik oilalari ko'chirilgan. Jumladan, Mirzacho'lga 3337 ta oila, Sirdaryoga 3278 oila ko'chirilgan. Bu davrda yuzlab jamoa xo'jaliklari tashkil etilib, qo'riq erlar o'zlashtirildi. O'nlab sug'orish inshootlari qurildi. Natijada, suv sarfi ham bir necha o'n martaga ortdi.

Orol sathi pasaya borib, Mo'ynoq va boshqa aholi manzilgohlarida aholi sezilarli darajada kamaydi. So'nggi yillarda atrof muhitning kompleks omillari ta'sirida aholi salomatligi bilan bog'liq ba'zi salbiy holatlarning intensiv o'sishi kuzatiladi. Bular cho'llashuv jarayonining faollashuvi chuchuk suvlar tanqisligi tabiat ekotizimlarining nafaqat degradatsiyasi, balki aholining tabiiy o'sishiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Bu kabi holatni fojeali hududning Qozog'istonga tegishli qismida ham kuzatish mumkin. Biroq, O'zbekistonda Markaziy Osiyoning boshqa davlatlariga nisbatan aholisi o'sishda davom etmoqda (**7-jadval**).

Keyingi yillarda Orol ekologik inqirozi hududi (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qozog'iston, shundan Qizil O'rda va Oktyubinskiy viloyatlari) dan 75 ming kishi har yili ko'chib ketishgan. Orolning qurishi natijasida Orol atrofida qish 1,5-2,5 gradusga sovidi, yoz kunlarining harorati esa 1,5-2,5 gradusga isidi. O'simliklarning vegetatsiya davri esa 10-15 kunga qisqardi.

Orol bo'yidagi o'nlab-yuzlab ko'llar va havzalar quridi. Ushbu ko'llar atrofida hayvonlar boqilardi, baliq urchitilardi, ondatra, nutriya, qutb tulkilari ko'paytirilardi. Amudaryo deltasida 800 ming hektar er maydonidagi to'qayzorlar va qamishzorlarga putur etdi, ular yo'q bo'lish arafasida. 200 turga yaqin o'simlik va hayvonlarning turlari yo'q bo'ldi. Tuproqning gumus qatlami 2-3 martaga kamayib ketdi.

**7- jadval. 1989-2020 yillarda Markaziy Osiyo aholi soni ko'rsatkichlari (mln. kishi).**

Mamlakatlar	1989	1994	2020	2020 yilda 1989 yilga nisbatan
Qozog'iston	16,5	16,9	16,6	1,0
Qirg'iziston	4,3	4,5	5,8	1,3
Tojikiston	5,1	5,7	9,1	1,8
Turkmaniston	3,5	4,3	5,9	1,7
O'zbekiston	19,9	22,2	34,0	1,8
<b>Jami:</b>	<b>49,3</b>	<b>53,6</b>	<b>71,4</b>	<b>1,4</b>

Orol dengizining qurishi bilan bir vaqtida, daryo suvining va u bilan bog'liq holda er osti suvlarining ham ifloslanishi ro'y bermoqda. Shu tariqa, O'zbekistondagi demografik jarayonlarning rivojlanishida ekologik shart-sharoitlar, ayniqsa, ekologik muammolar ichida suv ta'minoti muhim o'r'in tutadi.

Olimlarning hisob kitoblariga ko'ra, er yuzasidagi mavjud chuchuk suvlar va foydalanish mumkin bo'lган er osti suvlari 60 milliarddan ortiq aholining ehtiyojini qondirish uchun etadi (faqat ichish emas, sanoat va qishloq xo'jaligi ham hisobga olinganda). BMT demograflarining taxminicha, Er shari aholisi 12-14 milliard kishi

atrofida barqarorlashishi ehtimoli bor. Hozir O'zbekistonda olinadigan chuchuk suvning 92 foizi qishloq xo'jaligida, 6 foizi sanoatda, 0,5 foizi komunal xo'jalikda ishlataladi, 1,5 foizi esa bug'lanib ketadi. Shunday ekan, aholisining aksariyat qismi qishloq xo'jaligida band bo'lган aholi manzilgohlarida chuchuk suvning ahamiyati kishilar turmush tarzini belgilovchi eng muhim vosita sifatida maydonga chiqadi.

Keyingi yillarda, qishloq xo'jaligida suvdan tejamkorlik bilan foydalanishga e'tibor qaratilmoqda. Biroq, bu boradagi ishlarni hamon talab darajasida deb bo'lmaydi. Ayniqsa, bu bozor iqtisodiyoti sharoitida yangi paydo bo'lган xo'jalik sub'ektlari (fermer xo'jaliklari) oldidagi muhim muammodir. Shu bois, qishloq xo'jaligida suvni tejab foydalanishni ko'zda tutgan loyihalar va dasturlar ko'lami va ularning amaliyotdagи joriy etilishiga jiddiy e'tibor qaratishni taqozo etadi.

Qishloq xo'jaligi va qishloq aholi maskanlari uchun yana bir dolzarb muammo, bu elektr energiyasi ta'minotidir. Biz bugungi kunda mamlakatning eng chekka hududlariga kichik korxonalarning kirib borishi, fermer xo'jaliklari ixcham kichik uskunalar yordamida o'zlari etishtirgan mahsulotlarni qayta ishslashlari to'g'risida ko'pgina ilmiy ishlarimizda e'tirof etamiz.

Ammo, elektr energiyasiz uni amalga oshirish muammoligicha qolib kelmoqda. Elektr quvvatiga ehtiyojni ta'minlash muammosi bugungi kunda ko'plab mamlakatlar va hatto, rivojlangan davlatlarga ham xos, biroq, ularning ko'pchiligidagi energiya ishlab chiqarishning muqobil usullari ancha yaxshi yo'lga qo'yilgan. Yaponiyaning 1960-1970 yillardagi yutug'i ham mamlakatda energiya inqilobini amalga oshirganligi bilan bog'liq bo'lган.

Jumladan, O'zbekistonda «Bekobod shamoli»ning yil davomida esishi yoki mamlakatning janubiy mintaqasidagi quyoshli kunlarning davomiyligini e'tiborga olganda, bu uzoq vaqt orzuligicha qolmasligi lozim. Yurtimizda faoliyat yuritayotgan xorij kompaniyalarining manfaatlari doimo bizga mos kelavermaydi.

Chunki, ular hech qachon bizga hozirgi kundagi do'konlardagi narxi 1 mln. so'mgacha yoki undan ortiq bo'lган uyali telefon o'rniga quyosh batareykalarini taklif etmaydi. Shunday ekan, mazkur muammolarni bartaraf etish uchun jonkuyarlik o'z mutaxassislarimiz va tadbirkorlarimiz zimmasida qolaveradi. Bu kabi muammolar avvalam bor, milliy qo'shni davlatlarda ham mavjudligini e'tiborga olganda mintaqaviy ahamiyat kasb etadi.

## 2.5. Demografik koeffisientlar

Demografik jarayonlar (tug'ilish, o'lim, nikoh va ajralash) ni mukamal o'rganishda, ularni turli aholii guruhlari, davlatlar, dunyo hududlari bo'ylab qiyoslashda, kelajak istiqbolini aniqlashda, demografik koeffisientilardan foydalaniladi. Ushbu koeffitsientlar yordamida o'rganilayotgan demografik jarayonning kerakli jihatlari chuqur va qiyosiy darajada o'rganiladi. Ma'lum tarixiy davr yoki ikki hudud orasida demografik farqlarni statistik ma'lumotlar orqali bevosita aniqlab bo'lmaydi. Shuning uchun har bir demografik jarayonni koeffisenti hisoblanadi. Buning uchun demografik jarayonning 1000 kishiga nisbatan bo'lган miqdor aniqlanadi. Demak 1000 kishi demografik jarayonlarni o'rganishda mezon hisoblanadi. Bu ko'rsatkich promille, deb yuritiladi va quyidagicha -% o belgilanadi.

Demografik koeffisientlar alohida demografik jarayonlarni ifodalaydi. Demografik koeffitsentlar umumiylar, maxsus va xususiy jihatlarga egadir. Tug'ilishning umumiylar avlodlarni tashkil etuvchi aholi guruhidagi bola ko'rish jarayonidir. Tug'ilish-biologik jarayon. Lekin u ijtimoiy-iqtisodiy muhit ta'sirida o'zgarib boradi. Jamiatning ijtimoiy-iqtisodiy tarkibidagi o'zgarishlar tug'ilish darajasini belgiliyadi.

Tug'ilishning biologik asosi insonning pushtliligi, nasl qoldirish, avlod qoldirish qobiliyatidir. Erkak bilan ayol, ya'ni nikoh juftlarining farzand ko'rishga bo'lgan biologik qobiliyati **pushtlilik** deb ataladi va bu tushuncha demografiyada ko'proq ayollarga nisbatan qo'llanilib, har bir ayolning farzand ko'rish davridagi (o'rtacha 15-49 yosh) jami homiladorligi bilan belgilanadi. Pushtlilik erkak va ayolning biologik xususiyatlari, salomatligiga bog'liqdir. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, sog'lom ayollar farzand ko'rish davrida eng ko'pi 35 tagacha homilador bo'lishi (egizaklar ham bitta homiladorlik hisoblanadi) mumkin ekan. Lekin har bir ayol o'rtacha 10-12 ta tirik farzand ko'riish, 10-15 marta homilador bo'lishi (o'lik tug'ilishi, bola tashlash holatlari bilan birga) mumkin.

Tug'ilish-tirik tug'ilgan bolalarni ifodalovchi biologik jarayon bo'lib, u insonlarning **reproduktiv** maylari, ya'ni farzand ko'rishga bo'lgan munosabati bilan bog'liqdir. Reproduktiv mayl esa inson yashayotgan ijtimoiy-iqtisodiy muhit bilan bog'liq holda o'zgarib turadi. Natijada inson o'z pushtliligidan, ya'ni bola ko'rishga bo'lgan biologik imkoniyatidan to'la foydalanmaydi. O'zining bolani tarbiyalab voga etkazish uchun zarur bo'lgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlarini hisobga olgan holda, farzand ko'rishga harakat qiladi, ya'ni farzandlar tug'ilishini cheklaydi, nazorat etadi.

Tug'ilish darajasi-tug'ilish koeffisientlari yordamida o'rganiladi. Tug'ilishning umumiylar, maxsus va xususiy koeffisientlari mavjuddir. Tug'ilishning umumiylar koeffisienti, har 1000 aholiga nisbatan tug'ilgan bolalar sonini ifodalaydi va quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$U_{tk} = \frac{T}{PS} \times 1000 =$$

T-tug'ilganlar soni, P-o'rganilayotgan davr, S-o'rganilayotgan davrda aholini o'rtacha soni.

Tug'ilishning umumiylar koeffisienti odatda promilleda hisoblanadi. Bu koeffisientdan tug'ilish darajasini ifodalashda ko'proq foydalaniladi. Uning yordamida ma'lum avlodlardagi tug'ilishda ro'y berayotgan o'zgarishlar umumiylar tarzda o'rganilishi mumkin. Lekin tug'ilishning umumiylar koeffisienti tug'ilish darajasini ifodalashda biroz dag'alliklarga yo'l qo'yadi. Chunki bu ko'rsatkichga aholining yosh va jinsiy tarkibi bevosita ta'sir etadi. Agar o'rganilayotgan hudud aholi tarkibida farzand ko'rish yoshiga etmagan bolalar (0-14) va farzand ko'rish yoshidan o'tgan keksalar (60 va undan yuqori yoshdagi aholi guruhi) salmog'i yuqori bo'lsa, tug'ilish umumiylar koeffisientining biroz past darajada ifodalananishiga olib keladi.

Demograf olimlar B.O'Urlanis, V.A.Borisovlar tomonidan tug'ilish darajasini tug'ilish umumiylar koeffisienti yordamida baholash mezoni aniqlangan. Umumiylar mezon bo'yicha o'rganilayotgan hudud yoki aholi guruvida tug'ilishning umumiylar

koeffisienti 16 promilledan kam bo'lsa, tug'ilish darajasi past, 16-24 promille bo'lsa o'rta, 25-29 promille bo'lsa yuqori va 40 promilledan baland bo'lsa tug'ilish darajasi juda yuqori hisoblanadi.

Tug'ilishning maxsus koeffisientlari tug'ilish darajsidagi o'zgarishlarni aniq ifodalaydi, tug'ilishni atroficha o'rganishda qo'llaniladi. Ushbu koeffisient alohida erkaklar va ayollar guruhiga nisbatan hisoblanishi mumkin. Demografik tadqiqotlarda asosan reproduktiv yoshdagi (15-49 yosh) ayollarga nisbatan qo'llaniladi.

O'lim avlodlarni hayotdan ko'z yumish jarayonini ifodalaydi va qator omillar (endogen-ekzogen) ta'sirida sodir bo'ladi. O'lim jarayoni ma'lum aholi guruhlarida, avlodlarda, davlatlarda va jamiyat taraqqiyoti bosqichlarida ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga bog'liq holda, inson hayotining turli davrlarida sodir bo'ladi. O'lim jarayonini ifodalashda quyidagi koeffisientlardan foydalaniladi. O'limning umumiy koeffisienti:

$$U_{o'k} = \frac{O'}{PS} \times 1000 =$$

O'-o'lganlar soni, P-o'rganilayotgan davr, S-o'rganilayotgan davrda aholini o'rtacha soni.

O'limning umumiy koeffisientiga ham aholining yosh va jinsiy tarkibi bevosita ta'sir ko'rsatadi. Aholi tarkibida qariyalar salmog'ining ko'pligi o'limning umumiy koeffisientini ko'tarilishiga olib kelishi mumkin. O'lim jarayonida bo'layotgan o'zgarishlarni aniq o'rganishda uning maxsus koeffisientlari-yosh guruhlari va jinslar bo'yicha alohida ifodalananadi.

**Nikoh va ajralishning koeffisientlari.** Nikoh erkak bilan ayolning tarixan tarkib topgan, jamiyat tomonidan muayyan tartibga solib turiladigan o'zaro, hamda bolalariga nisbatan munosabatlari shaklidir. Nikoh o'z evolyutsiyasiga, turlariga ega bo'lgan ijtimoiy jarayondir. Jamiyat taraqqiyotining ma'lum davrida paydo bo'lgan nikoh, jamiyat rivojlanishi bilan takomillashib, shaklan o'zgarib boradi. Nikohning eng dastlabki turi ibtidoiy jamiyatning dastlabki bosqichiga mansub bo'lgan guruhiy nikoh edi. Guruhiy nikohda ikki qabila, ikki urug' ayol va erkaklari o'rtasida nikoh munosabatlari shakllangan bo'lib, bir urug' yoki qabilaga mansub erkak va ayollar o'rtasidagi nikoh munosabatlari taqiqlangan edi. Bunday nikohlar ekzogam nikohlar, deb ham ataladi. Keyinchalik jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, chorvachilik, dexqonchilik, hunarmandchilik va savdoni, sanoatni, urbanizatsiyani rivojlanib borishi, sinfiy jamiyatni tashkil topishi, ayol va erkakning jamiyatdagi, oiladagi o'rniga bog'liq holda nikoh turlari ham mos ravishda o'zgarib bordi. Asta-sekin poligam (ko'p nikohlilik, odatda ko'pxotinlilik tushuniladi) nikoh turidan monogam (yakka nikoh, ya'ni bir erkak va bir ayol o'rtasidagi nikoh) nikoh turiga o'tildi.

Nikohni qayd etish, ya'ni ro'yxatga olish fuqarolik tartibi qonun-qoidalari va diniy urf-odatlarga ko'ra amalga oshiriladi. Har bir davlatda nikohga kirish yosh yigit va qizlar uchun belgilangan va davlat, oila hamda nikoh qonunlari orqali rasmiylashtirilgan. Nikohga kiruvchilar soni davlat maxsus tashkilotlari tomonidan muntazam ro'yxatga olib boriladi.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida dunyodagi barcha xalqlarda nikoh turlari uning qayd etilishi, maqsadi va vazifalari o'zaro juda yaqin bo'lsada, lekin nikoh yoshi, yosh guruhlari, jinslar bo'yicha nikohda turuvchilar salmog'i, ya'ni nikohlilik darajasi turlichadir. Nikoh jarayonini aholishunoslik fanlari tizimiga kiruvchi qator fanlar o'z maqsadlariga mos ravishda tahlil etadilar, o'rganadilar.

Demografiyada nikoh aholi takror barpo bo'lishiga bevosita ta'sir etuvchi demografik jarayon sifatida, o'z o'rganish uslubi, koeffisientlari yordamida tahlil etiladi. Aholi guruhidagi nikohlilik darajasini nikoh koeffisientlari yordamida aniq o'rganiladi. Nikoh koeffitsientlari aholini (erkaklar va ayollarning) nikohda bo'lishini ifodalovchi nisbiy ko'rsatkich bo'lib, u ma'lum davrda qayd etilgan nikohlar sonini nikoh yoshidagi aholiga (16 yoshdan yuqori) nisbatli bilan o'lchanadi.

Nikohning umumiyligi yosh guruhlari va yig'indi koeffisientlari mayjuddir. Nikohning umumiyligi koeffisienti-ma'lum hududda ma'lum davrda nikohga kirganlar sonining shu hudud aholisining o'rtacha soniga nisbatan ifodalaydi.

$$U_{nk} = \frac{N}{P16+} \times 1000$$

N - bir yilda nikohga kirganlar soni;

16+- 16 yosh va undan yuqori nikoh yoshidagi aholi.

P- o'rganilayotgan davr.

Ajralish va uning koeffitsientlari. Ajralish er-xotinning hayotlik davrida nikohning bekor etilishidir. Ajralish murakkab ijtimoiy jarayon bo'lib, qator omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Ularga jamiyatda nikohning tutgan o'rni, nikoh turlari, har bir davlatda nikoh va ajralish haqidagi mavjud qonunlar, davlat tomonidan oila mustahkamligi borasida olib borilayotgan siyosat, ayollarning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni, farzandsizlik, oila turmush tarzi, din, urf odatlar, alkogolizm va narkomaniya kabilarni kiritish mumkin. Ushbu omillar ta'sirida jamiyat taraqqiyotining turlicha bosqichlarida, davlatlarda, xalqlarda va aholi guruhlarida ajralish darajasi turlicha bo'ladi. Ajralish jarayonini o'rganishda qator koeffitsientlardan foydalilanadi.

Ajralishning umumiyligi koeffisienti ma'lum davrdagi ajralish sonini shu davrdagi aholini o'rtacha soniga nisbatini ifodalaydi va promileda belgilanadi.

$$U_{ak} = \frac{A}{PS} \times 1000$$

A -bir yilda ajralganlar soni;

P-o'rganilayotgan davr;

S-o'rganilayotgan davrda aholini o'rtacha soni.

## 2.6. Aholi migratsiyasi

**Migratsiya so'zi lotincha** so'zdan olingan bo'lib, ko'chish degan ma'noni bildiradi. Kishilarning yashash, ishlash, o'qish maqsadida, ma'muriy chegaralardan o'tgan holda, bir manzilgoxdan ikkinchi manzilgohga doimiy yoki ma'lum muddatga ko'chishi migratsiya deyiladi. Demak, aholining hududlar bo'ylab harakati aholi migratsiyasini ifodalaydi. Migratsiyada ishtirok etgan kishilar esa «migrantlar» deb ataladi. Migratsiya yo'nali shiga binoan tashqi va ichki migratsiyaga bo'linadi.

Tashqi migratsiya-bir davlatdan ikkinchi davlatga, bir qit'adan ikkinchi qit'aga aholining ko'chishidir. Bu jarayonda davlatlar aholisi qayta taqsimlanadi va ularda aholining kamayishi va ko'payishi kuzatiladi.

Ichki migratsiya bir davlatning ichida aholining hududlar bo'ylab ko'chishidir. Bunday migratsiyada ma'lum davlat ichida shahar va qishloq, tumanlar bo'ylab aholining qayta taqsimlanishi sodir bo'ladi. Lekin shu davlat aholisining umumiy soni o'zgarmaydi. Aholi migratsiyasi o'z mohiyatiyaga ko'ra uch turga, ya'ni doimiy, vaqtincha (mavsumiy) va tebranma (mayatniksimon) migratsiyaga bo'linadi.

Doimiy migratsiya BMT ta'rifiga binoan aholining bir joydan ikkinchi joyga ko'chib, bir yildan ko'p yashab qolishidir. Vaqtincha migratsiya esa aholining bir joydan ikkinchi bir joyga ko'chib, ma'lum muddat yashab qaytishidir. Vaqtincha migratsiyaga aholinng o'qish, armiya xizmati, shartnoma asosida ishslash uchun vaqtincha yashash joyini o'zgartirishini kiritish mumkin. Tebranma migratsiyada kishilar bir manzilgohdan boshqa bir manzilgohga ishslash yoki o'qish maqsadida har kuni yoki bir haftada qatnashidir. Ushbu migratsiya aksariyat hollarda urbanizatsiya sharoitida rivojlanib boradi. Tebranma migratsiyani asosiy yo'nalishi qishloqdan shaharga, kichik shaharlardan katta shaharlarga tomon bo'ladi.

Ilmiy manbalarda aholining bir joydan ikkinchi joyga bo'lgan harakatini ya'ni ko'chishini ifodalashda «Aholinaing migratsion harakati», «Aholinaing mexanik harakati», «Emigratsiya», «Imigratsiya», «Remigratsiya» tushunchalaridan foydalilaniladi. «Aholinaing migratsion harakati», «Aholinaing mexanik harakati», tushunchalari asosan bir jarayonni - aholini ko'chishini ifodalaydi. Emigratsiya-aholinaing ma'lum davlatdan ko'chib ketish jarayoni bo'lib, ularni, ya'ni ko'chib ketganlarni emmigrantlar deyiladi. Imigratsiya ma'lum davlatga aholining ko'chib kelish jarayoni bo'lib, ko'chib kelganlarni immigrantlar deyiladi. Aholini ko'chib ketgan davlatiga yana qaytib ko'chib kelishi remigratsiya jarayoni hisoblanadi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, «Emigrant» va «Imigrant» tushunchalari uchun xalqaro yagona ta'rif mavjud emas. Bu tushunchalar bo'yicha har bir davlatning o'z mezonlari bordir. Masalan, Bolgariyada «imigrant» shu davlatga joylashish maqsadida boshqa davlatdan kelganlar, «emigrant» esa-Bolgariyani butunlay tashlab boshqa davlatga yashash uchun ketganlar. Polshada - oldin xorijda, ya'ni boshqa davlatda yashab, keyinchalik shu davlatga doimiy grajdani uchun kelganlar «imigrantlar» deb, Polshani butunlay tashlab ketganlar esa «emigrantlar» deb ataladi. Rosiyada ishslash yoki o'qish maqsadida 1,5 yildan ko'p muhlatga kelganlar va ularning kuzatuvchilari «imigrantlar deb, o'qish yoki ishslash uchun 1,5 oydan ko'p muhlatga boshqa davlatga ketganlar «emigrantlar» deb ataladi. AQShda-qonuniy asosda boshqa davatlardan doimiy yashash maqsadida AQSh ga kelganlar «imigrant»lar deb «ataladi», «emigrant» larga esa ta'rif yo'q.

Aholining migratsion harakatiga ko'plab omillar ta'sir etishi mumkin. Ularga ijtimoiy, siyosiy, milliy, diniy, ekologik, harbiy va demografik omillarni kiritish mumkin. Umuman xalqaro migratsiya olti guruhga ajratiladi:

- 1.Oilaviy va boshqa sabablarga ko'ra, doimiy yashash maqsadida bir davlatdan ikkinchi davlatga ketgan emigrantlar;
- 2.Migrant mehnatkashlar;
- 3.Nolegal imigrantlar;

4.Qochoqlar;

5.Studentlar, stajer-tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar va o'qituvchilar;

6.Turli maqsadda ko'chib yuruvchi turistlar, dam oluvchilar, anjumanlarga qatnashuvchilar va h.k.

Hozirgi xalqaro migratsiyada asosiy o'rinni mehnat migratsiyasi egallaydi. Chunki hozirgi davrda insonning yashashi uchun iqtisodiy omilning ahamiyati kuchaydi. Dunyoda va uning alohida hududlarida jamiyat taraqqiyotining ma'lum bir tarixiy davrlarida turli ijtimoiy guruhlaridagi migratsion harakatni o'rganishda migratsiya ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Ayniqsa migratsiya jarayonini demografik nuqtai nazardan o'rganilganda uning ko'rsatkichlari atroflicha tahlil etiladi.

Migratsiya ko'rsatkichlari:

1.Migratsianing absolyut va nisbiy son ma'lumotlari;

2.Migratsion harakatning intensivligi yoki koeffitsienti (ma'lum hududda yashovchi aholida har 100 kishiga to'g'ri keluvchi migrantlar soni);

3.Migratsiya saldosi (bir yil davomida ko'chib kelgan aholi bilan, ko'chib ketgan ahotlining ayirmasiga) teng.

Migratsiya saldosi manfiy yoki musbat bo'ladi va u absolyut (masalan yiliga 3000 kishi) hamda nisbiy ko'rsatkichlarda (100 va 1000 kishi hisobiga) ifodalanadi.

Ma'lumki migratsiya aholi ko'chib kelgan hududning ham, ko'chib ketgan hududning ham demografik holatiga ta'sir qiladi. 1980 yillarda aholi o'sishida tashqi migratsianing roli AQSh, Kanada, Fransiya, Avstraliya kabi davlatlarda o'rtacha 25 foizni tashkil etgan. Boshqacha so'z bilan aytilsa, yuqorida qayd etilgan davlatlarda aholi o'sishining 1/4 qismini imigrantlar tashkil etgan.

Migrantlar oqimi yo'nalgan hududlarda, migratsiya saldosi ijobiy, ya'ni ko'chib kelganlar soni, ko'chib ketganlar sonidan ortiq bo'ladi. Natijada bunday hududlarda aholi soni o'sib boradi. Bu hol o'z navbatida nikoh holatiga, oilalar miqdorining oshib borishiga, tug'ilish jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Aholi ko'chib ketayotgan hududlarda esa yoshlar salmog'i, jami aholi tarkibida kamayib boradi, mehnat yoshidan katta bo'lgan aholi salmog'i esa ortib borib, hududning demografik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Aholining bir ijtimoiy-iqtisodiy muhitdan ikkinchi muhitga o'tishi uning demografik mayliga (nikohga kirish va oila qurishiga, oiladagi farzandlar soniga, oila mustahkamligiga munosabati va h.k.) bevosita ta'sir etadi. Shuningdek, aholi migratsiyasi mehnat resurslari shakllanishida ham muhim omillardan hisoblanadi.

Migrantlar oqimi aholining yosh jinsiy tarkibida o'z aksini topadi. Mehnat resurslari ortib boradi. Natijada qator muammolar yuzaga keladi yoki aksincha mehnat resurslarining kamayib ketish hollari ham yuzaga kelishi mumkinki, bu ham muammolarga sabab bo'ladi.

O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimiga qo'shilishi uni jahon mehnat bozorida ham faol qatnashishini taqozo etadi. Iqtisodiyotni isloh qilishning dastlabki yillaridagi o'zgarishlar, demografik vaziyatning murakkabligi O'zbekistonni ishchi kuchini eksport qiluvchi davlatga aylantirishi mumkin. Shu bilan birga boshqa xorijiy mamlakatlardan yuqori malakali ishchi kuchini jalb qilish imkoniyatlari ham mavjud. Sobiq Ittifoqning boshqa

respublikalari kabi O'zbekistonda ham aholining tashqi migratsiyasi ikki oqimda ro'y bermoqda:

- mehnat migratsiyasi, ya'ni qaytib kelish va fuqarolikni qayta saqlash sharti bilan;
- etnik migratsiya, ya'ni qaytib kelmaslik va fuqarolikni saqlamaslik sharti bilan.

Hozirda O'zbekistonda jahon mehnat bozorida faol qatnashishni ta'minlovchi tashkiliy-huquqiy asoslar shakllanmoqda va bu sohadagi davlat siyosati amalga oshirilmoqda.

Hozirgi paytda xalqaro mehnat tashkilotiga 170 dan ortiq davlat, jumladan O'zbekiston Respublikasi ham a'zo bo'lib, tashqi mehnat migratsiyasi sohasida davlat siyosatini ishlab chiqishda ushbu tashkilot qabul qilgan hujjatlarga amal qilmoqda. Xususan, Respublikamizda «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. Mazkur qonunda O'zbekiston fuqarolarini chet ellarda o'z kasbi bo'yicha shug'ullanish huquqi, mamlakat tashqarisida ularni huquq va manfaatlarini himoya qilish, ishga joylashtirishni tartibga solish va bu jarayonni muvofiqlashtirish borasida davlatning javobgarligi mustahkamlab qo'yilgan.

Hozirda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari xorijiy davlatlarda o'z kasblari bo'yicha mehnat faoliyatlarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993 yil 14 iyuldagи «Ishchi kuchlarini olib kelish va tashqariga olib chiqish masalalarini tartibga solish to'g'risida» gi qaroriga va shu bilan tasdiqlangan Nizomga asosan amalga oshirmoqdalar. O'z navbatida mamlakatga kelish va mamlakatdan chiqib ketish to'g'risidagi, xorijda ishlayotgan O'zbekiston fuqarolarini huquq va manfaatlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun loyihalari tayyorlanmoqda. Shuningdek, O'zbekistonda tashqi migratsiya sohasidagi siyosatni tashkiliy jihatdan ta'minlash ishlari ham amalga oshirilmoqda. Shu maqsadda mehnat vazirligi qoshida muhojir-mehnatkashlar ishlari bo'yicha respublika agentligi tuzilgan. Bu tashkilot vazirlikning qaroriga binoan, ishchi kuchini eksport qilish uchun xorijiy sheriklar bilan bitimlar va shartnomalar tuzadi, chet ellarda ishslash uchun mutaxassislarini tanlaydi, ularni jo'nab ketishlarini tashkil qiladi, shartnomaga shartlarini bajarilishini nazorat qilib boradi va h.k.

Respublikada fuqarolarning tashqi mehnat faoliyati litsenziyalar yordamida boshqarilib boriladi. Fuqarolarni ishga yollash va xorijda ishga joylashtirish bilan shug'ullanuvchi barcha jismoniy va yuridik shaxslar yoki xorijiy ish beruvchilar bilan xususiy ravishda shartnomaga tuzilgan fuqarolar hamda ishslash uchun O'zbekistonga kelayotgan chet el fuqarolari tegishli davlat idoralaridan ruxsatnoma (litsenziya) olishlari lozim.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida qabul qilingan huquqiy, tashkiliy-iqtisodiy xususiyatga ega bo'lgan hujjatlar, tashqi mehnat migratsiyasi sohasida davlat siyosatining asosiy vazifalarini hal etishga yo'naltirilgan, ya'ni milliy mehnat bozorida ishchi kuchi kasb-malaka tarkibini muvozanatga keltirishga, xorijda ishlayotgan, yashirin tashqi mehnat migratsiyasining oldini olishga va boshqalarga qaratilgan. Ayni vaqtida O'zbekistonda mehnat bozorini axborot metodik bazasi shakllanishiga qarab, davlat migratsiya xizmatini yanada kengaytirish bilan bir qatorda shunday vazifani bajaruvchi muqobil xizmatni ham rivojlantirish choralarini qidirishmoqda.

Respublika ko'lamida urbanizatsiya yuqori bo'lgan Namangan viloyatida shaharda ish bilan band bo'lganlar ulushi ancha yuqori. Agar qishloq aholisini ish bilan bandligi viloyatlar bo'yicha o'rganib chiqiladigan bo'lsa, bu sust urbanizatsiyalashgan Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida yuqori ekanligi ayon bo'ldi. Umuman olganda, mamlakat hududi bo'yicha ish bilan band bo'lgnarning taqsimlanishi ishlab chiqarish kuchlarining hududiy tuzilmasini aks ettiradi. Respublika bozor munosabatlariga kirishi davomida ishlab chiqarishda mehnatni tashkil etishning yangi shakllari tobora ko'proq rol o'ynaydi. Bu aholini ish bilan ta'minlashni o'sishiga olib keladi. Bozor munosabatlarining rivojlanishi ijtimoiy ishlab chiqarish sohalari o'rtasida va ularning ichidagi emas, balki mulkchilik shakllari va mehnatni tashkil etish turlari hamda mamlakat hududlari o'rtasida ish bilan bandlarini qayta taqsimlanishiga ko'maklashadi.

Ta'kidlash joizki, faoliyat shakllari va mulkchilik shakllari bo'yicha ish bilan bandlikni taqsimlanishi o'rganib chiqilayotgan davrda bir qancha omillar, shu jumladan, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, davlat tasarrufidan chiqarish, xususiyashtirish, ishlab chiqarish kuchlarining hududiy joylashishining o'zgarishi, demografik vaziyat va boshqalar ta'sirida o'zgaradi.

Noishlab chiqarish sohasida ish bilan bandlikni eng umumiy tendentsiyalari quyidagilardan iboratdir:

- moliyaviy resurslar etishmasligi (ilm-fan va ilmiy xizmat ko'rsatish, madaniyat va san'at, boshqaruv) tufayli kelib chiqqan ish bilan bandlik darajasi oshishining unchalik yuqori emasligi;
- byudjetdan moliyalashtirishdagi qiyinchiliklarga qaramay, ish bilan bandlik darajasini asosan saqlanib qolishi (sog'liqni saqlash, ta'lim);
- jamiyat uchun nihoyatda zarur sohalarda (uy-joy kommunal xo'jaligi, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish va boshqalar) ish bilan bandlikning kengayishi sababli xodimlar sonining ko'payishi.

Ma'lumki, O'zbekiston tub aholisining migratsiyasiga moyilligi juda kam. Mahalliy aholi ayniqla, xorijiy mamlakatlarga ko'chishga intilmaydi. Aholining migratsiyasiga kam moyillik xususiyatlari Sobiq Ittifoq davrida aniq maqsad sari yo'naltirilgan. Bu davlatning «temir parda» hamda «yopiq eshiklar» o'z aksini topib, yanada mustahkamlandi. Sovet davridagi milliy respublikalardagi migratsiya jarayonlarini ko'chadagi bir tomonlama harakatga o'xshatsa bo'lardi. Markaziy Osiyo respublikalari, jumladan, O'zbekiston, Sobiq Ittifoqning boshqa respublikalariga qaraganda, sovetlar mustamlakasi davrida kuchli migratsiya bosqinchiligiga mutbalo etildi. Markaziy Osiyo davlatlariga, shu jumladan, O'zbekistonga muntazam ravishda turli yillar va davrlarda ruslar, ukrainlar, yahudiylar, tatarlarning katta oqimi jo'natilib turildi. Respublikaga zo'r lab turli xil xalq vakillari koreyslar, nemislar, qrim tatarlari, mesxetiya turklari, chechenlar ko'chirilib keltirildi.

O'zbekistonda 1970 yilning ikkinchi yarmidan boshlab, yangi yo'naliш, ya'ni aholining respublikadan ko'chib ketishi kuzatila boshlandi. Ushbu jarayon yildan-yilga ko'paya borib, 1990 yilda o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. O'sha yili davlat organlari tomonidan rasmiy ravishda qayd qilingan migratsiyaning manfiy qoldig'i – 140 ming kishini tashkil qildi. Keyingi yillarda esa u asta-sekin kamayib

bordi. 1999 yil bundan mustasno bo'lib, migratsyaning manfiy qoldig'i keskin ko'tarilib ketdi. O'zbekistonda o'tgan asr 1980-yillari oxirigacha Sobiq Ittifoq respublikalari o'rtasida migratsiya aloqalari normal holatda edi. Chet mamlakatlar bilan migratsiya aloqalari juda oz edi. Ushbu yillarda respublikadan o'rtacha yiliga 100-150 ming odam ko'chib ketardi va shuncha odam ko'chib kelardi.

Migratsiya jarayonidagi katta o'zgarish 1989-1990 yillarda ro'y berdi. Ushbu ikki yil ichida O'zbekistonga rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 400 ming. ga yaqin odam ko'chib keldi, migratsyaning manfiy qoldig'i esa -233,7 ming kishini, shu jumladan, xorijiy mamlakatlar bilan-34,1 ming kishini tashkil qildi. Sobiq Ittifoq parchalangandan keyin, O'zbekistonda migratsiya jarayoni butunlay o'zgardi. O'zbekistondan rusiyabon va boshqa millatlarning ko'chib ketishi, aksincha O'zbekistonga qo'shni respublikadan o'zbeklarning ko'chib kelish tendentsiyasi kuchaya boshladi.

Hozirgi kundagi tashqi migratsyaning manfiy qoldig'ini asosan Evropa millatlariga xos bo'lgan aholi tashkil qilmoqda. Masalan, 1991-1999 yillarda O'zbekiston shahar aholi manzilgohlaridan 356,8 ming ruslar, 32,3 ming ukrainlar, 55,5 ming yahudiylar, 22,6 ming nemislar 108,0 ming tatarlar ko'chib ketishdi. Respublikamizdan 1990-2008 yillarda jami 1,5 mln. kishi ko'chib ketdi, 500 ming kishi ko'chib keldi. Shunday qilib, migratsyaning manfiy qoldig'i 10 mln. kishini tashkil etdi.

O'zbekistonning ushbu yillardagi tashqi aloqalari asosan Rossiya, Ukraina va qo'shni Markaziy Osiyo respublikalari bilan bo'ldi. Migratsiyada qatnashganlarning jami Rossiya hissasiga 50,9%, Ukrainaga 12,9%, Qozog'istonga 10,9% boshqa Markaziy Osiyo respublikalariga 13,2% to'g'ri keldi. MDH davlatlaridan tashqaridagi xorij mamlakatlari hissasiga 8,4% to'g'ri keldi. O'zbekiston aholisi tashqi migratsiyasining manfiy qoldig'i ko'rsatkichlaridan Rossiya hissasiga 62,0%, Ukrainaga 20,4%, boshqa xorijiy mamlakatlarga 15,8% to'g'ri keldi. Tashqi migrantlarning asosiy ko'pchilagini ruslar, tatarlar, qrim tatarlari va yahudiylar tashkil qiladi. Bularidan tashqari mamlakatdan mesxetiya turklari, greklar, nemislar ham ko'chib ketishmoqda. Yahudiylar Isroil va AQShga, nemislar Germaniyaga, greklar Gretsiyaga, ruslar Rossiyaga ko'chmoqdalar.

Keyingi yillarda O'zbekistonda rusiyabon aholining ko'chib ketishi keskin kamaymoqda. Bundan tashqari mamlakatimizda ko'chib ketganlarning yana qaytib kelishi (remigratsiya) sharoitlari kuzatilmoxda. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ichki migratsiya harakatlarining pasayishi kuzatilmoxda, uning asosiy sabablaridan biri, bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitidagi murakkab ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar jarayonidir.

O'zbekistonda hozirgi paytda yashash joyini o'zgartirish bilan bog'liq bo'lgan qishloq-shahar yo'nalishidagi doimiy migratsiya va o'qishga, ishlashga (vaqtinchalik) keladigan vaqtinchalik migratsiya oqimlari ham sezilarli darajada kamaydi. Ma'lumki, shaharlardan rusiyabon aholining ko'chib ketishi yildan-yilga ko'payib bormoqda. Ushbu vaziyat respublikada azaldan past bo'lgan urbanizatsiya darajasining yanada kamayishiga olib kelmoqda.

O'zbekiston aholisining ish bilan ta'minlanganlik darajasiga respublikadagi ichki migratsiya oqimlari ham bevosita ta'sir ko'rsatadi, chunki migratsyaning ushbu

turi bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ldi. Mustaqillik yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar ta'sirida respublikalararo migratsiya aloqalarida ham pasayish ro'y bermoqda. Ushbu holat viloyatlararo hamda viloyat ichidagi migratsiya harakatlariga ham xosdir. Masalan, 1980-2008 yillarda Respublika ichki migratsiya hajmi 461,8 ming kishidan 250 minggacha ya'ni 250 ming kishiga kamaydi. Viloyatlar ichidagi migratsiya ham ushbu davr ichida 283,6 ming kishidan, 138,0 mingga, ya'ni 118,6 ming odamga kamaydi.

2020 yilning 1-yanvar holatiga respublika bo'yicha ko'chib kelganlar soni 158,8 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 169,5 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 10,7 ming kishini tashkil etdi. 2018 yilning mos davrida migratsiya saldosi minus 14,7 ming kishini tashkil etgan. Migratsiya saldosining yuqori darajasi Qashqadaryo (- 6,9), Samarqand (- 5,6) va Toshkent viloyatlarida (- 4,6), Qoraqalpog'iston Respublikasi (- 4,2) va Buxoro viloyatida (- 3,6) kuzatildi. Migratsiya saldosining ijobiy darajasi Toshkent shahrida (plyus 27,0) kuzatildi.

Shuningdek, O'zbekistonga xorijiy mamlakatlardan doimiy yashash uchun ko'chib kelganlar soni 2,5 ming kishini, O'zbekistondan xorijiy mamlakatlarga doimiy yashash uchun ko'chib ketganlar soni esa 13,2 ming kishini tashkil etdi. O'zbekiston Respublikasiga xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlarning asosiy qismi Qozog'iston Respublikasi (jami xorijdan ko'chib kelganlarga nisbatan 33,2 %), Rossiya Federatsiyasi (23,3 %), Tojikiston Respublikasi (21,4 %), Qirg'iziston Respublikasi (12,1 %) va boshqa mamlakatlar (10,0 %) hissalariga to'g'ri keladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasidan xorijiy mamlakatlarga ko'chib ketganlarning asosiy qismi Qozog'iston Respublikasi (jami xorijga ko'chib ketganlarga nisbatan 57,5 %), Rossiya Federatsiyasi (37,7 %), Amerika Qo'shma Shtatlari (0,8%), Isroil (0,7 %) va boshqa mamlakatlar (3,3 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Respublika ichki migratsiyaning harakatlari va jami hajmi uning hamma asosiy yo'nalishlari bo'yicha (ayniqsa qishloq-shahar) kishi kamaydi. Mustaqillik yillarida mahalliy tadbirkorlarning chet mamlakatlarga mehnat safarları kengaymoqda. Ayniqsa, O'zbekistonda qo'shma firmalari va korxonalari bo'lган xorijiy mamlakatlarga bunday safarlar ko'proq uyushtirilmoqda. O'zbekistondagi yirik qo'shma korxonalarning yosh ishchilari malakalarini oshirish, zarur mutaxassislikni egallab olish uchun Janubiy Koreya, Germaniyaga o'qishga va ishlashga yuborilmoqda. Keyingi yillarda O'zbekiston aholisining barqarorlashgan migratsiya turi – bu jahonning rivojlangan mamlakatlari AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Germaniyalarning nufuzli oliy o'quv yurtlarida va kollejlarida bilim olish uchun o'qishga ketayotgan yoshlardir. Ushbu migratsiya hukumatimiz tomonidan kadrlar tayyorlashning maxsus ishlangan milliy dasturi asosida amalga oshirilmoqda.

Iqtidorli yoshlarni xorijdagi rivojlangan mamlakatlarda o'qitish uchun O'zbekistonda maxsus «**El Yrt Umidi**» jamg'armasi tuzilgan. Ushbu jamg'arma orqali har yili iqtidorli yoshlar tanlab olinib, chet mamlakatlarga o'qishga yuboriladi. Ularning ko'pchilagini o'zbek millatiga mansub o'g'il va qizlar tashkil qiladi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin aholining xorijiy mamlakatlarga qisqa muddatli safari Mehnat vazirligi tomonidan amalga oshirilmoqda. Keyingi 9 yilda

(1995-2004 yillar) respublika Mehnat vazirligi tomonidan ishlab kelish uchun xorijiy mamlakatlarga 89 ming kishi jo'natildi.

Janubiy Koreyaga 5 yilda 9,5 ming odam jo'nab ketdi. Unchalik ko'p bo'limgan ishchi migrantlar vaqtinchalik ishlab kelish uchun AQShga, Malayziyaga, Birlashgan Arab Amirligiga (BAA) jo'natildi. Mehnat vazirligi tomonidan xorijda ishlab kelishga jo'natilganlarning ko'pchilagini o'zbeklar (82%), koreyslar (15%) tashkil etadi. Chet mamlakatlarga shaxsiy bilim asosida jo'natilganlarning yarmidan ko'pi o'zbeklar qolgan qismi boshqa millatlar – ruslar, ukrainlar, yahudiylar va tatarlar hissasiga to'g'ri keladi.

O'zbekistonliklarning chet mamlakatlarda ish bilan bandligining ancha rivojlangan shakli, bu mokisimon (chelnok) biznes bo'lib, u asosan shaxsiy mehnat faoliyati asosida amalga oshirilmoqda. Lekin, keyingi yillarda mahalliy aholi o'rtasida mokisimon savdo biznesining turi biroz kamayganligi kuzatilmoqda. Lekin shunga qaramasdan, keyingi o'n yillikda tadbirdorlikning ushbu turi respublika aholisining chet eldag'i bandligida aholi o'rtasida eng ko'p tarqalgan turi bo'lib qolmoqda. Keyingi yillarda mamlakatdagi 165 ta nodavlat va notijorat tashkiloti taxminan 117,2 ming kishini ish bilan ta'minladi. Ularning 41,2 mingtasi (35,2%) bevosita nodavlat notijorat tashkilotlari orqali, 76,0 ming (64,8%) esa ushbu tashkilotlarning vositachiligi orqali ishga joylashtirildi. Demak, bitta nodavlat va notijorat tashkiloti 710 ta odamni ish bilan ta'minlagan. Shunday qilib, O'zbekistondagi aholi bandligining yangi turi respublika mehnat bozorida va xorijiy mamlakatlarda o'z o'rnini topmoqda.

Jumladan, 2009 yilning birinchi yarmida O'zbekiston respublikasiga 67,2 ming kishi kelgan, 83,6 ming kishi esa chiqib ketgan. Migratsiya saldosi minus 16,4 ming kishiga to'g'ri kelgan. Aholini migratsion harakati ko'proq quyidagi hududlarda kuatilgan (Toshkent viloyatiga-kelganlar-9,1 ming kishi, ketganlar-13,0 ming kishi, Qoraqalpog'istoniga-kelganlar-7,4 ming kishi, ketganlar-13,0 ming kishi, Toshkent shahrining o'ziga-kelganlar-6,1 ming kishi, ketganlar-7,8 ming kishi).

Ma'lumotlarga ko'ra, 2020 yil 1 yanvar holatiga respublika doimiy aholi sonining 30,5 % mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 58,9 % mehnatga layoqatli yoshdagilar va 10,6 % mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

## 2.7. Oilaning demografik taraqqiyoti

**Oila jamiyat** taraqqiyotining mahsuli sifatida o'zining paydo bo'lishi va rivojlanish tarixiga ega. Oilaning dastlabki shakli ibridoij jamoa tuzumi davrida paydo bo'ldi. Ma'lumki, ibridoij jamoa tuzumining birinchi bosqichida insonlar to'da-to'da bo'lib yashaganlar. Ular orasidagi jinsiy munosabatlar tartib - qoidaga ega bo'limgan. Bir nechta erkak va bir nechta ayol farzandlari bilan bir oila bo'lib yashaganlar, o'zaro turmush kechirishgan. Oilaning bunday shakli fanda «Poligamiya» - ko'p nikohlik, deb ataladi.

Quldorlik davrida esa jamiyat taraqqiyotida yuz bergan ijtimoiy - iqtisodiy o'zgarishlar asosan, xususiy mulkning paydo bo'lishi natijasida, oilaning tarkibi ham, shakli ham o'zgardi. Dehqonchilik va chorvachilikning rivojlanishi ijtimoiy ishlab

chiqarishda erkaklar qadrini oshirdi, moddiy mahsulotlar yaratishda erkaklar ulushi yuqori bo'la boshladi. Natijada ota huquqiga asoslangan patriarxal oila vujudga keldi. Endi bir erkak oila boshlig'i bo'lib, u xotinlari, farzandlari va nullari bilan oila bo'lib yashardilar. Bunday oilalar ko'pxotinlik, ya'ni «poliginiya» asosida tashkil bo'lgan poligamiya oila shakli bilan monogam - bir nikohli oila o'rtasidagi oraliq oilalarni tashkil etganlar.

Quldorlik davridan feodalizmga o'tish, hamda feodalizm ishlab chiqarish munosabatlarining rivojlanishi oilaning «monogam», ya'ni yakka nikohlilik ko'rinishining paydo bo'lishiga asos bo'ldi. Ushbu davrda xo'jalik yuritishda ota-onalari farzandlari, nabira-chevaralari bilan birga ishtirok etishgan. Ular birgalikda ekin ekib, hosil yig'ib, moddiy boylik yaratishgan. Ushbu davrda ota-onalari, o'g'il-qiz, kelinkuyov, nabiralari birga bir nechta bo'g'inli oila bo'lib yashashgan.

Kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari sharoitida esa, yirik-yirik sanoat korxonalarining paydo bo'lishi natijasida, mayda dexqon xo'jaliklar, mayda hunarmand oilalar inqirozga uchragan. Bolalarning mehnatidan foydalanish, ularga ishchi kuchi sifatidagi talab asta-sekin kamayib boradi. Ko'p bo'g'inli katta oila bo'lib yashash hollari yo'qola boshladi va oilaning yangi tuzilishi-er-xotin va bolalardan iborat bo'lgan nuklear-yadro oila yuzaga keladi.

Oila paydo bo'lishi va rivojlanishini ilmiy o'rganish shuni ko'rsatadiki, oilaning tashkil bo'lishida asosiy omil-nikoh va qarindoshlik munosabatlari bo'lib, bu hol oilaga berilgan ilmiy ta'rifda o'z ifodasini topgan. **Oila**-insonlarning tabiiy biologik, nikoh, qon-qarindoshlik, iqtisodiy, xuquqiy, ma'naviy munosabatglara asoslangan, turmush birligi va o'zaro javobgarlik orqali bog'langangan ijtimoiy guruhidir.

Oilaning bugungi shaklida oila a'zolari bir-birlari bilan umumiy turmush, ma'naviy xuquqiy, psixologik munosabatlar va o'zaro javobgarlik his-tuyg'ulari bilan bog'lanib turadilar. Oilada har bir oila a'zosining o'z ijtimoiy o'rni bordir. Oila azosini er-xotin tashkil etadi. Lekin oilada er-xotin uning farzandlari, ota-onasi, aka-uka, opa-singil va boshqa qarindosh-urug'lar ham yashashlari mumkin. Demak oila turli mezonlar asosida tashkil topar ekan, ushbu mezonlarni o'z mazmuniga ko'ra, shartli ravishda demografik, ijtimoiy va iqtisodiy mezonlarga ajratish mumkin.

Oilaning demografik mezonlarga ko'ra turlari:

1. Ma'lumki oila tashkil bo'lishiga avvalo erkak bilan ayol o'rtasidagi nikoh birligi asos bo'ladi. Ana shu nikoh birligiga asosan oila ikki turga **bo'linadi**:

**-Poligam**-ko'p nikohli oilalar, bunday oilalar yuqorida qayd etilganidek bir erkak, bir nechta ayol bilan nikohda turishi, oila ko'rishi mumkin;

**-Monogam**-bir nikohli oilalar, ya'ni bir erkak bir ayol bilan nikohda turadi, oila quradi.

2. Oila unda istiqomat etuvchi oila a'zolarining tarkibiga qarab ham turlarga **bo'linadi**:

**-Oddiy** (nuklear) oila, unda er-xotin nikohga kirmagan, ya'ni turmush qurmagan farzandlari bilan yashaydi. Bunday oilalar turlari eng ko'p tarqalgandir;

**-Murakkab** (ko'p bo'g'inli) oilalar, bunday oilalarda ikki yoki undan ortiq, avlod vakillari istiqomat etishadi. Masalan, ota-onalari oila qurgan farzandi va nabiralari bilan yoki bobo, buvi, ota-onalari va farzand o'z bolalari bilan istiqomat etishadi.

3.Oila yadrosini tashkil etgan er-xotin hayotligiga, shu oilada birga yashash va yashamasligiga qarab ham oilalar turlicha **bo'ladi**:

-**Tugal** (to'liq) oilalar, er-xotin hayot bo'lgan va birga yashagan oilalar;

-**Tugalmas** (noto'liq) oila. Bunday oilalarda oila asosini tashkil etgan er xotinning biri hayot emas yoki shu oilada yashamaydi.

4.Oilada istiqomat etuvchi oila a'zolarinint miqdoriga ko'ra:

-**Kichik** oilalar (2-4 kishilik);

-**O'rta** oilalar (5-6 kishilik);

-**Katta** oilalar (7-8 va undan ko'p kishilik) mavjuddir.

5.Bolalar soniga ko'ra: farzandsiz, bir bolali, kam, o'rtacha va ko'p bolali oilalar (davlatlarda, turli davrlarda ushbu mezonlar turlichadir.)

Oilaning ijtimoiy mezonlarga ko'ra turlari. Oila jamiyatda tutgan ijtimoiy o'rniqa, ya'ni er-xotining ijtimoiy sinfiga, guruhiga qarab ham turlarga bo'linadi. Oilaning bunday ijtimoiy turlari, turli ishlab chiqarish usuli hukmron jamiyatda turlicha bo'lgan. Masalan, Sobiq Ittifoqda sotsialistik ishlab chiqarish usuli hukmron edi. Ushbu davrda jamiyatda asosan 3 ta ijtimoiy sinf qayd etilar edi. Ular, ishchi, xizmatchi va kolxozchi sinflar bo'lgan. Bunday sharoitda ba'zi oilalarda er-xotin bir xil ijtimoiy, sinfga, guruhga mansub bo'lsa (eri ham, xotini ham ishchi, ziyoli yoki kolxozchi), ba'zi oilalarda esa er-xotin turli ijtimoiy guruhga mansub (eri ishchi, xotini ziyoli, eri kolxozchi, xotini ishchi va x.k.) bo'lgan. Shu bois, oilalarni ijtimoiy holatiga ko'ra 2 guruhga bo'lish **mumkin**:

**1.Er-xotin** bir xil ijtimoiy guruhga mansub oilalar (ishchi oilalar, xizmatchi oilalar, dehqon, tadbirdor, savdogar, olimlar, san'atkor, hunarmand oilalar).

**2.Er-xotin** turli ijtimoiy guruhga mansub oilalar.

Bundan tashqari oilalar ya'na quyidagicha **guruhanadi**:

-**Er-xotinni** ma'lumotlariga ko'ra: o'rta ma'lumotli, o'rta maxsus, yordamchi maktab ma'lumoti va oliy ma'lumotga ega bo'lgan oilalar, ma'lumotsiz (savodsiz) oilalar.

-**Oilaning** «yoshiga» ko'ra: yosh oila (1 yilgacha, 3-5 yillik, 6-10 yillik turmush tajribasiga ega bo'lgan oilalar), o'rta yoshdagagi oila, etuk oila.

-**Oilaning** hududiy jihatlariga ko'ra: shahar, qishloq va aralash tipdagi oilalar.

-**Er** xotining millatiga ko'ra: Bir millatli (er xotin bir bir xil millatga mansub) va baynalminal (er-xotin turli millatga mansub) oilalar.

-**Oilaning** yuridik xususiyatiga ko'ra rasmiy oila (nikohdagi oila) va norasmiy (nikohga kirmagan, nikohdan tashqari).

Oila paydo bo'lgandan to hozirgi davrga qadar u bajarib kelgan vazifalar chuqur ilmiy tahlil etilsa, ularni asosan uch yo'nalishda ifodalash mumkin. Bu yo'nalishlar farzandlarning tug'ilishi, ularni tarbiyalash va moddiy ehtiyojini qondirishdir. Shuning uchun ham oila vazifalarini uch guruhga ajratish maqsadga muvofiqdir:

-Oilaning demografik vazifasi;

-Oilaning ijtimoiy vazifasi;

-Oilaning iqtisodiy vazifasi.

Oilaning demografik vazifasiga-uning demografik faoliyati, ya'ni oilada farzandlarning tug'ilishi, inson naslini, jamiyatni davom ettiruvchi avlod yaratish

kiradi. Oilaning ijtimoiy vazifasiga-oilada farzandlarni tarbiyalash, inson sifatida kamolga etkazish, ularning tabiatga, jamiyatga va o'zaro munosabatlarini shakllantirish, dam olish va salomatligini tiklash kabilar kiradi.

Oilaning iqtisodiy vazifasiga oila a'zolarini oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa yashash uchun zarur bo'lган moddiy vositalar bilan ta'minlash kiradi.

Oilaning mavjudligi yashash jarayoni, uning o'z vazifalarini bajarishi bilan bog'liqdir. Agar oila o'zining demografik vazifalarini bajarmas ekan, ya'ni oilada farzandlar tug'ilmasa, yangi oilalar bo'lmaydi, oila davom etmaydi. Oila davom etishi, yangi oilalar paydo bo'lishi uchun esa oilada tug'ilgan farzandlarni boqish, tarbiyalash, kamolga etkazish, inson sifatida shakllantirish lozim. Demak, oila o'z mavjudligini saqlab qolishi uchun o'zining barcha vazifalarini bajarishi shart.

Oila vazifalarini bajarilishi bir-biri bilan bog'liq holda ro'y beradi. Masalan, oilada farzandlarning sog'-salomat tug'ilishi ona salomatligiga, ona salomatligi va tug'ilgan farzandning sog'-salomat o'sishi esa oilaning iqtisodiy vazifasining bajarilish darajasiga, ya'ni moddiy ta'minlash darajasiga nihoyatda bog'liqdir. Oilada tug'ilgan farzandning etuk inson bo'lib shakllaiishi olaning ta'lim tarbiyasiga, bola dunyoqarashini shakllantirilishi, ya'ni oilaning ijtimoiy vazifalarini bajarilishi bilan uzviy bog'liq bo'ladi. O'z navbatida oilada farzandlar miqdorining oshib borishi ham oilaning iqtisodiy vazifalarini bajarilish darajasiga ta'sir etadi. Boshqacha qilib aytganda, oilada istiqomat qilayotgan oila a'zolarini ko'payib borishi oilaning moddiy imkoniyatini ko'tarishni, ya'ni oilaning iqtisodiy vazifasini bajarish darajasini tezlashtirishni talab etadi. Yoki oilaning ijtimoiy vazifasini olib ko'raylik. Oilada farzandga berilgan ta'lim tarbiya uning dunyoqarashining shaklanishida, hayotga, yashashga bo'lган munosabatlarida asosiy omildir.

Farzand oila muhitida katta bo'lar ekan, uning barcha xulq atvori, atrof muhitga, oilaga bo'lган munosabati, kelajakda o'zining oila qurishi, farzandldr ko'rishi haqidagi fikrlari shakllanib boradi. Agar oilaning ijtimoiy vazifasi ijobiy bajarilsa, ya'ni bolada oilaga, ota-onaga, keksalarga hurmat, o'zaro yordam kabi xislatlar shakllansa, u kelajakda oila qurgach, o'zi ham farzandlarini xuddi shunday tarbiyalashga intiladi. Demak, yangi avlodning oila qurishida, yangi oilaning shakllanishida oiladagi ijtimoiy vazfalarning bajarilishi asosiy omillardan bo'lib xizmat qiladi.

Oila zimmasiga yuqorida aytilganidek, inson naslini, jamiyatni davom ettiruvchi avlod yaratish, ularni tarbiyalash, kamolga etkazishdek vazifalarni yuklaydi. Oila ushbu vazifalarni bajarar ekan, o'zi ham ma'lum ma'noda taraqqiy etib boradi. Oilaning taraqqiy etishini u bajarayotgan vazifalar mohiyatiga binoan uch yo'nalishda belgilash maqsadga muvofiqdir:

- Oilaning demografik taraqqiyoti;
- Oilaning ijtimoiy taraqqiyoti;
- Oilaning iqtisodiy taraqqiyoti.

Oilaning ijtimoiy taraqqiyoti oila a'zolarining ma'lumotlilik darjasini, ijtimoiy mavqeい, salomatligi borasidagi hamda ularning ta'lim-tarbiya, urf-odat, fan va madaniyat, tabiat va jamiyatga bo'lган munosabatlarining takomllashib borishidir.

Oilaning oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy va boshqa yashash uchun zarur bo'lган narsalar bilan ta'minlanish darajasining o'zgarib borishi, uning iqtisodiy

taraqqiyotini belgilaydi

Oilanning demografik taraqqiyoti deganda esa, oilaning tashkil topishi, miqdori, demografik tarkibi va faoliyatining ma'lum davrlarda o'zgarib borishi tushuniladi.

Ko'rinish turibdiki, oila o'z mohiyati bilan jamiyat hayotining turli qirralarini aks ettiradi. Shuning uchun ham oila qator ijtimoiy fanlarning o'rganish mavzusidir. Demografiya oilani o'rganar ekan, asosiy e'tiborni uning avlod yaratuvchilik, jamiyatni davom ettiruvchilik faoliyatiga qaratadi.

Oilanning demografik taraqqiyoti, asosan statistik ma'lumotlar yordamida o'rganiladi. Bunday ma'lumotlar esa, oilani muntazam ro'yxatga olib borish va aholi o'rtasida sotsiologik-demografik tadqiqotlar o'tkazish yo'li bilan to'planadi.

Oila haqidagi statistik ma'lumotlar, ularning tuzilish tizimi jahondagi hamma davlatlarda ham aynan bir xil emas. U har bir davlat statistikasi uchun qayd etilgan oilaning statistik tushunchasiga va o'tkazilayotgan aholi ro'yxati dasturiga bog'liqdir. Dastur tuzishda aholining oilaviy tarkibi, oilaviy yashash turlari asos qilib olinadi.

Qator iqtisodiy rivojlangan davlatlarda oiladagi farzandlar kamolot yoshiga etib oila qurgach, ular iqtisodiy jihatdan mustaqil yashaydilar va alohida oila hisoblanadilar. Ba'zi davlatlarda esa 20 yoshdan oshgan har bir yigit qiz oila qurmasa ham, o'zi alohida oila hisoblanadi. Yana boshqa davlat statistikasida turmush qurib ota-onasi oilasiga qaytib kelsa ham ularni alohida oila yoki yolg'iz yashovchilar qatorida hisoblanadi. Ba'zi hollarda qarindosh, qondosh bo'lмаган begona kishilar ham bir oila bo'lib yashaydilar.

Istiqlolning dastlabki yillaridanoq mamlakatimizda oila manfaatlarini himoyalash, uni iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash huquqiy, ma'naviy-axloqiy asoslarini umuminsoniy va milliy qadriyatlar mushtarakligida yanada boyitish, chuqur bilimli, kasb malakasi shakllangan ma'naviy va jismoniy sog'lom avlodni voyaga etkazish borasida keng qamrovli ishlar boshlab yuborildi. Xusan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining alohida bobida oilaning ijtimoiy maqomi aniq belgilandi. Oila, Fuqarolik, Uy-joy kodekslari va boshqa qonun hujjatlarida oilaviy munosabatlarning azaliy qadriyatlari o'z ifodasini topdi.

Jamiyatimizning asosiy bo'g'ini bo'lган oila institutini yanada mustahkamlash va rivojlantirish, bugungi kunda yosh oilalarni moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni yangi bosqichga ko'tarish, bu borada mahallaning roli va ahamiyatini kuchaytirish, xotin-qizlar, opa-singillarimiz uchun yanada keng imkoniyatlar yaratish, jismonan sog'lom, ma'naviy etuk va barkamol avlodni tarbiyalash kabi o'z oldimizga qo'ygan boshqa muhim maqsadlar barchamizga yaxshi ma'lum.

Bu o'rinda gap aynan shular hisobidan pirovard natijada oila farovonligini va shu asosda butun xalqimiz farovonligini yanada oshirish haqida bormoqda. Zero, ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini rivojlantirishning "o'zbek modeli"da ham har bir insonga munosib turmush tarzini yaratish iqtisodiyotning ijtimoiy vazifasi darajasiga ko'tariladi.

Bugungi kunda oilaviy tadbirkorlikka bandlikni ta'minlash, aholi farovonligini yuksaltirishning eng muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Oilaviy biznesning o'ziga xosligi shundaki, u ko'p asrlik oilaviy an'analar, qadriyatlar bilan uyg'un rivojlanadi. Misol uchun, Angliyadagi oilaviy biznes korxonalarining to'rtadan bir

qismi qariyb to'rtta avloddan beri o'tib kelar ekan. Shvetsiyada mehnat bilan band aholining 61 foizi oilaviy tadbirkorlik sohasida ishlayotgani ham uning nechog'li katta ahamiyatga ega ekanligidan dalolatdir.

**Jahon statistikasida** «Oila» tushunchasi bilan birga «uy xo'jaligi» tushunchasidan ham foydalaniladi. Unda aholining oilaviy holati haqidagi ma'lumotlar uy xo'jaliklari bo'yicha to'planadi. «Uy xo'jaligi» birga xo'jalik yurituvchi, birga yashovchi kishilarni biriktiruvchi ijtimoiy iqtisodiy yacheykadir. Uy xo'jaligi tushunchasi oiladan farq qilib, unda faqat qarindoshlik munosabatlari asosida birikkan kishilarga emas balki, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar asosida birga yashovchi begona kishilar ham, alohida mustaqil xo'jalik yurituvchi yolg'iz kishilar ham kiritiladi.

Uy xo'jaligi tushunchasi hamma davlatlarda ham bir xil emas. U har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitiga, unda istiqomat etuvchi xalqning turmush tarziga, urf- odatlariga bog'liqdir. Ba'zi davlatlarda uy xo'jaligi uchun kishilarning birga yashashi asos qilib olinsa, boshqa bir davlatda esa ularning birga ovqat tayyorlashi, birga ovqatlanishi asos qilib olingan.

Uy xo'jaligi ikki turga bo'linadi: shaxsiy va jamoa xo'jaligi. Shaxsiy uy xo'jaligida bir uyda yashovchi, birga xo'jalik yurituvchi va o'zlariga o'zları ovqat tayyorlovchi kishilar guruhi kiradi. Bunday guruhlarda bir uyda, yoki bir nechta uyda yashovchi yoki uyi bo'lмаган kishilar ham yashashlari mumkin.

Bunday uy xo'jaligida, bir uyda yashovchi ota-onas, bola, qarindoshlardan tashqari ikki yoki undan ortiq bir xo'jalikda yashovchi, lekin qarindosh bo'lмаган yolg'iz kishilar, xizmatkorlari bilan yashovchi yolg'iz ayol yoki erkaklar ham kiradi. Qarindosh bo'lмаган ikki yoki undan ko'p kishilar yashovchi shaxsiy uy xo'jaligi 1980-1985 yitlarda AQSh dagi uy xo'jaliklarning 10% yaqinini, Kanadada -5,6, Yangi Zelandiyada -7,5, Belgiyada -3,6, va Yaponiyada 0,2% ni tashkil etgan.

Jamoa xo'jaliklariga bolalar, qariyalar nogironlar uylari, qamoqxonalar, kazarmalar, surunkali kasallar yashovchi kasalxonalar va boshqa shunga o'xshash muassasalar kiradi. Shuni alohida qayd etish lozimki, juda ko'p davlatlarda uy xo'jaligining asosiy qismini nikoh va qon-qarindoshlik asosida tashkil topgan oilalar tashkil etadi. Bunday uy xo'jaligi fanda «Oilaviy uy xo'jaligi» deyiladi. Demografiya ana shu oilaviy uy xo'jaligini, aniqrog'i-oilani o'rganadi.

## 2.8. Aholining demografik tarkibi

**Aholi soni**-ma'lum hudud yoki aholi guruhidagi kishilarning miqdoriy ifodasidir. Demografiyada aholi soni, eng umumiy va asosiy ko'rsatkich bo'lib, aniq bir davrdagi aholi miqdorini anglatadi. Statistik manbalarda aholi soni ma'lum bir chisloga (1-yanvar, 1 iyul yoki 31 dekabr) keltiriladi. Masalan, O'zbekiston aholisi 1991 yil 1 yanvarda 20708,2 mingni, 2020 yil 1 yanvarda 33 million 905 ming 800 kishini, 1 aprelda esa 34 million 36 ming 756 kishini tashkil etgan.

. Bu ko'rsatkichlarni butun yil uchun qabul qilib bo'lmaydi, chunki yil davomida, ya'ni 1 yanvardan 31 dekabrga qadar aholi soni tug'ilish va o'lim hisobiga muntazam o'zgarib turadi. Har bir hudud aholi sonini o'rganganda, uni doimiy (shu hududda doimiy ro'yxatga olingan) va mavjud real (tekshirilayotgan davrda shu

hududda ma'lum muddat yashayotgan) aholiga ajratiladi.

Demografik tadqiqotlar olib borishda nazariy aholi soni, hamda mavjud, real aholi sonidan foydalaniladi. Nazariy aholi soni o'zgarmas-stabil, aholi sonidir. Stabil-doimiy, o'zgarmas degan ma'noni bildiradi. Aholi takror barpo bo'lishining maxsus koeffisientlarini hisoblaganda stabil aholi sonidan foydalaniladi, turli demografik modellarni tuzganda nazariy aholidan foydalaniladi, ya'ni, o'rganilayotgan davr aholi soni o'zgarmas deb qabul qilinadi.

Real, mavjud aholi soni ma'lum bir ma'muriy hududning, davlatning o'rganilayotgan davrdagi mavjud aholi sonidir. Masalan, O'zbekiston davlatining aholi soni, Farg'ona vodiysining aholi soni va h.k. Demografik koeffisientlarni hisoblaganda odatda o'rtacha yillik aholi sonidan foydalaniladi. Chunki demografik jarayon butun yil davomiga ya'ni 1 yanvardan 30 dekabrga qadar bo'lgan muddatga hisoblanadi. Aholi soni esa yuqorida qayd etilgandek yil boshiga-1 yanvarga olinadi. Ma'lum kalendar yilga o'rtacha yillik aholi soni hisoblash uchun shu, kalendar yilining boshidagi va keyingi kalendar yilning boshidagi aholi soni qo'shilib ikkiga bo'linadi va o'rganilayotgan yil uchun o'rtacha aholi soni aniqlanadi. Buning uchun 2019 yil 1 yanvardagi va 2020 yil 1 yanvardagi aholi sonlarini qo'shib ikkiga bo'linadi. Masalan, 2019 yil uchun ma'lumot olmoqchi bo'lsak, quyidagi hisobni amalga oshirishimiz lozim:

$$2019 \text{ S} = 2019 \text{ S} + 2020 \text{ S} : 2$$

Aholi soni haqidagi aniq ma'lumotlar aholi ro'yxati o'tkazish yo'li bilan to'planadi. Aholi ro'yxatlari orasidagi davr uchun, esa har yilgi tug'ilish, o'lim va migratsiya jarayonlarini e'tiborga olgan holda aholi soni maxsus uslublar yordamida hisoblanadi. Demografik jarayonlarni o'rganishda aholining yosh-jinsiy, nikoh va oilaviy tarkibi muhim omil hisoblanadi.

Aholining jinsiy tarkibi nikohga kirish va aholining oilaviy tarkibining shakllanishida asosiy demografik zamindir. Demografiyada jinslar munosabatini aniqlashda ikki xil ko'rsatkich qo'llaniladi:

**1. Jami** aholi tarkibida jinslar salmog'i foiz hisobida. Masalan, 2000 yil O'zbekistonda jami aholi 24582,8 ming kishini tashkil etadi. Ulardan erkaklar 12232,7 va ayollar 12350,1. Ushbu ko'rsatkichlar asosida jami aholi tarkibida erkaklar 49,8 foizni, ayollar esa 50,2 foizni tashkil etishini aniqlash mumkin. Aholi jinsiy tarkibini o'rganishda aniq ko'rsatkich har 1000ta erkaklarga nisbatan ayollar soni, yoki har 1000 ta ayollarga nisbatan erkaklar soni ifodasidir. Ushbu ko'rsatkich orqali ma'lum hudud jami aholisining va aholi yosh guruhlari (0-9, 10-19, 20-29...) jinsiy tarkibi o'rganiladi. Misol tariqasida, yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib, erkaklar sonini ayollar soniga bo'lamiz va natijani 1000 ga ko'paytiriladi. 2000 yilda O'zbekistonda har 1000 ta ayolga 991 erkak to'g'ri kelar ekan, yoki erkaklar ayollardan kamroq ekan. Ana shunday uslub bilan alohida yosh guruhlari uchun ham ayollar va erkaklar nisbati aniqlanadi.

Ikkinci jahon urushining asosrati tufayli, 1945-1960 yillarda O'zbekiston aholisi tarkibida erkaklar soni ayollar sonidan ancha kam edi. Yillar o'tishi bilan bu tafovut qisqara bordi. 1959 yilga kelib ayollar 52 foizni, erkaklar 48 foizni tashkil etdi. Hozirgi vaqtida (2020 yil) aholi tarkibida erkaklar va ayollar soni deyarli o'zar tenglashdi.

Jahon aholisining jinsiy tarkibida erkaklar salmog'i 50,5 %, ayollarniki esa 49,5 % (2018 yil). Ya'ni jahonda ayollar va erkaklar salmog'i deyarli teng. Afrika, Janubiy Amerika, Avstraliya va okeaniya qit'alarida jinslar salmog'i deyarli bir-biriga teng bo'lsa, Evropa va Shimoliy Amerika davlatlarida ayollar salmog'i birmuncha ortiq. Osiyo qit'asi davlatlarining ko'pchiligida, ayniqsa, Sharqiy, Janubiy va Janubiy-g'arbiy Osiyoda erkaklar salmog'i ayollarnikiga qaraganda yuqori. Bunga asosan ushbu mintaqalarda ayollar ijtimoiy mavqeining pastligi sababdir. Fors qo'ltig'i mintaqasida arab davlatlarida esa erkaklarning ustunligiga ishchi kuchining tashqi migrattsiyasi ham ta'sir ko'rsatadi.

**2. Aholi** yosh tarkibi uch asosiy omil ta'sirida shakllanadi: 1) Yangi tug'ilganlardagi jinsiy nisbat; 2) O'limdagagi jinsiy farq. 3) Aholi migratsiyasidagi jinsiy farq.

Aholining yosh tarkibi-ijtimoiy-iqtisodiy va demografik jarayonlarni o'rganish maqsadida aholining yosh guruhlarga bo'linishidir. Aholi yosh guruhlari va demografik jarayonlar o'zaro uzviy bog'liq holda shakllanadi. Aholi tarkibida yoshlar (0-9, 10-19, 20 - 29 yoshida) salmog'inining yuqoriligi nikoh va tug'ilish kabi demografik jarayonlarga ijobiy ta'sir etadi.

Ayni paytda tug'ilish yuqori bo'lgan hududlarda bolalar, yoshlar salmog'i yuqori bo'ladi. Tug'ilish darajasi past bo'lgan hollarda esa aholi tarkibida qariyalar (60 yosh va undan yuqori) salmog'i yuqori va o'lim hollari ko'proq sodir bo'ladi. Demografik nuqtai nazardan yondashganda aholining bugungi yosh tarkibi kechagi aholi takror barpo bo'lishining natijasi va kelajakdagi demografik rivojlanishning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Aholi yosh tarkibini o'rganganda aholining alohida har bir yoshlarga (0, 1, 2, 3, 4, 5 ... 100 va undan yuqori) besh yillik yosh guruhlariga (10-14, 15-19...) va uch yirik-yirik guruhlariga (0-14, 15-59, 60 va undan yuqori) ajratiladi.

Aholi yosh tarkibi demografiyada asosiy o'rganish ob'ekti sifatida o'z kelib chiqish va rivojlanishiga ega. Ushbu rivojlanishni quyidagi yo'naliishlarga ajratish mumkin:

- a) alohida yosh guruhlari va ularni nisbatlarini statistik tahlili;
- b) aholi yosh tarkibining shakllanish qonuniyatları va ularning demografik rivojlanishning omili sifatidagi o'rni;
- v) aholi yosh tarkibi va ijtimoiy iqtisodiy jarayonlarni o'zaro bog'liqligi.

Aholi sonining o'sib borishida uning yosh tarkibi asosiy omil hisoblanadi. XX asrning o'rtalarida iqtisodiy rivojlangan davlatlarda aholi takror barpo bo'lishi tug'ilish darajasiniig nisbatan pastligi va aholi umumiylar tarkibida bolalar salmog'inining kamligi bilan xarakterlanadi.

Rivojlanayotgan davlatlarda esa ana shu davrda nisbatan yuqori tug'ilish va aholi tarkibida bolalar salmog'inining yuqoriligi xarakterli edi. Tug'ilish yuqori va uni nazorat etish darajasi past bo'lgan sharoitda aholining yosh tarkibi, aholi soni o'sib borishiga bevosita ta'sir etadi.

XX asrning boshlarida shved olimi G. Sundberg tomonidan aholi yosh tarkibining uch turi ajratilgan:

- 1) Progressiv yosh tarkibi-aholi tarkibida bolalar (0-14 yosh) salmog'i yuqori bo'ladi va aholi o'sishiga olib keladi;

2) Statsionar yosh tarkibi-aholi tarkibida bolalar va qariyalar (60 yosh va undan yuqori) salmog'i deyarli teng bo'ladi, bunday yosh tarkibi aholi o'sishida asosiy omil bo'la olmaydi;

3) Regressiv yosh tarkibi-aholi umumiy sonida qariyalar salmog'i bolalarga nisbatan yuqori bo'ladi, aholi takror barpo bo'lishi qisqarib aholining qarish jarayoni ro'y beradi.

Aholining qarish jarayoni-tug'ilishning kamayib ketishi va aholi o'rtacha umr ko'rishi muddatini uzayish hisobiga aholi tarkibida qariyalar (60 yosh va undan yuqori) salmog'ini oshib borishidir.

*Aholining nikoh va oilaviy tarkibi.* Aholining nikohda turish tarkibi-aholining jinsiy va yosh guruhlarining nikohda turish holati bo'yicha taqsimlanishi. Nikohda turishi asosan yosh guruhlari bo'yicha o'rganilganligi uchun ham ko'p adabiyotlarda aholining «nikoh-yosh tarkibi» ham deyiladi.

Aholining nikoh holati bo'yicha asosiy manba aholi ro'yxati ma'lumotlari hisoblanadi. Aholi ro'yxati o'tkazilayotganda aholi nikohda turuvchilar va nikohda turmaydiganlar guruhiга ajratib ro'yxatga olinadi. Nikohda turmaydiganlar guruhiга bo'yoqlar, bevalar va ajralganlar kiradi.

Aholining nikohda turishi aholi takror barpo bo'lishi va oilalar shakllanishida asosiy demografik omil sifatida ahamiyatlidir.

Aholining oilaviy holati va tarkibi demografik jarayonlarga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ma'lumki, jamiyatda insonlar oila muhitida oila a'zosi bo'lib, turli guruhlarda guruh a'zosi bo'lib yoki o'zlari alohida yolg'iz holda yashaydilar. Aholining bunday guruhlarga bo'linib yashashi uning oilaviy holatini bildiradi.

Aholining oilaviy holati haqidagi ma'lumotlar aholi ro'yxati o'tkazish yo'li bilan to'planadi. O'zbekiston statistikasida aholi oilaviy holati bo'yicha uch guruhiга ajratilgan va aholi ro'yxati dasturiga kiritilgan:

*-Oila bilan birga oila a'zosi bo'lib yashovchilar;*

*-Oiladan alohida, lekin oila bilan muntazam aloqani saqlab qolgan holda yashovchilar;*

*-Yolg'iz yashovchilar.*

O'zbekistonda aholining oilaviy holatiga oid to'laroq statistik ma'lumotlar 1939 yilda o'tkazilgan aholi ro'yxatlari ma'lumotlaridan boshlab mavjuddir. Ushbu ma'lumotlar ko'rsatishicha 1939 yilda O'zbekiston aholisining 93,3 foizi oila a'zosi bo'lib, oila bilan birga 6,7 foizi esa oiladan alohida yashaganlar.

Agar bu ko'rsatkichlar 1989 yil o'tkazilgan aholi ro'yxati ma'lumotlari bilan solishtirilsa respublika aholisining oilaviy tarkibida katta ijobjiy o'zgarishlar bo'lgani ma'lum bo'ladi.

Chunki 1939-1989 yillarda aholining oila a'zosi bo'lib, oila muhitida yashovchi qismi 2 foizga ko'paydi va jami aholining 95,3 foizini tashkil etdi. Yolg'iz yashovchilar esa, deyarli ikki marta kamaydi.

Aholining oilaviy tarkibi deganda oila a'zosi bo'lib yashovchi aholining oila turlari bo'yicha taqsimlanishi tushuniladi. Aholining oilaviy tarkibini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar aholining oila kattaliklari, ya'ni oilada yashovchi kishilar miqdoriga qarab va oilaning ijtimoiy guruhlari bo'yicha taqsimlanishidir.

### **3 BOB. AHOLINING ETNIK VA IJTIMOIY TARKIBI**

#### **3.1. Aholining irqiy tarkibi**

**Odamlar** qadim-qadimdan jamoa-jamoa qon qardosh bo'lib yashab kelishgan. Ana shunday birliklarning eng muhimi ularning irqiy va etnik birliklaridir. **Irq** bu odamlarning kelib chiqishi, govda tuzilishi va qiyofasi o'xshash bo'lган tarixan tarkib topgan hududiy birligidir. Irqlarning paydo bo'lishi va odamlar o'rtasidagi irqiy belgi hamda xususiyatlarning kelib chiqishi haqida har xil omillar bo'lib, keng tarqalgani ikkitadir. Antropologlarning bir qismi irqlar juda qadimda, Afrika, Evropa va Osiyoning bir necha markazlarida (ya'ni dunyoning bir necha joyida) vujudga kela boshlagan deb hisoblaydilar. Bu "politsentrizm" nazariyasidir. Ikkinchi guruhi olimlar hozirgi zamon kishisi bir markazda vujudga kelgan (O'rta dengiz bo'yining sharqiy qismi, Janubiy Evropa, Shimoliy va Sharqiy Afrika va G'arbiy Osiyoni o'z ichiga olgan katta hududda), keyinchlik odamlar dunyoning turli qismlariga tarqalib ketgan va bir-biridan keskin farq qiluvchi tabiiy sharoitlarga tushib qolishi natijasida hozirgi irqiy belgilar vujudga kelib, rivojlanib borgan degan fikrni ilgari suradilar. Bu "monotsentrizm" nazariyasidir.

Irqlaq xalqlarning asosan tashqi ko'rinishiga va undagi farqlarga hamda ba'zi fiziologik belgilarga qarab ajratiladi. Kishi terisining, ko'z va sochining rangi, yuz tuzilishi, bosh suyagining shakli (asosan kalla kengligining uzunligiga nisbati), burun va lab tuzilishi, ko'zlarining qisiq yoki keng bo'lishi, erkaklarning yuzi tanasida (ayniqsa ko'kragida) jun bo'lishi, uning uzun-qisqaligi hamda keyingi paytlarda e'tibor berilayotgan ichki (fiziologik) belgi va xususiyatlar (qon guruhi, ta'm bilish xususiyalari) tish tuzilishi va boshqalar kiradi. Er sharida uchta katta irq: evropoid, mongoloid va ekvatorial (negro-avstraloid) hamda ko'plab aralash irqiy shakllar ajratilgan. Uchta irq dunyoning barcha aholisini qamrab ola olmaydi.

Keyingi davrlarda irqlararo nikohlarning ko'payishi natijasida turli irqlar o'rtasidagi aralash turlar ham ko'payib bormoqda. Antropolog G.F.Debes turli irqlar o'rtasidagi aralash irqlarni 2 guruhga bo'ladi: "**qadimgi aralash shakllar, o'rta asr va yangi davr shakllari**". Endi asosiy katta irqlar va aralash irqlar shakllarining geografik tarqalishi bilan qisqacha tanishib o'tamiz.

**Evropoid irqi:** dunyo aholisining 46,8% ni o'z ichiga oladi. Bu katta irq hozirgi kunda 3-guruhga "**shimoliy Evropoid, o'rta Evropoid, janubiy Evropoid**" guruhlariga bo'linadi:

- 1) Shimoliy Evropada yashovchi shimoliy guruh vakillarining bo'yi novcha, sochi (jingalak) sariq, ko'k ko'zli bo'ladi;
- 2) O'rta Evropoid guruhi esa: bu irq vakillarining shimoliy Evropoiddan farqli sochlari silliq, yuz-tuzilishi, gavda tuzilishida keyingi vaqtarda farq yuzaga kelmoqda;
- 3) Janubiy Evropa, Shimoliy Afrika, Old Osiyo, Shimoliy Hindistonda yashovchi janubiy guruh vakillarining bo'yi novcha, terisi qorachadan kelgan, sochi qora, ko'zi qora bo'ladi. Bolqon yarim oroli xalqlari esa boshi dumaloq, qora sochli bo'lib, ular ham shu guruhga mansub bo'lib - "**Dinara irqi deb ham yuritiladi**".

**Mongoloid irqi:** dunyo aholisining 35,9 % ini o'z ichiga oladi. Mongolid irqi

ham ikki guruhga bo'linadi: Osiyo va Amerika guruhlari. Osiyo guruh ichida bir-biridan farq qilivchi tillar bor. Mongoloid irqining Amerika avlodiga Shimoliy va Janubiy Amerikaning tub aholisi “**indeyslar**” kiradi. Mongolid irqining asosiy belgilari: tanasining rangi bug'doy rang, ko'zлari qisiq, yonoqlari bo'rtib chiqqan, sochlari to'g'ri. Mongoloid irqining Osiyo tarmog'i ham Shimoliy va Janubiy Mongoloid irqiga ajratiladi.

**Negroid irqi (yoki ekvatorial)**: Dunyo aholisining 5,8 % ini o'z ichiga oladi. Asosiy irqiy belgilari: Terisini rangi qora, sochlari qora va jingalak, burni keng, lablari qalin. Negroid irqi ham ikki tarmoqqa ajratiladi: Afrika va Okeaniya tarmoqlari. Ekvatorial irqining Afrika tarmog'iga Sahroi Kabirdan janubda yashaydigan xalqlar-“negrlar” kiradi. Okeyaniya tarmog'iga esa melaneziyaliklar, Yangi Gvineya papuaslari, Avstraliyaning tub xalqlari (aborigenlar) kiradi.

**Aralash irqiy shakllar**. Qadimgi aralash irqiy shakl yoki tiplarga “**efiop**” tipi kiradi. Ularning ko'p belgilari Arablarga o'xshamaydi. Ammo ular negroidlar singari qora tanli. Shuningdek, G'arbiy Afrika (Senegal, Gvineya) da yashovchi **fulbe** xalqlari ham aralash tiplarni tashkil qiladi. Mongoloid bilan Evropoid o'rtasidagi qadimgi aralash shakllar G'arbiy sibirning janubiy qismida yashaydi. Aralash irqiy shakllarning ikkinchi katta guruhi-o'rta asrlar va yangi davr aralash shakllaridir. Bunday aralsh shakllari tarqalgan hududdan biri Markaziy Osiyo respublikalaridir. Aralash shakllar o'z navbatida ikki tipga bo'linadi:

Birinchi tipi turon tipi yoki Janubiy Sibir tipi-bu tipga asosan mongoloid irqi belgilari ko'proq bo'lган, **qozoqlar**, **qirg'izlar**, **qoraqolpoqlar** kiradi. Ikkinci tipi-O'rta Osiyo tipi (o'zbeklar, turkmanlar va b.). Bularda Evropoid irqining janubiy avlodiga xos belgilari saqlangan bo'ladi. Umuman dunyodagi uchta asosiy katta irq orasida juda ko'plab boshqa aralash shakl va tiplar vujudga kelgan va vujudga kelmoqda.

Masalan, Afrikada Sahroi Kabirdan janubda, ayniqsa arablar bosib olgan hududlarda shunday aralash irqiy guruhlar tarkib topgan. Nil daryosining yuqori oqimida Sudan aralash shakllari bunga misol bo'la oladi. Janubiy Afrikada ham golland mustamlakachilari bilan gattentot ayollarining aralashuvidan vujudga kelgan yangi davr aralash tiplari bor. Madagaskar orolida bu erga Indoneziyadan ko'chib kelgan janubiy mongoloidlar bilan mahalliy negroidlarning aralashuvidan malgash antropologik tipi paydo bo'lgan.

Amerikada turli irq vakillarining aralashuvidan bir necha aralash guruhlar-tiplar vujudga kelgan. Masalan, evropaliklar bilan indeetslar aralashuvidan **metislar** (Latin Amerikasi mamlakatlarida), bu erga keltirilgan negrlar bilan evropaliklarning aralashuvidan **mulatlar** vujudga kelgan. Mulatlar ko'proq Braziliyada, Karib dengizi havzasidagi davlatlarda yashashadi. Amerika qit'asining ayrim rayonlarida mahalliy indeyslar bilan negrlar aralashuvidan alohida tip-sambolar paydo bo'lgan.

### 3.2. Aholining etnik umumiylklari

**Kishilarning qadim** zamonalarda vujudga kelgan umumiylklari etnik birliklardir. Etnik birliklarning ibridoiy jamoa tuzumidan to hozirgi davrlargacha uchraydigan tushunchalari (kategoriyalari) asosan, urug', qabila, elat, millatlardan

iboratdir. Kishilarning eng qadimiy etnik–birligi—**urug'** (**qavm**) kategoriyasidir. Bu kategoriya asosan ibtidoiy jamoa tuzumida vujudga kelib, ana shu formatsiyaning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy yacheykasi bo'lgan va u odamlarning qon-qardoshligiga asoslangan edi. Urug'chilik kishilarni xo'jalik va ijtimoiy jihatdan bir-biri bilan bog'lagan. Urug'chilikning asosiy belgilari: 1. Urug' a'zolarining bir-biri bilan qon-qardoshligi; 2. Urug' a'zolari xo'jalik faoliyatining birligi (barcha urug' a'zolarining jamoa bo'lib birgalikda mehnat qilishi); 3. Ijtimoiy hayotning, turmushning va endi vujudga kelayotgan madaniyatning birligi.

Hozirgi davrda urug'chilik faqat Osiyo, Afrika va Amerikaning ayrim tog'li rayonlarida va o'rmonlarida yashaydigan hamda hozirgi zamon sivilizatsiyasidan ajralib, ancha orqada qolgan ayrim mayda xalqlardagina uchraydi. Ammo urug'chilikning ayrim qoldiqlari ba'zan boshqa xalqlarda (masalan, Kavkazdagi ba'zi xalqlarda, Hindistonda) ham uchrab turadi. Odamlar etnik birligining ikkinchi yuqoriq bosqichi—**qabiladir**. Urug'larning qabilalarga birlashuvi ham kishilarning ibtidoiy jamoa tuzimiga xos umumiyligidir.

Dastlabki qabilalarni bir necha urug' (odatda juft sondagi urug'larni) birlashtirar, ular o'zaro dual ekzogamiya (urug'larning bir-biriga qiz berib, qiz olishi) asosida bog'langan bo'lar edilar. Qabilalar sekin-asta o'zining to'la tuzilishiga ega bo'lib bordilar. Rivojlangan qabilalarning odatda, o'z tili yoki shevasi va alohida hududi bo'lgan, maxsus kengash (sovet) tomonidan boshqarilgan. Kengash qabila tarkibiga kiruvchi barcha urug'larning boshliqlaridan iborat bo'lgan. Urug' boshliqlarining eng keksasi qabila boshlig'i qilib tayinlangan. Eng muhim masalalarni, masalan, urush yoki tinchilik masalalari va hokazoni hal qilish uchun umumqabila yig'ilishlari o'tkazilgan. Ayrim xalqlarda hozirda ham ijtimoiy hayotning qabila doirasida tashkil etish haligacha saqlangan.

Urug' va qabila kategoriyalardan keyin elat kategoriysi vujudga kelgan. **Elat** – urug' va qabila birliklariga nisbatan yuqoriq bosqichdir. Elat birligi asosan feodalizm jamiyati davrida, ba'zan esa quzdorlik davridayoq tashkil topa boshlagan. Urug'chilik va qabilachilik kishilarning ibtidoiy jamoaga, ya'ni sinfsiz jamitga xos umumiyligi bo'lsa, elat sinfiy jamiyatga xos umumiylikdir.

Bu davrda ijtimoiy mehnat taqsimoti (dehqonchilikning chorvachilikdan ajralishi va ulardan hunarmandchilikning alohida bo'lib chiqishi) va u bilan bog'liq geografik (hududiy) mehnat taqsimoti vujudga kela boshlaydi. Natijada mahsulot ayirboshlash munosabatlarining o'ziga xos yangi shakllari shakllana boshladи. Urug'chilik, qabilachilik munosabatlari yangi davrga mos kelmay qoldi. Qon-qarindoshlik aloqalar emas, balki xo'jalik faoliyatining xususiyati savdo yoki boshqa iqtisodiy munosabatlar orfali bir-biri bilan chambarchas bog'langan muayyan hududiy aloqalar umumiylikning mazkur yangi shaklining negizini tashkil eta boshlaydi. Kishilar birligining ana shunday yangi shakli **elatdir**.

Elat kishilarning millatdan oldingi tarixiy birligidir. Elatlarning o'z nomlari, tili umumiyligka ega bo'lib, ma'lum darajada iqtisodiy aloqalar qila boshlaydi. Bu belgililar millatlardagi singari hali yaxshi taraqqiy etgan emas, albatta. Elatlarning tashkil topishida feodalizm davriga xos jarayon-davlatlarning tashkil topishi ham ma'lum rol o'yagan, ammo ayrim elatlarning hududiy joylashuvi ba'zi hollarda

davlatlarning chegaralariga to'g'ri kelavermas edi. Kapitalizmning taraqqiy etishi bilan elatlar millatlarning vujudga kelishi va tashkil topishida baza bo'lib xizmat qildi. Ammo bu holda ham chegara to'g'ri kelishi shart emas. Masalan, bitta elat bir necha millatlarning tashkil topishi uchun ba'za bo'lib xizmat qilishi yoki aksincha bir necha elatlarning birlashuvidan bitta millat vujudga kelishi mumkin.

**Millat**-etnosning eng yuksak darajasidir. Millat bo'lishi uchun tili, hududi, umumiqtisodiy faoliyati va milliy ong shakllangan bo'lishi kerak. Millat ma'lum hududda yashovchi odamlarning ijtimoiy-etnik birligi bo'lib, feodalizmdan kapitalizmga o'tish davrida tashkil topa boshlaydi va kishilar umumiyligining o'ziga xos shaklidir. Millat shu bilan farqlanadi, millatlarda hududiy birlik, iqtisodiy va madaniy aloqalar mustahkam o'rinn oladi, yagona milliy til tashkil topadi, milliy ong rivojlangan bo'ladi. Millat-kishilarning shunday barqaror jamligiki, bu jamlik til umumiyligi, hudud umumiyligi, iqtisodiy hayot umumiyligi hamda ijtimoiy psixologiya ba'zi bir xususiyatlarining umumiyligi bilan bog'langan bo'lib, bu psixologiya ushbu xalq madaniyatining o'ziga xos belgilarida mustahkamlangandir va ular bu xalqning madaniyatini boshqa xalqlar madaniyatidan ajratib turadi. Xalq tushunchasi keng ma'noda bo'lib, barcha etnik umumiylklarning mu'lum hudud (respublika, davlat yoki butun dunyo) aholisiga nisbatan ham ishlatish mumkin.

Ayrim mamlakat yoki butun jahon aholisining milliy tarkibini aniqlash juda mushkul vazifadir. Turli mamlakatlarda yashovchi xalqlar ro'yxatini tuzish dastlabki bosqichdanoq aholining biror guruhining qandayligini: etnik birlikni ya'ni alohida xalqni tashkil etadigan yoki xalqning bir qismini (etnografik guruhini) yoki birlikning boshqa bir ko'rinishini, masalan davlat siyosiy ko'rinishini tashkil etadimi ko'rsatish zarur ammo bunday masalalarni hal qilish ko'pincha qiyin bo'ladi. Ko'p hollarda etnografik guruhlar o'ziga xos madaniy va maishiy elementlar tavofut qilibgina qolmay, balki alohida dialektlarda gaplashib, etnik jihatdan o'z-o'zini butunlay boshqacha anglashga ham olib keladi. Qisman ancha yaxshi o'rganilgan xalqlarda (bolgarlar, polyaklar va boshqalarda) ayrim guruhlar yaqin o'tmishda ham rasmiy statistika ma'lumotlariga ko'ra alohida xalq sifatida ajralib kelinar edi.

Jahon mamlakatlarida konsolidatsiya (milliy jipslashish) va assimilyatsiya (qorishish) jarayonining keng ko'lamga avj olish tufayli o'ziga xos o'tkinchi til va madaniy shaklli, milliy jihatdan o'z-o'zini anglash kabi etarli, muhum belgili aholi guruhlari mavjuddir. Binobarin bunday guruhlardan biriga misol qilib, Boshqirdistonda yashovchi tatarlarni ko'rsatishimiz mumkin. Aholining bu qismi hozircha tatar xalqini bir bo'lagi hisoblanadi.

Xalqlarni sonini aniqlashdagi qiyinchilik esa, jahon aholisini etnostatistik jihatdan etarli o'rganilmaganligiga bog'liqdir. Hozirgi vaqtida butun jahon mamlakatlari aholi soni ro'yxatga olindi. Biroq bunday ro'yxatlarning ko'pchiligi aholining milliy tarkibini o'z oldiga maqsad qilib qo'yagan. Bir qator mamlakatlarda milliy tarkib (yoki til) haqidagi masalaning yo'qligi, aholining etnik jihatdan nisbatan bir xilligiga bog'liqdir. Bunda maskur masala muhum rol o'ynamaydi. Ammo butun dunyo aholisining milliy tarkibini bilish mushkul masala. Bu masalaning mushkulligi jahon aholisini etnostatistik jihatdan etarli o'rganilmaganligidir. Hatto hozirgi aholi ro'yxatlari o'z oldiga vazifa qilib qo'yaydi. Bunga birqancha sabablar bor ayrim mamlakatlarda ro'yxatlar

o'tkazishda milliy mansublik etnik jihatdan nisbatan bir xil bo'ladi. Boshqa hollarda bunday ko'rsatkich bo'lmashligi mumkin.

Chunki hukmron davlatlar mayda millatlar va ular bilan bog'liq bo'lgan milliy muammolar go'yo hal bo'lgan demoqchi bo'ladilar hamda o'z mamlakatlarini yaxlit milliy mamlakat sifatida ko'rsatishga intiladilar. Xorij ro'yxatlarining milliy masala aks etgan ma'lumotlaridan ham foydalanish ancha qiyin. Chunki, ayrim olimlar tomonidan qabul qilingan etnik terminologiya, hamda etnik umumiylilik odatda chet el adabiyotlaridagi terminologiya va tushunchalardan farq qiladi.

Masalan ingliz, fransuz yoki ispan tili terminologiyasidan foydalanuvchi ko'pgina mamlakatlarda «millat» tushunchasi doimo «davlat» tushunchasi bilan tenglashadi, «millat» termini esa davlatga mansublikni bildiradi. Ayrim aholishunos olimlar esa aralashtirib yuboradilar. AQShda o'tkazilgan aholi ro'yxatlarida millat masalasi irq masalasi bilan aralashtirilgan (oq tanli, negr, amerikalik, indeys, xitoy, yapon, filippinlik va boshqalar).

Shuningdek dunyoning barcha qismlarida milliy jipslashish va qorishish jarayonlari keng ko'lamda yoyilganligini e'tiborga olsak, sayyoramiz aholisini milliy tarkibini aniqlashning mushkulligi yanada aniq ko'rindi. Biz quyidagi Evropa, Osiyo, Afrika, Amerika, Avstraliya va Okeaniya bo'yicha aholining milliy tarkibi haqidagi ma'lumotlarni keltiramiz.

Evropa mamlakatlari aholisining milliy tarkibi bo'yicha 3 guruhga **bo'lamiz**: 1.Bir millatli davlatlar; 2. Ko'p millatli davlatlar; 3. Oraliq millatli davlatlar. Bir millatli davlatlarga Evropada 20 dan ortiq davlatlar kiradi (Polsha, Shvetsiya, Germaniya, Vengriya, Daniya, Portugaliya va boshqalar). Bu davlatlarning har birida o'z asosiy millati xalqning 90 % ini yoki undan ortig'ini tashkil etadi.

Ko'p millatli davlatlarga Buyuk Britaniya, Ispaniya, Shveytsariya, Chexiya, Sloveniya, Belgiya va boshqa davlatlar kiradi. Jumladan Buyuk Britaniyaning asosiy millati inglizlardan tashqari, shotlandiyaliklar, irlandlar, yahudiylar va boshqa mamlakatlardan ko'chib kelgan ko'plab muhojirlar yashaydi.

Ispanyaning shimoliy-sharqida katalonlar, shimoliy-g'arbida galisiyaliklar va shimolida basklar istiqomat qiladi. Shveytsariyada ham-mamlakatning markazi va sharqida-german-shveytsarlar, g'arbida-fransuz-shveytsarlar, janubi-sharqida italyan-shveytsarlar yashaydi. Manashu xalqlarning hammasi yagona shveytsar millatini tashkil etadi.

Osiyo aholisining soni jihatidangina emas ko'p millatligi bo'yicha ham dunyoning boshqa qismlaridan ajralib turadi. Bu erda bir millatli davlatlar juda kam. Bir millatli davlatlarga asosan Yaponiya, Koreya va ayrim arab davlatlarining kiritish mumkin. Arab mamlakatlaridan Iraq, Suriya, Livan va shuningdek Turkiyada asosiy millatlardan tashqari ko'plab mayda millatlar (kurdlar, armanlar, cherkeslar) yashaydi. Eron-Osiyoda aholisining etnik tarkibi xilma xil bo'lgan mamlakatlardan biridir. Eronda asosiy millat eronlardan tashqari ko'plab mayda millat va elatlar (20 dan ortiq xalqlar) yashaydi.

Afg'oniston, Pokiston, Myanma, Xitoy va Filippin ham ko'p millatli davlatlardir. Osiyoning ko'pchilik mamlakatlarida milliy masala hal qilingan emas. Ayrim xalqlar bir necha davlatlarga bo'linib ketgan, masalan kurdлarning etnik hududi Turkiya, Eron, Iraq, Suriya o'rtasida bo'lib olingan, balujlar etnik hududi

Eron, Afg'oniston, Pokiston o'rtasida, afg'onlar (pushtular) Afg'oniston bilan Pokiston, panjoblar Pokiston bilan Hindiston o'rtasida bo'lingan. Bunday misollarni bir nechtasini keltirish mumkin. Bunday hollar esa milliy o'zaro hamkorlikni qiyinlashtiradi va davlatlar o'rtasida munosabatlarda ayrim nizolarni keltirib chiqaradi. Kurd va pushtu muammolari milliy masala negizida kelib chiqgan va murakkab, keskin siyosiy muammoga aylangan. Xitoyda mayda millatlarga qarshi, millatlarni «Xitoylashtirish» siyosati, yahudiy-arab mojarolari ana shunday muammolardandir.

Afrika aholisining milliy tarkibi o'ziga xos, uzoq davom etgan mustamlakachilik afrikaliklarning ijtimoiy iqtisodiy va madaniy rivojlanishini ancha orqada qoldirdi. Ularning yirik millatlar va elatlarga birlashuviga xalaqit berdi. Mutaxassislar Afrikani aholisini milliy tarkibiga qarab 3 ta etnik oblastga (viloyatga) bo'ladi:

**1. Shimoliy Afrika va qisman shimoliy-sharqiy Afrika.** Bu rayonlarda bir biriga yaqin bo'lgan xalqlar – arablar va barbarlar yashaydi. Shimoliy Afrikada arab tilida gaplashuvchi bir necha millatlar tarkib topgan (marokashliklar, tunisliklar, Liviyaliklar, misrliklar).

**2. Sharqiy va G'arbiy Sudan** (hududiy jihatdan Sudan tabiiy geografik hududiga to'g'ri keladi). Bu oblastning g'arbida – atlantika sohilida fulbe, volof, ser'erlar, Gvineya qo'ltigi sohilida–gvineyaliklar, gurlar, Nigeriya va Kamerun davlatlarida – xausa, yoruba, ibo, edo kabi xalqlar. Sudan davlati hududida asosan arablar va nilotlar yashaydilar.

**3.Tropik va Janubiy Afrikada** bir-biriga yaqin tilda gaplashuvchi va madaniyatida ham ko'pincha umumiylukka ega bo'lgan bantu xalqlari yashaydi. Afrikada ham ayrim bir butun xalqlar turli mamlakatlar o'rtasida bir-biridan siyosiy chegaralar orqali ajratib qo'yilgan. Masalan, fulbe xalqi Nigeriya, Senegal, Gvineya, Mali, Kamerun, Burkina-Faso, Benin Mavritaniya, Gambiya mamlakatlarida bo'linib yashaydi. Mandinto xalqi Senegal, Mali, Kot-di-vuar, Gambiya, Serra-Leone, Gvineya, Gvineya-Bisau mamlakatlari o'rtasida yashaydi. Bundan ahvol Afrikada turli elatlar va etnik guruhlarning jipslashishi, millatlar tashkil topishini qiyinlashtiradi.

Afrika aholisining milliy tarkibi haqida gapirganda, bu erda yashovchi kelgindi (asosan Evropadan) xalqlarni ham e'tiborga olish zarur. Asosan inglizlar, afikanerlar (**burlar**), fransuzlar, portugallar Afrika aholisining 5% ni tashkil qiladi. Ular qit'aning janubida va Zimbabveda (Rodeziyada) yashaydilar va oqlar hukmronligiga asoslangan irqchilik davlatlarini barpo qilganlar. Hozirda ular mustaqil Afrika davlatlariga aylanganlar.

**Amerika** aholisining milliy tarkibida ko'pchilikni (95%) Evropadan kelganlarning avlodlari va ularning boshqa xalqlar bilan aralashuvidan vujudga kelgan xalqlar qamrab olgan. Amerika aholisini ko'pchilik qismi ingliz va ispan tilida, ozroq qismi portugal va boshqa tillarda so'zlashadi. Bu erda millatlar, davlatlar chegaralariga qarab, qaysi mamlakatning fuqarosi ekanligiga qarab ataladi. Masalan, AQSh millati–Amerikaliklar, Kanada millati – kanadaliklar deyiladi.

Amerika mamlakatlari aholisi o'z millatlarini davlatlarining nomi bilan masalan, braziliyaliklar, kubaliklar, peruliklar va boshqalar deb atashadi. Biroq turli

xalqlarning aralashishi bir-biridan ancha farq qiladi. Masalan paragvayliklar, peruliklar, boliviyaliklar, ekvadorliklar, gondurasliklar, salvadorliklar, nikaragualiklar va panamaliklar asosan metislardan iborat. Dominikaliklarning ko'pchiligi esa mulatlardir.

Amerikada, shuningdek asosan negrlardan iborat bo'lgan millatlar ham bor (gaitiliklar, yamaykaliklar va boshqalar). Peru, Boliviya, Ekvador, Meksika aholisining anchagina qismini indeyslar tashkil qiladi.

**Avstraliya** va Okeaniya aholisini etnik tarkibiga ko'ra, mutaxassislar ikkita oblastga bo'lishadi:

**1) Avstraliya va Yangi Zelandiya davlatlari.** Bu mamlakatlar aholisining milliy tarkibi bir xil bo'lib, avstraliyalik – inglizlardan va zelandiyalik- inglizlardan iborat. Avstraliya va Yangi Zelandiyaning tub xalqlari juda kam qolgan.

**2) Polineziya, Melaneziya va Mikroneziya orollari.** Bu orallardagi aholi etnik qabila-qabila bo'lib yashaydi. Ularda konsolidasiya (etnik jinslashish) jarayoni Okeaniyaning ayrim katta orollaridagina boshlangan. Hozirgi paytda elatlar sifatida jipslasha boshlagan xalqlarga samoaliklar, fidjiliklar, gavayliklar va taitiliklarni kiritish mumkin. Odatda butunlay boshqa tillarda gaplashuvchi bir necha xalq umumiy nom bilan Yangi Gvineya papuaslari deb ataladi. Okeaniyaning boshqa kichik orollarida etnik jarayonlar ham past bosqichdaligini ko'rshimiz mumkin.

### 3.3. Aholining diniy tarkibi

**Din xudoga farishtalarga**, xudo nomidan yuborilgan payg'ambarlarga va muqaddas hisoblangan kitoblarga ishonishdir. Sayyoramiz aholisi juda ko'p dinlarga e'tiqod qiladilar. Hozirgi paytda Afrikaning tropik o'rmonlarida yashovchi ba'zi qabilalrida, Amazonka havzasi indeyslarida va ijtimoiy taraqqiyotdan ancha orqada qolgan ayrim xalqlarda, allaqachonlar tugab ketgan ibtidoiy din shakllari (totemizm, magiya, fetishizm, animizm kabilar) hamon saqlanib qolgan. Shuningdek ba'zi xalqlar e'tiqod qiladigan mahalliy va milliy ahamiyatga ega bo'lgan dinlar (iudaizm, zardushtiylik, braxmanizm, sintoizm kabilar) ham mavjud.

Agar biz 2010 yil ma'lumotiga ko'ra dunyo bo'yicha dunyo dindorlarining taqsimlanishini foizda ko'rsak, quyidagicha ko'rsatkichga egadir: xristianlar-31,70 %, musulmonlar-23,40%, hindular-13,26%, dinsizlar-11,46%, buddistlar-7,30%, mahalliy xitoy dinlarining e'tiqodchilari-6,60%, mahalliy an'anaviy dinlarning e'tiqodchilari-3,90%, sikxlar-0,36%, iudaistlar-0,21%, baxaitlar-1,11%, boshqa dinlar-1,7%.

Agar biz 2020 yil ma'lumotiga ko'ra dunyo bo'yicha dunyo dindorlarining taqsimlanishini foizda ko'rsak, quyidagicha ko'rsatkichga egadir: xristianlar-2469334500 kishi (dunyo aholisidagi hissa **31,8 %**), islom-1904777687 kishi (**24,5%**), dinsizlar va ateistlar-1187484838 kishi (**15,3%**), induizm (hindular)-1166884757 kishi (**15,0%**), buddizm (buddistlar)-516183130 kishi (**6,6%**), mahalliy (xalq) an'anaviy dinlarning e'tiqodchilari-437279623 kishi (**5,6%**), iudaizm (iudaistlar)-14871316 kishi, boshqa dinlar-66219443 kishi (**0,9%**).

Sayyoramiz aholisining ko'pchilik qismi (ko'plab xalqlar, bir necha mamlakatlar aholisi) e'tiqod qiladigan asosiy dinlar 3 ta: nasroniylik (xristian), islom

va budda dinlari. Odatda bu dinlarni “dunyo dinlari “ deb atashadi.

**Taxminiy** hisobga ko’ra nasroniylik diniga 2,5 milliard atrofida kishi e’tiqod qilishali. Nasroniylik dini eng keng tarqalgan dindir. Nasroniylik dini eramizning I-asrining ikkinchi yarimida Rim imperiyasining sharqida paydo bo’lgan. U o’rtas boshlaridayoq Evropaning barcha xalqlari diniga aylangan. Nasroniylik dinini dunyoning boshqa hududlariga kirib borishi ko’proq buyuk geografik kashfiyotlar davriga (XVI asr) to’g’ri keladi. Nasroniylik bir necha tarmoqlarga (mazhablarga) bo’linadi.

XI asr o’rtalarida nasroniylikning 2 mazhabi: katolik va pravoslavlар vujudga keldi. XVI asrdagi feodalizm krizisi dinga ham ta’sir qilib, rim-katolik dinining islohatiga olib keldi. Lyuter (Lyuter Martin-1483-1546) xristian dini protestantlik asoschisi islohati tufayli Nasroniylikning 3 asosiy tarmog’i protestantlik (lyuteranlik) paydo bo’ldi. Nasroniylikning Rim papasi tan olmaydigan protestantlik mazhabi Skandinaviya mamlakatlari, Niderlandiyada va nemislar orasida tarqalgan. Buyuk Britaniyadagi anglikanlik (eng konservativ yo’nalish) va er sharida taxminan 26 milion kishi e’tiqod qiladigan baptistlik ham protestantlikning turlaridir. Katolik mazhabiga Fransiya, Italiya, Ispaniya, Portugaliya, Irlandiya, Avstriya, Germaniyaning janubiy rayonlari katolik cherkovi ta’sirida, dinchi polyaklar, cheklar, slovaklar, vengrlar katolikka e’tiqod qiladi. Er sharida katoliklar taxminan 800 milion kishidan ortiq.

Xristianlikning pravoslav mazhabiga Gretsiya aholisi, dinchi bolgarlar, ruminlar, sobiq Yugoslaviya aholisining bir qismi e’tiqod qiladi. Xristian dini butun Amerika qit’asida ham asosiy din hisoblanadi. AQSh va Kanadada asosan protestantlik keng tarqalgan. Biroq AQSh aholisining 1/4 qismi katoliklar, Lotin Amerikasi ham asosan katolik diniga e’tiqod qiladi. Protestantlik, shuningdek, Avstraliya, Tinch okean orollari va Janubiy Afrikaning kelgindi aholisi o’rtasida ham keng tarqalgan. Xristianlikning pravoslav mazhabiga yaqin bo’lgan yo’nalishi Efiopiyada hukmronlik qiladi. Nasroniylik, shuningdek, Hindistonda (3% aholisi), Yaponiya, Janubiy-Sharqiy Osiyo, Afrika aholisining ayrim guruhlari asosida ham uchraydi.

**Dunyoda 2 chi** o’rinda yosh islom dini turadi. Bu din 6 asrning oxiri VII asrning boshlarida Arabiston yarim orolida vujudga kelgan. Islom dinini odatda musulmon dini deb yuritiladi. Geografik nuqtai nazardan islom diniga e’tiqod qiluvchilar nisbatan yaqin umumiy hududda joylashgan. **1,9** milliardga yaqin kishi e’tiqod qiladi. Islom dini Shimoliy, G’arbiy va Sharqiy Afrikada, Arab mamlakatlarda, Kichik Osiyoda, Eron, Afg’iston, Pokiston, Bangladesh mamlakatlarda hukmron. Kipr aholisinining bir qismi musulmonlardir. Hindiston aholisining 9 % musulmonlar, ilgari bu mamlakatda musulmonlar ko’p bo’lgan. Lekin ularning ko’p qismi Pokiston va Bangladeshga ko’chib ketishgan. Islom dini Indoneziyada asosiy din hisoblanadi. Bu dinga shuningdek “Filippin” davlatining janubiy qismida yashovchi xalqlar (Mindanao va boshqa kichik orollar aholisi), G’arbiy Xitoydagagi uyg’ur, dunganlar ham e’tiqod qilishadi. Evropada Istambul va uning atrofidagi usmoniy turklar, albanlar va bosniyaliklar, bolgarlarning bir qismi, lo’lilarning bir qismi musulmon hisoblanadi.

Davlatimiz rahbari islom diniga, uning rasm-rusumlariga, bayramlariga, diniy

tarbiya va ta'limiga alohida e'tiborni qaratar ekan, mustabid sho'ro tuzumi davrida ham o'z fikr-mulohazalarini bildirib keldi va ularning echimini amaliy ravishda topish uchun usul va yo'l-yo'riqlarni belgilab bera oldi.

"Islom dini bu ota-bobolarimiz dini, u biz uchun ham iymon, ham axloq, ham diyonat, ham ma'rifat ekanligini unutmaylik,—deb uqtiradi Yurtboshimiz,—Ana shu ma'rifatni kishilarimiz jon-jon deb qabul qiladilar va yaxshi o'gitlarga amal qiladilar. Mehr-oqibatli, nomusli, oriyatli bo'lishga, izzat-ehtirom tushunchalariga rioya etishga harakat qiladilar"—Karimov I.A.

Istiqlol yillarida islom dini mavqeining tiklanishi, diniy marosimlar, milliy qadriyatlarimiz, asriy bayramlarimizning xalqqa qaytarilishi, musulmonlarning muqaddas Haj va Umra amallarini ado etish imkoniyatiga erishganliklari, diniy-axloqiy masalalar bo'yicha kitoblarning chop etilishi, diniy erkinlik va bag'rikenglikni ta'minlash kabi keng ommaga manzur ko'p savobli ishlar tezkorlik bilan amalga oshirildi.

Mustaqillik sharofati bois mo''tabar Qur'oni Karim va hadislarni chop etish imkoniyati paydo bo'ldi. Jumladan, 1991 yilda Qur'oni Karim ilk bor o'zbek tilida Alouddin Mansur tarjimasi va Imom al-Buxoriyning "Sahihi Buxoriy"—4 jildlik hadislar to'plami o'zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etildi. 1991 yil 14 iyulda O'zbekiston huquqiy tajribasida birinchi bor "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonun qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi qabul qilingach, vijdon erkinligi, davlat va din o'rtasidagi munosabatlar konstitutsion tamoyillar asosida tartibga solindi. 1998 yil 1 may kuni ushbu qonunning yangi tahriri qabul qilindi.

E'tiborli tomoni, 1992 yil 27 mart kunida O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining "Ro'za hayiti va Qurbon hayitining birinchi kunlarini dam olish kuni deb e'lon qilish to'g'risida"gi Farmoni imzolandi. O'zbekiston birinchi Prezidentining 1990 yil 2 iyundagi "Musulmonlarning Saudiya Arabistoniga Haj qilish to'g'risida"gi Farmoniga binoan O'zbekiston xalqi vakillari tarixida birinchi marta bevosita hukumat homiyligida har yili Haj va Umra amallarini ado etish imkoniyatiga ega bo'ldi. Mustaqillik yillarida 32 mingdan ortiq o'zbekistonliklar Makka va Madinada Haj safarida bo'ldilar. Yuzlab masjidlar musulmonlarga qaytarildi, yangilari barpo etildi. "Islom nuri" gazetasi va "Hidoyat" jurnali nashr etilmoqda.

Birinchi Prezidentimizning 1992 yil 7 martdagি Farmoni bilan islom dini omildan, uning ma'naviy imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadida Vazirlar Mahkamasi huzurida Din ishlari bo'yicha qo'mita tashkil etildi. Uning tasarrufida Xalqaro islom-tadqiqot instituti va 10 ta madrasa faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda 1000 dan ortiq talaba-yoshlar ta'lim olmoqda. Diqqatga sazovor tomoni, davlatimiz rahbari tashabbuslari bilan islom ta'limoti va falsafasini keng o'rganish, o'zbek xalqining diniy, tarixiy va madaniy merosini chuqur ilmiy tadqiq etish, yuqori malakali dinshunos va iqtisodchilarni tayyorlash maqsadida 1999 yil 7 aprelda Toshkent islom universiteti tashkil etildi.

2007 yil – Islom konferentsiyasi tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha muassasasi – AYSESKO (ISESKO) tomonidan Toshkent shahri Islom madaniyatining 2007 yildagi poytaxti deb e'lon qilindi. 2007 yil 14-15 avgust

kunlari Toshkent va Samarqand shaharlarida Toshkent shahrining “Islom madaniyati poytaxti” deb e’lon qilinishiga bag’ishlangan “O’zbekistonning islom tsivilizatsiyasi rivojiga qo’shgan hissasi” mavzuida xalqaro konferentsiya o’tkazilib, unda 30 dan ortiq davlatlardan kelgan olimlar qatnashdi.

Bugungi kunda respublikamizda 17 ta diniy konfessiya ro’yxatga olingan va rasman faoliyat ko’rsatmoqda. 170 dan ortiq diniy tashkilotlar ishlab turibdi. Shuningdek, 1,7 mingdan ortiq masjidlar, xristian ibodatxonalarini va boshqa diniy markazlar ta’mirlandi va yangidan qurildi.

Dunyo dinlari orasida e’tiqod qiluvchi aholi soni bo'yicha ham, geografik tarqalish hududi jihatidan ham eng kichigi-budda dini (buddizm) dir. Bu dinga taxminan **516** million kishi e’tiqod qiladi. Tarixiy nuqtai nazardan budda eng qadimgi “dunyo dinidir”. U eramizdan avvalgi VI-V asrlarda shimaloy Hindistonda vujudga kelgan. Hozir bu dinga Hindiston aholisining bir qismi, birmaliklar, Nepal, Shiri-Lanka aholisi, Hindi-Xitoy xalqlarining bir qismi va tibetliklarning bir qismi e’tiqod qilishadi.

Budda dini shuningdek Xitoyning g’arbiy rayonlarida va Mongoliyada tarqalgan. Asosiy uchta “dunyo dinlari”ning geografik tarqalishi ana shunday. Ammo bu uch dinga sayyoramiz aholisining taxminan yarmi e’tiqod qilishadi. Qolgan aholi e’tiqod qiluvchi dinlar milliy dinlardir. Ma'lum bir millat yoki ma'lum bir hudud aholisi e’tiqod qiluvchi dinlar (aosan bir mamlakat doirasidagi) milliy dinlar deb yuritiladi. E’tiqod qiluvchi aholining soni jihatdan milliy dinlar orasida eng yiriklari konfutsiylik, iudaizm, sintoizm va boshqalar. Konfusiylilik, asosan Xitoylar o’rtasida keng tarqalgan, iudaizm esa, Hindiston aholisining eng asosiy dinidir. Yaponiyada-Sintoizm, Xitoyda-Konfusiylilik va daosizm dinlariga e’tiqod qilinadi.

#### **8-jadval. Dinlar geografiyasining asosiy ko’rsatkichlari**

Din	E’tiqod qiluvchilarning soni (mln. kishi)	Tarqalgan mintaqalari va mamlakatlari
Xristianlik	2469 dan ortiq	Fransiya, Ispaniya, Portugaliya, Italiya, Avstraliya, Belgiya, Irlandiya, Polsha, Litva, Ukraina, Chexiya, Slovakiya, Vengriya, Sloveniya, AQSh, Xorvatiya, Kanada, Kipr, Lotin Amerikasi mamlakatlari, Filippin, Markaziy va Janubiy Afrika mamlakatlari, Koreya, Yaponiya, Xitoy.
Islom	1904 dan ortiq	Albaniya, Bosniya, Turkiya, Saudiya Arabistoni, BAA, Misr, Eron, Iroq, Pokiston, Afg'oniston, Tojikiston, Ozarbayjon, O'zbekiston, Qozog'iston, Malayziya.
Buddizm	516 dan ortiq	Xitoy, Tailand, Yaponiya, Birma, Shri-Lanka, Vietnam, Kambodja, Koreya Respublikasi, Hindiston, Malayziya.

Ma'lumki, din jamiyat hayotida turmushida juda katta rol o'ynaydi. Bunda davlatning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi, aholining ta'limiy darajasi katta ahamiyat kasb etadi. Aholining diniy tarkibini bilish va uni to'g'ri baholash, dunyoda bo'lib o'tayotgan voqeа va hodisalarning ko'pchiliginи to'g'ri tushunish va anglashga imkon beradi. Evropada xristianlik dinini barcha shakllari keng tarqalgan.

Katolik dini asosan qit'aning janubida, qisman g'arbiy va markazida, provaslavlik sharqiy va janubiy sharqida, Sobiq ittifoq mamlakatlarida provoslavlik va islom dinlari keng tarqalgan. Osiyoda barcha dunyoviy dinlar va yirik milliy dinlar keng tarqalgan. Ayniqsa, islom dini katta rol o'ynaydi. Islomning sunniylik yo'naliishi Indoneziyada keng tarqalgan, dunyoda eng yirik musulmon mamlakatidir.

Malayziya, Hindiston, Bangladesh, Pokiston, Afg'oniston va Janubiy-G'arbiy Osiyodagi barcha arab mamlakatlarida ham sunniylik asosiy o'rin egallaydi. Islomning shialik yo'naliishi Eron, Ozarbayjon, qisman Iraq va Yamanda asosiy din sifatida tan olingan. Islom diniga e'tiqod qiluvchilarning katta-katta guruhlari Filippin, Kombodja, Tailand, Kipr, Shri-Lanka mamlakatlarida mavjud.

Sharqiy va Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida buddizm va lamaizm keng tarqalgan. Induizmga Hindiston va Nepal aholisining ko'pchiligi e'tiqod qiladi. Konfusiylik va daosizm dinlari Xitoyning asosiy dinlari hisoblanadi. Sintoizm Yaponiyada tarqalgan. Xitoy, Yaponiya, Koreya, Indoneziya, Malayziya va boshqa mamlakatlarda ham xristian diniga e'tiqod qiluvchilar bor.


Afrikaning shimoliy g'arbi va sharqida joylashgan ko'pchilik mamlakatlarda islomning sunniylik yo'naliishi hukmron. Efiopiya, JAR va boshqa qator mamlakatlarda xristian dini muhim rol o'ynaydi. Markaziy va Janubiy Afrika aholisining asosiy qismi mahalliy dinlarga e'tiqod qiladilar.

Shimoliy Amerikada xristianlikning ikki shakli katolik va protestantlik hukmron. AQShda protestantlar Kanadada katoliklar ko'proq. Markaziy Amerikada aholining aksariyati katolikka e'tiqod qiladi. Xuddi shunday Janubiy Amerikada ham katolik dini hukmronlik qiladi. Umuman olganda, Amerika qit'asiga barcha katoliklarning yarmidan ko'pi to'g'ri keladi.

Amerikada islom diniga e'tiqod qiluvchilar AQSh aholisining ma'lum qismi, hamda Karib dengizi havzasidagi ba'zi bir orollar aholisining ichida mavjud. Avstraliya va Okeaniyada katolik dini keng tarqalgan. Keyingi yillarda xalqaro munosabatda siyosat, iqtisodiyot, madaniyat va mafkurada islom dinining o'rni kengaymoqda va ahamiyati oshmoqda (**8-jadval**).

Rim papasi rezidensiyasini an'anaga ko'ra, shveysariyaliklar qo'riqlaydi. Shveysariyalik qo'riqchilar kostyumlari 1505 yildan buyon o'zgarmagan. Bu liboslarni o'z davrida Mikelanjelo o'ylab topgan. Papaning ilgari rezidensiyasi Avinonda bo'lgan va 1377 yilda hozirgi Vatikanga ko'chirilgan. Vatikan davlati 1925 yilda paydo bo'lib, diktator Mussolina bu erlarni cherkovga sovg'a qilgan.

Dunyo aholisining diniy tarkibini tahlil qilishda diniy ta'limotlar va dunyoqarashlarning tarqalish geografiyasiga e'tibor qaratish muhimdir. Binobarin, dunyodagi dinlarning tarkibiy tuzilishini quyidagi **3-chizma** ko'rinishida tasavvur etish mumkin.



### 3-chizma. Dunyodagi dinlarning tarkibiy tuzilishi

Dindorlar soni ko'p bo'lgan dinlar bo'yicha mamlakatlar taqsimoti (2010 yil, million kishi.):

**Xristianlik**-(AQSh-243,0, Braziliya-173,3, Meksika-107,9, Rossiya-104,7, Filippin-86,3, Nigeriya-78,0, Xitoy-68,4, Kongo-63,2, Germaniya-56,5, Efiopiya-52,0);

**Islom**-(Indoneziya-209,1, Hindiston-176,1, Pokiston-167,4, Bangladesh-133,5, Nigeriya-77,3, misr-76,9, Eron-73,7, Turkiya-71,3, Jazoir-34,7, Marokko-31,9);

**Budaviylik**-(Xitoy-244,1, Tailand-64,4, Yaponiya-45,8, Birma-38,4, Shri-Lanka-14,4, Vietnam-14,3, Kamboja-13,6, Koreya respublikasi-11,0, Hindiston-9,2, malayziya-5,0);

**Hinduiylik**- (Hindiston-973,7, Nepal-24,1, Bangladesh-13,5, Indroneziya-4,0, Pokiston-3,3, Shri-Lanka-2,8, AQSh-1,7, Malayziya-1,7, Birma-0,8, Buyuk Britaniya-0,8).

Keyingi yillarda barcha jahon dinlari tarkibida miqdoriy o'sish kuzatilmoqda, bunda turli diniy tashkilot va davlatlarning roli kattadir.

### 3.4. Aholining ijtimoiy tarkibi

**Har bir mamlakat** aholisining ijtimoiy tarkibi avvalo o'sha mamlakatda hukmron bo'lgan ijtimoiy munosabatlardan belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi esa, aholining ijtimoiy tarkibini ham keskin o'zgartiradi. Aholining ijtimoiy tarkibini xarakterlovchi belgi ishlab chiqarish munosabatlaridir.

Mamlakatlarda aholining ijtimoiy tarkibining o'zgarishi esa aholi tarkibida intelektual salohiyatga ega bo'lgan kishilarning (ko'payishiga olib keladi) miqdoriga bog'liq. Bundan buyon aqliy mehnat sohasida band bo'lgan kishilar ko'payib boradi. Bu sohaga o'rta maktab ham, oliy ta'lim tizimi ham, bilimlarni ommalashtirishgan nashriyot faoliyati ham, radio, televiedeniya ham kiradi.

Aholining ijtimoiy tarkibiga kiruvchi ishchilar guruhidan malakali mutaxassislar, xizmatchilarga talab doimiy ravishda ortib bormoqda, bu talabning oshishi XX asrning ikkinchi– yarmida migratsiyaning yana bir shakli "oqillar ketishi" deb nomlangan migratsiya boshlanishi davriga to'g'ri keladi.

Aholining ijtimoiy tarkibini belgilovchi yana bir ko'rsatkich – aholining bilim darajasidir. Bilim darjası-aholinining sifat ko'rsatkichlaridan biri. Aholining sifat tushunchasi turmush va ovqatlanish sharoiti, sog'ligi, yangilanishlarni qabul qilib olishi, malakasini o'z ichiga oladi. BMTning bolalar fondi ko'rgazmali tasvirida tasvirlangan afrikalik qiz "Sen katta bo'lganingda qanday bo'lishni xoxlaysan?" – degan savolga eng qisqa qilib "Tirik bo'lishni", - deb javob qiladi. "XX asr o'lati" nomini olgan SPID yuqumli kasalligi ham global muammoga aylandi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda aholining ijtimoiy tarkiblaridan yana biri aholining savodxonlik darajasidir. BMT ma'lumotiga ko'ra hozirda dunyoda 900 minga yaqin kishi o'qishni ham yozishni ham bilmaydi. Jarayondagi ilmiy xodimlar soni 5,5 millionga yaqin.

Industrial mamlakatlar qatoriga g'arbiy, shimoliy va janubiy Evropa mamlakatlari, AQSh, Kanada Avstraliya, Yaponiya hamda Argentina, Liviya va boshqa davlatlar kiradi. Ularda noishlab chiqarish sohasiga jami band aholining 50-70% i to'g'ri keladi. Butun dunyo aholisining 45% i yoki 2 milliarddan ortiqroq qismi iqtisodiy faol aholi hisoblanadi. Shundan 350 milliondan ziyod aholi sanoatda, 1,7 milard kishi yoki iqtisodiy faol aholining 70% dan ko'prog'i qishloq xo'jaligida banddir. Sanoat va qishloq xo'jaligida band bo'lgan aholi, aholining ijtimoiy tarkibidagi eng katta guruqlar hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda talabalarni ham alohida ijtimoiy tarkib qilib ajratiladi. Aholining ijtimoiy tarkibidan kelib chiqadigan yana bir holat mamlakatlarning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaMM dir.

**Hozir Respublikamiz** xalq xo'jaligining barcha sohalariga, shuningdek fan va madaniyat uchun ham zarur kadrlarni oliy ta'lim, o'rta maxsus o'quv yurti tayyorlab beradi. Yildan yilga Respublikamiz xalq xo'jaligida ishlaydigan malakali mutaxassislar soni ko'payib bordi. O'zbekiston keyingi vaqtarda industrial taraqqiyotning jadallahushi bilan hunar-texnika bilim yurtlari (hozirgi kunda kollejlari) orqali malakali ishchilar tayyorlashga alohida e'tibor berila boshladi. Shu yillarda O'zbekiston xotin-qizlar hayotida ham sifat o'zgarishlari sodir bo'ldi.

Ma'lumki xotin-qizlarning jamiyatdagi tutgan o'rni va huquqlari turli davrlarda turlicha bo'lgan. Inqilobdan avval o'zbek xotin qizlari ishlab chiqarishda kamdan – kam qatnashganlar, asosan uy – ro'zg'or ishlari, bola tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lganlar. Hozirgi vaqtida o'zbek xotin qizlari xalq xo'jaligining barcha tarmoqalrida faol mehnat qilmoqdalar. O'zbekiston endilikda barcha fan sohalari bo'yicha ilmiy muassasalarni birlashtirgan fanlar akademiyasiga ega.

**Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020 yil 1 yanvar holatiga respublika doimiy aholi sonining 30,5 % mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, 58,9 % mehnatga layoqatli yoshdagilar va 10,6 % mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.**

O'zbekistonda aholining bandlik darjası juda murakkabdir. Mamlakatimizda qadimdan qishloq xo'jaligi rivojlanganligi va tabiiy sharoitning qulayligi tufayli aholining taxminan 36%dan ortiqrog'i qishloq xo'jaligi sohasiga to'g'ri keladi. Shuningdek sanoat ham mamlakatimizda istiqbolli sohalardan biri bo'lib unda aholining taxminan 12,6% qismi faoliyat ko'rsatadi.

**O'zbekistonda 2017 yil ma'lumotiga asosan mehnatda band aholining**

**iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha: Sanoatda-13,5, qishloq xo'jaligida-27,3, qurilishda-9,5, transportda-4,8, savdoda-11,0, sog'lijni saqlashda-4,5, ta'linda-8,2, boshqa tarmoqlarda-21,2 foiz.**

Hozirgi vaqtida rivojlangan mamlakatlarda xo'jalik yuritishning reindustrial shakli ommalashib borayapti (ya'ni nomoddiy sohaning rivojlanishi). O'zbekistonda esa xo'jalik yuritishning bu shakli hozirgi kunda asta-sekin rivojlanib bormoqda. O'zbekistonda 1926 yilda nomoddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida band bo'lgan aholining bor yo'g'i 6 % i ishlagan bo'lsa, bugungi kunda bu ko'rsatkich ortmoqda (Yuqorida aytilganidek, savdoda-11,0, sog'lijni saqlashda-4,5, ta'linda-8,2, boshqa tarmoqlarda-21,2 foiz.).

Musataqillikdan so'ng O'zbekistonda moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari yuqori sur'at bilan rivojlanmoqda. Shu bilan birga aholi moddiy va madaniy turmush darajasini yuqori bo'lishi birma-bir xizmat ko'rsatish sohalariga bo'lgan talabni oshiradi. Nomoddiy tarmoqlar ichidan sog'lijni saqlashda aholi tezroq o'sib borayapti. Moddiy tarmoqlar ichida bu jarayon qurilish va transportda ko'proq kuzatilyapti.

Keyingi yillarda mamalakatda yangi ish o'rinnari yaratishga katta e'tibor qaratilmoqda: Ularning asosiy qismi qishloq joylarga to'g'ri keladi. Bu borada ayniqsa Farg'ona, Samarqand, Namangan viloyatlarida ibratli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Umuman olganda esa mehnat resurslaridan to'la va samarali foydalanish muammo hisoblanadi.

Bu muammo eng avvalo davlatning "bandlik" dasturi doirasida ham etilib boradi. Ma'lumki jahon mamlakatlarida nomoddiy sohalardagi aholining bandligi oshib bormoqda. Bizda esa u hozircha kamroq. Masalan sog'lijni saqlash, jismoniy tarbiya, sport, ta'lim, madaniyat, san'at va fan kabi ijtimoiy sohalarda band bo'lgan mehnat resurslarini ulushi ko'pgina viloyatlarda oz.

O'zbekistonda ham endilikda nomoddiy sohada band aholi asta sekin o'lib bormoqda. Ayniqsa O'zbekistonda ilm fanga alohida e'tiborni qaratish o'zbek xalqining jahonshumul yutuqlari ifodasidir. Lekin shuni alohida ta'kidlab o'tish zarurki respublika aholisining ijtimoiy tarkibi va bilish darajasini hozirgi talablar doirasiga ko'tarish uchun ham ancha ish qilinish kerak. Iqtisodning bundan buyon bozor munosabatlari asosida rivojlanib borishi O'zbekistonda zamonaviy sanoat ishlab chiqarish malakasiga ega bo'lgan kadrlarni ko'plab tayyorlashni talab etadi.

Jumladan, hozir respublikamiz xalq xo'jaligining barcha sohalariga, shuningdek fan va madaniyat uchun ham zarur sog'lom kadrlarni tayyorlashda keyingi vaqtarda olib borilayotgan davlat siyosati ham katta ahamiyatga egadir.

**Ta'lim tizimidagi keng ko'lamli islohotlarning mohiyati va ahamiyati.** O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlardan maqsad yurtimizda sog'lom va barkamol, bilimli, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan avlodni shakllantirishdan iborat. Aynan shu maqsadga erishish uchun mamlakatimizda 1997 – 2010 yillarda keng miqyosdagi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi amalga oshirildi. Uning zamirida aholining uzluksiz ta'lim olishini ta'minlash, 12 yillik majburiy ta'limga, jumladan, 9 yillik məktəb ta'limi va undan keyingi 3 yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limiga bosqichma-bosqich o'tildi.

Bu davr oralig'ida 1500 dan ziyod o'rta maxsus kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar qurib bitkazildi. Ta'limning barcha bosqichlarida o'quv dasturlari qayta ko'rib chiqildi va zamonaviy xalqaro talablarga mos holga keltirildi. 2004 – 2010 yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish umummilliyl davlat dasturi amalga oshirildi. Bu davr mobaynida 7800 tadan ziyod umumta'lim maktabi yangitdan qurildi, ta'mirlandi va rekonstruktsiya qilindi, ularning umumiy soni esa 9860 taga etdi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Maktab ta'limini rivojlantirish umummilliyl davlat dasturini muvaffaqiyatli amalga oshirish natijasida ta'lim jarayonining barcha bosqichlarini qamrab oladigan, zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunalarini va kompyuter texnikasi bilan jihozlangan umumta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar, oliy ta'lim muassasalaridan iborat, yuqori talablarga javob beradigan uzluksiz ta'limning yaxlit tizimi yaratildi.

Shu bilan birga, amaldagi oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish tizimini Kadrlar tayyorlash milliy dasturi doirasida amalga oshirilayotgan ta'lim tizimidagi o'zgarishlarning mantiqiy davomi sifatida tubdan isloh qilishning ob'ektiv zarurati bugungi kunda yaqqol namoyon bo'ldi. Ilmiy kadrlarni attestatsiyadan o'tkazishning amaldagi ikki bosqichli tizimi (fan nomzodi va fan doktori) rivojlangan demokratik davlatlarda qabul qilingan oliy malakali ilmiy kadrlar tayyorlashning zamonaviy, xalqaro tan olingan talablariga mos kelmaydi.

Bugungi kunda amal qilayotgan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tizimi ta'lim jarayoni bakalavriat va magistratura standartlariga o'tkazilganidan so'ng nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qilish mohiyatan ortiqcha ekanini ko'rsatmoqda hamda fan doktori ilmiy darajasini olish uchun to'g'ridan-to'g'ri dissertatsiya himoya qilishni nazarda tutadigan oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning bir bosqichli tizimini joriy qilish zarurligini taqozo etdi.

Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash hamda attestatsiyadan o'tkazish tizimini yanada takomillashtirish, Kadrlar tayyorlash milliy dasturining ustuvor vazifalarini va mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy va demokratik islohotlarni, ilg'or jahon tajribasi va ilmiy kadrlarni attestatsiyadan o'tkazishning xalqaro standartlarini hisobga olgan holda, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini tubdan isloh qilish maqsadida 2012 yil 24 iyulda O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining "Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan o'tkazish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi.

Birinchi Prezident Farmoniga ko'ra, 2013 yilning 1 yanvaridan boshlab, umumiyl qabul qilingan xalqaro talab va standartlarga muvofiq, dissertatsiya himoya qilish va fan doktori ilmiy darajasini berish bo'yicha oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning bir bosqichli tizimi joriy qilindi. Shuningdek, stajyor-tadqiqotchi-izlanuvchilar instituti bekor qilinib, unda ta'lim olayotgan shaxslar, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimining yangi talablariga muvofiq, attestatsiyadan o'tkazilib, dissertatsiya tadqiqotlari mavzulari tanqidiy qayta ko'rib chiqilib, katta ilmiy xodim-izlanuvchilar institutiga o'tkazildi.

2012 yil 16-17 fevral kunlari Toshkentda o'tkazilgan xalqaro konferentsiya uzluksiz ta'lim va yosh avlodni barkamol etib tarbiyalashning milliy modelini

yaratishda O'zbekiston tajribasini o'rganishga bag'ishlandi. Unda Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq, ta'lif sohasini tubdan isloh qilish natijasida mamlakatimiz tanlagan taraqqiyotning "o'zbek modeli"ning ajralmas tarkibiy qismi ekani alohida ta'kidlandi. Oliy o'quv yurtlarida kadrlar tayyorlash, uzuksiz ta'lifni isloh qilishning jahonda tan olingan, tajribada isbotlangan 4 ta modeli mavjud. Bular AQSh, Frantsiya, Germaniya va Yaponiya mamlakatlarining modellaridir. Ular garchi umumiyligida qoida va yo'naliishlar bo'yicha bir-biriga yaqin bo'lsa-da, lekin mazkur mamlakatlarning hozirgi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy holati, milliy xususiyatlari hamda fuqarolarning yashash sharoitidan kelib chiqib farqlanadi. Masalan, Yaponiya ta'lif tizimida oila omiliga katta e'tibor berilgan.

AQSh va Frantsiyada esa mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda pullik maktablar joriy etilgan. Lekin ayrim mamlakatlarda o'zini oqlagan va samara bergan modellarni o'zga davlatlar uchun to'g'ridan-to'g'ri qo'llab yoki tatbiq etib bo'lmaydi. Shuning uchun ham rivojlangan mamlakatlar tajribalari chuqur o'rganilib, milliy hamda yurtimizga xos bo'lgan xususiyatlar, sharoitlar inobatga olingan holda kadrlar tayyorlash tizimining yangi modeli ishlab chiqildi. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari: shaxs, davlat va jamiyat, uzuksiz ta'lif, ilm-fan va ishlab chiqarish tizimlarining yaxlit ma'rifiy-tarbiyaviy, ijtimoiy-ma'naviy mushtarakligidan tashkil topgan.

O'zbekiston Respublikasida 2018/2019 o'quv yili boshida jami umumta'lif muassasalari soni 9774 tani tashkil etib, ulardan 6044 tasi (62%) qishloq joylarida, 3730 tasi (38%) shaharlarda joylashgan. 2018 yilning mos davriga nisbatan ta'lif muassasalari soni 0,6 foizga oshdi (56 ta). O'zbekiston Respublikasida umumta'lif muassasalari uch turaga bo'linadi: boshlang'ich, umumiyligida o'rta va boshqalar. 2018/2019 o'quv yili boshiga umumta'lif muassasalarining umumiyligida sonidan 9648 tasi umumiyligida o'rta ta'lif maktablari, 37 tasi boshlang'ich maktablari va 89 tasi boshqa muassasalar. Umumiyligida o'rta ta'lif muassasalarida jami 5819,7 ming kishi, boshlang'ich ta'lif muassasalarida 6,6 ming kishi va boshqa ta'lif muassasalarida 21,0 ming kishi ta'lif olgan.

2018/2019 o'quv yili boshiga (jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablarni hisobga olmagan holda) barcha ta'lif muassasalaridan, bir smenada faoliyat yuritadiganlari 1960 ta (20,2%), ikki smenada 7694 ta (79,6%), uch smenada 19 ta (0,2%)ni tashkil etgan. Ta'kidlanganidek, bir smenali muassasalarda 3800,7 ming o'quvchi (65,2%), ikki smenalida 2021,0 ming o'quvchi (34,7%), uch smenali muassasalarda 4,5 ming o'quvchi (0,1%) tahsil olgan.

2018/2019 o'quv yili boshiga jami o'qituvchilar soni 444,2 ming nafarni (o'rindoshlarsiz) tashkil etib, ulardan 54 foizi qishlo maktablarida, 46 foizi esa shahar maktablarida faoliyat yuritib kelmoqda. O'zbekistonda bitta o'qituvchiga o'rtacha 13 nafar o'quvchi to'g'ri kelgan. 2018/2019 o'quv yili boshiga O'zbekiston Respublikasida 1537 ta o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyat yuritgan. Ulardan akademik litseylar soni 123 tani va kasb-hunar kollejlari soni - 1414 tani tashkil etgan.

2018 yilning 1 noyabr holatiga O'zbekiston Respublikasida (oliy harbiy bilim yurtlaridan tashqari) 78 ta oliy ta'lif muassasalari va 20 ta filiallar

faoliyat yuritgan. 2018-yilda bakalavr darajasiga ega bo'lgan talabalar soni 66594 nafarni tashkil etib, ularning 19105 nafari davlat grantlari asosida ta'lim olgan. 2018 yilda bakalavriat bosqichini bitirganlarning 25566 nafarini qizlar (38.4%) tashkil etgan. Bakalavriat bosqichi bitiruvchilarining 43,8 foizi gumanitar soha, 10,7 foizi ijtimoiy soha, iqtisod va huquq yo'nalishi, 28,0 foizi ishlab chiqarish va texnika sohasi, 7,4 foizi qishloq va suv xo'jaligi yo'nalishi, 4,4 foizi sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot yo'nalishi, 5,6 foizi xizmatlar sohasi bo'yicha bitirgan. 2018/2019 o'quv yili uchun magistraturaga qabul qilingan jami 5725 nafar talabalardan 27,2 foizi (1555 nafari) davlat granti asosida, 72,8 foizi (4170 nafari) to'lov shartnomaga asosida qabul qilingan. Har 100 ta o'ringa o'rtacha 236 ta ariza topshirilgan.

**Sog'liqni saqlash tizimidagi keng ko'lamli islohotlarning mohiyati va ahamiyati.** Mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab mamlakatimiz hayotining barcha soha va tarmoqlari qatori aholi salomatligini muhofaza qilish masalasi Prezidentimizning doimiy diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Bu borada yangi zamonaviy tizimni barpo etish, keng ko'lamli islohotlar samaradorligini ta'minlash uchun mustahkam huquqiy poydevor yaratildi. Ma'lumki, sobiq totalitar tuzumda O'zbekistonda ham aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish darajasi va sifati talabga mutlaqo javob bermas edi. Masalan, aholining o'rtacha umr ko'rish darajasi 1991 yilda 67 yilni tashkil etgan bo'lsa, onalar o'limi 65,3 nafarni (har 100000 ta tirik tug'ilgan bolaga), go'daklar o'limi 34,5 nafarni (har 1000 ta tirik tug'ilgan bolaga) tashkil etgan edi.

1991 yilda O'zbekistonda aholi soni 20,8 million kishini tashkil etgani holda, jami vrachlar soni 71131 nafar, ya'ni har 10000 aholiga 34,1 nafar shifokor to'g'ri kelar, shahar va qishloq aholisiga ambulatoriya va poliklinika xizmatini ko'rsatishda katta tafovutlar mavjud edi. Qishloq aholisi tibbiy yordamga muhtoj bo'lgan paytda birinchi bor feldsherlik-akusherlik punktlaridagi feldsherga murojaat etar, shaharlarda esa bitta oilada yashaydigan turli yoshdag'i insonlar tibbiy yordam olish maqsadida kamida 3 ta poliklinika tipidagi tibbiyot muassasasiga murojaat qilishga majbur bo'lardi. Ya'ni oiladagi bolalar-bolalar poliklinikasi (pediatrlar)ga, katta yoshdagilar – shahar poliklinikasi (hududiy terapevtlar)ga, homilador ayollar esa ayollar konsultatsiyasi (akusher-ginekolog)ga qatnar edi. Ushbu muassasalar faoliyatida o'zaro uzviylik, bog'liqlik bo'lmasani sababli kattalar poliklinikasida bolalar salomatligi haqida, ayollar konsultatsiyasida qizlar, o'smir qizlar to'g'risida tegishli ma'lumotlar bo'lmas, ularga tibbiy yordam faqat ular murojaat qilgan davrdagi ma'lumotlarga asoslangan holda ko'rsatilar, profilaktik ishlarga, ayniqsa, birlamchi profilaktikaga e'tibor berilmas edi. Boshqacha aytganda, ambulatoriya-poliklinika xizmatini ko'rsatayotgan vrachlar dispetcherlik funktsiyasini bajarar edi, xolos. Xususan, hududiy shifokorlar bemorlarni o'zlarini davolash o'rniga ularni boshqa mutaxassislarga yoki statsionarlarga yuborish bilan shug'ullanar edi.

Aholiga statsionar yordam 1370 ta kasalxona muassasasida ko'rsatilar edi. Ularda jami o'rinlar soni 256585 tani, ya'ni har 10000 aholiga o'rtacha 123 tani tashkil etar edi. Kasalxonalar, o'rinlar soni ko'p bo'lishiga qaramasdan, tibbiy yordam ko'rsatish sifati juda past edi. Statsionar tibbiy xizmat qishloq aholisiga kam o'ringa ega, hech qanday sharoiti bo'lmasani qishloq uchastka shifoxonalarida (25-75

o’ringa mo’ljallangan) ko’rsatilar edi. Bu shifoxonalarda bemorlarning ahvoli og’irlashgan taqdirda ular tuman markaziy shifoxonalariga, juda og’ir bemorlar esa viloyat kasalxonalariga yuborilar edi.

Shifoxonalardagi tibbiy asboblar eski, aksariyat shifoxonalarda esa tibbiy uskunalar umuman yo’q yoki yaroqsiz ahvolda edi. Ana shu misollarning o’ziyoq ko’z oldimizda ayanchli manzarani namoyon etadi. Achinarli tomoni shundaki, bemorlar sifatlari, malakali, ixtisoslashgan statsionar yordami olish uchun bir necha murakkab byurokratik bosqichlardan o’tishga majbur bo’lar edi. Buning ustiga vaqtida to’g’ri diagnoz qo’ymagani, malakali davolanmagani uchun bemorning ahvoli yanada og’irlashar, kasalligi surunkali tus olib ko’p hollarda nogironlikka, ba’zan esa bevaqt o’limga sabab bo’lar edi. Statsionarlarda nafaqat davolash-profilaktika ishlarining sifati, balki sanitariya-gigienik holat ham talabga javob bermas edi. Palatalardagi o’rinlar soni 6-8 tani tashkil etar, 1 ta bemorga 3-4 m.kv joy to’g’ri kelar, aksariyat shifoxona binolari ta’mirlashga muhtoj, issiq suv u yoqda tursin, hatto sovuq suv ta’minoti ham nochor ahvolda edi. Sog’lijni saqlash tizimi qoldiq tamoyiliga asosan moliyalashtirishga ajratilgan mablag’ning aksariyat qismi (80 foizi) ko’p xarajat talab qiladigan statsionar xizmatni ta’minalashga ketar edi.

Mustaqillik yillarda bunday holatlarga butunlay barham berildi. Bugungi kunda sog’lijni saqlash tizimida amalga oshirilayotgan tub islohotlar jamiyatning eng katta boyligi bo’lgan inson salomatligini yaxshilash, uning manfaati, turmush farovonligini ta’minalash, kasalliklarni kamaytirish va oldini olish, sog’lom turmush tarzini qaror toptirish, aholining o’rtacha umr ko’rish darajasini uzaytirish, sog’lom naslni dunyoga keltirish va tarbiyalab, voyaga etkazishga qaratilgani bilan g’oyat ahamiyatlidir. Ayni shu maqsadlar asosida yurtimizda zamonaviy talablar, xalqaro andozalar darajasidagi tibbiy xizmat tizimini barpo etish, eng muhim, barkamol avlodni voyaga etkazish – tibbiyot sohasida olib borilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini tashkil etmoqda.

Sog’lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko’rsatish sohasida ishlovchilarga hisoblangan o’rtacha oylik nominal hisoblangan ish xaqi 1173,1 ming so’mni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 19,8 % ga o’sgan. Ushbu sohadagi o’rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko’rsatkichini respublika hududlari bo’yicha ko’radigan bo’lsak, ya’ni o’rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Toshkent shahrida 1404,5 ming so’mni (respublikadagi o’rtacha oylik ish haqiga nisbatan 119,7 %), Buxoro viloyatida 1290,1 ming so’mni (110,0 %), Qoraqalpog’iston Respublikasida 1276,5 ming so’mni (108,8 %) va Jizzix viloyatida 1257,1 ming so’mni (107,2 %) tashkil etgan bo’lsa, Qashqadaryo viloyatida 1008,1 ming so’mni (85,9 %), Samarqand viloyatida 1081,7 ming so’mni (92,2 %), Surxondaryo viloyatida 1090,8 ming so’mni (93,0 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo’lgan.

### **3.5. Markaziy Osiyo aholisining geografik va demografik xususiyatlari**

Qadimiy turkiy qabilalar–antik davr va ilk o’rta asrlarda Markaziy Osiyo tekisliklarida ko’chmanchilik bilan hayot kechirgan qabilalar. Bu erda o’ziga xos qabilalar ittifoqi shaklangan. Qabilalar ittifoqi–O’rta asrlarda Markaziy Osiyo

hududida siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan birlashgan ko'chmanchilik bilan hayot kechiruvchi qabilalar bo'lgan.

Dunyo aholisining geografik va demografik xususiyatlari haqida so'z borar ekan Markaziy Osiyo hududiga alohida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir. Chunki, XX asrning so'nggi yillarida ro'y bergan ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar Markaziy Osiyo davlatlari aholisining hayotida tub burilishlar yasadi va bu hududdagi mamlakatlarning demografik taraqqiyotiga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadı. Binobarin Markaziy Osiyo xalqlarining tarixiy shakllanishidan tortib bugungi kundagi vaziyatini etnogeografik va demogeografik tahlil qilish orqali mintaqa aholisining bugungi va kelajakdagi rivojlanishi haqida xulosalar chiqarish mumkin. Markaziy Osiyo respublikalarining mustaqillikka erishishi bu hududdagi xalqlarning milliy shakllanish jarayonini tezlashtirib, yangi ijtimoiy va siyosiy munosabatlarning vujudga keltirmoqda. Xalqlarning sobiq Ittifoq davridagi unutilib ketayozgan milliy- etnik qadriyatları qayta tiklanmoqda. Mintaqa aholisining bugungi kundagi geografik va demografik xususiyatlarini tahlil qilish xalqlarning tarixiy shakllanish jarayonlarini o'rganishdan boshlanishi kerak.

Markaziy Osiyo xalqlari etnik jihatdan yaqinligi va tarixiy taqdirlarining mushtarakligi natijasida iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy taraqqiyotda umumiylilikka egadirlar. Uzoq davom etgan etnik jarayonlar, aholining juda ko'p migratsion harakati, mintaqa hududiga kirib kelgan boshqa xalqlarning aralashuvi natijasida mintaqa hududida yirik etnoslar shakllandı.

Tub joy millatlar bo'lgan o'zbeklar, qozoqlar, qirg'izlar, turkmanlar, qoraqalpoqlar, kam sonli uyg'urlar shuningdek sobiq Ittifoq davrida ko'plab ko'chib kelgan tatarlar **oltoy til** oilasidagi **turk til** guruhiga mansubdirlar. Sobiq Ittifoq davrida hududga ko'p millatlar jumladan ruslar, ukrainlar, beloruslar, tatarlar, nemislar va armanlar ko'plab ko'chib kelishdi va hatto ayrim hududlar aholisining salmoqli qismini tashkil etishgan. Shuningdek hududda doimiy istiqomat qiluvchi, kam sonli boshqa millat vakillaridan arablar, eronlar, kurdalar, belujlar, uyg'urlar, dunganlar, koreyslar va b. mavjud. Turk tili guruhiga mansub aholi mintaqada 70% ni tashkil etadi. Sobiq Ittifoq davrida asosiy millatlarning istiqomat hududlari asosida milliy respublikalar tashkil etildi va bu respublikalar 1991 yilda mustaqillikka erishganlaridan keyin ham o'z nomlarini saqlab qoldilar. Chunki respublikalarning nomlanishi tarixiy haqiqatga mos edi. Respublikalar aholisini tashkil etgan xalqlarning tarixiy shakllanish hududlari ham respublikalar chegaralariga deyarli mos keladi.

**O'zbeklar.** Bu xalq ajdodlarining shakllanishida so'g'dlar, xorazmliklar, baqtriyaliklar, farg'onaliklar va sak-massaget qabilalari ishtirok etishgan. Turkiy qabilalar Markaziy Osiyo hududiga eramiz boshida kirib kela boshlashgan, lekin ularning etnik jarayonlardagi faol ta'siri Turk hoqonligi davrida sezilarli bo'ldi. Ayni O'zbekistonning hozirgi hududida Eron til guruhi va turk tili guruhiga mansub xalqlarining keng miqyosda aralashuvi sodir bo'ldi. O'zbek xalqi shakllanishidagi asosiy xususiyatlarining tugallanishi IX-XII asrlarda Qoraxoniylar davrida yuz berdi. (ammo "o'zbek" etnonimining mustahkam o'rashib qolishi XV asr oxiri va XVI asr boshlarida Shayboniyxon davrida ro'y bergenligi ta'kidlanadi.)

XX asr boshida o'zbeklar uchta yirik etnografik guruhdan iborat edi:

vohalardagi o'troq aholi, yarim ko'chmanchi hayot kechiruvchi va urug'-jamoa munosabatlarini saqlab qolgan, o'rta asrlarda o'g'uzlar va turk-mo'g'ul qabilalari bilan aralashgan mo'g'ullar bosqiniga qadar yashagan qabilalarning avlodlari; dashti qipchoq qabilalarining avlodlari (qipchoqlar, naymanlar, qo'ng'irotlar, mang'itlar va b.). Ularning o'troq hayotga o'tishi XX asr boshidagina tugallandi. Turkistonni ruslar bosib olishi va oktyabr to'ntarilishi o'zbek millatining shaklanish jarayoniga birmuncha ta'sir ko'rsatdi, endilikda mustaqillikning ta'siri milliy o'zlikni anglash jarayonini tezlashtirdi.

**Qozoqlar.** Qozoqlarning shakllanish jarayonida ko'pgina qadimgi qabilalar ishtirok etgan. Eramizgacha 1 asrda va eramizning 1 asrida hozirgi Qozog'iston hududini sak, usun, qangyuy qabilalari ittifoqi, alanlar va boshqa ko'plab qabilalar yashashgan. VI-VII asrlarda bu hududda G'arbiy Turk xoqonligi tarkibiga kiruvchi turli turkiy qabilalar: turgashlar, qarluqlar paydo bo'ldi. VIII-XI asrlarda bu hududga qimaqlar, qipchoqlar va o'g'uzlar kirib kelishadi. X-XI asrlardagi Qoraxoniylar davri qabilalarning birlashuv jarayonini tezlashtirdi. XII asrda qoraxitoylar va mo'g'ullarning kirib kelishi qabilalarning aralashib ketishiga sabab bo'ldi. XV asr oxiri—XVI asr boshida Qozoq xonligi tashkil topdi va qozoq xalqining shakllanishi tugallandi. XVI asr o'rtalarida qozoqlar tarkibiga Ural, Sibir va Sharqiy Ettisuvdan kirib kelgan qabilalar qo'shildi. Qozoq qabilalarining tarkibida uchta tarixiy hududiy xususiyatga ega bo'lgan qabilalar guruhi (juz yoki orda) tashkil topgan: Katta Juz (Ettisuv); O'rta Juz (Markaziy Qozog'istonning dasht rayonlari, Sirdaryo, Ishim, Tobol daryo vodiylari); Kichik Juz (Qozog'istonning g'arbiy hududlari). Har bir Juzga ko'pgina qabilalar birlashgan: Katta Juz – dulat, alban, suan, qangli va b; O'rta Juz-arg'in, nayman, qipchoq, kerey, qo'ng'irot; Kichik Juz – alim-uli, bay uli, jeti ulu. Qozoq millatining shakllanishida bu qabilalar ittifoqlari o'rtasidagi munosabatlar katta o'rinn tutgan.

**Qirg'izlar.** Qirg'iz xalqi etnik tarixining ilk bosqichlari xun, dinlin, sak, usun qabilalarining qabilaviy ittifoqlari bilan bog'liqidir. VI-X asrlarda qirg'iz xalqining tarkibiga kiruvchi turkiy qabilalar Sayan-Oltoy, Irtishbo'yi, Sharqiy Tyan-Shan hududlarida tarqalgan. Mo'g'ul bosqinidan keyin bu qabilalarning bir qismi markaziy va g'arbiy Tyan-Shan va Pomir hududlariga kelib joylashdi. Ular Tyan-Shan hududida qirg'iz etnosining shakllanishi uchun asos bo'lib, ularning tarkibiga yana qarluqlar va uyg'urlar, keyinchalik mo'g'ullar va qozoq-no'g'ay qabilalari ham aralashgan. Umuman olganda qirg'iz xalqi Tyan-Shan hududida 16 asrda tarkib topdi. XVII–XVIII asrlarda qirg'iz erlari jung'or xonlarining doimiy bosqinlariga duchor bo'ldi, XIX asrning birinchi yarmida esa ular Qo'qon xonligi ta'siriga tushib qoldilar. Ruslarning Turkistonni bosib olishi natijasida XIX asrning 60-70 yillarida qirg'iz qabilalarining asosiy erlari Rossiya tarkibiga kirdi.

**Turkmanlar.** Turkman etnosining qadimgi asosi dax-massaget va alan-sarmat qabilalari bo'lgan. Bu xalqning shakllanishida yana qadimgi davlatlar Marg'iyona, Parfiya va Xorazm aholisi ishtirok etgan. Eramizning 1 asrida hozirgi Turkmaniston hududiga qadimiy turk qabilalari kelib o'rashishgan. IX-XI asrlarda o'g'uz (saljuq) qabilalari kirib kelishgan va ular turkman etnosining o'zagini tashkil etishadi. Turkman xalqining shakllanish jarayoni XV asrda tugallandi. Bu vaqtga qadar o'g'uz qabilalarining tarkibiga bir qancha boshqa qabilalarning xususan qipchoqlarning

aralashuvi yuz berdi. Oktyabr to'ntarilishiga qadar turkman xalqi bir qancha yirik qabilalardan tashkil topgan bo'lib, ularning eng yiriklari hududiy jihatdan bir-biridan quyidagicha ajralgan edi: takinlar (Axal, Murg'ob va Tajan daryolari havzalari), yovmitlar (Kaspiy bo'yи oblasti, Xiva xonligi), ersarilar (Amudaryo vodiysi), salirlar, sariqlar, go'klanlar, chavdarlar (Xiva xonligi). Shuningdek xo'jalik yuritish jihatidan turkmanlar chorvadorlar va dehqonlar(chamurlar)ga bo'lingan.

**Tojiklar.** Tojik xalqining etnogenezi eramizdan avvalgi II asrning oxiri va 1 asrning boshidan boshlangan deb hisoblanadi. Bu davrda Markaziy Osiyo hududida mahalliy Eron til guruhiga mansub aholi bilan ko'chmanchi turkiy qabilalarning aralashuvi va assimilyatsiya jarayoni boshlangan. Tojik etnosi shakllangan hududda qadimgi dehqonchilik bilan shug'ullanuchi aholi baqtriyaliklar, so'g'dlar, qadimgi farg'onaliklar, shuningdek ko'chmanchi chorvadorlik bilan shug'ullanuvchi saklar istiqomat qilishgan. Eramizgacha bo'lgan II asrda Baqtriya hududiga saklar bilan birgalikda yuechjilar (echjilar) bostirib kirib, keyinchalik Kushon imperiyasiga asos solishgan. Eramizning IV-V asrlarida Markaziy Osiyoga eftalitlar (oq xunnlar) kirib kelishadi.

Shuningdek VI asrda tashkil topgan Turk xoqonligi ta'sirida turkiy tilning ustunligi orta boradi. Bu hududda tojik etnosining tashkil topishida eron til guruhiga mansub qabilalarning turkiy tili qabilalar bilan aralashuvi katta rol o'ynagan va uchta yirik etnografik guruh ajralib chiqqan bular: shimolda so'g'diyilar, shimoli-sharqda farg'onaliklar, janubda tohariylardir.

Tojik xalqi etnik yadrosining shakllanishi IX-X asrlarda Somoniylar davlati davrida tugallandi. Shuni ta'kidlash kerakki bu etnosning shakllanishiga doimiy ravishda turkiy tilga mansub qabilalar ta'sir ko'rsatib turgan.

#### 9-jadval. Markaziy Osiyo mamlakatlari demografik ko'rsatkichlari (2020 y)

Ko'rsatkichlar	Qozog'iston	Qirg'iziston	Tojikiston	Turkmaniston	O'zbekiston
Aholi soni Mln kishi					
1993 y	17.0	4.5	5.6	4.3	21.7
1995 y	16.9	4.4	5.8	4.5	22.7
2003 y	16.8	4.9	6.9	4.8	26.0
2020 y	18.5	6.3	9.0	6.2	34.1
Maydoni	2.724.902	198.500	142.000	491.200	448.970
Aholi zichligi kishi km kv					
1993	6.3	22.7	39.1	8.8	48.3
2020	6.8	31.8	63.4	12.6	75.7
Urbanizatsiya darajasi %	58,2	31	27	47	50,5
2025 yilgi aholi soni BMT bashorati mln kishi	17.1	6.6	9.4	6.6	32.9
2050 yilgi aholi soni BMT bashorati mln kishi	17.4	8.1	11.4	7.4	37.2

Oktyabr to'ntarishi va Tojikiston Respublikasining tashkil topishi bilan tojik etnosiga Pomir tog'ligi hududida istiqomat qiluvchi bir qancha xalqlar: yazg'ulomliklar, rushonliklar, bartangliklar, oroshorliklar, shug'nonliklar, xufliklar, bajuyliklar, ishkashimliklar, vohanliklar shuningdek Zarafshon daryosining yuqori qismida yashovchi yag'nobliklar qo'shildi.

Hozirda BMT ma'lumotiga ko'ra Markaziy Osiyo aholisi 74 mln 5626 kishini tashkil etadi, bu taxminan dunyo aholisini 1 % tashkil etadi. Shundan, 45 % O'zbekistonga, 25 %-Qozog'istonga, 13 %-Tojikistonga, 8,5 %-Qirg'iziston va Turkmanistonga to'g'ri keladi.

Markaziy Osiyo aholisini tashkil etuvchi millatlar asosan qishloq xo'jaligiga asoslangan erlarda yashaganligi uchun ko'p farzandlilik bu hududlar uchun odatiy hol edi. Oktyabr to'ntarishi va respublikalarning tashkil topishi, mintaqada meditsina va aholiga xizmat ko'rsatish tarmoqlarining yaxshilanishiga sabab bo'ldi va aholining tez ko'payishiga olib keldi. XX asr davomida mintaqa aholisi 5,5 baravar o'sganligi qayd etiladi.

Markaziy Osiyo aholisining demografik rivojlanishi XXI asrning birinchi 20 yilligida o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, bu xususiyat mustaqil respublikalarning o'z milliy ijtimoiy va siyosiy yo'llariga ega bo'layotganliklari bilan bog'liqdir. Ayni kunlarda O'zbekiston Respublikasi aholisining **34,03** mln kishidan oshib ketganligi ma'lumdir (**9-jadval**).

Mustaqillikka erishgan Markaziy Osiyo davlatlari industrial rivojlanish yo'lidan bormoqda. Binobarin urbanizatsiya darajasi ham shunga mos ravishda o'sib bormoqda. Ayni vaqtda urbanizatsiya darajasi bo'yicha Qozog'iston Respublikasi eng yuqoridir (**58,2%**).

Bu ko'rsatkich Turkmaniston Respublikasida ham o'sib bormoqda. Mustaqil respublikalar aholisining yashash darajasi va iste'mol sifatini oshirish bugungi kundagi respublikalar hukumatlarining asosiy vazifasidir. Ayni vaqtda Markaziy Osiyo respublikalarida ishlab chiqarish texnologiyalarining yangi usullari joriy qilinmoqda. Bu esa mintaqa aholisining ish bilan ta'minlanishi, yashash darajasining yaxshilanishi, binobarin demografik rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

### **3.6. Dunyo xalqlari klassifikasiyasi**

Dunyo aholisi juda ko'p etnik birliklardan tarkib topgan. Sayyoramizda 200 dan ortiq millat va elatlar mavjud. Xalqlarni o'rganish uchun ularni ma'lum xususiyatlari qarab klassifikasiyalash, guruhlarga ajratish mumkin. Xalqlarni har xil xususiyatlari va ko'rsatkichlariga qarab quyidagi guruhlarga bo'linadi:

**1. Dunyo** aholisini soniga ko'ra klassifikasiyalash. V.V.Pokshishevskiy xalqlarni soniga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratgan:

- 100 mln. kishidan ortiq xalqlar (xitoylar, amerikaliklar, ruslar, hindlar, yaponlar);
- 50 mln. dan 100 mln. gacha bo'lган xalqlar (braziliyaliklar, nemislar, bengallar, italyanlar, bixarliklar);
- 10 mln.dan 50 mln.gacha bo'lган xalqlar;
- 1 mln.dan 10 mln. gacha bo'lган xalqlar;
- 1 mln.dan kam bo'lган xalqlar.

**Masalan, XX asrning 1970 yillarida taxminan, Sobiq ittifoq hududida yashovchi xalqlar faqat to'rtta oilaga mansub bo'lgan:**

**Hind-Evropa oilasi:** *Slavyan guruhi*-178,8 mln kishi: Ruslar-129,1, Ukrailnar-40,7, Beloruslar-9,0. *Baltika (letto-litva) guruhi*-4,0 mln kishi: Latishlar-1,4, Litvaliklar-2,7. *Eron guruhi*-2,7 mln kishi: Tojiklar-2,1, Osetinlar-500 ming, Kurdlar-90 ming. *Roman guruhi*- Moldavanlar-2,7.

**Oltoy oilasi:** *Turkiy guruhi*: O'zbeklar-9,2, Qozoqlar-5,3, Turkmanlar-1,5, Qirg'izlar-1,5, Qoraqalpoqlar-240 ming, Uyg'urlar-173 ming, Oltoyliklar-60 ming, Xakaslar-70 ming, Shorlar-20 ming, Tuvaliklar-140 ming, Yakutlar-300 ming, Ozarbayjonlar-4,4 mln kishi, Qorachaylar-100 ming, Balkarlar-60 ming, Kumiklar-200 ming, No'g'aylor-50 ming, Tatarlar-5,9 mln kishi, Boshqirdlar-1,3 mln, CHuvashlar-1,7 mln. *Mongol guruhi*-450 ming: Buryatlar-300 ming, Qalmoqlar-140 ming. *Tunguska-manjuriya guruhi*-45 ming: Evenklar, Nanaylar, Ulchi, Oroch, Udegeylar va boshqa mayda xalqlar.

**Kavkaz oilasi:** *Kartvel guruhi*: Gruzinlar-3,2 mln, *Abxaz-adigey guruhi*: jami 600 ming atrofida. Abxazlar-80 ming, Kabardinlar-300 ming, Cherkeslar-40 ming, Adigeylelar-100 ming. *Chechen-dog'iston guruhi*: 2 mln kishidan ortiq: Chechenlar-600 ming, Ingushlar-160 ming, Avarlar-400 ming, Darg'inlar-230 ming, Lezginlar-320 ming.

**Ural oilasi: 5 mln kishi:** *Fin guruhi*: Estonlar-1 mln kishi, Karellar-150 ming, Komi va komi-permyaklar-500 ming, Udmurtlar-700 ming, Marilar-600 ming, Mordvalar-1,3 mln kishi, Saamilar 2 ming va boshqala. *Ugor guruhi*: xantilar, mansilar-30 ming kishi. *Samodiyalar guruhi*-nenetslar, selkunlar-35 ming kishi.

**2. Xalqlarni** hududiy joylashuviga ko'ra guruhlashtirish. Har bir xalq o'zining etnik hududiga ega bo'ladi, ana shu hududda u moddiy va ma'naviy madaniyatini yaratadi, tabiatdan foydalanishning o'ziga xos usullarini ishlab chiqadi va h.k. Hududiy jihatdan yaqin bo'lgan va uzoq davrlar mobaynida bir-biri bilan mustahkam aloqa qilib yashagan xalqlarda xo'jalik yuritish shakllari, turmush, madaniyat va din odatda bir-biriga o'xshash va ayrim hollarda bir xil bo'ladi. Mana shu belgi va xususiyatlari jihatdan o'xshash bo'lgan hududlar-tarixiy-etnografik oblastlar (viloyatlar) deb ataladi. Ular bir necha hududlardan iborat:

1. Evropa; 2. Osiyo; 3. Lotin Amerikasi; 4. Okeaniya.

**3. Xalqlarni** ijtimoiy – xo'jalik jihatdan guruhlashtirish. ko'proq tarixiy xarakterga ega. Chunki, bu tipga kiruvchi «dehqon xalqlar», «chorvador xalqlar», «ovchi xalqlar» tushunchalari asosan o'tmisht davrlarga xos bo'lib, hozir o'z ahamiyatini yo'qotib bormoqda.

**4. Xalqlarni** lingvistik guruhlashtirish. Xalqlarni tiliga qarab guruhlarga ajratishda bir-biriga yaqin bo'lgan qardosh tillar oilalarga birlashtiriladi, ular esa, o'z navbatida tarmoqlarga ajratiladi. Ling6stik guruhlashtirish – xalqlarni tiliga qarab guruhlarga ajratishda bir-biriga yaqin bo'lgan qardosh tillar oilalarga birlashtiriladi, ular esa o'z navbatida guruhlarga yoki tarmoqlarga ajratiladi. Dunyo xalqlariga e'tibor bersak, ular o'ziga xos til oila va guruhlarga **bo'lingan**:

**1. HindEvropa oilasi:** 1. Slavyan guruhi: ruslar, ukrainlar, beloruslar, polyaklar, cheklar, slovaklar, serblar, xorvatlar, sloveniyaliklar va boshqa yugoslaviya xalqlari, bolgarlar. 2. Baltika guruhi: litvaliklar, latishlar. 3. Germaniya

guruhi: nemeslar, avstraliyaliklar, shveytsariyaliklar (nemes, italyan, fransuz tilida gaplashuvchilar), gollandlar, flamandiyaliklar (finlar), afrikanerlar, surinamlar, shvedlar, norveglar, islandiyaliklar, datchenlar (farer orolidagilar), anglicanlar va shotlandlar, anglo-avstraliyaliklar, angliya-yangizellandiyaliklar, anglo-kanadaliklar, yamaykaliklar, gayyaliklar, shuningdek ingliz tilida so'zlashuvchi xalqlar (markaziy va janubiy Amerika), amerikaliklar (aqshdagagi negrlar ham). 4. Kelt guruhi: irlandlar, uelsliklar, bretonlar. 5. Roman guruhi: italyanlar, fransuzlar, korsikaliklar, vallonlar, frankokanadaliklar, gaitiyaliklar va boshqa frankotilli xalqlar (markaziy va janubiy amerika), ispanlar, katalonlar, galisiyaliklar, meksikaliklar, kubaliklar, argentinlar, kolumbiyaliklar va boshqa ispan tilida gaplashuvchilar (markaziy va janubiy Amerika), braziliyaliklar, portugallar, ruminlar, moldavanlar. 6. Alban guruhi: albanlar. 7. Grek guruhi: greklar. 8. Eron guruhi: forslar, kurdlar, lo'lilar, baxtiarlar, tojiklar, xazareyslar, afg'onlar (pushtilar), belujlar, osetinlar. 9. Hind (Hindari) guruhi: bengallar va assemlar, oriyaliklar, hindlar, bixarlar, rajastxonlar, panjobliklar, gudjaratliklar, sinxlar, maratxiliklar, singallar, kashmirliliklar, nepalliklar va boshqa paxari xalqlari. 10. Arman guruhi: Armanlar, evropa va amerika evreylari.

**2. Afrosiyo (Semit-hamit) oilasi:** 1. Semit guruhi: arab xalqlari, isroil evreylari, amxaraliklar, tigrelar va tigranlar. 2. Kushit guruhi: oromaliklar, somaliyaliklar va boshqalar. 3. Berber guruhi: Tuareqlar, shlyoxlar, kabilar va boshqalar. 4. Chad guruhi: xausaliklar va boshqalar.

**3. Kavkaz oilasi:** Gruzinlar, kabardinlar, chechenlar, avarslar va boshqa xalqlar.

**4. Dravid oilasi:** Teluglar, tamillar, malayaliklar, konnaraliklar, gondilar, oraonlar va boshqalar.

**5. Ural oilasi:** 1. Fin-ugor guruhi: finlar, karellar, estonlar, saamlar (loparlar), komiklar, mordvalar, mariylar, udumurtlar, vengrlar, xantilar, mansilar. 2. Samodiy guruhi: nenslar, nganasanlar, selkuplar.

**6. Oltøy oilasi:** 1. Turk guruhi: chuvashlar, tatarlar, bashkirlar, qozoqlar, qirg'izlar, o'zbeklar, qoraqalpoqlar, uyg'urlar, ozarbayjonlar, kashkaylar, karachaevlar, balkarlar, kumiklar, nogaylar, turklar, oltoyliklar, shortslar, xakaslar, tuvaliklar, yakutlar. 2. Mongol guruhi: xalxa-mongollar, oyratlar, mongollar, xitoyliklar, qalmiqlar, buryatlar. 3. Tunguska-manjuriya guruhi: evenklar, evenlar, nanaylar va boshqa amurbo'yi xalqlari, manjuriyaliklar, korreyslar, yaponlar. Paleosiyo xalqlari-chukchilar, koryaklar, itelmenlar, yukagirlar, nivxilar, ketlar, basklar, burishilar, aynlar.

**7. Eskimos-aleut oilasi:** Eskimoslar, aleutlar.

**8. Niger-kordofan oilasi:** 1. Niger-kongo guruhi: Fulbe, volof, balante, temne, malinke, bambara, soninke, susu, mende, mosi, grusi, senufo, kru, akan, eve, yoruba, ibo, bini, nupe, idjo, tiv, ibibio, bamileke, kongo, luba, nyaruanda, rundi, gandi, kikuyyu, luxya, suaxili, malavi, shona, suto, kosa, zuluslar va boshqa bantu xalqlari, azande, banda, sere-lundu. 2. Kordofan guruhi: tegali, talodi va boshqlar.

**9. Nil-Sahroi Kabir oilasi:** 1. Songan guruhi: songan, djerma, dendi. 2. Sahroi Kabir guruhi: kanuri, tubu. 3. Fur guruhi: Fur. 4. Shari-nil guruhi: bagirmi, morumangbetu, tama, dago, murle, nubiyaliklar va boshqa lar. Kunama, berta. 5. Koma guruhi: koma.

**10. Koysan oilasi:** Bushmenlar, gottentotlar, sandave, xatsa.

**11. Xitoy (Sin) -tibet oilasi:** 1. Tibet-barman guruhi: tibetliklar, ladakvi, balti va boshqalar. Nevarlar, kanaurlar, laxuli va boshqalar. Himolay xalqlari, baro-bodo xalqlari, birmaliklar, itszu, kuki-ginlar, kaga, karenlar va boshqalar.

**12. Paratay:** Tay guruhi : Siamliklar, lao, chjuanlar, shanilar va boshqalar.

**13. Avstroosiy oиласи:** 1. Vietnam guruhi: vietnamliklar. 2. Mon-kxmer guruhi: kxmerlar, monilar. 3. Munda guruhi: Santallar, mundaliklar va boshqalar. 4. Myao-yao guruhi: Myao, yao.

**14. Avstraliya (Avstroneziya) oilasi:** Yavaliklar, sundilar, madurlar va boshqa indoneziya xalqlari, malaytslar, maleyzan va chamilar. Tagallar, visayya, iloki va boshqa fillipin xalqlari, gaoshan, malgashlar, gavayaliklar, taitiyaliklar, maorlar, samoaliklar, tongaliklar va boshqa polineziya xalqlari. Fidjiliklar va boshqa melaneziyalik xalqlar. Mikroneziyaliklar, andamanlar. Papuaxalqlari, avstraliyaliklar (aborigen xalqlar), hind xalqlari. Kechua, aymera, mayya va boshqalar.

Xalqlarning rivojlanishi tarixiy – ijtimoiy hodisadir. Har bir xalq (etnos) o’z shakllanish tarixida bir qancha bosqichlarni bosib o’tgan. Etnik jarayonlar turli xalqlarning tarixida alohida o’rin egallaydi. Masalan: o’zbek millatining shakllanishi tarixini ayni bir davrdan boshlab bo’lmaydi, chunki hozirgi O’zbekiston hududida ming yillar davomida til, turmush tarzi, urf-odati va hatto dini jihatidan farq qiluvchi etnoslar va qabilalarning assimilyatsiya jarayoni kechgan.

Turli bosqinchilik urushlari bu jarayonni tezlashtirdi va rang-baranglik baxsh etdi. Bu jarayonda qadimgi davrda saklar, massagetlar, so’g’dlar, yunon-makedoniyaliklar, eron xalqlari, o’rta asrlarda qoraxitoylar, arablar, qipchoqlar, mo’g’ullar faol qatnashganlar (**10-jadval**).

#### **10-jadval. Dunyoda eng ko’p tarqalgan xalqlar va tillar (2020 yil)**

No	Dunyodagi eng yirik xalqlar	Soni (mln kishi)	Dunyodagi eng ko’p tarqalgan tillar	Shu tilda so’zlashuvchi aholi (mln kishi)	Aholisi eng ko’p davlatlar	Soni (mln kishi)
1	Xitoylar	1100	Xitoy	1100	Xitoy	1400
2	Hindistonliklar	220	ingliz	350	Hindiston	1357
3	Amerikaliklar	190	ispan	250	AQSh	329
4	Bengallar	180	arab	220	Indoneziya	265
5	Ruslar	150	hindi	200	Pokiston	212
6	Braziliyaliklar	140	bengal	160	Braziliya	211
7	Yaponlar	125	portugal	160	Nigeriya	188
8	Panjobliklar	90	rus	150	Bangladesh	167
9	Bixarliklar	90	yapon	125	Rossiya	146
10	Meksikaliklar	85	nemis	90	Meksika	126

Hozirgi paytda dunyoda 3-4 ming turli etnoslar mavjud bo’lib, ularga mansub kishilar soni bir necha o’ntadan yuz milliongacha boradi. Ayni vaqtida soni 100 mlndan ko’p bo’lgan 10 ta xalqni ajratib ko’rsatish mumkin. Ular er yuzi aholisining

50% ini tashkil etadi.

Til millatlarning farqini bildiruvchi asosiy omildir. Dunyo xalqlarida tilning shakllanishi tabiiy-geografik sharoit, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar kabi omillar ta'sirida kechadi. Kishilik jamiyatining birlamchi so'zlashuv tili qabilalar shakllangan davrlarda rivojiana boshlagan. Bunday til lug'ati juda kambag'al, grammatic jihatdan tizimlashmagan bo'lган. Ibtidoiy qabilalarning hududiy ajralishi va dunyo bo'y lab tarqalishi yangi tillarning paydo bo'lishi va rivojlanishini kuchaytirdi. Tilning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi geografik – tabiiy sharoit omili haqida juda qiziqarli fikrlar bildirilgan.

Masalan shimol xalqlarining undosh tovushlarni juft talaffuz qilishini iqlimning sovuqligi bilan izohlaydilar. Xalqlarning iqtisodiy ijtimoiy taraqqiyoti turli omillar ta'sirida har-xil kechganligi tillarning rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatgan. Shuning uchun bugungi kunda dunyoda bir necha o'nlab kishilar so'zlashuvchi, yozuv siz qabila tillari ham, bir necha millatlarga tegishli millionlab kishilar foydalanadigan, boy adabiyotga ega jahon tillari ham mavjud.

Ayni vaqtda dunyoda mavjud tillarning soni 3 ming atrofida deb hisoblanadi. Ammo ularning aniq miqdorini ko'rsatish mumkin emas, chunki juda ko'plab xalqlarning tillari to'liq o'r ganib chiqilmagan va ularning qaysi til guruhi ga mansubligi aniqlanmagan. Bunda til va lajha tushunchalarinig ba'zan chalkashish holatlari ham ko'p uchraydi.

Shunga qaramay dunyodagi tillarning klassifikasiyasini birmuncha o'r ganib chiqilgan, aytish mumkinki, dunyoda keng ishlatalidigan, shuningdek muayyan millatlar tillarining kelib chiqishi, mansublik holati aniqlangan. Shunga ko'ra dunyo aholisining milliy tarkibi xalqlarning qaysi til oilalari va til guruhlariga tegishli ekanligi bilan ifodalanadi. Imkon doirasida, soddar oq tarzda dunyo xalqlari geografiyasiga e'tibor bersak (**11-jadval**).

### **11-jadval. Dunyo xalqlari geografiyası**

Xalqlar	Asosiy yashash va tarqalgan hududi
1. Ruslar	Rossiya, MDH, AQSh, Kanada, Evropa mamlakatlari.
2. Ukrainianlar	Ukraina, Rossiya, AQSh va Kanada, Polsha.
3. Beloruslar	Belarusiya, Rossiya, Polsha
4. Polyaklar	Polsha, Fransiya, AQSh, Kanada, Ukraina, Belarusiya.
5. Chexlar	Chexiya, AQSh.
6. Slovaklar	Slovakiya, AQSh.
7. Slovenlar	Sloveniya, AQSh.
8. Xorvatlar	Xorvatiya, AQSh.
9 Bosniyaliklar.	Bosniya, Gersogovina,
10. Serblar	Serbiya, Chernogoriya, Bosniya, Xorvatiya.
11. Makedonlar	Makedoniya
12. Bolgarlar.	Bolgariya, Rossiya.
13. Litvaliklar	Litva, AQSh, Kanada.
14. Latishlar	Latviya, AQSh, Kanada.

15. Nemislar	Germaniya, Ruminiya, Vengriya, Chexiya, AQSh, Kanada, Braziliya, Rossiya.
16. German-shveysariyaliklar	Shveysariya, AQSh.
17. Avstriyaliklar	Avstriya, Italiya, AQSh.
18. Elzas va lotaringiyaliklar	Fransiya.
19. Gollandlar	Niderlandiya, AQSh, Kanada.
20. Flamandlar.	Belgiya, Fransiya, AQSh.
21. Afrikanerlar (burlar)	JAR.
22. Shvedlar	Shvetsiya, Finlyandiya, AQSh.
23. Norvegler	Norvegiya, AQSh, Kanada.
24. Daniyaliklar	Daniya, AQSh
25. Islandlar	Islandiya.
26. Inglizlar	Buyuk Britaniya, JAR, AQSh, Kanada, Avstraliya, Osiyo.
27. Shotlandlar	Buyuk Britaniya, AQSh, Kanada, Avstraliya.
28. Ingliz-avstraliyaliklar	Avustraliya va Okeaniya.
29. Ingliz-yangi zelandiyaliklar	Yangi Zelandiya.
30. Ingliz – kanadaliklar	Kanada, AQSh.
31. Amerikaliklar	AQSh, Kanada.
32. Yamaykaliklar	Yamayka, Buyuk Britaniya.
33. Irlandlar	Irlandiya, Buyuk Britaniya.
34. Bretonlar	Fransiya.
35. Uelslar	Buyuk Britaniya.
36. Italianlar	Italiya, Fransiya, Shveysariya, AQSh, Kanada, Argentina, Afrika, Avustraliya.
37. Fransuzlar	Fransiya, Jazoir, AQSh.
38. Franko-shveysariyaliklar	Shveysariya.
39. Vallonlar	Belgiya.
40. Franko-kanadaliklar	Kanada, AQSh.
41. Gaitiliklar	Gaiti.
42. Ispanlar	Ispaniya, Fransiya, Argentina.
43. Kataloniyaliklar	Ispaniya, Fransiya.
44. Meksikaliklar	Meksika, AQSh.
45. Kubaliklar	Kuba.
46. Markaziy Amerika xalqlari	Markaziy Amerika davlatlari.
47. Janubiy Amerika millatlari.	Janubiy Amerika davlatlari.
48. Portugallar	Portugaliya, AQSh, Braziliya, Angola, Yashil Burun orollari.

49. Galisiyaliklar	Ispaniya, AQSh.
50. Ruminlar	Ruminiya, AQSh, Moldova.
51. Moldavanlar	Moldova, Rossiya.
52. Albanlar	Albaniya, Serbiya.
53. Yunonlar (greklar)	Gretsiya, Turkiya, Kipr, AQSh, Kavkazorti Respublikalari.
54. Forslar	Eron.
55. Gilyanlar	Eron.
56. Kurdlar	Turkiya, Eron, Iraq, Suriya.
57. Tojiklar	Tojikiston, Markaziy Osiyo Respublikalari, Afg'oniston.
58. Xazariylar	Afg'oniston.
59. Afg'onlar (pushtunlar, urdular)	Afg'oniston, Pokiston
60. Belujlar	Pokiston, Eron.
61. Osetinlar	Rossiya Federatsiyasi, Janubiy Osetiya.
62. Bengallar	Pokiston, Hindiston.
63. Assamliklar	Hindiston, Butan.
64. Oriylar	Hindiston.
65. Bixarliklar	Hindiston, Nepal.
66. Hindistonliklar	Hindiston, Afrika.
67. Rojastonliklar	Hindiston.
68. Panjobliklar	Pokiston, Hindiston.
69. Gujoratliklar	Hindiston, Pokiston.
70. Bxillar	Hindiston.
71. Nepalliklar	Nepal, Hindiston
72. Armanlar	Armaniston, Suriya, Eron.
73. Yahudiylar	Isroil, AQSh, Evropa.
74. Gruzinlar (17 etnik guruh)	Gruziya, Rossiya.
75. Adigeylar	Kavkaz Respublikalari.
76. Abxazlar	
77. Chechenlar.	
78. Ingushlar	
79. Avarlar	
80. Ajarlar	
81. Cherkaslar	
82. Lazginlar	
83. Dog'lar	Rossiya.
84. Qorachoylar	
85. Bolqorlar	
86. Burishlar	Hindiston.

87. Basklar	Ispaniya, Frantsiya.
88. Arablar	Arab davlatlari.
89. Amxaralar	Efiopiya.
90. Isroil yahudiylari	Isroil.
91. Tigrailar	Efiopiya.
92. Galla	Efiopiya.
93. Somali	Somali.
94. Qobillar	Jazoir.
95. Tamazigtlar	Marokash.
96. Shlyoxlar	Marokash.
97. Xauslar	Nigeriya, Niger.
98. Afrika xalqlari	Markaziy, sharqiy va janubiy Afrika davlatlari.
99. Afrika xalqlari	Markaziy Afrika davlatlari.
100. Mandingolar	Gvineya qo'ltig'i davlatlari.
101. Gvineya qo'ltig'i xalqlari	Gvineya qo'ltig'i davlatlari.
102. Sharqiy Afrika xalqlari	Sharqiy Afrika davlatlari.
103. Finnlar	Finlyandiya.
104. Estonlar	Estoniya.
105. Mordvalar	Rossiya (Mordoviya Respublikasi)
106. Saamlar	Finlyandiya.
107. Loparlar	Norvegiya.
108. Marilar	Rossiya (Mari-Respublikasi)
109. Udmurtlar	Rossiya (Udmurtiya Respublikasi)
110. Karellar	Rossiya
111. Vengerlar	Vengriya, Ruminiya, Chexiya.
112. Xantlar	Rossiya.
113. Mansilar	Rossiya.
114. Komi-permyaklar	Rossiya.
115. O'zbeklar	O'zbekiston, Markaziy Osiyo Respublikalari, Afg'oniston
116. Qozoqlar	Qozog'iston, Xitoy, Markaziy Osiyo Respublikalari.
117. Turklar	Turkiya, Kipr, Bolgariya.
118. Qirg'izlar	Qirg'iziston, Markaziy Osiyo Respublikalari.
119. Turkmanlar	Turkmaniston, Markaziy Osiyo Respublikalari, Eron, Afg'oniston.
120. Ozarbayjonlar	Ozarbayjon, Eron.
121. Tatarlar	Rossiya Federatsiyasi.
122. Boshqirdlar	Rossiya Federatsiyasi.
123. Chuvashlar	Rossiya Federatsiyasi.

124. Uyg'ular	Xitoy (Uyg'ur-Sinszyan respublikasi), Markaziy Osiyo Respublikalari.
125. Mo'g'ullar	Mo'g'uliston, Xitoy.
126. Manjurlar	Xitoy.
227. Tunguslar	Rossiya Federatsiyasi.
128. Koreyslar	Koreya, Xitoy.
129. Yaponlar	Yaponiya, AQSh.
130. Xitoylar	Xitoy, AQSh.
131. Dunganlar	Xitoy.
132. Siamliklar	Tailand.
133. Lao	Laos.
134. Shan	Myanma.
135. Chjuanlar	Xitoy.
136. Tibetliklar	Xitoy.
137. Itszular	Xitoy.
138. Birmaliklar	Myanma.
139. Karenlar	Myanma.
140. Vietnamliklar	Vietnam.
141. Kxmerlar	Janubiy-sharqiy Osiyo davlatlari.
142. Santallar	Hindiston.
143. Teluglar	Hindiston.
144. Tamillar	Hindiston, Shri-Lanka.
145. Malayali	Hindiston.
146. Kannara	Hindiston.
147. Gondlar	Hindiston.
148. Andamanliklar	Hindiston.
149. Indoneziya orollari xalqlari	Indoneziya.
150. Malayaliklar	Malayziya.
151. Malgashlar	Madagaskar.
152. Polineziya, melaneziya, mikroneziya xalqlari	Okeaniya.
153. Papuas xalqlari	Papua-Yangi Gvineya.
154. Aynlar	Yaponiya.
155. Eskimoslar-aleutlar	AQSh, Rossiya.
156. Na-dene oilasi	AQSh.
157. Algonkin-vakash oilasi	AQSh, Kanada.
158. Xoka-siu oilasi	AQSh.
159. Atstek oilasi	Meksika.
160. Mayya-soke oilasi	Meksika, Gvatemala.

161. Otomi-mishteki-sapoteki oilasi	Meksika.
162. Chibcha oilasi	Kolumbiya, Panama.
163. Tupi-guarani oilasi	Paragvay.
164. Paragvay-guarani	Paragvay.
165. Kechua	Peru, Ekvador, Boliviya.
166. Aymara	Boliviya, Peru
167. Araukanlar	Chili.
168. Aravaklar	Peru, Kolumbiya.
169. Karib	Peru, Kolumbiya.
170. Pano	Peru, Kolumbiya.

Kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyoti davomida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqealari-hodisalar (bosqinchilik urushlari, mustamlakachilik, yangi erlarning o'zlashtirilishi, davlatlarning tashkil topishi va h.k.) ba'zi tillarning dunyo bo'ylab keng tarqalishi va ayrim xalqlar tomonidan rasmiy til sifatida tan olinishiga sabab bo'ldi. Bu ayniqsa ko'p asrlar mobaynida Evropa davlatlari tomonidan mustamlaka qilingan Afrika davlatlari misolida ko'rindi.

Dunyo bo'yicha keng muomaladagi tillar jahon tillari deyiladi va rasmiy muzokaralar, barcha aloqalar ushbu tillarda olib boriladi. Jahon tillari orasida ham keng va muayyan xalqlar tomonidan ishlatiladigan xillari bor. Jahon tillari: ingliz, fransuz, nemis, arab, xitoy, rus, hind, portugal, ispan tillaridir.

Bu tillarning ichida eng ko'p ishlatiladiganlari ingliz, fransuz va ispan tillari hisoblanadi. Chunonchi, dunyoning 76 mamlakati ingliz tilini rasmiy davlat tili sifatida ishlatadi. Shundan, 40 % ni Amerika davlatlari, 30 % ni Afrika davlatlari tashkil etadi. 34 davlatda fransuz tili rasmiy davlat tilidir, bu davlatlarning 60 % i Afrika qit'asida. 21 davlat ispan tilini rasmiy davlat tili sifatida qo'llaydi, bu davlatlarning 78 % i Amerika qit'asidadir.

Evropa tillari Afrika qit'asi davlatlarida keng ishlatiladi va bu mahalliy til bilan teng ravishda olib boriladi. **Ingliz tili** davlat tili sifatida: Gvineya-Bisau, Serra-Leone, Liberiya, Gana, Nigeriya, Zambiya, Namibiya, Zimbabve. Mahalliy til bilan birgalikda: Uganda, Keniya, Tanzaniya, Komor orollari, Botswana, Svazilend, Lesoto, JAR, Malavi, Seyshel orollari.

**Fransuz tili** davlat tili sifatida: Senegal, Gvineya, Kot'-di-vuar, Togo, Benin, Gabon, Kongo, Zair, MAR, Niger, Mali. Mahalliy til bilan birga: Burundi, Ruanda.

**Ingliz va frantsuz tillari birgalikda:** Kamerun, Seyshel orollari, Komor orollari.

**Arab va fransuz tillari birgalikda:** Chad.

**Arab tili:** Shimoliy Afrika davlatlari.

**Ispan tili:** Ekvatorial Gvineya

**Portugal tili:** Angola, San-Tome va Printsipi.

Turli davlatlar hududida bir-biriga yaqin bo'limgan millatlar azaldan istiqomat qilib keladi. Bu hol asrlar davomida shakllanib kelgan millatlarning ijtimoiy va iqtisodiy hayot tarzi bilan bog'liqdir. Aholisining milliy tarkibi jihatidan 5 turdag'i

davlat ajratib ko'rsatiladi: Bir millatli (asosiy millati 90 % dan ortiq bo'lган) – dunyo mamlakatlarining deyarli yarmi: Evropa, Yaqin Sharq, Lotin Amerikasi davlatlarining ko'pchiligi.

Bir millatning boshqa millatdan keskin ortiqligi kuzatiladigan davlatlar: Buyuk Britaniya, Fransiya, Ispaniya, Ruminiya, Xitoy, Mo'g'uliston, AQSh, Avstraliya Ittifoqi, Yangi Zelandiya va hokazo. Ikki millatli davlatlar: Kanada va Belgiya.

Etnik munosabatlari yaqin bo'lган murakkab tarkibli davlatlar: Osiyoda-Eron Afg'oniston, Pokiston, Malayziya, Laos, Markaziy, Sharqiy va Janubiy Afrika mamlakatlari.

Murakkab etnik munosabatlarga ega, kelib chiqishi har xil bo'lган ko'p millatli davlatlar: Hindiston (1500 ta atrofida xalqlar yashaydi), Rossiya, Shveysariya, Indoneziya, Filippin, G'arbiy va Janubiy Afrikaning ko'plab davlatlari.

## **4 BOB. MEHNAT RESURSLARI VA ULARDAN FOYDALANISH**

### **4.1.Mehnat resurslari va ularning tarkibi**

**Aholining o'z jismoniy** va ma'naviy imkoniyatlariga ko'ra mehnat qila olish qobiliyatiga ega bo'lган qismi jamiyatning mehnat resurslari hisoblanadi. Odatda aholi mehnat faoliyatiga munosabati nuqtai nazaridan 3 guruhga bo'linadi:

- 1) mehnat yoshigacha bo'lган guruhi – bolalar va o'smirlar;
- 2) mehnat yoshidagi guruh – mamlakatning asosiy mehnat resurslari;
- 3) mehnat yoshidan o'tgan aholi.

Mehnat resurslarining soni turli mamlakatlarda turlicha, chunki aholining yuridik jihatdan belgilab qo'yilgan va mehnat resurslariga kiritiladigan yosh chegarasi hamma mamlakatlarda bir xil emas. Xalqaro statistikada, odatda, 15 yoshdan 64 yoshgacha bo'lганlar **mehnatga yaroqli** aholi hisoblanadi. O'zbekistonda esa 16 yoshdan 60 yoshgacha bo'lган erkaklar va 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lган xotin-qizlar **mehnat yoshidagi aholi** sanaladi va mamlakatning asosiy mehnat resurslari hisoblanadi. Bu yoshdagagi aholining hammasi ham ishlaydi deb bo'lmaydi, albatta. Masalan, ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qiyotganlar va salomatligi tufayli ishlay olmaydigan nogironlar va hokazolar shular jumlasidandir. Aksincha, nafaqa yoshidan oshib ketgan keksalar shuningdek, hali 15 yoshga to'limgan ba'zi o'smirlar ham ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etadi. Bu **mehnatga qobiliyatli** aholi tushunchasini kiritishni taqozo qiladi. Mehnatga qobiliyatli aholi deganda, har qanday mamlakatning yoshidan qat'i nazar real mehnat resurslari tushuniladi.

Mehnatga yaroqli aholi, o'z navbatida, ikki guruhga bo'linadi: iqtisodiy aktiv aholi va iqtisodiy aktiv bo'limgan aholi.

**Iqtisodiy aktiv aholi**-deganda mehnatga yaroqli aholining ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etayotgan, o'z mehnati tufayli daromad oladigan qismi va ishlashni xoxlaydigan, ammo ish yo'qligidan vaqtincha ishlamayotgan qismi tushuniladi.

**Iqtisodiy aktiv bo'limgan aholi**-tushunchasi hamma mamlakatda bir xil ma'no bermaydi. Ba'zi bir davatlarda ishsizlar va yarim ishsizlar ham iqtisodiy aktiv

aholi hisoblanadi. Bu esa, iqtisodiy aktiv aholi tushunchasining haqiqiy ma'nosiga to'g'ri kelmaydi.

Mehnatga yaroqli aholining o'z yordamchi xo'jaligida band bo'lган, vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qotgan va o'qishda va armiya xizmatida bo'lishi tufayli ishlamayotgan hamda ish qidirmayotgan qismi **iqtisodiy aktiv bo'lмаган aholi** hisoblanadi. Har bir mamlakatda yoki mamalakatlar guruhida mehnat resurslarining soni, tarkibi va o'sish sur'atlari aholining takror barpo qilinish jarayonining xususiyatlariga va aholining yosh tarkibiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Chunki, mehnat resurslari sonining o'sishi, asosan, aholining tabiiy o'sish hisobiga bo'ladi. Dunyoning ayrim mamlakatlarida mehnat resurslarining soni mexanik harakat (migratsiya) hisobiga ham o'zgaradi.

Masalan, ayrim mamlakatlardan (ko'proq rivojlanayotgan qoloq mamlakatlardan) mehnatga yaroqli bo'lган aholi ish qidirib, boshqa mamlakatlarga boradilar. Jumladan, G'arbiy Evropa mamalkatlarida (Germaniya, Angliya va boshqalar) boshqa mamlakatlardan kelgan ishchi kuchidan foydalanish ayniqsa keng tarqalgan. Chunki, boshqa mamlakatlardan kelgan ishchilar bu davlatlar uchun eng arzon ishchi kuchi hisoblanadi. Shunday qilib, ayrim mamlakatlar mehnat resurslarining soni migratsiya hisobiga ham ko'payishi yoki kamayishi mumkin.

Rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy aktiv aholining xalq xo'jaligi tarmoqlarida taqsimlanishi bir xil emas, ayrim mamlakatlarda bir-biridan keskin farq qiladi. Yuksak tarqqiy etgan mamalkatlarda iqtisodiy aktiv aholining ko'pchilik qismi moddiy bo'lмаган ishlab chiqarish sohalarida (savdo, moliya, maishiy xizmat doirasida) ishlaydi. Masalan, AQSh, Kanadada. Ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarda sanoatda ishlovchilarning salmog'i keyingi yillarda deyarli stabillashib qoldi, ba'zi mamlakatlarda (AQSh, Kanada, Buyuk-Britaniya, Belgiya, Avstriya) xatto kamaya boshladi, aksincha ba'zi bir mamalkatlarda sanoat va qurilishda band bo'lган ishchilarning soni va salmog'i oshib bormoqda.

**Mehnat resurslarining** tarkibi aholining yosh tarkibiga bog'liq. Aholi mehnat resurslari nuqtai nazardan quyidagi yosh guruhlarga ajratiladi: 0 – 14 yosh; 15 – 64 yosh; 65 yosh va undan kattalar.

O'zbekistonda: 0 – 15 yosh; 16 – 60 erkaklar; 16 – 55 ayollar; 61 yosh va undan katta (erkaklar) va 56 yosh va undan katta (ayollar).

Mamlakatlardagi iqtisodiy aktiv aholining xalq xo'jaligi tarmoqlarida taqsimlanishi bir-biridan farq qiladi. Avvalo shuni aytish kerakki Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasining rivojlanayotgan mamlakatlarida tug'ilishning ham yuqoriligi, o'rtacha umr muddatini pastligi tufayli aholi tarkibida mehnat resurslarining salmog'i kam. Masalan butun dunyo bo'yicha 54%, Evropada 62-64 %, Amerikada 56-58 %, Osiyoda 53-54 %, Avstraliyada 56-58 %, Okeaniyada 56-58 % tashkil etadi.

Mehnat resurslari mehnat faoliyati holatiga ko'ra quyidagi guruhlarga **bo'linadi**:

- 16-19 yoshlilar–bu davr majburiy holda mehnat resurslarini ishlab chiqarish hisoblanadi;
- 20-29 yoshlilar–bu davrda mehnat resurslari kuch va faqat mehnatga tayyorlanishadi;
- 30-39 yosh – bu davrda aholi aktiv mehnat resurslari hisoblanadi;

-40-49 yosh – bu mehnat resurslarining o’rtaligida bo’lib to’plangan bilim ko’nikma va malakalar ishlab chiqarishga jalb etiladi;

-50-59 yosh – mehnat resurslarining katta davri bo’lib, mehnat unumdarligi pasaya boradi.

**Mehnat resurslaridan** foydalanishda aholining to’la ish bilan, mavsumiy ish bilan taminlash mumkin. Ishsizlik sabablari–ish o’rinlarining etishmasligi “texnologik ishsizlik”, “agrар aholini ortiqchaligi” bilan izohlanadi. O’zbekiston respublikasida iqtisodiyot tarmoqlari bo’yicha aholi bandligi taxminan quyidagicha:

1. Sanoatda – 13,5 %;
2. Qishloq va o’rmon xo’jaligida 27,3 %;
3. Transport va aloqada 4,8 %;
4. Qurilishda 9,5 %;
5. Savdoda 11,0 %;
6. Sog’liqni saqlashda 4,5 %;
7. Ta’limda 8,2 %;
8. Boshqa sohalarda 21,2 %.

O’zbekiston aholisining yosh tarkibi **taxminan**:

1. 0-15 yoshlilar 30,3 %;
2. 16-60 yoshli erkaklar, 16-55 yoshli ayollar 59,5 %;
3. 60 yoshdan katta erkaklar, 55 yosh va undan katta ayollar 10,2 % tashkil qiladi.

Respublikamiz mehnat resurslarini (yoki iqtisodiy faol aholini) soni ko’p biroq ularning jami aholi tarkibidagi ulushi oz. Buning sababi tug’ilish va tabiiy ko’payishning yuqoriligidadir. Natijada “demografik yuk” yoki mehnatga layotqasizlar nisbati o’ziga xos. Masalan, agar Baltika davlatlarida oilada 3 kishidan 2 kishi ishlasa, bizda aksincha 6 kishidan 2 yoki 3 kishi ishlashi mumkin.

Keyingi yillarda mamlakatda yangi ish o’rinlari yaratishga katta e’tibor qaratilmoqda. Ularning asosiy qismi qishloq joylarga to’g’ri kelgan. Umuman olganda esa mehnat resurslaridan to’la va samarali foydalanish muhim muammo hisoblanadi. Bu muammo eng avvalo davlatning “bandlik” dasturi doirasida hal etilib boriladi.

Bugungi kunda oilaviy tadbirkorlikka bandlikni ta’minlash, aholi farovonligini yuksaltirishning eng muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Oilaviy biznesning o’ziga xosligi shundaki, u ko’p asrlik oilaviy an’analar, qadriyatlar bilan uyg’un rivojlanadi. Misol uchun, Angliyadagi oilaviy biznes korxonalarining to’rtadan bir qismi qariyb to’rtta avloddan beri o’tib kelar ekan. Shvetsiyada mehnat bilan band aholining 61 foizi oilaviy tadbirkorlik sohasida ishlayotgani ham uning nechog’li katta ahamiyatga ega ekanligidan dalolatdir.

**Mehnat resurslarining shakllanishi va ulardan samarali foydalanish borasidagi islohotlar.** Mamlakatimizda aholining 60 % ga yaqinini mehnat resurslari tashkil etadi. Mehnat resurslari jismoniy va aqliy qobiliyatga ega bo’lib, mehnat jarayonida moddiy ne’mat va xizmatlarni yaratadi. Mehnat resurslari tarkibiga kiritilgan, ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etmayotgan nofaol aholi esa mehnat zaxirasini tashkil etadi. Chunki vaqt kelib ular ham iqtisodiy faol aholi tarkibiga qo’shilishi mumkin. Davlat statistika qo’mitasining ma’lumotlariga ko’ra,

O'zbekiston Respublikasida aholi va mehnat resurslari soni muntazam ko'payib bormoqda.

Xulosa qilib aytganda, "o'zbek modeli" ning tadrijiy taraqqiyot kontseptsiyasini amalga oshirishda iqtisodiyotning mafkuradan xoli bo'lishi, demokratik islohotlarni bosqichma-bosqich joriy qilish, qonun ustuvorligini ta'minlash, davlatning bosh islohotchi sifatidagi rolini tan olish va o'tish davrida uning ta'sirini oshirish, mamlakatimizning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, kuchli ijtimoiy siyosat yuritish kabi tamoyillar asosida amalga oshirilmoqda.

*O'zbekiston taxminan mehnat resurslarining holatiga ko'ra 3 ta hududiy birlikka ajratiladi:*

-Farg'ona vodiysi, Samarqand viloyati, Xorazm viloyati. Bu erda ortiqcha mehnat resurslari mavjud, ish o'rnlari kam.

-Mirzacho'l, Buxoro Navoiy hududi. Bu erda ishchi kuchi kam, ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun esa tabiiy resurs omili etarli.

-Toshkent hududi. Bu erda ishchi kuchi ham, ish o'rnlari ham ko'p.

Hech kimga sir emas, mamlakatimizning o'ziga xos xususiyatlari, avvalo, demografik jihatlariga ko'ra, aholi bandligi masalalari o'zining dolzarbligi va o'tkirligini saqlab qolmoqda, desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi.

## **4.2. Demografik jarayonlar va mehnat resurslarining shakllanishi**

Mehnat resurslari soni va sifati mamlakatlar iqtisodiyotida muhim o'rinni tutadi. 2020 yilda O'zbekistonda mehnat resurslari jami aholining 59,5 foizini tashkil etdi. 2000 yildan keyingi davrda mehnat resurslari soni yiliga taxminan o'rtacha 400 ming kishiga ortib bormoqda. O'tgan yillarda O'zbekistonliklarning o'rtacha umri 67 yoshdan 73 yoshga uzaydi. Ayollar – munis onalarimizning umri 75 yoshdan oshdi, davlatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan belgilanuvchi mazkur omil, o'z navbatida, uni rivojlantirish va taraqqiy ettirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Respublika aholisining soni 2020 yilda 34,4 mln. kishini tashkil etdi. Hozirgi kunda mamlakat aholisining o'sishi–yiliga taxminan o'rtacha 1,8 % ga teng.

O'zbekiston aholisining yosh tarkibi **taxminan**:

1. 0-15 yoshlilar 30,3 %;
2. 16-60 yoshli erkaklar, 16-55 yoshli ayollar 59,5 %;
3. 60 yoshdan katta erkaklar, 55 yosh va undan katta ayollar 10,2 % tashkil qiladi.

O'zbekistonda aholining taxminan 30,3 foizini 15 yoshgacha bo'lганлар ташкил qiladi. 2018 yilda aholining tabiiy o'sishi har 1000 kishiga 18,6 kishini tashkil qildi. 2020 yilning boshida qishloq joylarda 16,8 mln. kishi yoki mamlakat aholisining 49,4 foizi yashadi. Qishloq aholisining umumiy tarkibida taxminan 8,8 mln. kishi yoki 54,08 foiz aholi mehnat qilish qobiliyatiga ega bo'lgan yoshda. Shundan 5,5 million kishi (70,5 foizi) ish bilan band. Statistik ma'lumotlarda qayd etilishicha, taxminan band aholining 30,9 foizi qishloq xo'jaligiga to'g'ri keladi. Aholi to'g'risidagi bu ma'lumotlar uning respublika qishloq xo'jaligi uchun naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini belgilab beradi.

Shuningdek, mehnat resurslari bandligi borasida ayrim hududiy

nomutonosibliklar ham mavjud. Bu nomutonosibliklar qishloq xo'jaligida yangi xo'jalik yuritish shakllarining rivojlanishi bilan o'z echimini topadi. Qishloq joylarda mehnat bazalarining asosiy muammosi-ish o'rinarining talab darajasidan pastligidir. Bu uzoq davrlar davomida qishloq xo'jaligining barcha sohalari etarli darajada rivojlanmaganligi sababli paydo bo'lgan.

Bunday nomofiqliklar ishsizlik, ishslashni xohlaydigan, lekin turli sabablarga ko'ra bandlik xizmatlarida ro'yxatga olinmagan mehnatga layoqatli yoshdag'i aholi to'planganligi bilan bog'langan.

Qishloq joylarda mehnatni qo'llash sohalarining kamligi tufayli ish kuchiga bo'lgan talabning pastligi amalda respublikaning barcha mintaqalariga xos xususiyat bo'lib, ishchi kuchlarining qo'shni davlat Qozog'iston va Rossiyaga yashirin migratsiyasi ham shu xususiyatlarga bog'liq bo'lmoqda.

Ma'lumki, Sobiq Ittifoq parchalanib, uning o'rnida paydo bo'lgan mustaqil suveren davlatlarda 25 million rus millatiga mansub aholi bor edi, hozirgacha ularning ko'pchiligi Rossiyaga ko'chib o'tdi. Rossiya hozirgi kunda MDH davlatlari orasida ishchi migrantlari oqimi qaratilgan davlat bo'lib qolmoqda va kelajakda ham shunday bo'ladi. Mualliflarning fikricha, bunga quyidagi omillar sabab bo'lmoqda:  
-birinchidan, Rossiyadagi demografik vaziyat, masalan, 2003 yil Rossiyada tug'ilish koeffitsienti har ming kishiga 9,0 %, o'lim esa 15,0 % ni, tabiiy ko'payish manfiy 6,0 % ni tashkil etgan;  
-ikkinchidan, Rossiyaning bepoyon hududidagi tabiiy resurslarning o'zlashtirilishi;  
-uchinchidan, MDH davlatlaridagi aholining ko'pchiligi rus tilida gaplasha bilishidir.

Rossiya uchun hozir ham, kelajakda ham Markaziy Osiyo respublikalari asosiy ishchi kuchi bilan ta'minlaydigan mamlakatlar bo'lib qoladi, chunki ushbu respublikalarda hali ham tug'ilish darajasi ancha yuqori.

O'zbekiston Markaziy Osiyoda tabiiy o'sishning yuqoriligiga ko'ra, boshqa mamlakatlardan farq qiladi. 2018 yilda noqonuniy migrantlar soni Rossiyada—1,3-1,5 mln. kishini, Qozog'istonda 200 ming kishini, O'zbekistonda 30 ming kishini tashkil etgan. Shu o'rinda, O'zbekistondan Rossiyaga borib ishlab yashirin migratsiyani hosil qilayotganlar soni 231 ming kishini tashkil etadi. MDH davlatlari o'rtasida sodir bo'layotgan migratsiya tebranma (mayatniksimon migratsiya) xususiyatiga ega.

Markaziy Osiyo davlatlaridan MDHning boshqa hududlari jumladan, Rossiya, Ukrainaga ishslash uchun ketayotganlar orasida vrachlar va boshqa yuqori ixtisoslashgan mehnat resurslarining ketishi o'z mustaqilligi uchun kurashayotgan va ayni paytda shu kabi mutaxassislarni tayyorlashda katta mehnat sarflayotgan bu davlatlar uchun salbiy yo'qotish hisoblanadi.

Ayrim statistik prognozlarga ko'ra, 2030 yilga borib, Rossiyada 11 mln., Qozog'istonda 6 mln. mehnat resursiga ehtiyoj ortadi. Shu bois, MDH mamlakatları migratsiya xizmatlarini amalga oshiruvchi muassasalari sodir bo'layotgan noqonuniy migratsiyaga chek qo'yishlari uchun hamkorlik doirasini kengaytirishlari lozim bo'ladi.

Bizga ma'lumki, 200 ota-onaga 265 tug'ilish aholining qayta barpo bo'lishini 100 % ta'minlaydi. Biroq, ko'payishiga olib kelmaydi. Bugungi kunda aholisi o'sishdan kamayishga o'zgarayotgan Rossiya uchun 1,20 koeffitsienti lozim bo'ladi. Bu har 100 samarali oila uchun 320 tug'ilishning ta'minlanishi demakdir.

Ko'p sonli egizaklarning tug'ilishi dunyo miqyosida ko'p qayd etilgan. Ko'pgina holatda bunday egizaklar yashab ketishi qiyin bo'lган va o'lim bilan yakun topgan. Beshtadan egizaklarning tug'ilishi bir necha 10 marta yuz bergan. Shundan 15 holatda ular yashab ketishgan. Masalan, 1934 yilda Kanadada, 1943 yilda Argentinada, 1971 yilda Polshada bu kabi bolalar tug'ilishi ijobiy yakun topgan.

X.Zayonchkovskayaning fikriga ko'ra, Rossiya tabiiy o'sishdagi tendentsiyaga ko'ra, immigrantlarga doimo ehtiyojda bo'ladi. Uning fikriga ko'ra, faqatgina mamlakat iqtisodiyoti krizidan chiqmagandagina immigrantlarga ehtiyoj sezilmaydi. Rossiya iqtisodiyotining rivojlanishi barqarorlashgan sayin immigrantlarga ehtiyoji ortib boradi.

XIX-XX asrda AQSh immigratsiya davlati bo'lganligi singari XXI asrda Rossiya dunyoda immigratsiya mamlakatiga aylanadi. 2018 yilda Rossiya aholisining barqaror o'sishi va migratsiya oqimining yuqori bo'lishiga qaramay ishsizlik yoki ishga joylashishda muammolar yuz berdi. Bu mehnat yoshidagi aholining kasb egallash salohiyati bilan bog'liq bo'ldi. Ishlab chiqarish quvvati 1990 yillar darajasiga etmasada, hozirda mehnat resurslarining etishmasligi mamlakat iqtisodiyotini turg'unlashtirmoqda. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025 yilda sanoatda mehnat resurslarining 1/4 qismi to'lmay qoldi.

Rossiya XXI asr o'rtalariga qadar hozirgi aholi ko'rsatkichlarini saqlab qolish uchun, u 50 yil davomida 35-70 mln. immigrant qabul qilishi lozim. Shundagina aholining qayta barpo bo'lishi 700 ming kishiga o'sadi. Joriy 5 yillikdan 2025 yilga qadar 1200 kishiga ortadi. 1990 yillarda Rossiya ko'chib keluvchilar oqimi yuqori bo'lgan davrda ham aholi ko'rsatkichlaridagi tabiiy yo'qotishni qoplay olmadi.

1989 yillarga nisbatan aholining qayta barpo bo'lishini taqqoslaganda, agar immigratsiya oqimi yuqori bo'lmasganda edi, hozirda Rossiya aholisi 7,4 mln. kishiga yoki 5 foizga qisqarishi mumkin edi. Aholining qayta barpo bo'lishi migratsiya hisobiga 1/4 tabiiy yo'qotishni qopladi. Shu bois, Rossiya aholisi atigi 18 mln. kishiga yoki 1,25% ga qisqardi.

1991-2018 yillar davomida dunyo miqyosida migratsiya intensivligi yuqori bo'ldi. Bu davr davomida AQSh 924 ming, Germaniya 865 ming, Rossiya 781 ming immigrant qabul qildi. 1989-2018 yillardagi statistik tahlillarga ko'ra, Rossiya aholisi migratsiya hisobiga 5560 ming kishiga o'sdi va aholining migratsiya hisobiga o'sishi esa, yiliga 400 ming kishini tashkil etadi, bu 1980 yillarga nisbatan ikki hissa yuqoridir.

1990 yillarda Rossiya aholisining migrations o'sishi asosan Qozog'iston bilan bog'liq bo'ldi. Keyingi o'rinni Markaziy Osiyo mamlakatlari egallagani holda, ularning ulushi 1/3 qismini tashkil etdi. Keyingi o'rirlarda Kavkaz orti mamlakatlari (20 foiz atrofida), Boltiq bo'yi davlatlari (5 foiz) hamda Ukraina, Moldaviya (9 foiz). Sobiq Ittifoq mamlakatlaridan ko'chib kelgan migrantlarning aksariyat qismini ruslar tashkil etgani holda ularning ulushi 1992 yillarga qadar 60 foizdan kam bo'lmasgan. Migrantlarning 10 foizdan yuqorisi boshqa etnik guruhlar hisobiga to'g'ri keldi.

Hozirgi davrda sobiq Ittifoq respublikalaridagi 1989 yilga qadar yashagan 25,3 mln. etnik ruslardan 3,3 mln. kishi Rossiyaga ko'chib o'tgan. Qirg'iziston, Turkmaniston, O'zbekistondan kelgan migrantlarning umumiy soni 1,5 mln. kishini tashkil etgani holda, bu shu mamlakatlarda yashayotgan 2 mln. ruslarni qisman

o'rnini bosadi.

Immigrantlar sonini har ming kishiga hisoblaganda Rossiya hisobiga 5,4 kishi tashkil etgan holda, Germaniya (10,6)dan keyingi o'rinda va faqat AQSh (3,5) Rossiyadan keyingi o'rinda turadi. Shu yillar davomida Qozog'iston hududidagi 20 foiz ruslar ko'chib ketishgan. Bu davrdagi Qozog'istondan Rossiyaga ko'chib ketuvchilar soni Qozog'istondagi iqtisodiy ahvol bilan bog'liq bo'ldi. 1994 yil Qozog'istondan ruslarning 20 foizi ko'chib ketishga tayyor edi.

1997 yil 1/3 qism ruslar ko'chib ketishni xohlashgan, keyinchalik ko'chib ketuvchilar soni qisqara borgan. 1994-2018 yillar davomida Rossiyadagi migratsiya saldosi 810 ming kishini tashkil etgani holda, bu ko'chib keluvchilarning 1/4 qismini tashkil etadi va shundan 39 foizi ukrainlar, 45 foizi kavkazliklar va Markaziy Osiyo etnik guruhlaridan kelishgan. 1994 yilda Rossiya aholisining migratsion o'sishi 810 ming kishiga etdi. Keyinchalik 2018 yilga kelib, 72 ming kishigacha pasaydi.

Hozir Rossiyada Yaqin va Uzoq xorijdan kelgan immigrantlardan tashqari, taxminan 145 mln. kishi yashaydi. Migratsiya o'zgarishlari aholi sonida tebranma ko'rsatkich hosil etadi Shuning uchun erkaklar 47 foizni, ayollar esa 53 foizni tashkil etadi. Agar mamlakatning barcha aholisini ikki guruhga bo'lganda, o'rta yosh 35 yoshni tashkil etadi va 35 yoshdan yoshroq aholi tarkibida erkaklar va ayollar soni deyarli tenglashadi. 2018 yilda 35 yoshgacha bo'lgan erkaklar 34,5 mln., ayollar 33,4 mln. kishini tashkil etgan.

Yaqin 5 yil, 10 yil va 15 yil ichidagi Rossiya aholisining o'zgarish prognozi Davlat statistika qo'mitasi ikkita variantni e'lon qilgan. Bu o'rtacha variant (prognoz A.E.Surinov) 134 mln., fojeali prognoz 125 mln. N.M. Rimashevskiy prognozi bo'yicha 2015 yilda aholi 132-134 mln. kishi bo'lishi ta'kidlanadi. 2011 yil ma'lumotiga ko'ra Rossiya aholisi-142294824 kishi.

Hozirda malakali ishchilar uchun ish o'rirlari va to'lovlarning pasayishi o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Dunyo bo'yicha davom etayotgan tendensiyaga ko'ra, yuqori to'loqli ish o'rinnarining qisqarishi kuzatilmoqda. Bu davrda malakali ishchilar bir vaqtning o'zida o'zi va oilasini ta'minlash uchun bir necha o'rta va kam to'loqli ishlarda ishlashiga to'g'ri keladi.

Bu qatlama kiruvchi intilegentlar va xizmatchilar yanada murakkab vaziyatlarda qolishadi. Asosan ta'llim sektorida xizmat qiluvchilar, o'qish yoshidagi aholi qatlaming kamayishi hisobiga 10 minglab tarbiyachi o'qituvchilar ish o'rinnarini yo'qotadi. Demografik jarayonlar ham tabiat qonunlari singari murakkab tuzilishga ega. Demografik siyosat qanday bo'lishiga qaramay, u doimo o'zining o'ziga xos xususiyatlarini namoyon qilib turadi. G'arbiy Evropadagi singari Rossiya aholisida ham 65 yoshdan oshganlar yaqin kelajakda jami aholining 1/5 qismini tashkil etadi.

XX asr boshlarida 20 yillardan boshlab, Qozog'istonning asosan shimoliy qismida quloq qilinganlar, keyinchalik koreyslar, polyaklar, nemislар o'rnasha boshlashdi. 1950-yillarga kelib esa bir necha yuz minglab, aslida qishloq xo'jaligi hashari uchun kelib, keyinchalik o'rnashib qolganlar hisobiga aholi soni orta bordi. Natijada 1926 va 1939 yillar davomida chetdan kelgan aholi 2,8 mln.dan 3,8 mln. kishigacha o'sdi. Shu davrda tub qozoqlar soni 3,7 mln. dan 2,3 mln. gacha yoki 38% ga qisqardi. Bu natijaga sobiq Sovet hukumati sun'iy ocharchilikni tashkil etish

hisobiga erishdi. 1927-1938 va 1939-1958 yillardagi aholi ro'yxatida Qирг'изистонда yashovchi o'zbeklar ulushi 20 % dan yuqori bo'lган. Ayniqsa, Farg'она vodiysi chegarasidagi O'sh viloyatida asosan o'zbeklar ulushi sezilarli darajada yuqori bo'lган. Bu davrda Qozog'iston va O'zbekiston respublikalari poytaxtlarida tub aholi shunga muvofiq ravishda 40,3 % va 16,3 % rus millatiga mansub aholi 33,8 % va 65,3 % ni tashkil etgan.

1959 yildagi o'tkazilgan aholi ro'yxatiga ko'ra, Qozog'iston mintaqasidagi eng ko'p millatli respublikaga aylandi. Bu davrda tub aholi, ya'ni qozoqlar respublika aholisining 30%ini tashkil etdi. Bu davrda respublikada ruslarning ulushi biroz kamaydi va jami aholining 42,7 % ini tashkil qildi va boshqa millat vakillari ulushi 27,3 % ni tashkil etdi. 1970-1979 yillardagi davr oralig'ida ham shu holat deyarli saqlanib qolgan. Bu davrda ruslarning respublikadagi ulushi 40,8 % ga tushgan. Boshqa omillar ta'sirida qolgan millatlar ulushi ham 23,2% ga qisqargan.

Bu davrlar mobaynida Qирг'изистондаги aholining etnik tarkibi dinamikasini baholaganda ham shunday holat kuzatiladi. Bu respublikaga albatta qulq qilinganlar jo'natilmagan bo'lsada, Markaziy Osiyo xalqlari (o'zbeklar, qozoqlar, tojiklar, uyg'ular, dunganlar) ning ulushi yuqori bo'ldi. Bu davrda ruslarning ulushida ham birmuncha o'sish yuz berdi. Rus millatiga mansub mehnat resurslari rejalshtirilgan iqtisodiy davrdagi ko'chirilishi oqibatida respublikaning tub aholisini milliy ozchilik darajasiga tushirib qo'ydi.

#### **4.3. Aholining yosh-jins tarkibi va mehnat resurslarining shakllanishi**

Aholining yosh jins tarkibi unga xos belgilar ichida eng muhimi hisoblanadi. Chunki ishga qarab aholining jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati baholanadi. Butun dunyoda erkaklarning soni ayollarnikiga nisbatan qariyb 30 mln.ga ko'proqdir. Lekin ayrim materiklar, regionlar va erkaklar bilan ayollar soni o'rtasidagi farq sezilarli tusga ega. Bolalar yoshlarida barcha materiklar va hududlarda o'g'il bolalarning ustunligi ko'zga tashlanadi.

Dunyoda 9-14 yoshda har ming qizga 1040 o'g'il bola to'g'ri keladi. Ushbu ko'rsatkich Evropada (1060) Osiyoda (1050) hamda Avstraliya va Okeaniyada (1059) undan ham yuqori. Faqat Afrika (1008) va Amerika (1029) da nisbatan past daraja bilan ifodalanadi. Bolalar sonidagi farqning kelib chiqishida tug'ilgan har ming go'dakning 520 tasi o'g'il bolalardan iborat bo'lishligi omili hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Aholining asosan mehnatga layoqatli yoshdagi qismidan tashkil topgan 15-65 yoshida dunyo bo'yicha har 1000 ayolga 1020 ta erkak to'g'ri keladi. Evropada erkaklar soni ayollar soniga teng. Osiyoda har 1000 ayolga 1049 ta erkak Avstraliya va Okeaniyada esa 1039 erkak to'g'ri keladi. Mazkur ko'rsatkich Afrika (979 erkak) va Amerika (990 erkak) da aksincha ayollar ustunligi bilan ifodalanadi. Yuqoridai yosh guruhlarida erkaklar bilan ayollar o'rtasida mavjud bo'lgan farqlar juda ko'p omillar ta'sirida shakllangan. Bunda dunyo va hudud hamda mamlakat doirasidagi urushlar erkaklar bilan ayollarning jamiyatda tutgan o'rni, ularning o'rtacha umr davridagi farqlar va boshqa omillarning roli juda kattadir.

Dunyo aholisining tarkibida bolalar ulushi kamayib, mehnatga layoqatli yoshdag'i va aholi salmog'i ko'paymoqda. Binobarin, 1970-1999 yillarda 0-14 yoshdag'i bolalar ulushi 36,6 da 31 foizgacha kamaydi. Mehnatga layoqatli yoshlarda aholi salmog'i 57,7 dan 62,0 foizga etdi.

Keksa aholining ham salmog'i 7,0 foizni tashkil etdi. Xitoy, Hindiston va boshqa qator mamlakatlarda erkaklar soning ustunligi ayollarning jamiyatda tutgan murakkab, ba'zi xollarda ayanchli o'rni hamda mazkur mamlakatlarda oila o'g'il bolani ko'rishga bo'lgan juda katta intilish va ana shu maqsadga erishishda har qanday choraga hatto endi tug'ilgan qizni o'ldirishgacha borishga tayyorligi bilan bog'langan.

Aholi jinsiy tarkibining shakllanishida dunyo ayrim region va mamlakatlar miqyosida bo'lib turuvchi migratsion aloqalarning roli ham kattadir. Evropa va Shimoliy Amerika emigrantlarni qabul qiluvchi, Osiyo va Afrika emigrantlarni etkazib beruvchi hisoblanadilar. Dunyo aholisining yosh tarkibi ham katta hududiy farqlarga ega. Bunda tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari dinamikasi hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti prognozlariga ko'ra, 2005 yilga borib Rossiya aholisi 137 mln. kishigacha kamayadi. Rossiya Davlat statistika qo'mitasi prognozlariga ko'ra, mamlakatda 12 yil ilgariroq ya'ni 2013 yilga qadar bu holat yuz berishi hamda 2030 yilda 135 mln. tashkil etishi kutilmoqda. 2006 yilga qadar mehnat resurslari o'rnidagi aholining pensiyaga chiqishi mehnat resurslari o'rnini to'ldiruvchi avlodning (4 mln.) ular o'rnini egallashiga sabab bo'ldi. Biroq, kelgusida mehnat resurslarining o'rnini to'ldirishda bu darajadagi konyuktura yuz bermaydi. 2006-2015 yillarda mehnatga yaroqli yoshdag'i aholi 10 mln. kishini tashkil etgani holda, har yiliga 1 foizdan ortiq mehnatga yaroqli aholi kamayib boradi.

Rossiya tarixida tug'ilishning yuqoriligidagi xos ko'plab misollar keltirish mumkin. XVIII asrning ikkinchi yarmida yashab o'tgan Fedor Vasilev 87 nafar o'g'il-qizlarning otasi sifatida tarixda qolgan. U birinchi xotinidan 4 marta 4 nafardan, 7 marta 3 nafardan, 16 marta egizaklar dunyoga kelgan. Ikkinci xotini 2 marta 3 nafardan, 6 marta 2 nafardan farzand sovg'a qilgan.

Demografik jarayonlarni nazorat qilishni AQSh professori K.Boulding «XX asrning mazmuni» deb atagan. Bu borada Robindranat Tagor «Tug'ilishni nazorat qilishdagi harakat – buyuk harakatdir» deya e'tirof etgan. O'z davrida demograflarning umumiy qiziqishlarini «Yapon mo'jizasi» o'ziga tortdi. 1947 yildan 1961 yilgacha bo'lgan davrda Yaponiyada tug'ilish ikki martaga qisqardi. Tug'ilishning bu darajadagi qisqarishi deyarli barcha mintaqalarida tug'ilish ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan Osiyo uchun hayratlanarli edi. Albatta bunga mamlakatdagi madaniyatning o'sishi, sanoatning rivojlanishi, sanoat ishlab chiqarishiga ayollarning jalb etilishi o'z ta'sirini ko'rsatdi. Rossiyada birinchi jahon urushi arafasida, ya'ni 1913 yilda 7235000; ikkinchi jahon urushidan 15 yil keyin, 1960 yilda 2341000; 1971 yilda 4372000 bola tug'ildi. Bu davrlar mobaynida mamlakat aholisi 80 mln. kishidan ortib ketdi. D.I.Mendeleev 39 yoshli onaning 17 chi farzandi bo'lgan. U buyuk kashfiyotni amalga oshirganda aka-opolarining ko'pchiligi olamdan o'tib ketganligi manbalarda qayd etilgan.

## **5 BOB. AHOLINING JOYLAshUVI VA UNING GEOGRAFIK SHAKLLARI**

### **5.1. Aholining hududiy taqsimlanishi va zichligi**

**Aholining hududiy joylanishi**—er yuzining kishilar tomonidan o’zlashtirilishi bilan bog’liq bo’lgan juda uzoq tarixiy jarayonning natijasidir. Er sharinig turli qisimlarida, turli mamlakatlarda aholining hududiy joylashishi va zichligi tarixiy, ijtimoiy – iqtisodiy va tabiyi omillar ta’sirida vujudga keladi. Bu asosiy omillar dunyoning turli qisimlarida ham, hududiy va ham vaqt nuqtai nazardan bir xil emasligi va hech qachon bunday bo’lmasligi o’z – o’zidan ma’lum. Shuning uchun ham turli kontinentlarda, uning zichligida katta farqlar mavjud. Odatda aholining hududiy joylashuvini har bir kvadrat kilometrga to’g’ri keladigan aholi soni bilan ko’rsatiladi.

Er sharida aholining o’rtacha zichligi har kv km ga taxminan 57 kishi to’g’ri keladi. Ammo dunyoning turli qisimlarida aholining zichligi turlichadir. Dunyoning ayrim hududlarida zichlik juda yuqori Germanianing Rur havzasida, angliyaning Midlend rayonida o’rtacha zichlik 1000 kishiga etadi. AQShning Atlantika sohilidagi katta hududda (Bostondan Vashingtongacha) o’rtacha zichlik 300 kishidan ortiq.

Bu hududlarda yuqori zichlik asosan industrial taraqqiyot va yirik shaharlarinig keng rivojlanganligi hisobiga bo’lsa, dunyoning ayrim rayonlarida ko’p mehnat talab qiladigan qishioq xo’jaligi ham yuqori zichlikka sababchi bo’lmoqda. Masalan, Bangladesh davlatida o’rtacha zichlik 400 kishi, Indoneziyaning Yava orolida 500, Hindistonning ayrim hududlarida 300 kishidan ortiqdir.

Misr Arab Respublikasining Nil daryosi deltasida zichlik 800 kishiga etadi. O’zbekistonning ayrim qishloq xo’jalik rayonlarida ham aholi zichligi 300-400 kishiga etadi. Moldaviya, G’arbiy Ukrainianing yirik qishloq xo’jalik rayonlarida ham zichlik 300–400 kishiga etadi.

Professor Yu. G. Saushkin obikor dehqonchilik, tropik dehqonchilgi va ayniqsa sholikorlik rivojlangan rayonlarda aholining juda zich yashashligi haqida ko’plab misollar keltirib xulosa chiqargan:

-Keyinroq o’zlashtirilgan va yangidan sug’orila boshlangan erlardagiga nisbatan qadimdan sug’orib kelinayotgan erlarda aholi doimo zichroq bo’ladi;  
-Sug’oriladigan hududlar orasida sholi ekiladigan rayonlarda aholi ayniqsa zich bo’ladi. Boshqa g’alla ekinlari va texnika ekinlari ekiladigan rayonlarda zichlik sholikorlik rayonlaridagiga nisbatan past bo’ladi. Agar dunyo aholisinig joylashuvi va zichligi xaritasiga nazar tashlasak aholi eng ko’p va zich yashaydigan areallarni ajratish qiyin emas. Birinchi navbatda eng yirik to’rtta ana shunday areal yaqqol ko’zga tashlanadi:

1) Eng yirik birinchi areal o’z ichiga Hindiston yarimorolini, janubiy – sharqiy Osiyon, Xitoyning sharqiy qisimini, Koreya yarim orolini va Yaponiyani oladi. Bu arealning ko’pchilik qismida (Masalan, Gang daryosi vodiysi, Yava oroli, Yanszi havzasi va boshqa) zichlik 200 kishiga etadi va undan ham ortadi. Faqat tog’li o’lkalarda zichlik birmuncha past. Bu arealda qator yirik millioner shaharlar (Tokio, Shanxay, Kalkutta, Bombay, Osaka, Kiota va boshqa) joylashgan.

2) Aholi zich joylashgan ikkinchi yirik areal Evropadir. Skandinaviya yarimorolini va Rossiya Evropa qismining shimoliy – sharqiy hududlarini hisobga olmaganda Evropaning qolgan barcha qismini shu arealga kiritish mumkin. Bu erda zichlik 50, ko’p hududlarda 100 kishidan ortiq.

3) Aholi ko’p zich joylashgan AQShning Atlantika sohili.

4) Nil daryosi quyisi oqimi hamda deltasini o’z ichga oladi.

Dunyo aholisi zichligi xaritasida aholi eng ko’p va zich joylashgan areallar bilan birqatorda deyarli o’zlashtirilmagan hududlarni ham ko’rish mumkin. Bunday areallardan ham bir nechta xarakterlisini ajratsa bo’ladi. Jumladan, Artika atrofidagi rayonlar kam o’zlashtirilgan eng yirik arealdir.

Bu arealga Grenlandiya, Shimoliy Amerika materigining qisimlari, Kanada, Artika arxepelagi, Rossiya hududida Sibir va Uzoq sharqning shimolli qisimlarini kiritish mumkin. Bu hududda aholi kamligi asosan Artika va Subartika iqlimining sovuqlilgi oqibatidir.

Aholi kam yashaydigan ikkinchi yirik areal Sahroi Kabr, uchinchisi Avstraliya cho’llari, to’rtinchisi Gobi, Taklamakon cho’llari, Tibet yassi tog’ligi va uni janubdan o’rab turgan qudratli tog’lari, beshinchisi Janubiy Amerika materiginig ichki qisimlaridagi ayrim hududlar Amazoniya, Braziliya yassi tog’ligining g’arbiy qismi va boshqalardir. Shuningdek kam o’zlashtirilgan areallarni Arabiston yarimorolida Kalaxari cho’lida va boshqa joylarda ham ko’rish mumkin.

Er sharidagi aholining hududiy joylashishi va zichligida bir qancha katta farqlar bo’lib ular uzoq tarixiy davorda va xilma–xil omillar ta’sirida vujudga kelgan. Bulardan eng asosiyлари tarixiy, ijtimoiy – iqtisodiy, tabiiy va boshqa omillardir.

O’bekiston hududining tabiiy sharoiti ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishi imkoniyatlarining turli tumanligi aholi joylashuviga ham ta’sir qiladi. Mamlakat bo’yicha aholi joylashuvining o’rtacha zichligi taxminan  $1 \text{ km}^2$  ga 75,7 kishidan iborat bo’lgan holda, Navoiy viloyatida 8,1 kishidan, Andijon viloyatida taxminan 700–800 kishigacha farq qiladi. (Bu borada ichki tafovut 70 marttadan iborat).

Qadimdan sug’oriladigan vohalarda aholi zich, Masalan, Farg’ona, Namangan, Xorazim viloyatlari, Qoraqalpog’iston respublikasi va Navoiy viloyati respublika maydonining 61,9 % ini egallasada bu hududda respublika aholisining atiga 9,3 % yashaydi. Toshkent aglomeratsiyasida aholi zichligi 600–700 kishga etadi.

## 5.2. Aholining dunyo hududlari bo’ylab joylashuvi

Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, Er kurrasida aholi yashab kelgan maskanlar, areallarning ko’pchiligi juda qadimdan boshlab shakllanib kelgan. Dunyo hududlari bo’ylab aholining joylashuvi haqidagi dastlabki ma’lumotlar eramizdan 5 ming yil oldingi davrga ta’luqli bo’lib, ushbu davrda dunyo aholisining 66 foizi (20 mln kishi) Osiyoda, 17 foizi (5 mln kishi) Afrikada, 10 foizi (3 mln kishi) Xorijiy Evropada, 3 foizi (1 mln kishi) MDH davlatlarida, 3 foizi (1 mln kishi) Shimoliy va Lotin Amerikasida hamda 1 foizi (0,5 mln kishi) Avstraliya va Okeaniyada joylashgan ekan.

Eng qadimgi aholi maskanlari inson yashashi uchun zarur biologik resurslar

mavjud bo'lgan joylarda, ya'ni Osiyoning janubi va Shimoliy Afrikada O'rta Er dengizidan to Tinch okeanigacha bo'lgan hududlarda joylashganlar. Bu hududlarda aholi juda uzoq vaqt ovchilik bilan shug'ullangan. Keyinchalik ushbu hududlarda cho'llashish jarayonlari kuchaygan. Aholini ovchilik bilan yashashlari uchun imkoniyatlar qisqarib ketgan.

Eramizning boshlarida aholi asta-sekin dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullana boshlaydi. Moddiy ne'matlarni o'zлari mehnat qilib yaratishga o'tadilar va xo'jalik yuritishning ishlab chiqarish turi etakchilik qila boshlaydi. Aholi ma'lum joylarda o'troq bo'lib yashaydilar, maskanlar quradilar. Natijada, avval qishloq maskanlari keyinchalik esa, shaharlar paydo bo'la boshlaydi. Aholining turmush tarzi, ovqatlanishi yaxshilana boradi. Inson hayotida ijtimoiy o'zgarishlar sodir bo'ladi, yozuv shakllanadi, fan va tibbiyot, madaniyat rivojlana boradi. Aholining turmush tarzi yaxshilangach, yuqorida qayd etilganidek, o'lim hollari kamayadi, aholining o'rtacha umr ko'rish muddati ham uzayadi. Natijada, er kurrasida aholi soni, aholi maskanlari ko'payib boradi. Aholi zichligi ayniqsa, dehqonchilik bilan shug'ullanishi uchun tabiiy imkoniyatlari mavjud, sug'oriladigan erlarda chorvachilik bilan shug'ullanish imkonii bor hududlarga nisbatan yuqori bo'lgan. Masalan, Nil, Frot, Dajla, Gang, Xuanxe daryolari hamda O'rta Er dengizi sohillarida eramizning boshida aholi zichligi  $1 \text{ km}^2$  ga 10 kishini tashkil etgan. Ana shu davrda ko'chmanchi chorvachilik rivojlangan Osiyo hamda Afrikaning cho'l va chala cho'l zonalarida aholi zichligi  $1 \text{ km}^2$  ga 1 kishidan to'g'ri kelar edi.

Jamiyatning taraqqiy etib borishi, ishlab chiqarish usullarining shakllanishi, jahon demografik vaziyatida qator o'zgarishlarga olib keldi. XIX-XX asrga kelib, er yuzi aholisi juda yuqori sur'atlar bilan ko'paya bordi. Aholining dunyo hududlar bo'y lab joylashuvida ham keskin o'zgarishlar sodir bo'ldi. Aholi zich hududlardan, ayniqsa, Evropadan Amerika va Okeaniya hududlariga ko'plab aholi ko'chib ketdi. Keyingi ikki ming yillikda er yuzida aholi joylashuvi keskin o'zgardi.

Eramizning dastlabki yillarida sayyoramiz aholisining 82,7 foizi Evropa va Osiyo hududlarida joylashgan bo'lsa, 2010 yilga kelib esa, bu ko'rsatkich 9,7 foizga kamaydi va 73,0 foizni tashkil etdi. Amerika, Avstraliya va Okeaniyada istiqomat etuvchi aholi hissasi esa dunyo aholisi umumiyl sonidan ortib bordi. Eramizdan keyingi 1000 yilda dunyoda 305 million aholi istiqomat etgan bo'lsa, uning 63,9 foizi Osiyoda, 14,8 foizi Evropada, 13,1 foizi Afrikada, 3,3 foizi MDH davlatlari hududida, 4,6 foizi Amerikada va 0,3 foizi Avstraliya va Okeaniyada yashagan.

2020 yilda esa dunyo aholisi soni 7 milliard 700 millionga etdi va uning 60,0 foizi Osiyo, 12,0 foizi Evropa, 14,0 foizi Afrika, 13,5 foizi Amerika va 0,5 foizi Avstraliya va Okeaniya davlatlarida istiqomat etgan. Keyingi ming yillikda Amerika, Avstraliya va Okeaniya hududlarida istiqomat etuvchi aholining salmog'i 5 marta ko'paygan.

Shunday qilib, hozirgi davrda er yuzi hududlari bo'y lab aholi notekis joylashgan. Sayyoramizda aholi juda zich ( $1 \text{ km}^2$  ga 1000 kishi) yashaydigan hududlar bilan bir qatorda aholi yashamaydigan hududlar ham uchraydi. Bu erlarda havo harorati juda past, suv yo'q va boshqa sabablar mavjud. Bunday hududlar er sharidagi quruqlikning 10 foizini tashkil etadi.

Ularga Shimoliy va Janubiy qutblar, balandligi 5000 metrdan ziyod tog'lar va

sahrolar kiradi. Er kurrasidagi quruqlikning 50 foizi esa aholi yashashi uchun tabiiy sharoitlar nisbatan pastroq bo'lib, ularda aholi siyrak-1 km<sup>2</sup> ga 1 kishidan joylashgandir. Ushbu hududlarga tundra, o'rmon-tundra, shimoliy tayga, cho'l, chala cho'l va nam ekvatorial o'rmonlar kiradi.

Quruqlikning 25 foizida aholi zichligi 1 km<sup>2</sup> ga 1-10 kishini tashkil etib, bu erlar aholi nisbatan siyrakroq joylashgan. Er kurrasidagi quruqlikning qolgan 15 foizida esa aholi zichligi 1 km<sup>2</sup> ga 10 kishidan oshadi.

Er sharida aholi yashaydigan asosiy hududlar 78<sup>0</sup> shimoliy kenglik va 54<sup>0</sup> janubiy kenglik orasida joylashgandir. Er yuzida aholi eng zich joylashgan hududlar juda qadimdan madaniyat markazlari bo'lib kelgan Janubiy, Janubiy-Sharqiy va Sharqiy Osiyo, Shimoliy Afrikadagi daryo vodiylari hamda Evropadagi sanoat markazlari bo'lib, ular er sharidagi quruqlikning bor-yo'g'i 7 foizini tashkil etadilar. Bu hududda dunyo aholisining deyarli 70 foizi joylashgandir. Er shari aholisining 4/5 qismi tekisliklar va 500 metrgacha bo'lgan balandliklarda joylashganlar. Bunday hududlar er yuzidagi quruqlikning 28 foizini tashkil etadi.

Hozirgi davrda (2020 y.) er kurrasidagi quruqlikning inson yashashi mumkin bo'lgan qismida (**136,1** mln.kv.km.) o'rtacha aholi zichligi 1 km<sup>2</sup> ga **57** kishidan to'g'ri kelmoqda. Agar aholi 1 km<sup>2</sup> ga 50 kishidan to'g'ri kelsa, aholi zichligi yuqori hisoblanadi. Aholi dunyo qit'alari bo'ylab ham juda notejis joylashgandir. Ma'lumotlarga qaraganda, XXI asr boshlarida aholi zichligi 1 km<sup>2</sup> ga Osiyoda 130,3 kishi; Evropada 105,1 kishi; Afrikada 33,4 kishi; Shimoliy Amerikada 26,4 kishi; Janubiy Amerikada 21,4 kishi; Avstraliya va Okeaniyada 4,1 kishini tashkil etmoqda. Er yuzasida aholi juda notejis joylashgan.

Umumlashtirib aytganda, er quruqlik yuzasining atigi 2 % da unda mavjud aholining 70 % i istiqomat qiladi. Aholi nihoyatda zich joylashgan mintaqalar qatoriga Janubiy Sharqiy va Sharqiy Osiyo, Evropa hamda AQSh ning shimoli-sharqiy qismi "Bosvash" megapolisi kiradi.

Dastlabki uchta mintaqada aholi qadimdan joylashgan bo'lib, u hozirgi vaqtida juda yuqori darajadagi aholi zichligiga ega. Bunday holat avvalambor, bu erda mehnatni juda ko'p talab qiluvchi sholichilikning qadimdan mavjudligi, qolganlarda esa XVIII-XIX asrlarda yuz bergen sanoat inqilobi hamda undan keyingi davrda amalga oshgan industriallashtirish jarayoni bilan uzviy bog'langandir. Insonlarning qadimdan okean va dengiz sohillarida joylashishiga intilishi ham muhim omillardan biridir. Hozirgi vaqtida dengiz va okenlardan quruqlikka tomon 200 km ga cho'zilgan er yuzasi qismida insoniyatning yarmidan ziyod qismi, 50 km kenglikka ega bo'lgan quruqlik qismiga esa dunyo aholisining deyarli 30 foizi to'plangandir.

Dunyo bo'yicha aholi juda zich joylashgan hududlar qatoriga quyidagilar kiradi: Rus, Elzas va Lataringiya hamda Parij va London rayonlari, Shimoliy Italiya, Moskva rayoni, Donbass, Farg'ona vodiysi, Sharqiy Xitoy, Hind-Gang past tekisligi, Yava oroli, Yaponiya orollari, Nil deltasi, AQSh ning shimoli-sharqi, Buyuk ko'llar rayonlari va Sansan megapolisi. Aholi siyrak tarqalgan hududlar er quruqlik yuzasining ancha katta qismini egallaydi. Shular qatoriga birinchi navbatda, ekstremal tabiiy sharoitlarga ega bo'lgan geologik ob'ektlar, cho'llar, tropik o'rmonlar, baland tog'lar, tundra muz hududlari va boshqalar kiradi. Dunyoda aholi eng yuqori zichligi Sharqiy Osiyoda joylashgan Xitoy-Makaosi (Aomin) davlatida

qayd etiladi va bu erda aholi  $1 \text{ km}^2$  ga (2020 y.) 21000 kishini tashkil etgan. Aholi zichligi eng yuqori bo'lgan davlatlar (2020 yil, kishi.kv.km.): Monako-15500, Singapur-4500, Maldivi-1328, Malta-1287, Banladesh-800, Barbados-663, Koreya respublikasi-640, Mavrikiy-634, Nauru-441, Niderlandiya-320-350.

Aholi eng siyrak joylashgan davlatlar Mo'g'iliston, Avstraliya, Kanada bo'lib, bu davlatlarda aholi zichligi  $1 \text{ km}^2$  ga 2-3 kishini tashkil etadi. Dunyoda aholi soni ko'payib borishi bilan mutanosib, uning zichligi ham ortib boradi. 1920 yilda dunyoning aholi yashaydigan quruqlik qismida o'rtacha har bir  $\text{km}^2$  ga 13 kishini tashkil etgan bo'lsa, 1950 yilda 18, 1983 yilda 34, 1999 yilda 45 va 2020 yilda 57 kishini tashkil etgan.

Aholi joylashuvida asosiy tabiiy omil bu - suv resurslaridir. Chunki, insonning yashashi va xo'jalik yuritishida suv eng zarur sharoitdir. Dunyo aholisining 1/3 qismi Dunyo okeani sohillari bo'yab (okeandan 50 km uzoqlikda) joylashgandir. Bu hudud dunyodagi quruqliknинг atigi 12 foizini tashkil etadi xolos.

Dunyo aholisining yarmidan ko'pi esa Dunyo okeanidan 200 km uzoqlikda bo'lgan masofa hududida joylashgan. Er shari bo'yicha Dunyo okeani sohillarida, daryo vodiylaridagi pasttekisliklarda yashovchi aholi salmog'i muntazam oshib bormoqda. XX asr oxiri XXI asr boshlarida dunyo qit'alarining barchasida aholining 42-73 foizi dengiz sathidan 200 m baland bo'lgan pasttekisliklarda joylashganlar. Er quruqlik yuzasining 15% i umuman o'zlashtirilmagan va doimiy aholisi yo'q hududlar hisoblanadi.

Dunyo aholisining vertikal mintaqalar bo'yicha ham notekis taqsimlangan. Aholining yarmidan ortiq qismi (56 % i) mutloq balandligi 250 metrgacha bo'lgan tekislik va notekisliklarda istiqomat qiladi. Salkam chorak qismi (24 %) 200-500 m balandlikka ega tekislik va qirralarga to'g'ri keladi. Demak er shari aholisining 80 % i mutloq balandligi 500 metrgacha bo'lgan hududlarda joylashgan.

Shu vaqtning o'zida 2000 metrdan baland hududlarga er shari jami aholisining atigi 10 % i to'g'ri keladi. Umuman olganda, aholi soni va ulushi balandlik oshgan sari kamayib boradi. Lekin bu qonuniyat Janubiy Amerikada o'z ifodasini topmaydi. Bundan tashqari, Osiyo qit'asi bilan jami quruqlik yuzasiga xos bo'lgan ko'rsatkichlar bir xil miqdorlar xosligi bilan ajralib turishligini ta'kidlab o'tish lozim.

Okean va dengiz sohillari, dunyo vodiylaridagi past tekisliklarda joylashgan aholi salmog'i dunyo aholisining tarkibida muntazam ortib bormoqda. Sohillarda aholining konsentrasiyalashuvi jarayoni hamon davom etmoqda. Bu hol suv resurslarining inson hayoti uchun naqadar muhimligi bilan bog'liqdir.

Dunyo aholisining 1000 yildan 2005 yilgacha bo'lgan o'sishiga nazar tashlasak, aholi eng tez ko'paygan davr XX asrdir. Agar er shari aholisining bir milliardga etishi uchun salkam 850 yil kerak bo'lsa, 2 milliardga etishi uchun 85 yil, 3 milliardga etishi uchun 25 yil, 4 milliardga o'tishi uchun - 15 yil, 5 milliardga o'tishi uchun 20 yil va 6 milliardga o'tishi uchun - 15 yil vaqt kerak bo'ldi. Sayyoramiz aholisining ko'payib borishi uning alohida hududlari bo'yicha ham farq qiladi. Evropada XIV asrning o'rtalaridan fan va texnika rivojlandi. Ilmiy manbalarda, ushbu davrni Evropa uchun "uyg'onish" davri, deb qayd etilgan.

Evropa dunyo qit'alari ichida aholining o'rtacha zichligi yuqori hudud hisoblanadi. Aholi zichligi Evropaning shaharlarida yuqori bo'lib qishloq

hududlaridan keskin farq qiladi. Bu qit'ada aholi umuman yashamaydigan hudud yo'q. Evropada aholisi nisbatan siyrak joylashgan hududlar Islandiya va Norvegiya davlatlari bo'lsa, aholisi eng zich joylashgan Niderlandiya (Gollandiya) va Belgiya davlatlaridir. Aholi zichligi bo'yicha Malta davlati alohida ahamiyatga ega bo'lib, bu erda aholi zichligi 1 km<sup>2</sup> ga 1000 kishidan ortadi. Maltada ichishga yaroqli suv juda tanqis bo'lib, u sotiladi. Toza suvning qimmati hatto vinodan ham yuqori turadi. Evropada aholi eng zich joylashgan hudud Reyn daryosi vodiysidir. Bu er juda hosildor lyossimon tuproqlardan tarkib topgan bo'lib, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanish uchun juda qulaydir. Shuningdek, Dunay daryosi vodiysi bo'ylab ham aholi zichligi nisbatan yuqoridir.

Evropada urbanizatsiya darajasining yuqoriligi shahar va qishloq hududlari aholisi zichligidan keskin farq etishiga olib kelgan. O'z navbatida, qishloq hududlarida ham aholi zichligi o'zaro farq qiladi. Masalan, Maltada qishloq aholisi 1 km<sup>2</sup> ga 100 kishidan ortib borganda, Evropaning shimoliy hududlarida aholi siyrak joylashgan. Chunki bu erlar iqlimi sovuq bo'lib, qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun unchalik qulay emas. Shunday bo'lsada, Evropada aholi zichligi 1970-2018 yillarda taxminan 1 km<sup>2</sup> ga 94 kishidan 123 kishiga oshgan.

Fan-texnikaning rivojlanishi tufayli Evropada ishlab chiqarishda qo'l kuchi o'rniqa texnikalardan foydalanish aholi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini ma'lum darajada yaxshilanishiga olib keldi. Aholi soni oldingi davrlarga nisbatan tezroq sur'at bilan ko'payabordi. Lekin Evropaning, ba'zi hududlarida tarqalgan epidemiyalar (1624, 1639 yillarda o'lat va vabo), ocharchiliklar (Italiyada 1739-1741 yillardagi kartoshka ocharchiligi) va urushlar (Turkiya va Bolqon urushi XVI asrda; 1618-1648 yillardagi 30 yillik urush, 12 yil davom etgan ispan merosi uchun urushlar 1701-1713 yillar) aholi sonining ko'payib borishiga salbiy ta'sir etgan albatta. Shuningdek, Evropa aholi soni dinamikasiga emigratsiya ham ta'sir ko'rsatdi. Amerikaning kashf etilishi juda ko'p ispanlar, portugallar, inglizlar, gollandlar va fransuzlarning Amerikaga ko'chib ketishiga sabab bo'lgan. XVI-XVIII asrlarda Evropadan Amerikaga 2 milliondan ko'p aholi ko'chib ketgan.

Shunday bo'lsada, Evropa aholisi XVI-XVIII asrlarda oldingi davrlarga nisbatan yuqori sur'at bilan ko'payib borgan. Masalan, 1700 yili Evropa aholisi taxminan 100 million kishi bo'lsa, 1800 yilda bu ko'rsatkich 150-160 millionga etgan. Fransiya, Angliya, Germaniya va Ispaniya Evropaning aholisi eng ko'p davlatlaridan bo'lganlar. XIX asr Evropa aholi takror paydo bo'lishida yangi bosqichga o'tgan. O'limning kamayib borishi, aholi o'rtacha umr ko'rish muddatining uzayishi va tug'ilishning nisbatan yuqori darajada saqlanib turishi aholining tabiiy ko'payishini yuqori darajaga olib chiqdi. Ushbu davrda Evropada tug'ilishning umumiyo'koeffitsienti 35-40 promille, o'lim esa 20-25 promille atrofida bo'lgan. Aholi tabiiy o'sishi har 1000 kishiga 15-20 kishini tashkil etgan. Evropadan Amerikaga aholi emigratsiyasining ko'payishi, Fransiya imperatori Napoleonning urushlari aholi sonining ko'payishiga salbiy ta'sir etgan.

Lekin, aholining tabiiy ko'payishining yuqoriligi tufayli Evropa aholisining umumiyo'koeffitsienti kamayish kuzatilmaydi. XIX asrda Evropadagi ko'p sonli aholiga ega bo'lgan davlatlar Fransiya, Buyuk Britaniya, Germaniya aholisi 1,5-2 barobarga ko'paygan.

XX asr Evropa aholisining takror barpo bo'lishida yangi bosqich bo'ldi. Evropadagi qator davlatlarda XX asrning ikkinchi yarmida tug'ilish keskin kamayib bordi. Tug'ilish bilan bir qatorda o'lim hollari ham qisqardi. Aholining takror barpo bo'lishida yangi demografik o'tish davri boshlandi. Natijada, Evropada aholi sonining o'sish sur'ati bir muncha kamaydi. 1900-1950 yillarda Evropa aholisi har yili o'rtacha 1,8 million atrofida ko'paygan bo'lsa, 1970-2000 yillarda esa, bu ko'rsatkich 1,2 millionni tashkil etgan. Hozirgi davrda (2020 y.) Evropa aholisi 842 millionga etgan va bu ko'rsatkich dunyo aholisining 12,0 foizini tashkil etadi.

Osiyo dunyoning eng ko'p sonli aholi istiqomat etayotgan hududidir. XX asrga qadar bo'lgan davr uchun Osiyo aholisining soni haqidagi aniq ma'lumotlar deyarli yo'q. Taxminlarga ko'ra, XVI-XVIII asrlarda Osiyo aholisining umumiy o'sish sur'ati Evropa aholisining o'sish sur'atiga juda yaqin bo'lgan. Chunki, Osiyoda ushbu davrlar nisbatan tinch, yirik qirg'in-barot urushlar bo'lмаган davr hisoblanadi. Osiyoning ba'zi davlatlari demografik jarayonlarida keskin o'zgarishlar kuzatiladi. Masalan, Yaponiyada oilalarda farzand tug'ilishini nazorat etish boshlandi. Natijada aholining tabiiy ko'payish sur'ati sekinlashdi va aholi soni ham mos ravishda nisbatan kam sur'atda ko'paydi. XIX asr boshlarida Osiyoning eng ko'p sonli hududi Xitoyda aholi soni 300- 350 million, Hindistonda - 150-210 million, Yaponiyada - 27-30 million kishini tashkil etgan.

XIX asrda Osiyo davlatlarining ko'pchiligidagi yangi siyosiy o'zgarishlar yuz berdi va ularning ko'pchiligi mustamlakalarga aylantirildi. Mustamlakachilik aholi ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga salbiy ta'sir etdi. Dehqonlarning asosiy qismi ersiz qoldilar, hunarmandchilik, ishlab chiqarish ma'lum darajada sustlashdi. Bu holatlar aholining tabiiy ko'payish sur'atiga salbiy ta'sir etdi. Ocharchilik, epidemiya va mustamlakachilarga qarshi urushlar natijasida aholi o'rtasida o'lim hollari ko'paydi. Millionlab aholi yuqoridagi omillar natijasida qirilib ketdi.

XIX asrning oxirida Hindistonda 20 martaga yaqin ocharchilik bo'lib, ularda qariyb 20 million atrofidagi aholi o'lgan. Ana shu davrda (1887 y.) Xitoyning Shimoliy rayonlarida ham ocharchilik bo'lib, 4-6 million kishi halok bo'lgan. XIX asrda Osiyoning qator hududlari aholisida tug'ilish 45-50 promilleni, o'lim esa 40-45 promilleni tashkil etgan. Aholining tabiiy o'sishi juda past bo'lib, 5-10 % nigina tashkil etgan. Natijada, Osiyo aholisining soni juda sekinlik bilan ko'paygan. 1900 yillarda Osiyo aholisining soni 900-1000 million kishidan oshgan. Shu jumladan, Xitoyda aholi soni 400-500 million, Hindistonda 285 million va Yaponiyada 44 millionga etgan.

XX asrda Osiyo mamlakatlarining ko'pchiligidagi aholi o'limining keskin kamayishi kuzatiladi. Natijada, Osiyo aholisining soni ko'payib bordi. 1900-2000 yillarda Osiyo aholisi soni 950 milliondan 3585 millionga etdi yoki 3,6 marta ko'paydi. Shuni alohida qayd etish lozimki, XX asrning ikkinchi yarmida Xitoy, Hindiston kabi aholi ko'p sonli davlatlarda tug'ilishni nazorat etish davlat siyosati darajasida olib borilishi aholining o'sish sur'atini bir muncha sekinlashishiga olib keldi. Osiyo aholisining dunyo aholisi tarkibidagi salmog'i 1000-2000 yillarda 63,9 foizdan 59,3 foizga tushdi. Hozirda (2020 y.) Osiyoda dunyo aholisining 60,0 foizi istiqomat etmoqda.

Osiyoda dunyo aholisining eng asosiy qismi yashaydi. Sharqiy Osiyoda

Yaponiya, Xitoy, Koreya, Janubiy Osiyoda esa Hindiston, Pokiston, Bangladesh kabi davlatlar joylashgan bo'lib ular dunyodagi aholi zichligi bo'yicha eng yuqori o'rirlarni egallaydilar. Osiyo aholisining asosiy qismi Hindi-Xitoy yarimorolida va Indoneziya orollarida joylashgan bo'lib, ularda aholi zichligi  $1 \text{ km}^2$  ga 400-500 kishiga teng. G'arbiy Osiyodagi Arabiston yarim orolida, Markaziy Osiyoda, ayniqsa, Mo'g'ulistonda aholi siyrak joylashgan bo'lib,  $1 \text{ km}^2$  ga 2-3 kishini tashkil etadi. Osiyoda dunyo qishloq holisining katta qismi istiqomat etib, ular qishloq xo'jaligi, ayniqsa dehqonchilik uchun qulay erlarga-Xitoydagি yirik daryolar, Gang, Braxmaputra, Mekong, Xuanxe vodiylariga, Koreyaning janubiy qismi, Yaponiya va Yava orollariga joylashganlar. Bu hududlar maydoni  $2,5 \text{ mln.km}^2$  bo'lib, ularda taxminan 2 milliarddan ortiq aholi yashaydi. Aholi zichligi Hind va Ganga vodiylarida, Xuanxe va Yanszi deltalarida juda zich bo'lib  $1 \text{ km}^2$  ga 1000-1500 kishini tashkil etadi.

Osiyoda aholi doimiy yashamaydigan tog'li hududlar (Tibet, Hindiqush, Himolay tog'liklari) va cho'llar, chala cho'llar (Rub-el-Xali, Takla-Makon, Gobi cho'llari) ham mavjuddir. Afg'oniston, Suriya, Eron, Turkiya davlatlari hududlarida ham aholi juda siyrak joylashgandir. Chunki bu hududlar tabiiy sharoiti ham dehqonchilik uchun uncha qulay emas. Bu erlarda asosan aholi ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullanadilar.

Afrika-inson ajdodlarining eng qadimiy maskanlari shakllangan, shu bilan bir qatorda aholisi er kurrasining qator hududlariga nisbatan juda siyrak joylashgan hudud hisoblangan. 1970-2010 yillarda Afrika aholisining o'rtacha zichligi  $1 \text{ km}^2$  ga 12 kishidan 33,4 kishiga etgan. Afrikada aholining siyrak joylashuvi bir tomondan tabiiy sharoitning qishloq xo'jaligi uchun qulay emasligi, ichimlik va sug'orish uchun suv tanqisligi bo'lsa, ikkinchi tomondan Afrika davlatlarining juda uzoq davr Evropa davlatlari mustamlaksi bo'lib kelganligidir, chunki mustamlaka sharoitida aholining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi sekin boradi. Ushbu jarayon esa aholining tabiiy o'sishiga, o'rtacha umr ko'rish muddatiga salbiy ta'sir etadi. Natijada, aholi soni sekin ko'payadi va aholi zichligi ham shunga mos tarzda o'zgaradi. Juda ko'p Afrika davlatlarida aholi zichligi  $1 \text{ km}^2$  ga kishi atrofida to'g'ri keladi. Aholining eng yuqori zichligi Mavrikiy, Reyunon va Viktoriya ko'li atrofida joylashgan Ruanda va Burundi davlatlarida ( $1 \text{ km}^2$  ga 400-450 kishi), aholi eng siyrak joylashuvi esa Botsvana, Liviya va Namibiya davlatlarida ( $1 \text{ km}^2$  ga kishi) kuzatiladi.

Afrikada ham aholi joylashuvida suv resurslarining asosiy omil ekanligi yaqqol kuzatildi. Nil daryosi vodiylarida, Gvineya qo'ltig'i, Tunis, Jazoir va Marokashning sohil bo'ylarida aholi zich joylashgan Sahroi Kabir, Kalaxari va Liviya cho'llarida, tropik o'rmonlarda aholi juda siyrak, ba'zi cho'llarda umuman aholi yashamaydi. Afrikaning ba'zi hududlarida aholi juda notekis joylashgan. Bunday hol ayniqsa, Afrikaning Shimoliy qismiga xarakterlidir. Bu erda aholi eng zich joylashgan - O'rta Er dengizi sohillari bilan aholisi juda siyrak Sahroi Kabir cho'li mavjuddir. Shuningdek, Marokashning shimoli-g'arbida uning aholisining 90 foizi istiqomat etadi va aholi zichligi  $1 \text{ km}^2$  ga 200 kishidan ortiq, janubi-sharqiy qismidagi tog' va cho'l hududlarida aholi zichligi  $1 \text{ km}^2$  ga 1 kishini tashkil etadi.

Afrika aholisi sonining ko'payib borishida uning tabiiy sharoiti bilan bir qatorda ijtimoiy ahvoli ham asosiy omil hisoblanadi. O'rta asrlarda Shimoliy Afrikaga

arablarining bosqinchilik yurishlari tufayli juda ko'p aholi qirilib ketgan. Bu qit'a aholisi asosan G'arbiy Sudan va Sharqiy Afrika aholisi hisobiga bir muncha ko'paygan. Sharqiy Afrikada arab sultonliklari tashkil topib, Osiyo davlatlari, ayniqsa, Hindiston bilan savdo-sotiq rivojlanadi.

Ikkinchi ming yillikda Afrika xalqining ijtimoiy-siyosiy hayotida yana keskin o'zgarishlar sodir bo'ldi. Afrikani Evropaliklar tomonidan mustamlakaga aylantirilishi natijasidagi urushlar, afrikaliklarni qullarga aylantirib sotilishi, ularning og'ir turmush sharoiti, ochlik, issiq iqlim sharoitida turli yuqumli kasalliklarning teztez tarqalib turishi natijasida aholi o'rtasida o'lim ko'rsatkichlari yuqori darajada bo'lган. 1650-1800 yillarda Afrika aholisi taxminan 100 milliondan 90 millionga kamaygan.

XVI-XVII asrlarda Afrikadan negrlarni qul qilib, Amerikaga olib ketilishi ham Afrika qit'asi aholisi soniga salbiy ta'sir etgan. Ayniqsa, Shimoliy Amerikadagi ingliz koloniyaliga Afrikadan millionlab negrlarni qul qilib haydab kelishgan. 1680-1786 yilning o'zida Shimoliy Amerikaga Afrikadan 2 million negrlar keltirilgan. Yuzlab negrlar yo'lda halok bo'lishgan va qul sifatida sotib yuborilgan. Yuqorida qayd etilgan holat natijasida Afrikaning Angola, Mozambik va G'arbiy Sudan kabi davlatlarida aholi juda kamayib ketgan.

XIX asrga kelib, Afrikaning ijtimoiy-siyosiy ahvoli bir muncha yaxshilandi. Qator davlatlar mustamlaka tuzumidan ozod bo'ldilar. Dunyoda inson huquqlarini, millatlar manfaatini himoya etish tashkilotlari tashkil topib, faoliyat ko'rsata boshladi. Afrika xalqlarining himoya qilinishi, ularga tibbiy yordam ko'rsatish, bilim olishlariga imkoniyatlar yaratila boshlandi. Natijada qit'a aholisi o'rtasida o'lim hollari kamaydi. Tug'ilishning yuqori darajada bo'lishi va o'limning kamayishi Afrika aholisining tez sur'atlar bilan ko'payishiga olib keldi. 1900 yil Afrika aholisi taxminan 130 mln. kishini tashkil etgan. 1900-2000 yillarda esa qitada aholi soni 6 marta ko'paydi va 790 millionga etdi. XX asr Afrika aholisining eng yuqori sur'at bilan ko'paygan davridir. 2020 yil ma'lumotlariga qaraganda, Afrika aholisining soni 1078 millionni tashkil etib, bu ko'rsatkich dunyo aholisining 14,0 foizini tashkil etdi.

Ilmiy manbalarda yozilishicha, Amerika Xristofor Kolumb tomonidan kashf etilgan davrga qadar, 25 milliondan ortiq aholisi bo'lган. Aholisining asosiy qismini atseklar (Markaziy Meksika) davlatida va inklar imperiyasida (Peru) yashaganlar. Amerika aholisining tub xalqi hindular bo'lib, ular kichik-kichik qabilalarga birlashganlar. Hozirgi AQSh hududida 1 millionga yaqin hindular yashaganlar.

Amerikaning evropaliklar tomonidan bosib olinishi uchun bo'lган urushlar natijasida tub aholi bo'lmish hindularning qirib yuborilishiga sabab bo'lган. Masalan, Karib dengizi havzasidagi orollarda 1 milliondan ortiq hindular yashaganlar. XVI asr o'rtalarida evropaliklarning bosqinchilik urushlari tufayli mahalliy aholi vakillaridan bir necha yuz kishigina qolgan xolos. Meksikada esa XIX asr boshlarida 1,5 mln. AQShda XIX asr oxirlarida 200 ming hindular yashaganliklari haqida ma'lumotlar mavjud. Amerika tub aholisining kamayib ketishiga ularning evropaliklar tomonidan ayovsiz qirib tashlanishi bilan birga, evropaliklar olib kelgan epidemiylar "yangi kasalliklar" (qizamiq, vabo, toshmalar), plantatsiyalardagi og'ir, antisanitariya sharoitdagi mehnatlar ham sabab bo'lган.

Amerika ham er sharidagi aholisi nisbatan siyrak joylashgan hududdir. Bu erda

aholi zichligi 1970-2010 yillarda 12 kishidan 23,9 kishiga etgan. Amerikaning aholi zichligi bo'yicha dunyodagi tutgan o'rni Afrikaga yaqindir. Shimoliy Amerikada aholi Janubiy Amerikaga nisbatan siyrakroq joylashgan. AQShning Atlantika okeani sohillaridagi Rod-Aylend, Nyu-Jersi, Pensilvaniya shtatlarida aholi zich joylashgan. G'arba borgan sari aholi zichligi kamaya boradi. Missisipi vodiysidan so'ng tog'li hududlar boshlanadi va bu erlarda aholi juda siyrak bo'lib, 1 km<sup>2</sup> ga aholi zichligi 1 kishidan to'g'ri keladi. Tinch okeani sohillarida ayniqsa, Kaliforniyada aholi zichligi yana ortib boradi. Kanadada ham aholi nisbatan siyrak joylashgan bo'lib, aholi 1 km<sup>2</sup> ga 3 kishidan to'g'ri keladi. Kanadaning juda katta maydonini tayga va tundra zonalari egallagan. Kanadaning shimoliy qismi, arktik orollarda, AQSh ga tegishli Alyaska yarim orolida aholi juda ham siyrak joylashgan va ba'zi hududlarda aholi umuman yashamaydi.

Janubiy Amerikada ham aholi asosan suv resurslariga yaqin, okean sohillarida joylashgan. Braziliyaning San-Paulo shtatida va sharqiy qismida, Parana past tekisligida aholi nisbatan zichroq joylashgan bo'lib 1 km<sup>2</sup> ga 50-55 kishini tashkil etadi. Karib dengizi orollari va Bermud orollarida ham aholi zich joylashgan. Aholi zichligi yuqorida qayd etilgan orollarda 1 km<sup>2</sup> ga 300-400 kishidan ortiq. Amazonka vodiysining tropik o'rmonlar va botqoqliklar bilan qoplangan qismi, baland And tog'lari va Atakama cho'lida esa aholi deyarli yashamaydi.

Amerika aholisi soni XIX asr boshiga qadar, asosan Evropadan kelgan immigrantlar kelishi va Afrikadan ko'plab negr-qullarni olib kelinishi hisobiga sekinlik bilan ko'paygan. Ushbu davrda Amerika qit'asida 25 million atrofida aholi bo'lib, ularning 18 millioni Lotin Amerikasida, 5,3 millioni AQShda yashaganlar.

XIX asrda Evropadan Amerikaga ko'chib keluvchilar soni yana ham ko'paydi. Imigrantlarning asosiy qismi iqtisodiy ahvol yaxshiroq bo'lган AQSh ga qaratilgan edi. XIX asrning ikkinchi yarmida (1821-1900 yillarda) AQShga kelgan imigrantlar soni 20 million atrofida bo'lган. AQSh aholisi imigrantlar hisobiga juda tez sur'at bilan ko'payib borgan va 1900 yilda 76 millionga etgan va ularning tarkibida 10 million atrofida negrlar qayd etilgan.

Kanada hududlariga ham XIX asrda imigratsiya jarayoni kuchaydi. XIX asr boshlarida Kanadada bor yo'g'i 300 ming atrofida aholi istiqomat etgan bo'lsa, 1851 yili aholi soni 1,8, 1900 yilda esa 5,8 millionga etdi. Asr boshida faqat Kanadaga dastlab Evropadan kelgan fransuz emigrantlar aholining asosiy qismini tashkil etgan edi. XIX asrning ikkinchi yarmida AQSh hududi tamoman egallab olingach, imigrantlar oqimi Kanadaga qaratiladi. Lotin Amerikasi davlatlari aholisi esa XIX asrlarda AQSh va Kanada aholisiga nisbatan sekinroq ko'paygan. Asosan aholining ko'payishi tabiiy o'sish hisobiga sodir bo'lган.

Bu davrda Evropadan immigrantlarning kelishi Shimoliy Amerikaga nisbatan kamroq bo'lган. Immigrantlar asosan Argentina, Braziliya va Urugvay davlatlariga kelganlar. 1900 yilda Lotin Amerikada 60-65 million aholi istiqomat etgan. 1850-1900 yillarda butun Amerika qit'asi aholisi 65 million kishidan 145 million kishiga ko'paygan, yoki 2,2 marta oshgan. 1900-2000 yillarda esa aholi soni 6 martaga ko'paydi. Bu davr Amerika aholisining eng yuqori sur'at bilan ko'paygan davridir. Aholi sonining ortib borishi dunyo aholisi tarkibida uning hissasini 3 barobar ko'tarilishiga sabab bo'ldi. 2020 yil Amerikada dunyo aholisining 13,5 foizi

istiqomat etmoqda. 1000 yilda bu ko'rsatkich 4,6 fozini tashkil etgan edi.

Okeaniya va Avstraliya aholi zichligi bo'yicha dunyoda eng oxirgi o'rinda turadi. 1970-2010 yillarda aholi zichligi 1 km<sup>2</sup> ga kishidan 4,1 kishiga etgan. Lekin materikning ichida aholi juda notejis joylashgan. Okeaniya orollarida aholi zichligi nisbatan yuqori. Guam orollarida aholi zichligi 1 km. ga 200 kishidan ortiq bo'lsa, G'arbiy Samoada-50 kishidan ortiqni tashkil etadi. Avstraliyada esa aholi uning Sharqiy, Janubiy-Sharqiy va Janubiy-G'arbiy qismida, Yangi Janubiy Uels, Viktoriya va Kvinslend shtatlarida zich joylashgan. Bu hududlarda Avstraliyaning 80 foizdan ko'p aholisi istiqomat etadi. Markaziy va Shimoliy Avstraliyada joylashgan cho'l hududlarida mahalliy tub aholi- avstraliyalik **aborigenlar** yashaydilar. Ular juda kam bo'lib, zichlik ham nisbatan pastdir. Shuningdek Yangi Gvineyaning janubiy qismida ham aholi siyrak joylashgan. Chunki bu hududlar maydonida ham tabiiy sharoit inson yashashi uchun noqulay bo'lib, tropik o'rmonlar va botqoqliklardan iboratdir.

Aholining er yuzi bo'ylab joylashuvi qator omillar bilan bog'liq. Ularga tabiiy sharoit, aholi manzilgohlari shakllanishining tarixiy xususiyatlari, demografik o'tishning hozirgi bosqichi, rivojlanish darajasi va xo'jalik tarkibi kabi ijtimoiy-iqtisodiy omillarni kiritish mumkin. Aholining joylashuvida eng asosiy omil bu tabiiy sharoitdir. Dunyo aholisining asosiy qismi inson yashashi uchun qulay tabiiy sharoitga ega bo'lgan mo'tadil, subtropik va tropik iqlim zonalarining qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanish imkoniyati bor hududlarida joylashganlar.

Avstraliya va Okeaniya hududi aholisiga oid aniqroq ma'lumotlar demografik manbalarda, XVIII asrning ikkinchi yarmiga ta'luqlidir. 1788 yilda ushbu qit'ada 200-300 ming mahalliy xalqlar (aborigenlar) yashaganlar. Okeaniyada esa XVIII asr o'rtalarida 3 million kishi bo'lganligi taxmin etiladi. Bu hududda ham aholi shakllanishida Amerika qit'asiga o'xshash evropaliklarning kelishi bilan bog'liq ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar katta ta'sir etgan.

Evropaliklar bilan to'qnashuvlardan, epidemiyalardan Avstraliya aholisining juda ko'p qismi qirilib ketgan. XIX asrning oxirlarida Avstraliyada 100 ming nafar aborigenlar qolgan xolos. Shuningdek, yangi zelandiyaliklar ham XVIII asrning oxiridan XIX asrning oxirgi choragiga qadar 200-250 mingdan 37,5 ming kishiga kamayib ketganlar. XVIII asrning oxiridan XIX asrning oxiriga qadar, gavayiliklar soni 300 mingdan 31 mingga qisqargan.

XIX asrning oxiridan boshlab, Avstraliya va Okeaniya aholisi aralash millatlar va evropaliklar hisobiga bir muncha ko'paya boshladi. Ayniqsa, Avstraliya va Yangi Zelandiya aholisi asosan evropaliklar hisobiga ko'payib borishining asosiy sababi Avstraliya va Okeaniyada yangi konlarning topilishi va o'zlashtirilishi edi. Evropada ishlari yurishmagan kambag'al va o'rtahol kishilar tezda boyib ketish maqsadida bu erga ko'plab ko'chib kelishganlar.

1800-1850 yillarda Avstraliyaga kelgan imigrantlar soni 5 mingdan 405 mingga etgan. Imigratsiya hisobiga Gavayi, Fidji, Yangi Kaledoniya aholisi ham ko'paya boshladi. Natijada, Avstraliya va Okeaniya aholisining dunyo aholisi tarkibidagi salmog'i deyarli 2 barobar ko'paydi. 1900 yilda bu hudud aholisi 6 milllion kishini tashkil etgan bo'lsa, 2000 yilda bu ko'rsatkich 30 millionga etgan. Hozirgi kunda (2020 y.) Avstraliya va Okeaniya aholisining soni 38,5 millionni tashkil etmoqda. 2020 yil Avstraliya va Okeaniyada dunyo aholisining 0,5 foizi istiqomat etmoqda.

### **5.3. Aholi joylashuvining geografik shakllari**

**Ma'lum** bir shaklga ega bo'lgan, aholining hududiy joyylanishi aholi manzilgohlari deyiladi. Aholi manzilgohlari aholi geografiyasi fanining muhim kategoriysi bo'lib, aholining yashayotgan joylarigina bo'lib qolmay, balki moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqariladigan va iste'mol etiladigan butun ijtimoiy hayotning asosiy markazlari hisoblanadi. Aholi manzilgohlarini geografik jihatdan o'rghanishda va xarakterlashda har bir aholi manzilgohlari yashaydigan aholining sonini bilish muhim ahamiyatga ega.

Chunki aholi manzilgohlari, birinchi navbatda, aholining soniga qarab (bir necha kishi yashaydigan mayda qishloqlardan tortib, to bir necha million kishilik aholi bo'lgan eng yirik shaharlarga) klassifikasiyaga ajratiladi.

Aholi manzilgohlarini geografik jihatdan o'rghanishda unda yashaydigan aholining umumiyligi soniga emas, balki uning tarkibini, xalq xo'jaligi tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishini, shuningdek har bir aholi manzilgohining bajaradigan funksiyasini, mamlakat iqtisodiy va madaniy hayotida tutgan o'rni va ahamiyati, uning boshqa aholi manzilgohlari bilan aloqasi, tabiiy geografik o'rnini analiz qilish muhimdir.

Shunday qilib, aholi manzilgohlari aholi yashaydigan joy sifatidagina qiziqtirmasdan, balki ishlab chqarish, markazlari, xo'jalik markazlari, madaniy – siyosiy markazlar, iqtisodiy aloqalarning asosiy tugunlari sifatida ham qiziqtiradi.

#### **2. Aholi manzilgohlari birinchi navbatda 2 ta katta tipga ajraladi:**

- 1. Shaharlar;**
- 2. Qishloqlar.**

Shahar va qishloq tushunchalarining vujudga kelishi, shaharlarning qishloqlardan ajralib chiqishi jamiyat tarixida ijtimoiy mehnat taqsimotining paydo bo'lishi bilan bog'liqdir. Ijtimoiy mehnat taqsimoti jarayonida hunarmandchilik va savdoning qishloq xo'jaligidan ajralib chiqishi munosabati bilan shahar va qishloq tumanlari bilan shahar va qishloq tushunchalari vujudga kelgan. Hunarmandlar va savdo bilan shug'llanuvchilar yashaydigan aholi manzilgohlari shaharlar deb ataladi.

Qishloq xo'jalik mehnati bilan shug'llanuvchilar yashaydigan joylar qishloqlar deb ataladi. Shahar va qishloq tushunchalarining vujudga kelishi dunyoning turli qisimlarida bir vaqtda bo'lgan emas, albatta. Ko'pchilik hollarda shaharlar, asosan, ibridoijamoa tuzumidan quidorlik tuzimiga o'tish davrida vujudga kela boshladi.

Aholi manzilgohlari turli mamlakatlar hududida, ularning ayrim rayonlari bo'yicha taqsimlanishi va to'planishi asosan o'sha mamlakatning xo'jalik geografiyasi bilan belgilanadi. Xo'jalikning hududiy joylashuvi, uning o'ziga xos xususiyatlari har bir rayon uchun aholi manzilgohlarining muayyan shakllarini vujudga keltiradi.

Professor V.V.Pokshishevskiy aholi manzilgohlarini quyidagi 6 ta shaklini dunyo bo'yicha keng tarqalgan shakllar deb hisoblaydi:

**1. Qishloq aholi manzilgohlari yoyilgan (tarqoq) shakli.** Bunda odatda qishloq xo'jaliqi bilan shug'llanuvchi aholi o'z hovlisida mehnat qilib yashaydi. Qishloq aholisining tarqoq shaklida, odatda, bir yoki bir necha oiladan iborat bo'lgan aholi

manzilgohlari yashashiga hozirgi paytda AQSh ning ayrim rayonlarida keng tarqalgan fermalar misol bo'la oladi.

**2. Qishloqlar.** Bu shaklda qishloq aholisi guruh – guruh bo'lib yashaydi. Ammo bu shaklda ham qishloqlar qishloq xo'jaligida foydalilaniladigan erlar bo'ylab tarqoq joylashgan bo'ladi. Bu shakl dunyoning deyarli barcha qisimlarida tarqalgan bo'lib, qishloq aholisining asosiy yashash shaklidir. Qishloqlarning katta kichikligi ekin ekiladigan massivlarning katta kichikligiga, taraqqiy etgan qishloq xo'jalik tarmog'inining ko'p yoki kam mehnat talab qilishga bog'liq.

**3. Shaharlar.** Aholi manzilgohlari ijtimoiy mehnat taqsimotining mahsuli sifatida vujudga kelgan asosiy tipi, hozirgi zamonda aholining eng keng tarqalgan yashash shaklidir. Shahar bilan qishloqni bir – biridan ajratib tutadigan asosiy belgi – ularning xalq xo'jaligida bajaradigan funksiyasidir.

Qishloq doimo qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi aholi yashaydigan manzilgohlar. Shahar esa, mehnat faoliyatining qishloq xo'jaligidan boshqa tarmoqlari bilan shug'ullanuvchi aholi yashaydigan, odatda qishloqlarga nisbatan katta bo'lgan aholi manzilgohlari.

Bizda aholi manzilgohlari shaharlarga aylantirish yoki qishloq holida saqlab qolishning qonun – qoidalari bor, masalan Rossiyada 1957 yilgacha aholining soni 1000 kishidan kam bo'lmasligi, qishloq xo'jaligida ishlovchilarining salmog'i 25 foizdan ortiq bo'lmasligi aholi manzilgohlari shaharga aylantirilishi mumkin edi. Shuningdek, aholi manzilgohlari iqtisodiy va madaniy ahamiyati ham e'tiborga olingan. Hozir aholi manzilgohini shaharga aylantirish uchun undagi aholi soni 12 ming kishidan kam bo'masligi, barcha aholining 85 foizi ishchi, xizmatchi va ularning oila a'zolaridan iborat bo'lishi kerak.

O'bekiston aholi manzilgohini shaharga aylantirish uchun undagi aholining soni 7 mingdan kam bo'lmasligi, aholining 2/3 qismi, ishchi, xizmatchi va ularning oila a'zolaridan iborat bo'lishi kerak. Turli respublikalarda aholi manzilgohlari shaharlarga aylantirish shartlari xilma – xildir. Bu xilma – xillik mahalliy sharoitlar bilan bog'liqdir. Umuman dunyoning turli mamlakatlarida aholi manzilgohlari shahar deb atash va shaharga aylantirish shartlari turlichadri.

AQSh da aholisining soni 2500 kishidan ortiq barcha aholi manzilgohlari shahar qatoriga kiritiladi. Fransiyada aholi soni 2000 kishi, Islandiyada atiga 200 kishi bo'lsa kifoya, shaharga aylantiriladi. Gollandiyada esa aksincha aholi manzilgohlari shaharga aylantirish uchun u erda 20000 kishidan ortiq aholi yashashi kerak, Koreyada 40000 kishi.

**4. Shahar darajasiga etmagan sanoat manzilgohi-posyolkalar.** Bunday aholi manzilgohlari ko'proq tog' – kon sanoati bilan bog'liq holda vujudga keladi. Bunday shaharchalar Germaniyaning Rur sanoati rayonida, Yuqori Sileziyada (Polshada) va Janubiy Afrika Respublikasining oltin va olmos konlari rayonlarida keng tarqalgan. Yog'och tayyorlanadigan yirik rayonlarda ham shunday ishchi shaharchalari bo'ladi (Kanada, Shvetsiya, Finlyandiya va boshqa). Ayrim mamlakatlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishslash bilan bog'liq shunday posyolkalar vujudga keladi (Kuba, Braziliya qand zavodlari, Hindiston, Xitoy va Shri-lankada choy fabrikalari va boshqa).

**5. Ko'makchi xarakterga ega bo'lgan aholi manzilgohlari.** Bunday aholi

manzilgohlari aholisining soni kam bo'lib, shaharlarga ham, qishloqlarga ham kiritilmaydi. Vaqt nuqtaiy nazaridan bunday aholi manzilgohlari ijtimoiy va territorial mehnat taqsimoti kuchli taraqqiy etgan keyingi davrlarda vujudga kela boshlagan. Masalan: sanatoriya, kasalxona, turizim rivojlangan, ilmiy muassasalar joylashgan va shahar hamda qishloqlardan tashqarida bo'lган alohida aholi manzilgohlari ana shunday ko'makchi manzilgohlardir.

**6. Ko'chmanchi xalqlarning yashash shakllari.** Ko'chmanchi xalqlarda odatda, doimiy aholi manzilgohlari bo'lmaydi, ular vaqtincha turish uchun alohida joylarda yashaydilar. Ko'chmanchlik qadim davirlarda keng tarqalgan edi. Hozir esa juda kam uchraydi. Turli – xil aholi manzilgohlari bir – biri bilan aloqada bo'lib, turli hududiy tuzilmalarni vujudga keltiradi. Shuning uchun ham aholi manzilgohlarini geografik jihatdan o'rganganda ularni doimiy aloqada bo'lган bir butun tizim deb qarash, ularning hududiy mehnat taqsimotidagi o'rnini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

#### **5.4. Aholining shahar bilan qishloq o'rtasida taqsimlanishi**

**Aholining shahar** bilan qishloq o'rtasida taqsimlanishi, shahar aholisining salmog'i har bir mamlakat yoki uning ayrim rayonlarining rivojlanish darajasini shu hudud xo'jaligining industrial yoki agrar xarakterga ega ekanligini, nihoyat, urbanizasiya darajasini ko'rsatuvchi muhim ko'rsatkichdir.

Shahar aholisi soni va salmog'inining tez o'sa borishi asosan kapitalizimning rivojlanishi, yirik mashina industriyasining taraqqiy etishi bilan bog'liq. Bu jarayon ayniqsa XIX asrdan boshlab yaqqol ko'zga tashlana boshladи. Shahar aholisining salmog'i dunyoning turli qisimlarida turlicha. Taxminan shahar aholisining salmog'i eng yuqori bo'lган hudud Shimoliy Amerika hisoblanadi-75 %, Avstraliyada (Okeaniya bilan birgalikda)-68 %, Evropada-63 %, Lotin Amerikasida-56 %, Osiyoda-25 %, Afrikada-22 % aholi shaharlarda yashaydi. Odatda shahar aholisining salmog'i urbanizasiyaning asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Shuningdek hozirgi zamon urbanizasiyasining muhim ko'rsatkichi umuman shahar aholisining soni va salmog'igina emas, balki katta va yirik shaharlarning soni va salmog'i haqidagi ko'rsatgchidir.

**Urbanizasiya–shaharlashish demakdir, ya'ni jamiyat hayotida shaharcha yashash tarzining ortib borishi.** Shaharlashish jarayonini quyidagi xususiyatlarda ko'rishimiz mumkin:

- 1) Shahar aholisi sonining o'sib borishida.
- 2) Ishlab chiqarishning shaharlarda to'planishida.
- 3) Shaharlar maydonining kengayib borishida.

Jamiyat rivojlanishi tarixida shaharlarning ma'muriy markaz, madaniy markaz hamda iqtisodiy aloqalar qilinadigan markazlar sfatida roli ortib bordi. 1808 yilda dunyo aholisining 2,4 % ining shaharlarda yashagan bo'lsa, hozirgi kunda bu ko'rsatkich taxminan 56 % ga ortib ketdi. 1900 yilda 1,4 %, 1950 yilda 29 %, 1990 yilda 45 % bo'ldi. Davlatning urbanizasiyalashgan darajasi quyidagi ko'rsatkichlar asosida belgilanadi:

- 1) 50 % dan yuqori bo'sa, yuqori darajada urbanizatsiyalashgan;
- 2) 20 – 50 % o'rtacha urbanizatsiyalashgan;

3) 20 dan kam bo'lsa, past urbanizatsiyalashgan.

Hozirgi kunda urbanizatsiyalashgan hudud jami dunyo hududini 1 % egallagan holda dunyo sanoat mahsulotining 80 % ini ishlab chiqarmoqda. Tabiatga chiqarilayotgan chiqindining 80 % i ham urbanizatsiyalashgan hududlar massasiga to'g'ri kelmoqda. Shahar aglomeratsiyalari **konurbanizasiya** ham deyiladi. Shaharlar hududining kengayib borib, qo'shilib ketishidan yirik shahar **megapolislar** vujudga keladi.

Masalan: Bosvash, Chipits, Sansan, Tokaydo. Yirik shaharlar atrofidagi qishloqlardagi aholining asosiy qismi sanoat, savdo bilan band bo'ladi. Bunday qishloqlarda hududning kengayishi, ijtimoiy hayotning rivojlanishi–**Rurbanizasiyaga** misol bo'ladi. Bu rurbanizatsiya jarayoni deyiladi (inglizcha-rural-qishloq, qishloq joylar urbanizatsiyasi).

Shaharlar aglomeratsiyasi shaharlarning guruh bo'lib rivojlanishiga, shahar aholisi manzilgohlarining hududiy jihatdan deyarli bir – biri bilan qo'shilib ketishi yoki bir – biriga juda yaqin joylashishiga, yirik shaharlarning o'z atrofi bilan birgalikda tez rivojlanib asosiy yirik shaharlar bilan uning shahar atrofi zonasi o'rtaida aholining qayta taqsimlanishi jarayoni adabiyotlada **suburbanizasiya** deb ataladi.

Yirik shaharlar va shahar aglomeratsiyalarining rivojlanishi ular atrofida va orasida joylashgan ko'plab qishloq aholisi manzilgohlari ham shaharlarga xos hayot obrazining keng tarqalishiga sababchi bo'ladi. Bunday zonalarda joylashgan qishloq aholisi manzilgohlarida odatda, qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lmanган mehnat faoliyati asosiy o'rinn tutadi, aholi qishloq joylarda yashab, shaharlarga borib ishlaydi, aholining har kuni bajaradigan ishlari mayatniksimon harakati misli ko'rilmagan darajada keng tus oladi.

Kundalik mayatniksimon harakat ishga borish uchungina emas, balki o'qish, ma'daniy – maishiy talablarni qondirish maqsadlarida ham amalga oshiriladi. Bu **rurbanizasiya** jarayoni deyiladi. (ingilizcha “rural”–“qishloq”) rurbanizatsiya “qishloq joylar urbanizatsiyasi” demakdir. Juda yirik urbanizatsiyalashgan rayonlar AQShda keng rivojlangan. Uning shimoliy – sharqiy qismida, Atlantika sohilida aglomeratsiya jarayoni ayniqlsa kuchli.

Ayrim mamlakatlarda urbanizatsiyaga xos katta va yirik shaharlar, shahar aglomeratsiyalar tez rivojlanmoqda. Malumki odatda yirik shaharlar katta yoki kichik aglomeratsiyalarning markazi hisoblanadi. Bular mamlakatning eng yirik sanoat hududidir. Hozirgi zamon urbanizatsiyasi va ayniqlsa yirik shaharlar aglomeratsiyalari geografik muhitga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Ba'zan shaharlar va aglomeratsiyalar geografik muhitga faqat salbiy ta'sir ko'rsatadi deb o'ylaydilar. Urbanizasiya jarayonida geografik muhitga ko'rsatiladigan ta'sir uni yaxshilash, aholi hayoti uchun yanada qulayroq qilish maqsadida amalgam oshirish mumkin. Erlar melioratsiyasi, dengiz, daryo, ko'l va suv omborlari qirg'oqlarining mustahkamlanishi, gidrografiya tarmoqlarning qayta ta'mirlash, himoya zonalari barpo etish va boshqalar shaharlar va shahar atrofi tabiatini yanada qulaylashtirish maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar jumlasidandir.

Shaharlarning rivojlanish jarayonida tabiatga uzviy ta'sir etishi oqibatida uning turli komponentlari o'rtaida muvozanat buzilishi, oqar suvlar va atmosfera haddan

tashqari ifloslanib ketishi, eroziya jarayoni kuchayishi, flora va fauna kambag'amlashib kamayib ketishi mumkin.

Bunday jarayonlarni maishiy sanoatlarning yirik shaharlari va aglomeratsiyalarida ko'rsa bo'ladi. Sanoat korxonalari va avtomobil transporti atmosfera va oqar suvlarni ifloslantiruvchi asosiy manbalardir. Dunyoning eng yirik shaharlari bo'lgan Nyu-York, Tokio, Parij, London osmonida sanoat va avtotransport iflosliklaridan iborat sun'iy bulutni har doim ko'rish mumkin. Birgina Nyu-York shahrida har kuni atmosferaga 3200 t oltingugut birikmalari, 280 t sanoat changi, 4200 t uglerod oksidi ko'tariladi. Hozirgi zamon urbanizatsiyasi jarayoni global xarakterga ega bo'lib deyarli butun dunyoni qamrab olgan.

Urbanizatsiya o'ziga xos shahar hayot tarzini vujudga keltiradi. Buning esa kishilarning o'zaro aloqalari uchun qulay vaziyat yaratadi, aholining kasbiy tarkibini, ijtimoiy harakatchanligi tamoman o'zgartiradi. Urbanizatsiya jarayoni yirik shaharlar va shahar aglomeratsiyalarida urbanizatsiyalashgan muhitni vujudga keltiradi. Yuqori darajada urbanizatsiyalashgan muhit aholining hayoti, mehnat va dam olishi jarayonida vujudga keladigan deyarli barcha talablarni qondira oladi.

Hozirgi zamon urbanizatsiyasi fan-texnika inqilobi bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanmoqda. Fan-texnika inqilobi sanoatning hududiy konsentrasiyasiga sanoatning ayrim qisimlarida emas, balki katta areallarda joylashuviga aglomeratsion jarayonini kengaytirishga sababchi bo'lmoqda.

Urbanizasiyaning yanada kuchayishiga ta'sir etayotgan muhim omillardan biri-hozirgi zamoning juda tez taraqqiy etayotgan ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmasidir. Hozirgi zamon urbanizatsiya jarayonining ko'p qirraligi, turli ijtimoiy-iqtisodiy tuzumga ega bo'lgan mamlakatlarda bir-biridan forq qilish urbanizatsiyani tiplarga ajratishni taqozo qiladi:

- 1) Industrial tip;
- 2) Kompleks tip;
- 3) "Soxta" Urbanizasiya tip;
- 4) xizmat darajasining haddan tashqari rivojlanishi.

Dunyo urbanizatsiya jarayoni, asosan 1 chi tip va 2 chi tiplarga to'g'ri keladi. Urbanizasiyaning 3 chi tipi soxta urbanizatsiya rivojlanayotgan mamlakatlarga xos. Urbanizasiyaning 4 chi tipi ayrim rivojlangan mamlakatlarga xosdir. Urbanizatsiyani mamlakat xo'jaligining hududiy tarkibi bilan bog'lab geografik jihatdan o'rganish yaxshi natijalarni beradi.

Urbanistik tarkib-aholining soni turlicha bo'lgan shaharlarning nisbatan, yirik shaharlar aholisining barcha shahar aholisidagi salmog'i kabi ko'rsatkichlardan iborat. Shaharlar juda qadimgi zamonda ma'muriy hokimiyat, savdo va hunarmandchilik markazi, harbiy qo'rg'onlar sifatida Nil, Dajla, Furot daryolari deltalarida paydo bo'lgan. Kapitalizmni rivojlanishi va yirik mashinasozlik sanoati, transport va jahon bozorining o'sishi bilan shaharlarda sanoat to'plandi. Ko'p shaharlar transport tugunlariga, savdo taqsimot tugunlariga aylanib bordi. Shaharlarning ma'muriy va madaniy markazlar sifatidagi mavqelari kuchaydi. XX-asr o'rtalarida nomoddiy sohalarning o'sishi bilan shaharlarning vazifalari yanada kuchaydi. Hozirgi zamon shahari bir qancha vazifani bajaradi. Lekin bir xil vazifani bajaruvchi shaharlar ham mavjud. Masalan, tog'-kon sanoti shahari, ilmiy shahar,

kurort shahari va xatto poytaxt shaharlari ham qurilgan. Ba'zi shaharlar poytaxt qilish uchun maxsus qurilgan.

Urbanizasiya hozirgi zamondagi eng muhim ijtimoiy iqtisodiy jarayonlardan biri hisoblanadi. Urbanizatsiya deb mamlakatda, hudud va jahonda shaharlarning o'sishi va shahar aholisini salmog'i ortishi, murakkab shaharchalar shaxobchalari, tizimlarining paydo bo'lishi va rivojlanishiga aytildi. Binobarin, urbanizatsiya, jamiyat hayotida shaharlar ahamiyatining tarixiy o'sish jarayonidan, jamiyatning aholi mehnati, turmush tarzi va madaniyatining ko'proq shaharlarga xos bo'lib o'zgarib borishidan iboratdir.

Hozirgi zamon urbanizatsiyasi butun jahonga tegishli jarayon bo'lib ko'pchilik mamlakatlarga xos bo'lган uchta umumiy xususiyatga ega:

Birinchi xususiyat-shahar aholisi sonining xususan rivojlanayotgan mamlakatlarda tez sur'atlar bilan o'sib borishi. Masalan, 1900 yilda jahon ahosilining 14 % ga yaqini shaharlarda yashagan bo'lsa, 1950 yilda 29 % ga, 1990 yilda 45 % ga hisobga olganda shaharlar aholisi har yili 50 mln. kishiga ko'payib bormoqda.

Ikkinci xususiyat - aholi va xo'jalikning asosan yirik shaharlarda to'planishi. Bunga ishlab chiqarish xususiyati, uning ilm-fan, ta'lim bilan aloqasining murakkablashib borayotgani sabab bo'lmoqda. Bundan tashqari katta shaharlar kishilarning ma'naviy ehtiyojlarining odatda to'liqroq qondiradi.

Hozir jahoning eng yirik shaharlari Mexiko, Tokio, Nyu-York, Pekin, Shanxay kabilardir. Bu shaharlardan taxminan Mexikoda 19,7 mln. kishidan ortiq kishi, qolganlarida 10-20 mln. kishi yashaydi.

Uchinchi xususiyat - shaharlar maydonini kengayib ketishi. Hozirgi zamon shaharlashishi uchun shaharlarning oddiy bir o'zakli shaklidan shaharlar va qishloqlar tutashib ketib, shaharlar guruhi, shaharlar «uyumi» shakliga, ya'ni shaharlar aglomerasiyasi shakliga o'tish xosdir.

Urbanizatsiya butun jahon jarayoni sifatida umumiy xususiyatlarga ega bo'lish bilan birga turli mamlakatlar va hududlarda o'ziga xos xususiyatga ega. Bu xususiyatlar urbanizatsiyaning har xil darajada ekanligida va sur'atida aks etadi.

Urbanizatsiya darajasi ancha past bo'lган rivojlanayotgan mamlakatlarda shaharlashish eniga o'smoqda, shahar aholisi tez ko'payib bormoqda. Shaharlar aholisining yillik o'sishi 4/5 qismi rivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ri keladi. Shaharliklarning mutloq soni esa iqtisodiy rivojlangan mamlakatlardagidan anchagina oshib ketdi. Ilm fanda shahar portlashi deb nom olgan bu hodisa rivojlanayotgan mamlakatlarning butun ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyotida muhim omillaridan biri bo'ldi.

Shaharlarning tez o'sayotganligiga qaramay jahon aholisining yarmidan ortig'i qishloqlarda yashaydi. Qishloqlarning umumiy soni esa 15-20 mln. ga etadi. Qishloq aholisini joylanishida asosan ikki usul mavjud: g'uj va tarqoq joylashish.

Qishloqlarning mavjudligi tarixiy rivojlanish, iqtisodiy rivojlanishga tabiiy sharoitning xususiyatlariga bog'liq. Hozirgi vaqtida urbanizatsiya atrof muhitning o'zgarishiga katta ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Katta shaharlar va aglomeratsiyalar ifloslikning deyarli asosiy manbai bo'lib, atrof-muhitga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Birinchi o'rinda atmosfera havosini ifloslanishi kuzatiladi.

Urbanizatsiyalashgan hudud quriqlikni 1% egallaydi, jahon aholisini 56 %

yashaydi. Yalpi ichki mahsulotni 80 %, zararli chiqindilar va gazlar 80 % urbanizatsiyaga to'g'ri keladi. Urbanizatsiya 1800 yilda 2,4 %, 1900 yilda 14 %, 1950 yilda 29 %, 1990 yilda 45 %, 2008 yilda 47 %, 2020 yilda 56 % tashkil etdi.

Davlatlarning urbanizasiya darajasiga e'tibor bersak: Taxminan Singapur 100 %, Belgiya, Quvayt 97 %, Venesuella 93 %, Isroil 92 %, Buyuk Britaniya, Urigvay 90 %, Germaniya 87 %, Braziliya 80 %, AQSh 75 %, Yaponiya 76 %, Hindiston 26 %, Xitoy 24 %, Oman, Efiopiya, Malavi 13 %, Uganda 12 %, Butan 10 %, Ruanda, Brundi 8 %.

Shahar tushunchasiga e'tibor bersak: Daniya, Shvetsiya, Finlyandiyada 200 kishidan ortiq, Kanada Avstraliya 1000 kishi, Germaniya, Fransiya, Kuba 2000 kishi, AQSh, Meksika 2500 kishi, Avstriya, Hindiston, Eron, Madagaskar 5000 kishi, Shveysariya, Malayziya 10000 kishi, Nigeriya 20000 kishi, Yaponiya 30000 kishi, Janubiy Koreya 40000 kishi, O'zbekiston 7000 kishi.

Urbanizasiyaning o'ziga xos tomonlari: **Konurbanizasiya**—shahar aglomerasiyalari, **Suburbanizasiya** – shahar atrof urbanizasiyasi, **Rurbanizatsiya** – “qishloq” urbanizasiyasi, “Shahar portlashi”, “Soxta” urbanizatsiya. Masalan: AQSh da: “Bosvash”: tarkibidagi aglomeratsiyalar: Boston, Nyu-York, Filadelfiya, Baltimor, Washington, Brijport, Pravideks. Uzunligi–1000 km, eni–200 km, aholisi– 50 mln.ga yaqin. Oltita shtatni o'z hududi ichiga oladi: Massachusettsi, Rod Aylend, Konnektikut, Nyu-Jersi, Delaver, Merilend va Kolumbiya federal okrugi. Bosvash—“aglomeratsiyalar aglomeratsiyasi” ya'ni bu “Shahar-rayon” deyiladi. “Chipite”—Chikago, Detroit, Pitsburg, “San-San”—San-Fransisko, San Diego. Buyuk Britaniyada: Birmengem, Manchester, Liverpul, Glazgo. Germaniyada: Rur rayoni. Gollandiyada: “Randshtat Xolland” aglomeratsiyasi: Amsterdam, Rotterdam, Gaaga, Arnem, Utrect va boshqalar. Yaponiyada: Tokaydo aglomeratsiyasi: Tokio, Nagoya, Osaka–600 km. Tokio – Kavasaki, Iokogama Osaka – Kobe, Kioto aglomeratsiyalari qo'shilib ketgan.

Yuqorida aytib o'tganimizdek urbanizasiyaning **4 tipi** mavjud: industrial, kompleks, “Soxta” urbanizatsiya, urbanizatsiya “servis”.

Shaharlarning mikro, mezo, makro o'rni mavjud. Bundan tashqari shaharlarning funksional tiplari mavjud: ko'p funksiyali shaharlar, iqtisodiy funktsiya asosiy bo'lган shaharlar, madaniy-ma'muriy markaz vazifasini bajaruvchi shaharlar, fan shaharlari, kurort shaharlar.

## 6 BOB. AHOLI RIVOJLANISHINING QONUNIYATLARI

### 6.1. Demografik siyosat

Demografik siyosat-aholi siyosatning asosiy qismi bo'lib, jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlari va turli davlatlarida o'ziga xos xususiyatlarga, yo'nalishlarga egadir. Aholi siyosati demografik siyosatga qaraganda keng qamrovli bo'lib, aholini rivojlantirish maqsadida olib boriladigan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat yo'nalishi hisoblanadi.

Aholi rivojlanishi esa, o'z maqsadida uning ham miqdoriy, ham sifatiy jihatlarini o'zgarib borishida namoyon bo'ladi. Aholining miqdoriy rivojlanishi

deganda ma'lum davrda, ma'lum hudud aholisi yoki millatining son jihatidan o'zgarib borshi tushiniladi. Aholining sifatiy rivojlanishi esa, asosan uning salomatligi, o'rtacha umr ko'rishi, bilim darajasi va ma'lum tarbiya olishi komilligida o'z ifodasini topadi. Aholi rivojlanishi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining uzviy qismi bo'lib, u o'z ichiga asosan oilani, oila muhitini olar edi. Keyinchlik sanoat asta-sekin rivojlanib borishi natijasida mehnatga tayyorlashda maxsus bilimlar, maxsus faoliyat zarur bo'lib qoldi. Bu zarurat davlatda ta'lim tizimini yanada rivojlantirishda, yoshlarga maxsus bilim berib, kasb-hunar o'rgatishga ehtiyoj yaratdi. Natijada davlatimizda ta'lim tizimi tashkil topdi va rivojlandi. Hozirgi davrda O'zbekistonda aholi siyosatining asosiy maqsadi uning sifatiy rivojlanishini tashkil etishdan iboratdir. Aholining sifatiy rivojlanishi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- aholi salomatligining holati, bolalar va onalar o'limi o'rtacha umr davri;
- aholining ta'lim darajasi va uning tarkibi;
- aholining kasb-hunarga tayyorlik darajasi;
- aholining ijtimoiy tarkibi va ijtimoiy mobilligi;
- aholining urbanizasiyalshganligi;
- aholining hududiy harakati;
- aholining ma'naviy madaniy qadriyatlari va ularni saqlash, e'zozlash.

Respublikada aholi siyosati o'zaro chambarchas bog'langan bo'g'inlardan tashkil topgan. Ushbu bo'g'inlarga demografik siyosat, aholi migratsiyasi, urbanizatsiya va bandlik siyosatlarini kiritish mumkin.

Demografik siyosat aholi siyosatini uzviy qismi bo'lib, uning asosiy maqsadi aholini miqdoriy rivojlanishi bosqichlaridan iboratdir. Demografik siyosatning asosiy ob'ekti aholining takror barpo bo'lish jarayoni hisoblanadi. Demografik siyosat orqali kutilgan, istalgan aholi takror barpo turiga erishiladi. Ma'lumki aholi takror barpo bo'lishi tug'ilish, o'lim, nikoh, ajralish kabi demografik jarayonlar bilan bevosita bog'liqdir. Shu bois ushbu jarayonlarni siyosat yo'li bilan jamiyat tomonidan boshqarilishi ham demografik siyosat vaziyatlaridandir. Jamiyat taraqqiyotiga nazar tashlasak, demografik jarayonlarni, ayniqsa tug'ilish, nikohni jamiyat tomonidan boshqarilganligini guvohi bo'lamiz. Hatto bu haqida eng qadimgi olimlar Aflatun va Arastu asarlarida ham uchraydi. Qadimgi Rimda tug'ilish va nikohni ozod insonlar o'rtasida qo'llab – quvvatlovchi qonunlar qabul qilingan.

Feodalistik jamiyatda esa din tomonidan shunday qattiq qonunlar yaratilganki, ularda nikoh, cheklanmagan tug'ilish va katta oilalar aholini muntazam ko'payib borishi omili sifatida himoya qilingan, qo'llab–quvvatlangan. Evropada kapitalistik ishlab chiqarish usulini rivojlanishi esa demografik jarayonlarda yangi muammolarni, yo'nalishlarni kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Sanoatni rivojlanishini shahar turmushi tarzini kengayishi, ayollarni ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etishi tufayli, oilada farzandga bo'lgan talab kamaydi. Ko'p bolali ayollarda, kapitalistik ishlab chiqarish sharoitida qator iqtisodiy muammolar vujudga keldi, natijada tug'ilish o'z-o'zidan kamaya boshladi. Kapitalistik ishlab chiqarish usuli rivojlangan Fransiya va boshqa Evropa davlatlarida tug'ilish XIX asrning birinchi o'n yilligidan boshlab kamaya bordi. Ushbu davatlarda XX asirga kelib aholini ta'biy o'sishi nihoyatda kamayib ketdi.

Aholi takror barpo bo'lishi kengaygan turdan qisqargan turga o'tdi. Natijada

bu davlatlarda aholini qarishi “Demografik qarish” jarayoni sodir bo’ldi. Bu ham davlat tomonidan maxsus demografik siyosat olib borishni taqozo etdi. 1946-yilda Fransiyada tug’ilishni ko’tarish orqali aholi miqdori ko’payishiga erishish maqsadida oilalarga birinchi va ikkinchi ayniqsa uchinchi farzandlarining tug’ilishida alohida nafaqa ajratildi. 1960-1970-yillarda tug’ilishni ko’tarish maqsadidan demografik siyosat boshqa rivojlangan davlatlarda ham olib borildi. Lekin ushbu davlatlardagi siyosiy mulkchilik shakli tug’ilishni ko’paytirish uchun hamma chora tadbirlarni qo’llashda ba’zi muammolarni keltirib chiqarar edi.

Shu bois Evropadagi rivojlangan davlatlarda tug’ilish darajasini ko’tarib, optimal, normal holga keltirish juda mushkul bo’lmoqda. Rivojlanayotgan davlatlarda esa, aksincha 1960-1990-yillarda tug’ilishning yuqori darajada turganligini va o’lim hollarining keskin kamayganligi natijasida aholining tabiiy o’sishi juda yuqori darajada bo’ldi. Natijada Osiyo, Afrika va janubiy Amerikada joylashgan qator rivojlanayotgan davlatlarda aholi soni birdan ko’payib ketdi. Bu holni demograf mutaxassislar “Demografik portlash” deb atadilar. Ushbu davlatlarda iqtisodiy imkoniyati cheklangan, holda aholisining bunday tez ko’payishi tug’ilishini cheklashga majbur etdi. Natijada rivojlanayotgan davlatlarga davlat tomonidan “oilani rejalahtirish” ya’ni “tug’ilishini nazorat etish” borasida demografik siyosat olib boriladi masalan, Xitoyda bir oilaga bir bola siyosati olib boriladi.

**Bizga ma’lumki, demografik siyosat-muayyan davlatda aholi sonini me’yor darajasida tartibga solish uchun («Oilani rejalahtirish» ya’ni «tug’ilishni nazorat etish»), davlat tomonidan olib boriladigan siyosat bo’lib, bu siyosat iqtisodiy, ma’muriy-huquqiy, ijtimoiy-psixologik yo’nalishlarda amalga oshiriladi.** Demografik siyosat o’tkazish uslublarini shartli ravishda uch yo’nalishga ajratish mumkin: *Iqtisodiy, Ma’muriy-huquqiy, Ijtimoiy-psixologik*

Iqtisodiy uslub asosan tug’ilish darajasi pasayib ketgan aholi takror barpo bo’lishi, aholi ko’payishini ta’minlay olmagan hollarda qo’llaniladi. Bu uslubda davlat tomonidan homilador ayollarga (ma’lum davrda) u farzand ko’rgandan keyin va farzandi 2-9 yoshga etgunga qadar maxsus nafaqalar ajratiladi, birinchi, ikkinchi, uchunchi farzandlarga iqtisodiy yordam beriladi. Ko’p bolali oilalarga ham iqtisodiy yordamlar berib boriladi.

Ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etuvchi yosh bolasi bor ayollarga ish joylaridan bazi bir imtiyozlar beriladi, ularga ham farzandlarini tarbiyalab, ham ijtimoiy faoliyatlarini davom ettirish uchun sharoit yaratiladi shiningdek bazi davlatlarda kam ta’minlangan oilalarga ham iqtisodiy yordam ajratiladi.

Tug’ilishni ko’tarish borasida olib boriladigan iqtisodiy uslubni yana biri nikohga kirgan yosh oilalarni turar joy bilan ta’milsh borasida davlat tomonidan beriladigan imtiyozlar. Shuningdek, bolalar kiyimlari oziq-ovqatlarini arzon narxda sotish maktabgacha tarbiya muassasalari faoliyatining sifatini yaxshilash bolalar va onalar salomatligini davlat tomonidan muhofaza etilishi aholiga maishiy xizmat ko’rsatish kabilar ham aholi takror barpo bo’lishiga ijobiy ta’sir etuvchi iqtisodiy omillar hisoblanadi.

Ma’muriy-huquqiy uslubga aholi takror barpo bo’lishi, oilalar tashkil topishiga turli qonunlar orqali ta’sir ko’rsatish kiradi. Masalan, abort (homilani sun’iy yo’l bilan yo’q qilish) larni qonun bilan man etilishi, nikoh yoshlarini ko’tarilishi, aholi

migrasjion harakatini cheklash, yoki rivojlantirish oila buzilganda, er va xotin ajrashganda ona va bola huquqlarni qonuniy himoyasi, bolani ota-onal oldidagi burchini qonuniy belgilash, homilador ayolni ishga qabul qilishda, yoki ishdan bo'shatishda ular huquqlarini qonuniy himoyasi, nafaqa ajratishda bolalar sonini hisobga olish kabi jarayonlardir.

Ijtimoiy-psixologik uslub, yoki aholini "demografik tarbiyalash". Aholini demografik tarbiyalashda avvalo yosh avlodda oilaga, oilada kutilayotgan farzandlar soniga bo'lgan munosabatini davlat ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotiga, aholi salomatligiga mos ravishda shakillantirish lozim. Bunda oila asosiy tarbiya o'chog'i hisoblanadi. Shuning uchun ham ota-onalarning "demografik savodliligi" ga katta etibor berilmog'i lozim. Demografik tarbiyaning yana bir muhim o'chog'i ommaviy axborot orqali demografik mayliga ta'sir etish mumkin.

Demografik siyosat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning ajralmas qismi bo'lmog'i lozim. Shundagina aholini ijtimoiy iqtisodiy ehtiyojlarini aks ettirgan holda rivojlanib boradi.

O'zbekistonda demografik siyosatning barcha usullaridan foydalaniladi. Ayniqsa ijtimoiya-psixologik usullaridan keng foydalanilmoqda. Respublikamizda yuritilayotgan demografik siyosat natijasida aholi o'sishi so'nggi 20 yil ichida 3 % dan 1,5 % cha pasaydi. Bunda aholi o'rtasida tushintirish, targ'ibot ishlari olib borilmoqda. Demografik siyosat yuritishda ommaviy axborot vositalaridan keng foydalaniladi. Bunda respublikamiz aholisiga farzand ko'rishni rag'batlantirish hamda muhofaza qilish bilan birga "Normal oila", "sog'lom farzand" tushunchalari tushuntirib boriladi. O'zbekiston Respublikasi "oila kodeksi" da belgilangan qonunlar asosida oilalar barpo qilinmoqda va davlatimizning ijtimoiy-iqtisodiy muhofazasi ta'minlanmoqda.

## 6.2. Demografik bashorat

Fanda biror hodisa yoki biron-bir ob'ekt holatining o'zgarishini oldindan ko'ra bilish va ayta olish **bashorat** deb ataladi. Hozirgi paytda geografiyada bashoratlash va bashorat tushunchalari mavjud. Bashoratlash-o'rganilayotgan borliq (ob'ekt) holatining o'zgarishi haqida ma'lumotlar yig'ish yoki olish jarayonidir. Bashorat esa bashoratlash bo'yicha tadqiqotlarning natijasidir. Umuman bashorat deganda o'rganilayotgan borliq yoki hodisaning kelajakdagi holati va ko'rinishining tavsiyi tushuniladi.

Demografik bashorat deganda malum hudud aholisining soni, tarkibi va demografik vaziyati istiqbolining asoslangan holda oldindan aniqlash tushiniladi. Har qanday ijtimiiy-iqtisodiy bashoratlar, demografik bashorat zaminida tuziladi. Kelajakda ishlab chiqarish lozim bo'lgan mahsulotlar miqdorini rejalshtirish uchun avvalo kelajakdagi aholi soni, yosh-jinsiy tarkibi, oilalar sonini bilish lozimdir. Ayniqsa, aholining yosh tarkibi bo'yicha bashorati muhim ahamiyatga egadir. Kelajakda maktabgacha bo'lgan bolalar muassalari, mакtablar, oila va maxsus o'quv yurtlarini qurilishini rejalshtirish uchun kelajakda qancha bola maktabgacha ta'lim muassasalariga qatnashi mumkin, qancha bola maktab yoshiga etishi, qancha bola maktabni tugatib oliy va maxsus o'quv yurtlariga borishi haqidagi malumotlar

zarurdir.

Aholining yosh-jinsiy tarkibi haqidagi bashorat, tibbiy xizmat tarkibi haqidagi bashorat tibbiy xizmat ko'rsatish tizimining rivojlanishi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Aholi yosh-jinsiy tarkibi bo'yicha tuzilgan bashorat asosida kelajakda qancha bolalar va ayollar shifokorlari, aholining keksa guruhiga xizmat qiluvchi kardiologlar, onkologlar, nevropotologlar kabi mutaxassislar tayyorlash rejalashtiriladi. Kelajakda, yangi ish o'rinalarini tayyorlash xalq xo'jaligi sohalarini rivojlantirish istiqbollarini aniqlashda esa mehnat yoshidagi aholi haqidagi bashorat ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Umuman, iqtisodiyot va aholini ijtimoiy hayotining barcha qirralari istiqbolini rejalshtirishda shu ijtimoiy jarayonlarning qatnashchilari, iste'molchilar va yaratuvchilari bo'lishi aholi guruhlari haqidagi demografik bashorat zarurdir. Aks holda kelajak uchun rejalshtirilgan har qanday ijtimoiy-iqtisodiy jarayon ijobiy natija bermaydi. Demografik, bashorat demografiya fani va demografik tadqiqotlarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Demografik bashorat-bashorat etilayotgan davrga qarab qisqa muddatli, o'rta muddatli va uzoq muddatli bo'ladi.

**Qisqa muddatli**-demografik bashorat **5** yilga mo'ljallangan bo'lib, turli xo'jalik va rejalashtirish tashkilotlarida ko'proq qo'llaniladi. Qisqa muddatli bashoratda aniqlik darajasi nisbatan yuqori bo'ladi. Chunki 5 yil davimida aholini o'limi tug'ilishi jarayonida ham keskin o'zgarish ro'y bermaydi. Mehnat resurslari farzand ko'rish yoshidagi aholi guruhi, nafaqa yoshidagi aholi guruhlari haqidagi ma'lumotlar aniq bo'ladi. Asosan tug'iladigan bolalar soni maxsus hisob-kitoblar, uslublar orqali hisoblanadi.

**O'rta muddatli** – demografik bashoratlar **–30** yilgacha bo'lgan davr uchun hisoblanadi. Ushbu bashoratda aholini tug'ilish va o'lim jarayonlari, aholi migratsiyasida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar ilmiy asosda o'rganiladi va bashorat tuzishda hisobga olinadi.

**Uzoq muddatli** demografik bashoratlar **30-60** yilda qo'llanadi. Bunday bashoratlar aholi tug'ilishi va o'limining kelajakdagi o'zgarishlari haqidagi gipotezalarga asoslangan. Uzoq muddatli demografik bashoratga aholi migratsiyasini hisobga olish bir muncha murakkabroq kechadi. Chunki aholi migratsiyasi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar bilan bir qatorda jamiyatda, tabiatda yuz bergen tasodifiy jarayonlar bilan ham bog'liqdir. Shu tufayli uzoq muddatli demografik bashoratlarning aniqlik darajasi nisbatan pastroq bo'lishi mumkin.

Demografik bashorat o'z tarixiga egadir. Bu boradagi eng dastlabki harakatlar qadimgi **Rim va Gretsiyada** kuzatilgan. Ilmiy asoslangan birinchi demografik bashoratlar XVII asrning oxiri XVIII asrning boshlarida **L. Eyper, T Maltus, Pirla-Pida** lar tomonidan yaratilgan.

XX asrning **20** yillaridan boshlab aholi o'sishining asosiy komponentlari, tug'ilish, o'lim jarayonlaridagi o'zgarishlarni hisobga olgan xolda, takomillashgan uslublar yordamida demografik bashoratlar hisoblana boshlandi. Ana shu yillarda **Fransiya, Germaniya, Italiya, Daniya** davlatlari aholisining kelajakdagi miqdori demografik bashoratlar orqali, aniqlandi.

**1921** yil **E.M. Tarsov, S.G. Struminlar** **1921-1941** yillar uchun Rossiya aholisining demografik istiqbolini ishlab chiqdilar. **A.S.Novoselskiy, B.B Poevskiy,**

**M.B. Ptux, Yu.A.Korchak-Chepurkovskiy, A.P.Komnko, B.Babaninlar** tomonidan ham demografik bashoratlar ishlab chiqilgan. Demografik bashoratning uslublari esa Rossiyalik aholishunos olimlar **A.Ya. Boyarskiy, B.Ts. Urlanis, V A. Borisov** ishlarida keng o'rinni olgan. O'zbekistonda demografik bashoratni ishlab chiqish asosan **1960** yillardan boshlanadi. Respublikada dastlabki demografik bashoratlar aholishunos olim **M.K.Qoraxonov** rahbarligida **1962-1980** yillarda ishlab chiqilgan. Keyinchalik Respublikada **Mullajonov, Ubaydullayeva, Ali-Qoriyev, Bo'riyeva, Maksakova** va boshqalar har tomonlama mukammal bashoratlarning ishlab chiqishdi.

Demografik bashoratda mehnat yoshidagi aholini yosh-jinsiy, ma'lumot, kasb-malakasi bo'yicha kelajak tarkibini aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki, ana shu bashorat asosida har bir davlat va uning hududlarida kelajakdagi mehnat resurslari balansi ishlab chiqiladi.

Aholining oilaviy tarkibini bashorat etish ham muhim demografik tadqiqotdir. Chunki oila juda ko'p mahsulotlarning iste'molchisi hisoblanadi. Kelajakda oilaning tarkibi qanday bo'ladi, aholining necha foizi yolg'iz yashaydi, necha foizi oddiy oilalalarda, necha foizi 2-3 avlod vakillari yashovchi murakkab oilalarda istiqomat etadilar. Yosh oilalar salmog'i qanday bo'ladi? Ana shu savollarga oila tarkibini bashorat etish orqali javob beriladi hamda shu bashorat asosida aholiga turar joy yashash uchun kerak bo'lgan barcha mahsulotlar ishlab chiqish rejalashtiriladi.

## GLOSSARIY:

**Aholi**-deganda ma'lum hududda yashayotgan kishilar guruhi tushuniladi.

**Aholi** – ishlab chiqarish sub'ekti, barcha moddiy ne'matlarni ishlab chiqaruvchi.

**Aholi-ishlab** chiqarilgan jami ijtimoiy mahsulotlardan ma'lum qismining is'temolchisi.

**Aholi**-butun ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'zi ham takror barpo qilinishi zarur.

**Aholi geografiyasi** – aholining tarkibi, dinamikasi va joylashuvidanagi hududiy farqlarni, bu farqlarni vujudga keltiradigan qonuniyatlarini, aholi manzilgohlarining hududiy tizimlarini va ularning rivojlanishi qonuniyatlarini o'rganadi. Aholi geografiyasi, shuningdek, aholining er shari bo'yicha va ayrim mamlakatlar va tumanlar miqyosidagi harakatini ham o'rganadi.

**Antropologiya** – odamlarning paydo bo'lishi, kishi organizmining evolyutsiyasi va undagi jismoniy o'zgarishlarning qonuniyatlarini, shuningdek irqlarning vujudga kelishi va geografik tarqalishini o'rganadigan fan.

**Aholining ijtimoiy tarkibi**-avvalo o'sha mamlakatda hukmron bo'lgan ijtimoiy munosabatlarning o'zgarishi esa, aholining ijtimoiy tarkibini ham keskin o'zgartiradi. Aholining ijtimoiy tarkibini xarakterlovchi belgi ishlab chiqarish munosabatlaridir.

**Aholining takror barpo bo'lishi**-aholining miqdori va tarkibini doimo tabiiy tarzda yangi avlodlar tomonidan keksa avlodlar o'rni to'ldirilishi orqali yangilanishidir.

**Budda dini** (buddizm)-bu dinga taxminan 450 million kishi e'tiqod qiladi. Tarixiy nuqtai nazardan budda eng qadimgi dunyo dinidir. U eramizdan avvalgi VI-V asrlarda shimaloy Hindistonda vujudga kelgan. Hozir bu dinga Hindiston aholisining bir qismi, Nepal, Shri-Lanka aholisi, Hindi-Xitoy xalqlarining bir qismi e'tiqod qilishadi. Budda dini shuningdek Xitoyning g'arbiy rayonlarida va MDHda tarqalgan.

**Demografiya** – grekcha – demos – “xalq” va grafiya – “tasvirlash” so'zlaridan iborat bo'lib, aholi haqidagi fandir.

**Demogeografiya**-aholi geografiyasi bilan demografiya o'rtasida birgalikda hal qilinishi kerak bo'lgan bir qator muammolar vujudga keladiki, bularni faqatgina ana shu ikki fan chegarasida vujudga kelgan yo'naliш – demogeografiya hal qiladi.

**Demografik statistika** – demografiyaning tarixiy tarmog'i bo'lib, aholi takror barpo bo'lishining tarixiy qonuniyatlarini o'rganadi. Statistik demografiyaning vazifalari aholining takror barpo bo'lishiga oid materiallarni to'plash va dastlabki qayta ishslash, demografik jarayonlarni statistik tahlil etish va kuzatish metodlarini ishlab chiqishdan iborat.

**Demografik jarayonlar**-tug'ilish, o'lim, nikoh, ajralash va hokazolar.

**Din**-xudoga, farishtalarga, xudo nomidan yuborilgan payg'ambarlarga va muqaddas hisoblangan kitoblarga ishonishdir.

**Demografiya**-aholining takror barpo bo'lish qonuniyatlarini o'rganuvchi fan hisoblanadi.

**“Demografiya”**-atamasi yunoncha so'zdan olingan bo'lib, demos-xalq va graphoyozaman, ya'ni xalqni yozaman ma'nosini anglatadi. Demografiya fan sifatida XVII asrning yarmidan so'ng shakllana boshladi.

**Davlat tili** – muayyan davlatning barcha siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlari

uchun qabul qilgan rasmiy tili.

**Diniy tarkib** – aholi o’rtasida kishilarining diniy e’tiqodga mansubligini ifodalovchi miqdor.

**Doimiy aholi** – ro’yxatdan o’tkazilayotgan vaqtida muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo’lib, bunga ushbu hududda doimiy ro’yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

**Doimiy aholi sonini baholash** - oxirgi aholini ro’yxatga olish ma’lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug’ilganlar va muayyan hududga ko’chib kelganlar soni qo’shilib, o’lganlar va muayyan hududdan ko’chib ketganlar soni ayiriladi.

**Jahon tillari**—Dunyo xalqlari tomonidan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarda keng ishlatiladigan tillar.

**Jahon dinlari**—Er yuzida geografik jihatdan keng tarqalgan va ko’pchilik aholi e’tiqod qiluvchi dinlar.

**Irq-bu odamlarning kelib chiqishi, govda tuzilishi va qiyofasi o’xshash bo’lgan tarixan tarkib topgan hududiy birligidir.**

**Iqtisodiy demografiya** – aholi takror barpo bo’lishining iqtisodiy omillarini tadqiq etadi. Iqtisodiy omillar deganda, jamiyat hayotining barcha iqtisodiy shart-sharoitlari hamda ularning tug’ilish, o’lim, nikohlanish darajasiga, aholining o’sish darajasiga ta’siri tushuniladi.

**Iqtisodiy aktiv aholi**-deganda mehnatga yaroqli aholining ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etayotgan, o’z mehnati tufayli daromad oladigan qismi va ishslashni xohlaydigan, ammo ish yo’qligidan vaqtincha ishlamayotgan qismi tushuniladi.

**Iqtisodiy aktiv bo’lмаган aholi**-mehnatga yaroqli aholining o’z yordamchi xo’jaligida band bo’lgan, vaqtincha mehnat qobiliyatini yo’qotgan va o’qishda va armiya xizmatida bo’lishi tufayli ishlamayotgan hamda ish qidirmayotgan qismi iqtisodiy aktiv bo’lмаган aholi hisoblanadi.

**Ijtimoiy demografiya** – demografik jarayonlarga aholining sub’ektiv harakati, ijtimoiy, ijtimoiy-psixologik ta’sirini o’rganadi.

**Islom dini**-VI asrning oxiri VII asrning boshlarida Arabiston yarim orolida vujudga kelgan. Islom dini odatda musulmon dini deb yuritiladi. Geografik nuqtai nazardan islom diniga e’tiqod qiluvchilar nisbatan yaqin umumiy hududda joylashgan. Taxminan 1,3 miliyargacha yaqin kishi e’tiqod qiladi. Islom dini Shimoly, G’arbiy, Sharqiy Afrikada, Arab mamlakatlarida, Kichik Osiyoda, Eron, Afg’iston, Pokiston, Bangladesh mamlakatlarida hukmron. Kipr aholisinining bir qismi musulmonlardir. Hindiston aholisining 9 % musulmonlar, ilgari bu mamlakatda musulmonlar ko’p bo’lgan. Lekin ularning ko’p qismi Pokiston va Bangladeshga ko’chib ketishgan. Islom dini Indoneziyada asosiy din hisoblanadi. Bu dingga shuningdek “Flippin” davlatining janubiy qismida yashovchi xalqlar G’arbiy Xitoydan “Uyg’ur dungonlar” ham e’tiqod qilishadi. Evropada Istambul va uning atrofidagi turklar, albanlar, bosniyaliklar, bolgarlarning bir qismi, lo’lilarning bir qismi musulmon hisoblanadi. Islom diniga e’tiqod qiluvchilar musulmonlardir.

**Yirik xalqlar**—Er yuzidagi soni 100 mln dan oshgan xalqlar.

**Matematik demografiya** – demografik jarayonlarni modellashtirish va bashoratlash

hamda ular o'rtasidagi aloqadorlikni o'rganishning matematik usullarini ishlab chiqish va tatqiq etish bilan shug'ullanadi. Demografik modellarga tug'ilish, o'lim, nikoh jadvallarining aniqligi, statsionar va barqaror aholi modeli kabilar kiradi.

**Migrasiya so'zi lotincha**-so'zidan otlingan bo'lib, ko'chish degan ma'noni bildiradi. **Millat**-etnosning eng yuksak darajasidir. Millat bo'lishi uchun tili, hududi, umumiqtisodiy faoliyati va milliy ong shakllangan bo'lishi kerak.

**Milliy dinlar**-ma'lum bir millat yoki ma'lum bir hudud aholisi e'tiqod qiluvchi dinlar (asosan bir mamlakat doirasidagi) milliy dinlar deb yuritiladi. E'tiqod qiluvchi aholining soni jihatdan milliy dinlar orasida eng yiriklari konfutsiylik, sintoizm, lomachilik va boshqalar. Konfutsiylik asosan Xitoylar o'rtasida keng tarqalgan. "Hinduizm" esa Hindiston aholisining eng asosiy dinidir. Yaponiyada-Sintoizm, Xitoyda-Konfutsiylik va daosizm dinlariga sig'inadilar. "Lamaizm" dini Sibr va Uzoq sharq, Mongoliyada tarqalgan.

**Mehnat resurslari**-aholining o'z jismoniy va ma'naviy imkoniyatlariga ko'ra mehnat qila olish qobiliyatiga ega bo'lgan qismi jamiyatning mehnat resurslari hisoblanadi.

**Nasroniylik**-diniga 1 milliardan ortiq kishi e'tiqod qilishadi. Nasroniylik dini eng keng tarqalgan dindir. Nasroniylik dini eramizning I-asrining 2-yarimida Rim imperiyasining sharqida paydo bo'lgan. U o'rta asr boshlaridayoq Evropaning barcha xalqlari diniga aylangan. Nasroniylik dinini dunyoning boshqa hududlariga kirib borishi ko'proq buyuk geografik kashfiyotlar davriga to'g'ri keladi. Nasroniylik bir necha tarmoqlarga bo'linadi: pravoslav, katolik va protestanlik.

**Nikoh**-erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYo) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

**1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsienti** - hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish)**-er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarining to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYo yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

**1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsienti**-hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Tarixiy demografiya** – mamlakatlar va xalqlar tarixidagi demografik jarayonlar holati va dinamikasini o'rganadi.

**Tug'ilish**-ma'lum avlodlarni tashkil etuvchi aholi guruhidagi bola ko'rish jarayonidir. Tug'ilish-biologik jarayon.

**Tug'ilish**-tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

**Tug'ilish darajasi**-tug'ilish koeffisientlari yordamida o'rganiladi. Tug'ilishning umumiyligi, maxsus va xususiy koeffisientlari mavjuddir.

**Tug'ilishning umumiyligi koeffisienti**-har 1000 aholiga nisbatan tug'ilgan bolalar

sonini ifodalaydi.

**1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsienti** – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**1000 ta aholiga nisbatan o'lim koeffitsienti** – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

**Til oilalari** – etnik jihatdan kelib chiqishi bir bo'lган tillarni birlashtiruvchi tushuncha.  
**Urbanizasiya** – shaharlashish demakdir, ya'ni jamiyat hayotida shaharcha yashash tarzining ortib borishi.

**Etnografiya-xalqlarning geografik tarqalishi** masalalarini etnografiya o'rganadi.

**Etnik demografiya** – aholi takror barpo bo'lishining etnik xususiyatlarini tadqiq etadi.

**Shahar aholisi** – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

**Qishloq aholisi** – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda - qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

**Go'daklar o'limi** – hayotining birinchi yilida sodir bo'lgan bolalar o'limi hodisasi.

**O'lim sabablari** – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

**Ko'chib kelganlar soni** – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan ko'chib kelishni statistik hisobga olish varaqalarini qayta ishslash natijasida aniqlanadi.

**Ko'chib ketganlar soni** – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududdan uning tashqarisiga ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatdan chiqarishda tuziladigan ko'chib ketishni statistik hisobga olish varaqalarini qayta ishslash natijasida aniqlanadi.

**Aholining migratsion o'sishi (farqi)** - hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar sonlari o'rtasidagi farqning absolyut miqdori.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Sh.Mirziyoev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birligida barpo etamiz. Toshkent-“O'zbekiston”-2016. 56 b.
2. Sh.Mirziyoev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent-“O'zbekiston”-2016. 488 b.
3. Sh.Mirziyoev Qonun ustivorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent-“O'zbekiston”-2016. 488 b.
4. Sh.Mirziyoev Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent-“O'zbekiston”-2017. 104 b.
5. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947 sonli Farmoni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning Oliy majlisiga murojaatnomasi. “O'zbekiston ovozi”-gazetasi. №08. 2020-yil, 25-yanvar.
7. O'zbekiston respublikasi davlat statistika qo'mitasi, O'zbekiston respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati.-2018 yil, yanvar-dekabr. Toshkent – 2019 y.
8. O'zbekiston respublikasi davlat statistika qo'mitasi, O'zbekiston respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati (demografik holat). 2020 yil. yanvar-dekabr. Toshkent – 2020 y.
9. Asanov G.R. Aholi geografiyasi. T.: O'qituvchi, 1978 yil.
10. Asanov G. Ijtimoiy iqtisodiy lug'at. Toshkent. “O'qituvchi” 1990 y.
11. Ata-Mirzayev O. Formirovanie gorodskoy seti Ferganskoy dolini. Materiali mejvuzovskoy nauchnoy konferentsii po problemam narodonaseleniya Sredney Azii. T., 1965
12. Ata-Mirzayev O., Goldfarb B. Perespektivi vosproizvodstva naseleniya Sredney Azii. «Nashe budushee glazami demografa». M.,1979, s.113-119.
13. Ata-Mirzayev O., Saliyev A. Urbanizasiya v regione. – Narodonaseleniya. M., 1985.
14. Ata-Mirzayev O.B. Mnogodetnaya jenshina. Sotsialno-demograficheskiy analiz. «Jenshini na rabote i doma». M., 1978.
15. A.A.Qayumov, Z.X.Rayimjonov, O'.Sh. Yakubov. Aholi geografiyasi va demografiyasi o'quv qo'llanma. Toshkent 2007. O'zDMU.87 b.
16. A. Sattorov. Aholi geografiyasi fandian ma'ruzalar matni. Termiz 2009. Institut.56.b.
17. Bo'riyeva M.R. O'zbekistonda oila demografiyasi. T.: O'qituvchi, 1997.
18. Bo'riyeva M. Demografiya asoslari. Toshkent. O'zMU. 2002 y. Ma'ruzalar matni.
19. Bo'riyeva M.R. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari (o'quv qo'llanma). Toshkent. 2006. O'zDMU. 130 b.
20. Bo'riyeva M.R.Oila va demografiya asoslari (ma'ruza matni) Toshkent-2001.
21. Bruk S. “Naselenie mira” Moskva “Nauka” 1980 g.
22. Dunyo mamlakatlari. Ma'lumotnoma. T. 2006 y.

23. Rayimjonov Z.X. Xalqaro migrasiya kecha va bugun // “Janubiy O’zbekistonda geografiya maktabining shakllanishi” Respublika ilmiy-amaliy konf. materiallari. Termiz, 2006, 95-96 b.
24. Salixov E.T. Xalq manfaatlariga xizmat qilish ustuvor vazifa. Xalq so’zi. gazetasi. 2020 yil. 30-iyun.
25. Kopilov V.A. Geografiya naseleniya. Moskva Misl -2000.
26. Kvasha A. “Chto takoe demografiya?” M. “Misl”. 1989 g.
27. Mo’minov D. «Aholi geografiyasi va demografiyasi asoslari» fanidan ma’ruzalar matni. Qo’qon – 2010. Institut. 77 b.
28. Norov. Sh.Sh. “Aholi geografiyasi va demografiyasi ” fanidan ma’ruzalar matni. Navoiy-2007. Institut. 34 b.
29. Nazarova X. Aholi migrasiyasida ayollarning roli. T.: O’qituvchi 1999 y.
30. Nestrux A. “Inson irqlari” T. “Fan” 1990 y.
31. X. Niyozov. Sotsial geografiya fanidan ma’ruzalar matni. Termiz 2007. Institut. 40 b.
32. G’apparov A. “Aholi geografiyasi va demografiya asoslari” fanidan ma’ruzalar matni. Jizzax – 2010. Institut. 76 b.
33. O’zbekiston aholisi va mehnat resurslari. T.: O’qituvchi 1991 y.
34. I. Jabborov. “Dunyo xalqlari etnografiyasi” T. 2007 y.
35. Internet sayt: www. WGEO. Ru.
36. www. geografiya. Ru.
37. [http://el.tfi.uz/pdf/ximumioq\\_uzl.pdf](http://el.tfi.uz/pdf/ximumioq_uzl.pdf)
38. <http://www.nuu.uz/faculties/geography/.uzl.pdf>.

## MUNDARIJA:

<b>Kirish.....</b>	<b>4</b>
<b>1 BOB. AHOLI GEOGRAFIYASI VA DEMOGRAFIYA ASOSLARINING PREDMETI VA VAZIFALARI .....</b>	<b>7</b>
1.1. Aholi geografiyasi iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning muhim tarmog'i ekanligi.....	7
1.2. Aholi geografiyasining boshqa fanlar bilan aloqasi.....	11
1.3. Aholi geografiyasining tarkib topishi va rivojlanishi.....	14
1.4. Demografiya fanining paydo bo'lishi .....	17
1.5. Demografiya statistikasi.....	27
1.6. Aholi qonunlari va nazariyalari.....	31
1.7. Aholi geografiyasi va demografiya asoslarining tadqiqot usullari.....	34
<b>2 BOB. AHOLINING DEMOIJTIMOIY HARAKATLARI.....</b>	<b>38</b>
2.1. Aholining jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati.....	38
2.2. Aholini hisobga olish, aholi ro'yxatlari.....	46
2.3. Aholini takror barpo qilinish masalalari.....	47
2.4. Ekologik omilning demografik jarayonlarga ta'siri.....	54
2.5. Demografik koeffisientlar.....	56
2.6. Aholi migrasiyasi.....	59
2.7. Oilaning demografik taraqqiyoti.....	66
2.8. Aholining demografik tarkibi.....	71
<b>3 BOB. AHOLINING ETNIK VA IJTIMOIY TARKIBI.....</b>	<b>75</b>
3.1. Aholining irqiy tarkibi.....	75
3.2. Aholining etnik umumiyliklari.....	76
3.3. Aholining diniy tarkibi.....	81
3.4. Aholining ijtimoiy tarkibi.....	86
3.5. Markaziy Osiyo aholisining geografik va demografik xususiyatlari.....	92
3.6. Dunyo xalqlari klassifikasiyasi.....	96
<b>4 BOB. MEHNAT RESURSLARI VA ULARDAN FOYDALANISH.....</b>	<b>106</b>
4.1. Mehnat resurslari va ularning tarkibi.....	106
4.2. Demografik jarayonlar va mehnat resurslarining shakllanishi.....	109
4.3. Aholining yosh-jins tarkibi va mehnat resurslarining shakllanishi.....	113
<b>5 BOB. AHOLINING JOYLASHUVI VA UNING GEOGRAFIK SHAKLLARI.....</b>	<b>115</b>
5.1. Aholining hududiy taqsimlanishi va zichligi.....	115
5.2. Aholining dunyo hududlari bo'ylab joylashuvi .....	116
5.3. Aholi joylashuvining geografik shakllari.....	126
5.4. Aholining shahar bilan qishloq o'rtaSIDA taqsimlanishi.....	128
<b>6 BOB. AHOLI RIVOJLANISHINING QONUNIYATLARI.....</b>	<b>132</b>
6.1. Demografik siyosat.....	132
6.2. Demografik bashorat.....	135
Glossariy.....	138
Foydalanilgan adabiyotlar.....	142

## ОГЛАВЛЕНИЕ:

<b>Введение.....</b>	<b>4</b>
<b>1 Глава. Предмет и задачи географии населения и основы демографии.....</b>	<b>7</b>
<b>1.1.География населения как основная отрасль экономической и социальной географии.....</b>	<b>7</b>
<b>1.2. Взаимоотношение географии населения с другими предметами.....</b>	<b>11</b>
<b>1.3. Формирование и развитие географии населения.....</b>	<b>14</b>
<b>1.4. Возрождение предмета демографии.....</b>	<b>17</b>
<b>1.5. Демографическая статистика.....</b>	<b>27</b>
<b>1.6. Законы и закономерности населения.....</b>	<b>31</b>
<b>1.7. Методы исследования география населения и демографии.....</b>	<b>34</b>
<b>2 Глава. Демографическое и социальное движение населения.....</b>	<b>38</b>
<b>2.1. Значение населения в развитии общества.....</b>	<b>38</b>
<b>2.2. Учёт населения, список населения.....</b>	<b>46</b>
<b>2.3. Основы воспроизводства населения.....</b>	<b>47</b>
<b>2.4. Воздействие экологических факторов на демографические процессы.....</b>	<b>54</b>
<b>2.5. Коэффициенты демографии.....</b>	<b>56</b>
<b>2.6. Миграция населения.....</b>	<b>59</b>
<b>2.7. Демографическое развитие семьи .....</b>	<b>66</b>
<b>2.8. Демографический состав населения.....</b>	<b>71</b>
<b>3 Глава. Этнический и социальный состав населения.....</b>	<b>75</b>
<b>3.1. Расовый состав населения.....</b>	<b>75</b>
<b>3.2. Этническая общность населения.....</b>	<b>76</b>
<b>3.3. Религиозный состав населения.....</b>	<b>81</b>
<b>3.4. Социальный состав населения.....</b>	<b>86</b>
<b>3.5.Географическая и демографическая особенность населения Центральной Азии.....</b>	<b>92</b>
<b>3.6. Классификация народов мира.....</b>	<b>96</b>
<b>4 Глава. Трудовые ресурсы и их использование .....</b>	<b>106</b>
<b>4.1.Трудовые ресурсы и их состав .....</b>	<b>106</b>
<b>4.2. Демографические процессы и формирование трудовых ресурсов.....</b>	<b>109</b>
<b>4.3. Возрастной-половой состав населения и формирование трудовых ресурсов .....</b>	<b>113</b>
<b>5 Глава. Размещение населения и её географические формы.....</b>	<b>115</b>
<b>5.1. Региональное распределение и плотность населения.....</b>	<b>115</b>
<b>5.2. Размещение населения в регионах мира.....</b>	<b>116</b>
<b>5.3. Географические формы размещения населения.....</b>	<b>126</b>
<b>5.4. Распределение населения по городам и селам.....</b>	<b>128</b>
<b>6 Глава. Закономерности развития населения.....</b>	<b>132</b>
<b>6.1. Демографическая политика.....</b>	<b>132</b>
<b>6.2. Демографический прогноз.....</b>	<b>135</b>
<b>Глоссарий.....</b>	<b>138</b>
<b>Использованная литература.....</b>	<b>142</b>

## CONTENTS:

<b>Introduction.....</b>	<b>4</b>
<b><u>Chapter 1.</u> Subject and tasks of population geography and demography basics .</b>	<b>7</b>
<b>1.1.The geography of the population as the main branch of economics and social.....</b>	<b>7</b>
<b>1.2.The relationship of population geography with other subjects .....</b>	<b>11</b>
<b>1.3. The formation and development of the geography of the population.....</b>	<b>14</b>
<b>1.4.Revival of the subject demographics .....</b>	<b>17</b>
<b>1.5 Demographic statistics .....</b>	<b>27</b>
<b>1.6. Laws and patterns of population .....</b>	<b>31</b>
<b>1.7. Methods of study of population geography and demography .....</b>	<b>34</b>
<b><u>Chapter 2 .</u> Demographic and social movement of the population .....</b>	<b>38</b>
<b>2.1. The value of the population in the development of society .....</b>	<b>38</b>
<b>2.2. Population count, the list of people .....</b>	<b>46</b>
<b>2.3. Basics of reproduction .....</b>	<b>47</b>
<b>2.4. The impact of environmental factors in demographic processes .....</b>	<b>54</b>
<b>2.5. Odds demographics .....</b>	<b>56</b>
<b>2.6.Population migration.....</b>	<b>59</b>
<b>2.7. The demographic development of a family.....</b>	<b>66</b>
<b>2.8.The demographic composition of the population .....</b>	<b>71</b>
<b><u>Chapter 3.</u> Ethnic and social composition of the population .....</b>	<b>75</b>
<b>3.1. The racial makeup of the .....</b>	<b>75</b>
<b>3.2. Ethnic community population .....</b>	<b>76</b>
<b>3.3. The religious composition of the population .....</b>	<b>81</b>
<b>3.4. The social composition of the population .....</b>	<b>86</b>
<b>3.5. Geographic and demographic characteristics of the population of Central Asia.....</b>	<b>92</b>
<b>3.6. Classification of the world .....</b>	<b>96</b>
<b><u>Chapter 4.</u> Human resources and their use .....</b>	<b>106</b>
<b>4.1. Labor resources and their composition .....</b>	<b>106</b>
<b>4.2 . Demographic processes and the formation of human resources .....</b>	<b>109</b>
<b>4.3. Age-sex structure of the population and the formation of human resources .....</b>	<b>113</b>
<b><u>Chapter 5.</u> Distribution of the population and its geographical shape .....</b>	<b>115</b>
<b>5.1. Regional distribution and population density .....</b>	<b>115</b>
<b>5.2. Distribution of the population in the regions of the world .....</b>	<b>116</b>
<b>5.3. Geographical distribution of the population forms .....</b>	<b>126</b>
<b>5.4. The distribution of the population in cities and villages .....</b>	<b>128</b>
<b><u>Chapter 6.</u> Patterns of population development .....</b>	<b>132</b>
<b>6.1. Population policy .....</b>	<b>132</b>
<b>6.2. Demographic projection .....</b>	<b>135</b>
<b>Glossaris.....</b>	<b>138</b>
<b>References .....</b>	<b>142</b>

**XIDIRALIYEV K.E.**

**AHOLI GEOGRAFIYASI VA DEMOGRAFIYA ASOSLARI**

**Toshkent-2021**

Muharrir:

Tex. muharrir:

Musavvir:

Musahhiha:

Kompyuterda teruvchi va sahifalovchi:

Nashr.lits.      Bosishga ruxsat etildi

Bichimi   garniturasi

Offset usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i

Nashr bosma tabog'i   Tiraji   Buyurtma



Xidiraliyev Komil Esanovich-geografiya fanlari nomzodi, Guliston Davlat universitetining Umumiy ekologiya va geografiya kafedrasi dotsenti. 70 ortiq ilmiy ishlar, jumladan, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani yo'nalishida 30 dan ortiq o'quv uslubiy majmualar, 1 o'quv qo'llanma, 1 darslik muallifi.